

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



2022
DEKABR
№47



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
7-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-7**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-7**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 46-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 149 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Мухаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

1. Абдурахимова Феруза СЎЗЛАРНИНГ ИЧКИ ШАКЛИ ҲАҚИДА ОЛИМЛАРНИНГ ҚАРАШЛАРИ.....	10
2. Нилуфар Турсунбаевна МАЪНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАР.....	14
3. Юсупов Ойбек Нематжонович КОНЦЕПТ, ИНТЕРТЕКСТУАЛЛИК ВА БАДИЙ ТАРЖИМА	18
4. Abdullajonova Namuna AL-FARGONIYNING MATEMATIKA FANIGA QO'SHGAN HISSASI	20
5. Abdurahimova Dilnoza INGLIZ TILI DARSLARIDA TIL O'YINLARI. O'YINLAR VA MASHQLAR.....	21
6. Allaberganova Muhayyo, Xudayberganova Go'zal NEMIS TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI.....	22
7. Bektasheva Gulshod Juraqulovna, Adizova Maftuna Rahim qiza O'QUVCHILAR OG'ZAKI VA YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI.....	24
8. Bozorova Fazilat Abdulla qizi INGLIZ TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY " ONLINE WHITEBOARD" TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	26
9. Bozorova Gulnoza Axatovna BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING O'ZAKI VA YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISH	28
10. Daminova Dildora Abdusamatovna O'ZBEK TILI FANINI O'QITISHDA O'QUVCHILARNING YOZMA NUTQ MALAKASINI OSHIRISH USULLARINING AHAMIYATI.....	30
11. Dehqonova Nilufar RUS ADABIYOTI TARIXIDAGI DASTLABKI REALISTIK ROMANNING MUALLIFI KIM?	32
12. Dolimova Munira Meliqo'ziyevna, BOSHLANG'ICH MAKTABDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	33
13. Ikromova Ziyada Islomovna, Islomov Normurod Rizaqulovich ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA ERTAKLARNI O'RGANISH.....	34
14. Жуманиязова Санобар, Холбоева Барно РУС ТИЛИ ДАРСЛАРИ ЖАРАЁНИДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАРНИ ҚЎЛЛАШ.....	36
15. Mamadaliyeva Odina INGLIZ TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INNOVATION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	38
16. Mamajonova Dildora STOL TENNISINING RIVOJLANISH TARIXI.....	39
17. Maxsudova Xolisxon Ummatovna ERGONOMIYALARNING FUNKSIYALARI ULARNING TASFONLASH XUSUSIYATLARI BO'YICHA.	40
19. Nasimova Nargiza ODOB AXLOQ – INSON ZIYNATI	44
19. Pirmanova Aziza Xolmurot qizi ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'QUVCHILAR ILMIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH	45
20. Polvonniyozova sohiba "ÓTRIKTIŇ ÓMIRI QISQA" R.GAMZATOVTIŇ ÓMIRI HÁM DÓRETIWSHILIGI	47

21. Qurboniyozova Shahnoza Xalillayevna O'TKIR HOSHIMOVNING HAYOTI VA IJODI OCHIQ DARS ISHLANMASI.....	48
22. Боймуратова Сабохат, Яхшимова Лобар ЧЕТ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ИННОВАЦИОН ҲОЯЛАР ХАМДА ХАЛҚАРО ТАЖРИБАЛАР.....	49
23. Tursunova Marvaridxon RUS ADABIY TILI TARIXI ILMIY FAN VA O'QUV PREDMETI SIFATIDA.....	51
24. Usarova Dilafruz Saloxiddinova ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'QUVCHILAR ONGIGA MILLIY-MA'NAVIY QADRIYATLARNI SINGDIRISH.....	52
25. Zokirova Shaxzoda KIMYO FANINING SANOATDAGI AHAMIYATI.....	54
26. Ashurova Hurriyat G'ayrat qizi ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARGA ILG'OR PEDAGOGIK METODLARNI QO'LLASH.....	55
27. Dadaboyev Yahyo BADMINTON SPORT TURNING RIVOJLANISH TARIXI.....	57
28. G'oyibnazarova Mahliyo Umurzoqovna ONA TILI DARSLARINI O'QITISH METODLARI VA USULLARI.....	58
29. Magzumova Olima Xusanboyevna O'ZBEK TILI DARSLARIDA GRAMMATIK MAVZULARNI O'TISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARGA YECHIMLAR.....	60
30. Maxsudova Xolisxon Ummatovna TERMINLAR- FAN TILIDAGI EPONIMLAR.....	62
31. Mirzayeva Fotima Xolmurodovna ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KASB- HUNARGA YO'NALTIRISH.....	65
32. Munosimova Dilshoda Ma'miraliyevna AL-XORAZMIYNING MATEMATIKA FANIGA QO'SHGAN HISSASI.....	67
33. Nurmatova Maxzuma Shuhratjonovna AL-XORAZMIY MEROSIGA QIZIQISH.....	68
34. Ollaberganova Feruza Boltayevna ONA TILI DARSLARINI INNOVATSION METODLAR YORDAMIDA TASHKIL ETISH USULLARI.....	69
35. Ortiqova Nilufar Abdusattorovnaa AL-XORAZMIY VA ALGEBRA.....	71
36. Rajabov Arslonbek O'ktamboy o'g'li, Matyaqubova Martaba Ismailovna INGLIZ TILIDA OLMOSHLARNING UMUMIY KLASSIFIKATSIYASI.....	72
37. Safarova Mehriniso ONA TILI DARSLARIDA HIKMATLI SO'Z, MAQOL VA MATALLARDAN FOYDALANISH USULLARI.....	73
38. Samijonova Muattar Olimjonovna O'ZBEK TILIDA ADABIY TILNING OG'ZAKI FORMASI.....	75
39. Shahnoza Umarova EDUCATIONAL STRATEGIES IN ORGANIZING ENGLISH LESSONS.....	76
40. Xalmuratova Nasiba Egamberganovna, Atajanova Yulduz Salayevna INGLIZ TILI DARSLARDA IJODIY JAMOA METODI.....	78
41. Xoldarova Shohida BIOLOGIYA FANINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	80
42. Бекчанова Шахло Зариповна, Ахметова Мухайё ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИКТ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ.....	81
43. Боймуродова Мусаффо Рахматуллаевна, Ахмадиева Зарина Мансуровна ПОНЯТИЕ ЖАРГОН.....	83
44. Кличева Лола Абдумажитовна ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАС- САХ.....	84

45. Ширина Зиёвуддин кизи Ташпулатова ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА РУҲИЙ ҲОЛАТ ФЕЪЛЛАРИ ТАРЖИМАСИДАГИ МУАММОЛАР	86
46. Тураева Садокат Алимбаевна ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕСТОИМЕНЕЙ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ	89
47. Эшпулатова Ирода Эшназаровна ОБ ИСПОЛЬЗОВАНИИ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ИССЛЕДОВАНИИ СВОЙСТВ ФУНКЦИЙ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ШКОЛЬНОГО КУРСА МАТЕМАТИКИ	91
48. Юсупова Татьяна Эдуардовна СПЕЦИФИКА ЛЕКСИКИ ЯЗЫКА ХОРЕЗМСКОЙ НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЫ	93
49. Юсупов Ойбек Нематжонович ТАРЖИМАДА АДАПТАЦИЯ	95
50. Baxtiyeva Dinora, Atajanova Iqlima, Nurlayeva Shabnam INGLIZ VA O'ZBEK IBORALARIDAGI FARQLI VA O'XSHASH JIHATLAR	98
51. Akramova Zarina Faxritdinovna INGLIZ TILINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	100
52. Turayeva Sadoqat Alimbayevna, Botirova Dilfuza Shuxratovna ONA TILI DARSLARIDA YUKLAMALARNING O'QITILISHI	101
53. Ishchanova Nafisa Atajanovna, Qo'shnazarova Gulandom Tojiboyevna KISHILIK OLMOSHLARINI O'RGATISH METODIKASI	103
54. Dilorom Turayeva Alimboyevna, Qodirova Ro'za Qadamboy qizi ABDULHAMID CHO'LPON – KO'P QIRRALI IJODKOR SIFATIDA	105
55. Mustafoyeva Nigora Nurullayevna, Quvondiqova Malika Zokir qizi ABDULLA QAHNORNING "O'G'RI" HIKOYASIDAGI AYRIM SINTAGMATIK XUSUSIYATLAR	107
56. Norbayeva Umida, Nematjonova Yulduzxon, Karimova Gulyor FRANSUZ TILIDAGI FONOSTILISTIK USLUBLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	109
57. Komilova Shahnoza, Ortiqova Guliston RUS TILINI O'RGANISHDA TA'LIM METODLARINING AHAMIYATI	111
58. Сайфиева Тожино, Ражабова Шахноза “ФЕЪЛ” МАВЗУСИНИ ЎҚИТИШДА СИНЕКТИКА УСУЛИДАН ФОЙДАЛАНИШ	112
59. Мухаммад Чўтпўлатов ГЕНДЕР ТИЛШУНОСЛИГИДА РАНГНИНГ АССОЦИАТИВ ТАСНИФИ	114
60. Eshchanova Farida Egamberganovna, Boltayeva Shoxista Toxirjanovna ZULFIYA SHE'RLARIDA UMUMINSONIY G'OYALAR	117
61. Ganjayeve Hilola Komil qizi, Ganjayeve Inomjon Komiljon o'g'li RUS TILI FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN SAMARALI FOYDALANISH	119
62. Haqnazarova Obida Mamarajabovna TA'LIMDA ZAMONAVIY AXBOROT VOSITALARINING O'RNI	121
63. Muhiddinova Munira Muhiddinovna WHY DO WE NEED MULTIMEDIA IN ENGLISH LESSONS?	123
64. Nishonova Tamanno Abdupattoyevna, Solijonova Zebuniso Abduvoxid qizi MOTIVATIONAL STRATEGIES IN TEACHING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE	125
65. Parizod Nomonzoda Azamjon qizi, Shahlo Tillabayeva Hasanboyevna ONA TILI VA ADABIYOT FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALAR	127
66. Qalandarova Shoira Umidjon qizi, Soporboyeva Mardona Murodjonovna O'QUVCHILAR BILIMINI NAZORAT QILISHDA DIKTANT VA UNING TURLARI	129
67. Raximova Xilola Azamatovna O'ZBEK TILI DARSLARIDA METODIK USULLARDAN FOYDALANISH	131

68. Toxirova Nozima Alijon kyzy, Taptiyeva Moxinur Ulugbek kyzy MULTIMEDIA EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN ENGLISH LANGUAGE LESSONS	133
69. Ziyabidinova Ra'noxon Mamitaliyevna E'L SO'Z TURKUMI.O'QUVCHILARGA SHAXS-SON QO'SHIMCHALARI USLUBIYATI MAVZUSINI O'RGATISH YUZASIDAN MULOHAZALAR	135
70. Ахмат-Охунова Шахноза Игоревна МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОБУЧЕНИЯ ИЗЛОЖЕНИЯ И СОЧИНЕНИЯ	137
71. Нарматова Нодира Куранбай кизи ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИЧИНЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ТРУДНОСТЕЙ ПРИ ИЗУЧЕ- НИИ МЛАДШИМИ ШКОЛЬНИКАМИ ГРАММАТИЧЕСКИХ ПОНЯТИЙ.....	138
72. Усманова Севара Салимжановна TEACHING LISTENING AND SPEAKING THROUGH MUSIC	140
73. Sobirova Dildora Bekturdi qizi, Jumaboyeva Munisxon Sheripboy qizi ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION VA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH	142
74. Isroilova Shaxnoza Islambayevna ROLE OF ICT IN THE IMPROVEMENT OF LEARNING ENGLISH LANGUAGE.....	144
75. Saidova Shahnoza Baxtiyarovna, Karimova Nilufar O'QUV-TARBIYA JARAYONIDA KICHIK YOSHDAGI O'QUVCHILARDA AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI	145
76. Samandarova Munajat Qahramon qizi TARBIYA JARAYONIDA O'QUVCHI SHAXSINI RIVOJLANTIRISH	147



ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

СЎЗЛАРНИНГ ИЧКИ ШАКЛИ ҲАҚИДА ОЛИМЛАРНИНГ ҚАРАШЛАРИ

Абдурахимова Феруза
ФарДУ таянч докторанти

АННАТАЦИЯ

Ушбу мақолада сўз ясалишида сўзнинг "ички форма" сининг тутган ўрни ҳақида олимларнинг қарашлари тасвирланган. Жаҳон тилшунослигида олим ва тадқиқотчилар сўзнинг "ички формаси" га берган таърифлари ва сўз ясалишида унинг ўрни ҳақида мисоллар орқали тушунтириб берилган.

Калит сўзлар: ички форма, хосила, мотив, дервация, субъект, объект, этимологик
АННАТАЦИЯ

В статье изложены взгляды ученых на роль «внутренней формы» слова в словообразовании. В мировой лингвистике ученые и исследователи объяснили определение слова его «внутренней формой» и привели примеры его роли в словообразовании.

Ключевые слова: внутренняя форма, произведение, мотив, происхождение, предмет, предмет, этимология.

ANNATATION

This article describes the views of scholars on the role of the “internal form” of a word in word formation. In world linguistics, scholars and researchers have explained the definition of the word to its “inner form” and given examples of its role in word formation.

Key words: internal form, product, motive, derivation, subject, object, etymology

Ташки оламда мавжуд бўлган нарсаларнинг номлашда ҳар бир тил ўз имкониятларини, миллий хусусиятларини, инсонларнинг тушуниш онгини ҳисобга олган ҳолда мавжуд бўлади ва бу ўз ўрнида тилнинг ички маъноси ва мазмун моҳияти билан ҳамма вақт боғлиқдир. Тилнинг ички маъноси қадимги тилшуносликдан ўрганилиб, тилнинг ҳозирга қадар ўрганилаётган жабҳаси ҳисобланади.

В.Гумбольдт немис файласуфи И.Кант каби онгни, руҳни алоҳида мавжуд бўлган ибтидо деб билади ва уни объектив мавжуд бўлган моддий табиатга боғлиқ бўлмаган ҳодиса деб изоҳлайди. Шу таълимотдан келиб чиқиб, у тилни руҳнинг бутун мажмуидан иборат деб, таърифлайди ва тил руҳга хос бўлган қонунлар асосида ривожланади деб, билади. Унинг фикрича, тилда халқнинг маънавий қиёфасини акс эттирадиган маълум бир дунёқараш ифодаланади. Бошқа тилни ўрганиш билан гўё дунёқараш ҳам ўзгаради. Гумбольдт тилнинг "ички форма"си таълимотида тилни халқнинг руҳига боғлиқ эканлигини таъкидлайди. Яъни ички форма халқ руҳининг ифодаси сифатида сўзлар орқали ифодаланишидир. Гумбольдтнинг талқинига мувофиқ- халқнинг тилини унинг руҳи билан, тили эса халқ руҳи билан боғлиқдир. Гумбольдтнинг ички форма таълимотидаги камчилиги, у ички формани фақатгина миллий руҳ, халқ руҳи ва мутлақ ғоя билан боғлаганлигидир. У тилни миллатнинг тарихий ривожланишдаги шарт-шароитлар билан, халқ тарихи билан, тилни яратувчи, уни ташувчи ва фойдаланувчилар билан биргаликда тушунтирмайди. Шуни таъкидлаш жоизки, Гумбольдт ўз таълимотлари, ғоялари орқали XIX ва XX аср тилшунослигига ўзининг беқиёс ҳиссасини қўшган. Гумбольдт тилнинг "ички формаси" ҳақидаги таълимотга асос солди. "Ички форма" халқнинг руҳини ифодалаб қолмай, балки сўз ясалиши, шаклланишида ҳам муҳим ўрин тутди.¹

Гумбольдтнинг илмий меросидан ўрин олган ва сўз ясалиши билан бевосита боғлиқ бўлган назарий тушунчалардан яна бири, «ички форма»дир.

В.А.Звегинцевнинг ёзишича, «Гумбольдт ички формани ички аналогия билан боғлиқ

1 Расулов Р.Умумий тилшунослик. 1-қисм.-Т.,2013. 81-бет



ҳолда, яъни унинг моҳиятини очиш мақсадида қўллагани боис унга аниқ бир таъриф бермаган».¹ Т. Бушуй ва Ш. Сафаровларнинг фикрларига кўра, ички форма «Хумбольдт таълимотидаги марказий ғоялар қаторидан ўрин олмайди, ички шакл сўз бирикмасининг ўзи ҳам унинг охириги ишларида учрайди».²

Мазмуний майдон атамасини ҳар хил тарзда изоҳлашларига қарамай, у семасиологик тадқиқотлар асоси бўлган "Тилнинг ички шакли"ни тушунишда тилни ҳар томонлама ва турлича муносабатларда ўрганишлари билан бирлаштириш мумкин. Гумбольдтнинг "ички шакл" таълимоти Л.Вайсгербер ва Трир тушунчавий моҳияти жиҳатида, Г.Ипсен ва В.Порциг сўзларининг мазмуний гуруҳи ҳамда системаси томонидан, Ф.Дорнзайф ва Вартбург эса тилининг луғат таркибига хос предметлилик ва тушунчалар гуруҳи нуктаи назаридан ривожлантирдилар. (Нурмонов 52 бет)

Усмонов С. нинг таъкидлашича, ички форма предметнинг у ёки бу белгисини ном қўйиш учун дастлабки образ сифатида танлаш ўша предметга ҳар қандай халқнинг қандай ёндашишига боғлиқ, шунинг учун "ички форма" турли тилларда гоҳ муштарак, гоҳ фарқли бўлади.³ Баъзан эса бир тилнинг ўзида шевалараро атама асосида ётган сўзнинг "ички формаси" ҳар хил бўлиши мумкин. Ўзбек тилида *"летучая мышь"* маъносида иккита сўз ишлатилди: бири *кўршапалак* (тожик тилида *шабпарак*), иккинчиси *ёрқанот* (шевада қўлланилади.) Масалан, А.Қаҳҳорнинг "Қўшчинор чироқлари" асарида Хўроздан *"тонг отишини нимадан биласан"* деб сўралса, *"ёрқанотнинг чийиллаганидан биламан"* деган экан жумласида *кўршапалак* ўрнида *ёрқанот* сўзи қўлланилган. Бу икки сўзнинг "ички формаси" ҳақида гапирадиган бўлсак, улар бир-биридан фарқ қилади. *Ёрқанот* сўзининг "ички форма"си *"парда қанот"* дегани, *кўршапалак* сўзиники ундан мураккаброкдир, *кўршаб-пар-ак* қисмларидан тузилган. Биринчи қисм *"сўқир"* маъносини, иккинчи қисм (*шаб* ёки *шап*) тожикча тун маъносини, учинчи қисм *пар* тожик тилидан *паридан* *"учмоқ"* деган маънони ва унга *-чи* маъносини билдирувчи *-ак* қўшимчаси қўшилган. Демак *кўршапалак* сўзининг маъноси *"кечаси учадиган кўр"* маъноси ифодаланади.⁴ Бундан келиб чиқиб шевалардаги сўзлар турлича бўлиб қолмай, уларнинг "ички форма"си ҳам турлича маъно касб этар экан.

"Ички форма" сўз ясалишида муҳим аҳамиятга эга. У ясама сўзларда яққол намоён бўлади, лекин туб сўзларда борлиги билинмайди. Масалан, киши сўзининг *"одам"*, *"ҳар бир одам"*, *"эркак"*, *"хизматкор"*, *"хотин"* каби бир неча маънолари бор. Бундан келиб чиқадики киши ёки шу каби туб сўзларнинг "ички форма"си нолга тенг, у товуш томони билан тушунчадан иборат. Туб сўзнинг олдинги маъноси А.А.Потебнянинг фикрича, кейинги маънога нисбатан "ички форма" деб ҳисобланади.⁵

А.А.Потебня томонидан олиб борилган изланишлар натижасида сўзнинг "ички формаси" атамаси янада ривож топди. Олимнинг таърифлашича, "ички форма" сўзнинг энг муҳим хусусиятларидан бири бўлиб у аввало сўзни тушуниш имконини беради. Шунинг учун "ички маъно" "сўзнинг этимологик" маъноси ёки сўзнинг "энг яқин этимологик маъноси" сифатида қаралади. У туб ва ясама сўзлар семантик структурасини ички форма лингвопсихологик асос бўлиб хизмат қилишини аниқлади. У ички формани - руҳий фаолият - маъно узвуйлигини кўрсатувчи восита эканлигини кўрсатиб берди. Унинг фикрига кўра, инсон борлиқдаги нарса ва ҳодисаларни кузатиб маълумот тўплайди ҳамда ушбу маълумотларни аввалги тўпланган билим ва тажрибаларга таянган ҳолда қайта ишлаш билан биргаликда янгидан-янги бирликларни ҳосил қилади. Потебнянинг фикрича бундай мураккаб лингвопсихологик жараён сўз ясалишида кузатилади. Унинг таъкидлашича, "Муайян сўздан бошқа сўз ясалганда асосдаги маъно компонентларидан бири ҳосила учун ички форма вазифасини ўтайди. Масалан, язвит (оғритмоқ, азобламоқ) ясамаси учун язва асосидаги (оғрик) белгиси ички форма вазифасини бажаради".⁶ Бундан шуни таъкидлаш

1 Звезгинцев В.А. «Внутренняя форма» и лексическое значение слова // Семасиология. –М., 1957. –С.186.

2 Бушуй Т., Сафаров Ш. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси -Т., 2007. 195-бет.

3 Усмонов С. Умумий тилшунослик.-Т.,1972. 129 бет

4 Усмонов С. кўрсатилган асар. 130 бет

5 Усмонов С. кўрсатилган асар. 132 бет

6 Потебня А.А. Язык чувства и язык мысли // Хрестоматия по истории русского



мумкинки, инсон ҳаётда сўзларни тўғри қўллашида ҳаёти давомида тўплаган билим ва тажрибаларига таянади. Бу билан у ўз билимини такомиллаштиради ва тажриба тўплайди ва тил ривожига ўз хиссасини қўшади. Потребня А.А.нинг изланишларида у сўзнинг объектив ва субъектив маъноларини фарқлайди. "Субъекти маъно" икки киши нутқида бир хил сўзнинг моҳияти турлича тушунилиши назарада тутса, сўзнинг "Объектив маъноси" да кишиларда маъно англашда умумийлик намоён бўлишини англатади. Бошқача қилиб айтганда сўзнинг "объектив маъноси" унинг халқчиллигидадир. Сўзларни инсонлар орасида осонликча тушунилишидир. "Субъектив маъно" эса сўзнинг "келажак маъноси"дир, ҳар бир шахс муайян нарсани ўзича идрок этиши натижасида сўзнинг белгилар миқдори, сифатини кўрсатувчи хусусийликлар орқали акс этишидир.¹

Бундан келиб чиқиб, ясама сўзларни ҳосил қилишда объектив маъноли сўзлар қўллansa ҳам, сўз ясалгандан сўнг у субъектив маънога эга бўлади. Бошқача қилиб айтганда, сўз ясалишида асос вазифасини объектив маъноли бирликлар бажарса ҳам, ясалиш жараёнида у субъектив маънога эга бўлади. Сўз ясалиш жараёнини юзага чиқиши ижтимоий асосли аналогик тамойилларга асосланса ҳам, унинг ижрочиси субъект ҳисобланади. Шу сабабли, ясалган сўзлар қандай усулда ёки моделда ясалишидан қатъий назар, у ички формаси орқали ноодатийлиги билан фарқланади. Тилнинг узуал меъёрлари асосида ҳосил бўлган ҳар қандай янги сўз муайян вақт оралиғида "идиоматизацияга учраши, мазмун яхлитланиши" натижасида "лисонийлашиш ва жамият аъзолари учун таёёр сўзга айланиш" босқичини ўтайди.² Бу босқичдан ўтган ясама сўзлар объектив маънога эга бўлиб жамият ҳаётида ва луғатларда ўз ўрнини эгаллайди. Сўзнинг "ички форма"си мавжуд янги сўз ясалган, аммо бу сўзнинг маъноси ҳаммага ҳам тушунарли эмас, унинг нима англатиши турлича талқин қилиниши мумкин. Масалан, найкамалак, роҳатли лукум, шайтон устара, ... ва ҳаказо. Бундай сўзлар ёзувчилар томонидан моҳирона ишлатилган, бу эса "ички форма"ни мавжудлиги реал маъно мавжуд эканлигини кўрсатмайди. Реал маъно жамиятнинг ижодидир. Қачонки у кўпчилик орасида тушунарли бўлсагина уни мавжуд деб ҳисоблаш мумкин. Неологизмларни индивидлар яратади ва сўзга "ички маъно"ни беради, қачонки улар оммага тушунарли бўлса, шунда у реал маънога эга бўлади.³

Потребнянинг фикрича, сўзнинг "ички форма" си фикрнинг онг билан муносабатидир, у инсон ўз фикрини намоён этганда акс этади. Бу эса ўз навбатида, нима учун бир тилда битта предметни кўрсатиш учун бир неча сўзлар ишлатилишини ёки аксинча бир сўз турли маъноларда қўлланишини кўрсатади. Шунингдек, А.А.Потребня инсон фақатгина кузатиш натижасида оламни иникос қилмайди, у қиёслаш орқали ҳам идрок қилиши мумкин. Бундан келиб чиқиб, у "ички форма"ни муайян бир нарсга орқали вужудга келадиган ҳиссий образнинг ички қиёси ҳамда борлиқдаги объектни ўзаро қиёси орқали вужудга келувчи маъно белгиси, деб ҳам таъриф беради.⁴

Агар сўзларнинг маъносини тушунишни "сўзнинг ички форма"си билан боғлайдиган бўлсак, унда шуни таъкидлаш мумкинки, "сўзнинг ички форма"си миллат руҳини акс эттиради. Айнан мана шу йўналишда немис тадқиқотчиси Л.Вейсгербер ўз изланишларини олиб борган.⁵

Бундан келиб чиқиб, "ички форма" нафақат сўз ясалиши билан боғлиқ тушунча, балки у маъно ясалишида ҳам билим қўникмалар орқали намоён бўлувчи ясовчи восита эканлигини кўришимиз мумкин. Шу сабабли, "ички форма" образлар образини ифода этади ва луғавий бирликларнинг семантик деривациясини ўз ичига олади.

В.А.Звегенцевнинг ишларида "ички форма" ясама сўзларнинг ички мотивацияси билан боғланган ҳолда ўрганилади. Унинг фикрича, "ички форма" этимологик маъноси

языкознания. -М.,1973.-С.211.

1 Потребня А.А.Из записок по русской грамматике//Хрестоматия по истории русского языкознания.- М.,1973.-с.216-219.

2 Нейматов Х. Сўз ясалиши қолипи, ясалган ва ясама сўз хусусида//Ўзбек тили ва адабиёти.2007.№1.16 б.

3 Усмонов С. кўрсатилган асар. 133-134 бетлар

4 Потребня А.А.Представление и значение // Хрестоматия по истории русского языкознания.- М.,1973.-с.214-215.

5 Звегинцев В.А. "Внутренняя форма" и лексическое знание слова // Семасиология. -М., 1957. -с 190



жихатдан ўрганилган тақдирда ҳам, нарса ҳақидаги тасаввур, образ билан боғлаб қаралса ҳам, сўзнинг семантик мотивацияси билан боғланган бўлади. "Ички форма" туб моҳияти жихатидан тушунчанинг сўзда ифодаланишига бориб тақалади ва лингвистик объектда сўз ҳосил қилишда кузатиш мумкин.¹

Сўз ясаиш тизими асос ва ҳосила мавжуд бўлган жараёндир. Шу жараён асосга хос қайси компонент ясама сўзнинг "ички форма" вазифасини бажаришини кўрсатиб беради. Бу омил турли тилларда муштарак бўлса ҳам, бироқ асос сўзга хос семантик компонентларнинг қай бири "ички форма" сифатида танланиши тилнинг миллий хусусиятига ва ҳар бир шахснинг дунёқарашига боғлиқ бўлади. Бундай тафовутга В.А.Звегинцев қуйидагича мисол келтиради, рус тилидаги "подснежник" (бойчечак) сўзининг ясаиши орқали қиёслаб кўрсатилади. Бойчечак сўзи француз тилида *perseneige* "қорни тешиб чиқувчи", инглиз тилида *snowdrop* "қор томчиси", немис тилида *schneeg lockchen* "қор қўнғироқчаси" каби "ички форма" лар тилларда маънолари турлича ифодаланишини кўрсатади.²

Баъзан ясама сўзларда кўчма маънодаги асос ҳосила учун "ички форма" вазифасини бажариши мумкин. Масалан, *шерланиб кетди* иборасидаги *шерланмоқ* ясама сўзи "ички форма"сига кўра "шеърга айланиш" маъносини ифодалайди. *Шерланмоқ* феълининг ясаишидан мақсад, инсоннинг шеърга айланишини тасвирлаш эмас, балки сўзнинг даслабки маъносини кўрсатишдир.

"Ички форма" нинг унутилиш мулоқот жараёнида мия ишини осонлаштиради: бир сўз туфайли бирданига икки нарса дастлабки ва ҳозирги маъносида хотирланмайди, балки унинг ҳозирги реал маъноси англашилади. Акс ҳолда, масалан, *Машинага тушди* гап, сўзларнинг дастлабки маъноларига, яъни "ички форма" сига кўра, (спустился в механизм) каби, ҳозирги маъносига кўра (сел в машину) каби икки хил маъно англаниб, улардан қайси бирига қараб иш қилиш лозимлиги тингловчини қийин ахволга солиб қўйиши мумкин бўлиб қолар эди.³

Шундай қилиб, "ички форма" дан иборат бўлган белги фақат ном қўйиш учунгина асос бўлиб қолмай, сўз ифодаляйдиган тушунчанинг мазмунини ташкил қилувчи муҳим омиллардан бири сифатида тушунча мазмунида ҳам иштирок этади. Бунда "ички форма" тушунчага мос келади. Шу маънода "ички форма" сўзнинг реал маъносига, яъни тушунчанинг ўзининг асл маъносига пойдевор вазифасини ўтайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Бушуй Т., Сафаров Ш. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси -Т., 2007. 195-бет.
2. Звегинцев В.А. "Внутренняя форма" и лексическое знание слова // Семасиология. -М., 1957.
3. Неъматов Х. Сўз ясаиши қолипи, ясалган ва ясама сўз хусусида//Ўзбек тили ва адабиёти.2007.№1.16
4. Потебня А.А.Представление и значение // Хрестоматия по истории русского языкознания.-М.,1973.
5. Расулов Р.Умумий тилшунослик. 1-қисм.-Т.,2013. 81-бет
6. Усмонов С. Умумий тилшунослик.-Т.,1972.

1 Звегинцев В.А. "Внутренняя форма" и лексическое знание слова // Семасиология. -М., 1957. -с 191
2 Звегинцев В.А. Кўрсатилган асар. с 192
3 Усмонов С. кўрсатилган асар. 132 б



МАЪНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАР

Нилуфар Турсунбаевна

Тошкент давлат техника
университети Психологи

Анататсия: Абдулла Орипов ижодига талқин. Абдулла Орипов шеърларида халқимизнинг бой маданий мероси, ўтмишимизни, миллий қадриятлари ва анъаналаримиз ўз аксини топди. Шоир ўз шерларида тарихимизни ҳақиқий ва ҳолисона баҳолади.

Калит сузлар: Абдулла Орипов, фидоий ватанпарвар, Ватан туйғусу, Фитрат, Бехбудий, ва Чўлпонлар издоши

Мустақиллик йилларда эришган энг катта ютуқларимиздан бири ўзлигимизни англаш, қадриятларимизни тиклаш, ўтмишни тўғри, ҳақиқий баҳолаш имконига эга бўлишимиздир. Боиси собиқ, қизил империя даврида халқимизнинг тарихий ўтмишини сохталаштирилди, шарқона қадриятларимиз топталди. Мана шундай ҳолатда Ватан, миллат тақдири, эрк ва ҳуррият, миллий қадриятларимиз ҳақида ёзиш ҳар бир ижодкордан катта бир жасорат талаб қилар эди. Бироқ, 80-йилларда бир қатор шоирларимиз Фитрат, Бехбудий, ва Чўлпонлар изидан бориб, ўз ижодларида ҳурриятни қуйлай бошлаганликлари этиборга моликдир. Буни халқимизнинг ардоқли шоири, забардаст қалам соҳиби Абдулла Ориповнинг 80-йилларда яратган бир қатор шерлари мисолида яққол кўришимиз мумкин. Боиси, Абдулла Орипов уларда халқимизнинг бой маданий мероси, ўтмишимизни, миллий қадриятлар ва анъаналаримиз ўз аксини топди. Шоир ўз шерларида тарихимизнинг ҳақиқий ва ҳолисона баҳолади. Туркистон қадимдан маънавият ва маърифат ўчоғи бўлиб келганлигини, Амир Темур, Алишер Навоий, Бобур, Аҳмад Фарғоний, Муҳаммад Хоразмий, Абу наср Форобий каби буюк аждодларимиз ҳақида тўлқинланиб, ифтихор билан қалам тебратди. Мазкур алломаю-фузалоларимиз қадим замонлардаёқ Ватанимиз шухратини дунёга таратганлигидан чексиз ғурурланади. Шоирнинг “Минораи Калон тепасидаги лайлак” шеърида тарихий мавзу қаламга олинган. Собиқ иттифоқ коммунистик мафқураси ҳукмрон бўлган қатағон йилларда шоир Ислоҳ дини шони-шавкати ва халқимизнинг шонли ўтмиши ҳақида афсус билан қуйидаги сатрларни битди:

*Ташлаб кетди бу шаҳарни беклар, амирлар,
Ташлаб кетди бу шаҳарни ислоҳ шавкати.
Ташлаб кетди бу шаҳарни шайхлар, кабирлар,
Ташлаб кетди Маҳмудона мангит давлати.*

Шаҳарни булбуллар ҳам, товуслар ҳам ташлаб кетишди. “Фақат лайлак Бухорода мангуга қолди”. Шоир бу ҳолатдан хайратланиб “бир шеър излаб Бухорони “узоқ кезгач, уни ўзбек халқидан айро яшай олмаслигини айтиб, унинг қанотларини оппоқ пахтага, оёқларини эса ғўзага менгзайди. Бу билан халқимизнинг қадимдан деҳқончилик қилиб келганлигини алоҳида таъкидлайди. Бухорони Бухоро қилган, унга кўрк бағишлаган лайлак садоқатидан хайратга тушади. Абдулла Орипов “Алишер” шеърида билимдон тарихчи ва фидоий ватанпарвар сифатида фикр юритади. Муаллиф Алишер Навоий образини яратар экан, у ҳақда батафсил маълумот беришга ҳаракат қилади. “Унинг номи билан бирга битилган дунё дафтарида ўзбек деган ном¹” дея фахрланади.

Шеърда Навоий образи, унинг серқирра фаолияти ва юксак фазилатлари, унинг тарихий хизматлари ёрқин бўёқларда тасвирланади. Хусайн Бойқаро ва Алишер Навоий бир-бирига таққосланади:

*Бойқаро иргилилаб истак отида,
Жаҳонга боққанда мисли бола шер,
Хирот дарвозасин бир қанотида
Шеърини лашкарини тизган Алишер.*

Бундан кўриниб турибдики, Хусайн Бойқаронинг феъл атвориди ҳукмронлик истаги кучли, Алишер Навоийда эса шеърятга муҳаббат устун. Шоирнинг фикрича дунёда ном қолдириш учун “Юрт бузиш шарт эмас”, найзанинг кучини ҳам пеш қилиш адолатдан



эмас. Шунинг учун ҳам шоир “Алишер қаламини кўрсатган холос” дея эътироф этади. Яна бир муҳим жиҳати шундаки, Абдулла Орипов Ўзбекистонни жаҳолат маскани деб билган улусоғаларга қарата қуйидаги сўзларни айтишга журъат қила олди:

*Бировлар наздида жоҳил Осиё
Фақат завоқ кўриб, кўрмаган камол.
Мусо илтижоси етди-ю, гўё,
Хақ Тур тоғи узра кўргазди камол.
Жаҳон меҳробида пайдо Алишер
Шодмон қасида айт, сен ҳам эй қуёш!*

Кўриниб турибдики, Абдулла Орипов халқмизнинг ўтмишини яхши билади. Шунинг учун шоир ўзбек номи, маънавий қадриятлар, улардаги Ватан туйғусуни, тарихий Ватан тушунчасини тараннум этар экан, қалби чексиз ғурур хиссига тўлади. Чунки шоир ҳам узоқ ўтмишдаги Алишер Навоий каби Турон фарзандларининг ворисларидан биридир. Мана шу ворислик, аждодлар ёдига хурмат-эҳтиром шоир қалбини жунбушга келтирганлиги шубҳасиз. Бойси шоир томирларида Буюк Соҳибқирон ва Алишер Навоий ҳазратларининг қони оқяпти. Абдулла Орипов “Алвидо устоз!”, “Нутқ” шеърларида халқимизнинг ардоқли шоири Ғофур Ғулом сиймосини меҳр билан чизади. Буни қуйидаги сатрлардан ҳам билишимиз мумкин.

*Ғафур Ғулом – буюк шоир – файласуф, хакам,
Ғафур Ғулом – адиб, нотик, ва соҳиб сурур.*

Халқимизнинг ғурури топталган бир пайтда унинг ардоқли шоири Ғафур Ғуломга бундай юксак таъриф беришнинг ўзи бўлади. Абдулло Ориповнинг машҳур “Ўзбекистон” шеъри 80-йиллар арафасида ёзилган. Шеърда “қолоқ”, “савдосиз ўлка” деб уқтирилаётган Ўзбекистонни таъриф-тавсифи берилади. Шоир ўша даврдаги эскича қарашларга кескин фикр, исёнкор сатрлар билан майдонга чиқди. Акс ҳолда шоир қуйидаги сатрларни битмаган бўлар эди:

*Боболардан сўз кетса зинҳор,
Бир калом бор гап аввалида.
Осмон илми туйилган илк бор,
Кўрагоний жадвалларида.
Кўз олдимдан кечар асрлар,
Кўз-кўз этиб нуқсу чиройин.
Сарсон ўтган неча насллар,
Тополмасдан тугилган жойин.
Америка – сеҳрли диёр,
Ухлар эди Колумб ҳам хали.
Денгиз ортини ёритди илк бор,
Берунийн ақл машғали.
Колумбда бор алашим маним
Ўзбекистон – Ватаним маним.*

Шунингдек шеърда Амир Темур, Алишер Навоий каби улуғ зотлар ва уларнинг тарих олдидаги буюк хизматларига тўхталиб ўтилганки, Ватанимиз тарихида қатта ўрин тутган бундай фидоий аждодларимиз юртбошимиз таъбири билан айтганда “Элим деб, юртим деб ёниб яшаган”ларига яна бир бор ишонч ҳосил қиламиз. Бундан ташқари шеърда ўзбек халқининг бағри кенглиги, бир бурда нонини ўзгаларга тутиши каби урф-одатлари ҳам ўз ифодасини топган. Шеърда Ўзбекистон қадимиз замин эканлигига, халқимизнинг ўзигина эмас, бутун жаҳон фахрладиган, жаҳонга машҳури олам бўлган алломалар юрти эканлиги алоҳида таъкидланганлиги диққатга сазовордир. “Ҳамид Олимжон хотирасига”, “Қирғиз диёри”, “Қурашади икки тўлқин”, каби шеърларида Ҳамид Олимжон, Чингиз Айтматов, Ойбек каби буюк ижодкорларимиз образи тўлақонли қилиб чизиб берилган бўлса “Муъмин Мирзо” шеърида Хусайн Бойқаро давридаги тарихий муҳит қаламга олинган. Ҳазрат Навоийнинг назари тушган Муъмин Мирзонинг жаҳолат қурбони бўлганлиги ҳақидаги тарихий факт Абдулла Ориповга тинчлик бермаган. Шунинг учун ҳам шоир қаламида қуйидаги сатрлар отилиб чиқади:



*Қўлингга солмишлар тилладан занжир,
Шахзода йигитга хурмат бу, ахир!
Бу нечук қабохат, бу нечук тақдир,
Муъмин Мирзо укам, сени ўлдирдилар.
Сенга салтанатнинг қандай дахли бор,
Сенку масъум гўдак, покиза дилдор.
Олим бўлармидинг, балки санъаткор,
Муъмин Мирзо укам, сени ўлдирдилар.*

Тожу-тахт учун курашлар, мақсадсиз урушларда бундай бегунох гўдакларнинг фитна қурбони бўлганлиги XV-аср учун типик ходиса эди. Абдулла Орипов шунинг учун ҳам “Ўз-ўзини ит бўлиб қопган”, “Ўз қалбини қафаслаб ётган” ёвузлардан нафратланади. Шеърнинг кульминацион нуктасида эса қуйидагича хулоса чиқаради:

*Сен-ку йўқсан, аммо қотиллар яшар,
Ҳамон гўдакларга қилич қайрашар.
Қачон пок бўларкин булардан башар,
Муъмин Мирзо укам, сени ўлдирдилар.*

Мана шоир нима демоқчи. Орадан беш юз йил ўтиб кетган бўлсада, “ҳамон гўдакларга қилич қайрашар” дейди афсус билан лирик қахрамон. Бунга ким айбдор? албатта китобхон кизил империя ҳукмронлик қилаётган ҳукумат бу катагонлар бошида турганлигини пайқаб олиши шубҳасиздир. Абдулла Орипов ижодида воқеабанд шеърлар алоҳида ўрин тутати. Уларда халқ оғзаки ижоди намуналаридаги каби “Бир бор экан, бир йўқ экан” деб бошланувчи шеър сюжетлари худди халқ эртақларини эслатади. Фикрларимизнинг исботи учун шоирнинг хангома шеърини олиб кўрайлик. Шеърда тасвирланишича, қор ёғаётган пайтда икки чол кўшни овулга тўйга отланишади. Чолларнинг бири отга, иккинчиси эшакка миниб йўлга чиқишади. Чоллар гапга тушиб кетишади. Эшак йўл бошлайди, “от боради эргашиб” аста-секин кун ботиб, осмонда юлдуз кўринади ҳамки, чоллар манзилга етолмайдилар. Чоллар тўрт чақирим наридаги овулга “Нахот юрсак бир кун йўл” дея хайратланишади.

*Аммо бу гап рост эди,
Юлдузлар чиқар бот-бот.
Олдинда эшак борар,
Орқада лўкилар от.*

Чоллар адашиб қолганликларини сезгач, қишда тўй қилган одамдан норози бўлишади. Совуқдан, очликдан қалтираб қолган чоллар от бошини изига қайтарадилар.

*Бир кор-хол бўлмай энди,
Уйни топиб борсак бас.
Сургалади от хоргин,
Орқада эшак бесас.*

Хуллас тонгача йўл босган чолларни кўзига узоқдан қора нарсаси кўринади. Улар яратганга шукроналар айтиб, қишлоққа етиб келганларидан қувонадилар ва от тўхтаб қолган дарвозани қамчи билан таққиллатадилар. Кўлида хира фонус кўтарган кампир кўринади. Чоллар “Бир кечага бизга жой берсангиз янгажон” дея ялинишади. Кампир фонусни кўтариб чолларга яқинроқ келгач, жahl билан уларнинг бирига қараб шундай дейди:

*Хой сенми бу, ер юткур,
Иймонингдан кечдингми?
Алжирайсан, ё тўйда
Ароқ-пароқ ичдингми?*

Шоир ажойиб хулоса ясайди:

*Алқисса шу: от йўлни
Уй томон бурган экан.
Чол-чи, ўз кампиридан,
Жой сўраб турган экан.*

Шоир бу билан эшакнинг ортидан юриш ана шундай кулгили ҳолатга сабаб бўлади демоқчи. Абдулла Ориповнинг “Дехқон бобо ва ўн икки болакай қиссаси” шеъри ҳам воқеабанд шеърлардан. Унда эртақлардаги каби доно дехқон бобонинг тимсоли яратилган. Шоир “Аллома” шеърида Абу Райхон Беруний шахсига мурожаат қилса, “Хамза монолоғи”



шеърида Хамза Хакимзодага, “Карвон” шеърида устоз Миртемир, “Бобур” шеърида шох ва шоир Бобур образига мурожаат қилади. Хуллас Абдулла Ориповнинг тарихий мавзудаги кайси шеърини олманг улар Ватан ҳақида, жонажон тарихимиз ҳақида ўқувчини ўйга толдиради, фикрга ва бахсга чорлайди. Абдулла Орипов шерларининг ҳалқимиз томонидан эъзозланиб келаётганлигининг боиси ҳам ҳудди мана шундадир.



КОНЦЕПТ, ИНТЕРТЕКСТУАЛЛИК ВА БАДИЙ ТАРЖИМА

Юсупов Ойбек Нематжонович

Тадқиқотчи, Тошкент давлат
педагогика университети

Д.С.Павлова, Е.В.Ерофееваларнинг таъбири билан айтганда, матннинг семантик тузилиши турли (услубдаги) матннинг семантик таркиби (матннинг сарлавҳаси, семантикани ташкил этувчи лексик бирликлар)дан иборат. Лексик бирликлар ва микро-мавзулар сарлавҳалар орасидаги (семантик ва грамматик) алоқа матннинг ички ва ташқи структурасини ташкил қилади¹. Табиийки, бу концептуал тизим билан ҳам боғлиқ бўлади.

Н.Л.Потанина, Б.И.Тенюшев ўзларининг “Концепт ПОВСЕДНЕВНОСТЬ в современном английском романе” сарлавҳали мақоласи²да замонавий инглиз ёзувчиси Э.Баэтнинг “Болалар китоби” романида кундалик ҳаётнинг талқини таҳлилини амалга оширишар экан, “КУНДАЛИК” (доимийлик) бадиий концептининг хусусиятларини очиб беришади. Аниқланишича, ушбу концептнинг мазмуни кундалик ҳаётнинг долзарб ижтимоий масалаларига мос келади. Бу концепт бутун роман структурасида амал қилади ҳамда инсон ва дунёни бадиий англаш тамойили ўлароқ юзага чиқади³. Бундан шу хулоса келиб чиқадики, концепт бадиий асар структурасини ташкил қилувчи омил бўлиб, бадиий таржимада ҳар бир асарнинг концептуал тизими унинг структурасини “ушлаб туради”, шу концептуал тизимга эътибор қаратиш бадиий асар матни таржимасида сифатнинг таъминланишига олиб келади.

Концептуал таҳлилда асосий концепт белгилаб олиниб, концептуал тизим ташкил этилгандан сўнг концептлараро тизимли боғлиқликларни ишлаб чиқиш зарурати пайдо бўлади, дейилади. Ундай кейин семантик қиймат (маъно)лар қайта аниқланади. Ҳосил бўлган концептуал структура янги алоқалар учун асос бўлиб, концептуал тизимининг доимий ривожланиб боришини таъминлайди⁴. Демак, бадиий асар таҳлилида концептуал тизимни аниқлашнинг ўзи етарли эмас, асарни таҳлил қилиш ёки оригиналдан бошқа тилга ўгириш жараёнида концептуал тизим ва унинг ички структурасини аниқлаш оригиналдаги асосий концептларни (уларни ташкил этувчи тушунча ва сўз) тўғри таржима қилишга пойдевор яратади.

С.Е.Тупикова, Е.А.Семухиналар концепт деривациясининг конкретлаштириш, мавҳумлаштириш ва трансконцептуал каби учта асосий турини кўрсатишади. *Конкретлаштирувчи* деривация асосий тушунчаларнинг маълум хусусиятини конкретлаштириш, шу тушунчага урғу бериш ва баҳолаш билан боғлиқ эканлиги кўрсатилади. *Эвфемизация*, *фразеологизация* жараёнлари деривациянинг шу тури билан боғлиқ. *Мавҳумлашувчи* концептуал деривация концептларни интегратив структура сифатида таснифлаш ёки таксономизация (бутун/бўлак), маънолар иерархиясидан ҳосил қилинади. Демак, концептуал деривациянинг ушбу кўриниши концептларни уя ва уя аъзолари ёки бутун ва унинг қисмлари сифатида шажаралаш усулида амал қилади. *Трансконцептуал* турдаги деривация ҳосила концептлар, турли билим соҳалари (мажоз, метафора, метонимия ва бошқалар) ўртасидаги горизонтал алоқаларни англашдан келиб чиқади⁵. Бундан келиб чиқадики, концептуал деривацияни ҳосил қилишда (яъни таҳлилнинг шу босқичида) турли концептларда турли усул амал қилади.

1 Павлова Д.С., Ерофеева Е.В. Концептуальная модель спонтанного монолога //Интегративные процессы в когнитивной лингвистике: материалы Международного конгресса по когнитивной лингвистике. 16-18 мая 2019 г. / отв. ред. вып. Т.В. Романова. – Нижний Новгород: Издательство ДЕКОМ, 2019. – 1144 с. – С. 811.

2 Потанина Н.Л., Тенюшев Б.И. Концепт ПОВСЕДНЕВНОСТЬ в современном английском романе // Интегративные процессы в когнитивной лингвистике: материалы Международного конгресса по когнитивной лингвистике. 16-18 мая 2019 г. / отв. ред. вып. Т.В. Романова. – Нижний Новгород: Издательство ДЕКОМ, 2019. – 1144 с. – С. 842.

3 Ўша манба.

4 Тупикова С.Е., Семухина Е.А. Концептуальная деривация как основа формирования значений в англо- и франкоязычном медиадискурсе // Интегративные процессы в когнитивной лингвистике: материалы Международного конгресса по когнитивной лингвистике. 16-18 мая 2019 г. / отв. ред. вып. Т.В. Романова. – Нижний Новгород: Издательство ДЕКОМ, 2019. – 1144 с. – С. 865.

5 Ўша манба.



Муаллифнинг оламнинг лисоний манзараси бадиий матндаги концептларда бир нечта информатсион коддан иборат бўлади. М.В. контсептсияси остида. Олимлар инсон индивидуал онгини инсон томонидан акс эттирилган ички, руҳий олами моҳияти сифатида тушунишади. Олдин таъкидлаганимиздек, концепт дунёнинг инсон онгидаги инъикоси бўлиб, уларнинг мазмуни у ёки бу тилдаги маълум бир лисоний белгилар орқали очиқ берилади¹.

Муаллифлик концепти – бу матнда муаллифнинг ҳис-туйғулари, ҳулоса ва эътиқодлари орқали англашилаётган тушунчалар тўплами. Баъзан матнда муаллиф концепти мавҳум, аниқ белгиланмаган. Шу нуқтаи назардан қараганда, бадиий матндаги интертекстуаллик муаллиф мақсадини амалда кўрсатишга, қабул қилувчининги матнни тўғри талқин қилишга ёрдам беради. Ишонч билан айтиш мумкинки, матнда ички инклюзиялар ёрдамида ифодаланган муаллиф концептлари муаллифнинг олам лисоний манзарасини ёрқинроқ ифодалайди. Муаллиф интекстдан нафақат ўзига, балки ўқувчига ҳам ёрдам сифатида фойдаланади, шунда ўқувчи матннинг семантик йўналишини, муаллиф унга нимани етказмоқчи эканлигини тўлиқ тушунади². Концептуал тизим сифатидаги таҳлиллар цитата ва эпиграф интертекстлар устида ҳам амалга оширилади. Цитата ва эпиграфлар янги қуршовга тушганда улар билан алоқага киради, айна пайтда, улар билан қўшилиб/аралашиб ҳам кетмайди. Шу билан бирга, контекст билан семантик алоқани сақлаб қолади. Бундан келиб чиқадики, бадиий асар таржимасида интертекстлар (мас., цитата ва эпиграфлар) концептуал таҳлили амалга оширилиши, умумий концепт ядро ва периферияси билан алоқа борлиги назарда тутилиши лозим. Масалан, Е.Е.Белова, В.А.Минасянлар Дж.Фаулзнинг “Француз лейтенантининг аёли” (The French Lieutenant’s Woman) романини таҳлил қилишар экан, 255 та интертекстуал киритмаларни аниқлашади. Улардан 80 тасини эпиграф-интертекст, 27 тасини цитата, 148 тасини реминисценция ташкил этади. Булардан фақат эпиграф ва иқтибослардан ташкил топган 107 та интертекстни таҳлил қилиш асосида маълум концептлар, жумладан, СЕВГИ, ҲАЁТ ва ЁЛГИЗЛИК концептлари аниқланган. “Француз лейтенантининг аёли” асарида СЕВГИ концепти 26 интертекстда мавжуд³. Таъкидлаш жоизки, бадиий матн таржимасида турли интертекстлар, махсус концептуал таҳлилга эҳтиёж сезади. Интертекстларни аниқлаш, улардаги концептни таҳлил қилиш ва шу концептларни таржима матнда акс эттириш лозим. Шундагина таржима оригиналликка, аслиятдаги ёзувчи концептини тўғри англатишига олиб келади.

Never, believe me, I knew of the love between men and women, till in some village fields in holidays now getting stupid, one day sauntering “long and listless”, as Tennyson has it, long and listless strolling, ungainly in hobnobbing, chanced it my eye fell aside on a capless, bonnetless maiden. Ушбу матн парчаси бобларнинг бирида эпиграф сифатида келтирилган: бу парча китобхон олдида Чарл ва Сара орасидаги яширин ва оловли муҳаббат эшигини очади. Бу парча А.Кларнинг “Bothie of Tober-na-Vuolich” поэмасидан олинган, у Чарлзнинг Сарага бўлган муҳаббатини аниқ ва тушунарли ҳолда кўрсатади. Ушбу концептнинг ядросини love лексемаси (аёл ва эркак орасидаги муҳаббат) ташкил этади. Бу ерда LOVE концептининг репрезентини *capless, bonnetless maiden* каби лексемалар ташкил этади. Ушбу концептнинг перифериясини эса *different, like no other* каби лексик бирликлар ташкил этган.

Юқоридаги таҳлилдан кўриш мумкинки, ҳатто интертекстлар ҳам концептуал таҳлилга тортилиши, уларнинг ядро ва перифериясидаги лексик бирликлар аниқлангач, уларнинг таржимасида тўғри, мос эквивалентлар танланиши ниҳоятда муҳим, бу жараён ҳам таржима сифати ва мазмунини оширувчи омил бўлиб хизмат қилади.

1 Белова Е.Е., Минасян В.А. Концепт как единица картины мира автора (на материале романа Дж. Фаулза «Женщина французского лейтенанта») // Интегративные процессы в когнитивной лингвистике: материалы Международного конгресса по когнитивной лингвистике. 16-18 мая 2019 г. / отв. ред. вып. Т.В.Романова. – Нижний Новгород: Издательство ДЕКОМ, 2019. – 1144 с. – С. 973.

2 Кўрсатилган манба.

3 Кўрсатилган манба.



AL-FARGONIYNING MATEMATIKA FANIGA QO'SHGAN HISSASI

Abdullajonova Namuna

Farg'ona viloyati Buvayda tumani
26-umumiy o'rta ta'im maktabining
matematika fani o'qituvchisi.
Tel nomeri: +998996008987

Annotatsiya: ushbu maqolada Al-Farg'oniyni hayoti va ijod yo'li va uning matematika faniga qo'shgan hissasi haqida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: matematika, algebra, Al-Farg'oni, Bayt ul-hikma, Horun ar-Rashid

Ahmad al-Farg'oni (to'liq ismi Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oni) (taxminan 798, Farg'ona – 865, Misr) – astronomiya, matematika, geografiya va boshqa ilmiy yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatgan o'zbek qomusiy olimi. Sharqda Al-Farg'oni, Yevropada Alfraganus taxalluslari bilan mashhur. Uning hayoti va ilmiy faoliyati to'g'risida juda oz, u ham bo'lsa, uzuq-yuluq ma'lumotlar yetib kelgan.

Ahmad al-Farg'oni hayoti, ilmiy izlanishlari va kamoloti Abbosiylar sulolasi hukm surgan, Arab xalifaligi jahonning eng yirik saltanatlaridan biriga aylanib, uning ijtimoiysiyosiy va madaniy hayotida Movarounnahr, Xorazm va Xurosondan kelgan ko'plab mutafakkirlar muhim o'ringa ega bo'la boshlagan tarixiy davrda kechdi. Al-Farg'oni Xalifa Xorun ar-Rashid (786–809) vorislari al-Ma'mun (813–833), Mu'tasim (833–842) va Mutavakkil (846–861) hukmronlik qilgan davrda yashadi hamda avval Marv, so'ngra Bag'dod, Damashq va Qohira shaharlarida ilmi hay'at (falakiyotshunoslikastronomiya), riyoziyot (matematika) va jug'rofiya (geografiya) fanlari bilan shug'ullandi hamda qator ilmiy va amaliy asarlar yozib qoldirdi. Ahmad al-Farg'oni dastavval (taxminan 811-yil) Farg'onadan Marvga kelgan. Ilk o'rta asrlardayoq Marv O'rta Osiyoning yirik madaniy va ilmiy-ma'rifiy markazlaridan biri bo'lgan, bu maskanda o'sha davrlardayoq Movarounnahr, Xorazm va Xurosondan ko'plab olimlar-u fozillar va mutafakkirlar to'planib, Ajamniy madaniy hayotida muhim ahamiyat kasb etganlar. Hatto 651 yilda so'nggi Sosoniylar shahanshoi Yazdigard III ibn Shahriyor (632–651) arablar ta'qibidan qochib, poytaxt kutubxonasidagi kitoblarni o'zi bilan Marvga olib kelgan. Xalifalik qo'l ostiga o'tgach ham Marv o'zining qadimiy mavqeini yo'qotmay, nafaqat ilmiy va madaniy markazga, balki fath etilgan sharqiy viloyatlarning siyosiy markaziga aylangan. Horun ar-Rashid vafoti (809-yil) dan so'ng xalifalik taxtiga Muhammad al-Amin (809–813) chiqadi. Uning akasi Abdulloh bilan taxt uchun (809–813 yillarda) olib borgan kurashi (Xorun ar-Rashid o'g'li Abdullohni 806 yilda Movarounnahr va Xurosonning noibi etib Marvga yuborgan edi) Abdullohning g'alabasi bilan tugaydi. Muhammad al-Amin qatl etiladi. O'sha yili (813-yil) Abdulloh al-Ma'mun nomi bilan taxtga o'tiradi. Biroq u xalifalik poytaxti Bag'dodga bormay, to 819 yilga qadar Marvda yashaydi. U o'z atrofiga olimlari fozillarni to'playdi. 819-yil al-Ma'mun barcha saroy a'yonlari va olimlari bilan birga Maradan Bag'dodga ko'chadi. Ular orasida al-Farg'oni ham bo'lgan. Bu davrda xalifalikda Horun ar-Rashid farmoni bilan bino qilingan ikkita rasadxona va boy kutubxona bor edi. Abu Rayxon Beruniy ma'lumotiga qaraganda, rasadxonalardan biri Bag'dodning ash-Shammosiya mahallasida va ikkinchisi Damashq yaqinida Kasiyun nomli tog'da joylashgan edi. Rasadxonalarda Horun ar-Rashid asos solgan ilmiy markaz „Bayt ul-hikmat“ („Donishmandlar uyi“) olimlari ilmiy tadqiqotlar olib borardi. Ular orasida al-Farg'oni ham bor edi.

Al-Farg'oni avval Bag'doddagi rasadxonada ish olib bordi, so'ngra al-Ma'mun topshirig'iga binoan Damashqdagi rasadxonada osmon jismlari harakati va o'rnini aniqlash, yangicha „Zij“ yaratish ishlariga rahbarlik qildi.

Musulmon mamlakatlari bo'ylab safarga chiqqan Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi ekspeditsiya a'zolari 1997-yil 5-dekabrda MARda bo'lishib, Al-Farg'oni hayotini o'rganishlari natijasida u Misrning Fustat shahrida vafot etganligi, Munattam tog'ining sharqiy qismidan sal narida joylashgan Imom ash-Shofe qabristoniga dafn etilganligini aniqlashdi. Vaqt o'tishi bilan uning qabri yo'qolib ketgan. U yerdan olib kelingan tuproq Farg'ona vodiysining Quva shahrida 1998-yil barpo etilgan ramziy qabrga qo'yildi.



INGLIZ TILI DARSLARIDA TIL O'YINLARI. O'YINLAR VA MASHQLAR

Abdurahimova Dilnoza

Farg'ona viloyati Buvayda tumani
26-umumiy o'rta ta'lim maktabining
ingliz tili fani o'qituvchisi.
Tel nomeri: +998994802888

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz tili darslarida til o'yinlari, o'yinlar va mashqlar haqida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: grammatika, o'yin qoidalar, RDVI, Erdvo, Nidriv

Grammatika ingliz tilini bir qator sabablarga ko'ra o'rganishda juda muhim o'rinni egallaydi. Birinchidan, bu holda to'g'ri gapirishni, shuningdek lisik zaxirasiga ega bo'lsangiz ham, iboralar va takliflarni qurish mumkin emas. Ammo mohiyatan grammatika shunchaki qoidalar to'plamidir va ularga ko'pchilik unchalik qiziq emas. Ammo o'qituvchilar va metodologlar noni iste'mol qilmaydilar, ular nafaqat qiziqarli va qiziqarli, balki o'quv jarayoniga mos keladigan o'yinlar bilan doimiy ravishda suyultirishga harakat qilishadi kerakli material.

O'quv jarayoni bilan o'yinni umuman foydalanish va grammatikaviy materialni o'rganishning maqsadga muvofiqligiga qaramay, eng yaxshisi yaxshi dushman ekanligini yodda tutish kerak. Shuning uchun ular moderatsiya va to'g'ri foydalanish kerak. Birinchidan, o'ynash, talabalar, ayniqsa, bu bolalar, yakkama-yakka bo'lmasa, lekin guruhda, lekin guruhda juda hayajonlanmaydi va baquvvat bo'lib qolsa, bu juda hayajonli va baquvvat bo'lib qolsa Shuning uchun, agar siz o'yindan keyin yangi mavzuni muhokama qilish uchun rejalashtirgan bo'lsangiz, vaqtni yo'qotasiz, chunki tartib-intizomni aniqlash juda qiyin bo'lishi mumkin. O'yinlar o'rganilayotgan mavzuni birlashtirishda foydalanish yaxshiroqdir, shunda yangi grammatik dizaynlar oson va tabiiy ravishda o'yinda va do'stona atmosfera bo'lishi kerak. Shuning uchun, ma'lum bir grammatik mavzudagi munozarali tsiklida oraliq darslarda o'yinlardan foydalanish tavsiya etiladi. Darsda vaqt haqida gap ketganda, uni tugatish uchun yaqinroq qilish yaxshiroqdir - bu biroz dam olishga va keyingi uchrashuvga darsning yoqimli taassurotlarini qoldiradi.

Ingliz tili darsidagi o'yinlar eng xilma-xil bo'lishi mumkin. Ulardan foydalanish faqat dars davomiyligi va o'qituvchi ijodi bilan cheklanishi mumkin. Masalan, o'yinlar har xil ob'ektlarni rekvizitlar va ularsiz ishlatishi mumkin. I. Frankning so'zlariga ko'ra, ba'zi o'yinlar o'yinning holati yanada aniqroq, bu esa, o'z navbatida, materialni yaxshiroq o'rganishga yordam beradi. Ammo, albatta, Skype-da o'rganish haqida gap ketganda, bu mumkin emas. O'yinning xususiyatiga ko'ra, mavzu, sahna, biznes, rol o'ynash, taqlid va dramalashtirish o'yinlari bo'lishi mumkin. O'yinda ko'proq xilma-xillik qilish uchun o'qituvchi darslar davomida turli xil ishlardan, masalan, individual, bug 'xona, guruh va frontal. Ularning har biri talaba uchun o'z afzalliklariga ega, shuning uchun ularni ustun qilib, e'tiborsiz qoldirmaslik kerak.

Masalan, agar siz "Aylanma" talabalar bilan o'qiyotgan bo'lsangiz, ularga nima qilishni rejalashtirgan narsalarni tasvirlash kerak bo'lgan ma'lum bir vaziyatni taklif qiling. Bu Londonga sayohat bo'lishi mumkin (shu bilan bir vaqtning o'zida Londonning diqqatga sazovor joylarini o'rganish yoki partiyaning diqqatini yoki ta'til rejalarining tashkil etilishi mumkin.

Hozirgi vaqtni doimiy ravishda o'rganayotganda, siz o'yinni kartalar bilan ishlatishingiz mumkin. Buning uchun sizga mavzular bo'yicha qator rasmlar kerak. Agar bu "oziq-ovqat" bo'lsa, unda kimdir choy ichadigan rasmlarni topsangiz, kimdir nok eydi, odamlar stolda qoplangan, ular tushlik qilishadi, tushlik qilishadi va hokazolar. Pochta kartasida o'yilgan teshikka faqat odamning boshi bilan ko'rinadi. O'quvchilarga pochta kartochkalarini ko'rsatish, o'qituvchi: "U nima qilyapti?" Talabalar tegishli ravishda etakchi savollarni berish bilan taxmin qilishlari kerak: "u sho'rvani iste'mol qilyaptimi?" "U pishiraymi?" Ikkalasi ham. O'qituvchi "yo'q, u", "ha", deb javob beradi. Savollar bir-biridan juft ish bilan shug'ullanish va ikkala ko'nikmalarni mashq qilish, savol berish va ularga javob berishlarini so'rash mumkin.

Shuni yodda tutingki, inson zavq bilan bajaradigan hamma narsa shunchalik yaxshi ishlaydi. O'yinlar yordamida siz hatto eng qiyin va zerikarli grammatik qoidalarni ham o'rganishingiz mumkin. Agar o'yinlar sizning darslaringizning ajralmas qismi bo'lsa, unda talabalariniz ingliz tilini o'rganishda yanada muvaffaqiyatli bo'ladi.



NEMIS TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

Allaberganova Muhayyo, Xudayberganova Go'zal

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani 5- son

IDUM ning nemis tili fani o'qituvchilari

Tel + 99-891-997-09-48, 97-456-31-07

muhayyoallaberganova@gmail.com

guzalhudayberganova@gmail.com

Annotatsiya: Nemis tili darslarida zamonaviy axborot texnologiyalarini keng qo'llash, so'zlashish mahoratini oshirish, chet tili o'qitishning rivojlantiruvchi maqsadi to'g'risida fikr mulohazalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Nemis tili, zamonaviy axborot texnologiyalar, xorijiy tillar, AKT, interfaol metodlar, ta'lim jarayoni.

Hozirgi texnologiya rivojlangan bir davrda o'quvchilar AKT dan foydalanib o'tilgan darslarda diqqatli o'tiradilar. Xorijiy til o'rganuvshilarning diqqatini bir joyga jamlashda chet tili darslarini til o'rganish o'yinlarga va uslublarga asoslanib tashkil qilinishi talim jarayoni samaradorligini oshiruvchi omillardan biri deb hisoblayman. Hozirgi kunda chet tili fanini bolalarga o'rgatishda darsda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish juda muhimdir. Bundan ko'rinib turibdiki, chet tilidan dars beradigan har bir o'qituvchi zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalana olishi lozim. Tan olamizki ayrim o'qituvchilar kompyuterdan, axborot vositalaridan foydalana olishmaydi. Endi faqat darslik yoki 1 yoki 2 tarqatma bilan tashkil qilingan dars o'quvchilarni jalb qila olmaydi.

Radio, televizor, qo'l telefoni, internetdagi 100 lab ijtimoiy tarmoqlardan eng so'ngi ongni jalb qiluvchi usullarda axborot olayotgan o'quvchi oddiy usuldagi darsga nari borsa 15 daqiqa quloq solishi mumkin, keyin esa uning qiziqishi qaytib, e'tibori bo'linadi va mavzuni tushina olmaydi. Aynan shuning uchun ham darslarda axborot texnologiyalardan foydalanish bugunning asosiy talablaridan biridir.

Kodoskop, proyektor, magnitafon, kompyuter, internet, interfaol doska televizor kabi texnik vositalar darsning qiziqarli tashkil etilishiga yordam beradi. Chet tillarini o'rganishda multimediyalarning ahamiyati beqiyosdir. Birinchi Prezidentimizning 2012 yil 10 dekabrda PQ 1875 –sonli qaroriga muvoviq “Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish”dagi 12 banddan biri chet tili xonalarini zamonaviy jahon standartlari talablari asosida jihozlash bo'lib, buning ijrosi natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarimiz ular uchun oson bo'lmagan chet tillarini ravon va qulay o'rganmoqdalar. To'xtovsiz yoki ko'p muddatga bir xil texnik vositadan foydalanish ham o'quvchilar me'dasiga tegib, dars samarasini pasaytiradi va elektr energiyaning isrof bo'lishiga olib keladi. Qaysi texnik vositani darsning qaysi qismida, qanday topshiriq uchun qo'llash lozimligini o'qituvchi darsga tayyorlanish jarayonida belgilab olishi, foydalanish vaqti 3-7 daqiqa atrofida bo'lishiga, zarur material undan uzoq vaqtga mo'ljallangan bo'lsa, orada uzilish qilib, unga doir qiziqarli savol-javob, munozara o'tkazib olish zarur. Qanday holatlarda nimalar taklif qilinadi?

1. Chet tilida lug'atlarning talaffuzi, mazmuni o'rganiladi. So'zning ma'nosini anglarishda visual texnik qo'llanmalar ancha mavzuga mos kichik filmlar tomoshasi, uning muhokamasi ayniqsa ahamiyatlidir.

2. Talaffuzni o'rgatganda ko'proq tinglab tushinish vositalaridan foydalangan ma'qul.

3. Grammatik mavzularni tushintirishda vaziyatlar ko'rtilgan sahnalar, kichik jadval, sxema yoki nuqtalar o'rnini to'ldiradigan mashqlar projector orqali ko'rsatilib, har bir o'quvchining qatnashishi ta'minlansa, unum yaxshi bo'ladi.

4. Mustahkamlashda diologli, monologli yoki harakatli videolar foydalidir.

5. Qo'shiq o'rganishda tinglab yoki ham ko'rib, ham tinglab birgalikda kuylash, so'ng matn yordamida uyda takrorlash tez yodlash usullaridan biridir.

6. Takrorlash darslarida mavzuga mos kichik filmlar tomoshasi, uning muhokamasi o'quvchilarning chet tilini barcha nutq faoliyatlarini bog'lagan holda tushinishlari, o'z fikrini bayon qila olishlari uchun ahamiyatlidir.

7. Uyga vazifa bajarish o'quvchilarning hammasiga ham yoqavermaydigan, zerikarli ish.



Bunda fanga kamroq qiziquvchilarni ham jalb etish uchun o'tilgan mavzuga komputerdan slayd yaratish, internetdan ma'lumot topish, rasm chizish va taqdim qilish kabi topshiriqlar ularning uy ishi bajarishiga yordam beradi.

8. “Mening ovozim”, “Mening videom” kabi loyihalarni har qanday mavzuda qo'l telefonlari, magnitafon yoki kompyuter yordamida amalga oshirish mumkin, bu jarayonda o'quvchi sinf va o'qituvchisi oldida taqdim qilishdan oldin o'z ishini tekshiradi, tahlil qiladi, xatolarini tuzatishga harakat qiladi va mukammallikka intiladi.

O'quvchilarni to'g'ri talaffuzga o'rgatishda barcha chet tili o'qituvchilariga lingofonlar o'rnatilgan xona kerak. Umid qilamanki, 2 yoki 3 yil ichida Respublikamizdagi barcha chet tili xonalari lingofonlar va interaktiv doskalar bilan ta'minlanib qolar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Xorijiy tillarni o'rgatishda rol o'ynash o'yinlari. 1989
2. R.Shodiyev. H. I.A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida.
3. “Xalq ta'limi” 2018. Xalq ta'lim 2014. “ilmiy metodik jurnal”.



О‘QUVCHILAR OG‘ZAKI VA YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK O‘YINLARNING AHAMIYATI

Bektasheva Gulshod Juraqulovna,

Navoiy viloyati, Navoiy shahar
17-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon: +998 99 757 92 05

Adizova Maftuna Rahim qiza,

Navoiy viloyati, Navoiy shahar
17-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon: +998 92 332 58 87

Annotatsiya: Maqolada ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishda didaktik o‘yinlardan foydalanish usullari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Fonetik o‘yinlar, orfoepik, orfografik, uslubiy, punktuatsion, motiv, leksik o‘yinlar, davom ettir, bayon, insho, so‘z boyligi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqni egallashlarida fonetikadan olgan bilimlarining ahamiyati katta. Shu boisdan ham boshlang‘ich sinflarning ona tili ta‘limida fonetik o‘yinlar tizimi tashkil etish o‘quvchilar nutqini boyitishda muhim o‘rin tutadi.

Fonetik o‘yinlar tizimi o‘yinlaridan ona tilidan yangi mavzuni o‘rganish, mustahkamlash, takrorlash, tekshirish, umumlashtirish maqsadlarida foydalaniladi. Shuningdek, ular bolalarda orfoepik, orfografik, uslubiy, punktuatsion va shu kabi malakalar hosil qilishning yetakchi omili sanaladi. Quyida fonetik o‘yinlardan namunalar va ularni o‘tkazishi haida fikr yuritamiz.

Fonetik o‘yinlar. Nutq tovushlari, unli va undosh, jarangli va jarangsiz undoshlar, bo‘g‘in, bo‘g‘in turlari (ochiq va yopiq bo‘g‘inlar), urg‘u mavzulariga oid o‘yinlar sirasiga kiradi. Misol keltiramiz.

1-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga mos tovushlarni qo‘yib, so‘zlarni o‘qing. Darax. . . , sus. . . , g‘ish. . . , qan . . . , kish. . . , pish. . . balan. . . , do‘s. . . , pas. . . , monan. . . , pisand. . . , mush. . . , dar. . . , hunarman. . . va h.k.

2-topshiriq. O‘n ikkita so‘z berilgan (in, oz, es, iz, ov, il, esh, og‘, ig‘, ek, et). Ularni qanday qilib uch guruhga ajratib yozish mumkin?

2-topshiriq asosida bolalarning differensial-tabaqalashgan ishlarini tashkil etish mumkin. Bunda o‘quv topshirig‘i bir qancha variantlarda taklif etiladi.

I variant. Topshiriq a‘lo va yaxshi baholarga o‘qiydigan bolalar uchun: O‘n ikkita so‘zdan oldin “i” unlisi bilan, keyin “o” unlisi bilan, eng oxirida “e” unlisi bilan boshlanadigan bir bo‘g‘inli so‘zlarni yozing, deb aytiladi.

II variant. Bu yerda uch xil topshiriq uch xil ko‘rinishda, binobarin, uch xil shaklda o‘rta baholarga o‘qiydigan bolalarga berilishi mumkin: a) “i” unlisi bilan boshlanib, jarangli undosh bilan tugagan bir bo‘g‘inli so‘zlarni yozing; b) “o” unlisi bilan boshlangan bir bo‘g‘inli so‘zlarni yozing; v) “e” unlisi bilan boshlangan bir bo‘g‘inli so‘zlarni yozing.

Leksik o‘yinlar. O‘quvchilarning so‘z ma‘nolari, so‘zning o‘z va ko‘chma ma‘nolari, ko‘p ma‘noli so‘zlar, so‘z va atama hamda ularning o‘xshash va farqli tomonlari, antonim va sinonimlar, omonimlar bo‘yicha nazariy bilimlarini mustahkamlash maqsadida leksik o‘yinlardan foydalaniladi. Misol uchun antonimlar bo‘yicha mashq qilishga mo‘ljallab tuzilgan topshiriqni keltiramiz.

Ko‘chiring. Antonimlarning tagiga chizing.

Bir shirin so‘z odamga,

Asal bo‘lib tuyular.

Bir achchiq so‘z olamga

Zahar bo‘lib tuyular.

Motiv o‘z- o‘zidan hosil bo‘lmaydi. Uni bolalar yoshiga va psixologik xususiyatlariga mos didaktik o‘yinlar va mustaqil ishlar vositasida hosil qilish mumkin. Quyida qiziqarli motivli didaktik o‘yinlardan misollar keltiramiz,



“Davom ettir” o'yini

“Davom ettir” o'yinida o'qituvchi hikoyani boshlab beradi. O'quvchilar uni davom ettiradilar. Bunda o'quvchilarda ijodkorlik qobiliyati rivojlanib, bayon yoki insho kabi ijodiy ishlar yozish malakasi rivojlanadi va so'z boyligi ortadi. Bundan tashqari, ularda mustaqillik, o'z kuchiga ishonch hissi rivojlanadi.

“Davom ettir” o'yinida ona tili va o'qish savodxonligi darslarida yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish mumkin.

1-variant: “Umida barvaqt maktabga kelayotganida yo'lda...”.

2-variant: “Havo ilib, qorlar erib boshladi...”.

3-variant: “Biz sinfimizdagi barcha o'quvchilar, hayvonot bog'iga bordik...”.

“Jonli hikoya” o'yini

“Jonli hikoya” o'yinida, o'qituvchi so'zlar aralash shaklda yozilgan kartochka-qog'ozlarni o'quvchilarga tarqatadi. Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilarga hikoya qilib beradi.

Qog'ozlarda yozilgan so'zlar: 1-variant: havo, bilan, boshlaydi bahor, iliy, kelishi; maysalar, gullab, daraxtlar, boshlaydi, ko'kara.

2-variant: ko'rib qoldi, ko'chada, Olimjon, bolani, yig'layotgan; tushirib yuboribdi, ariqqa,u, koptogini. Olimjon, koptogini, bolaning, olib berdi.

3-variant: sher, yig'in, o'rmon shohi, o'tkazdi; tulkixonning, muhokama qildilar, ular, ishlarini; bo'yniga oldi, Tulkixon, aybini.

O'qituvchi hikoyani ikkinchi marta o'qib bergandan keyin o'quvchilar qo'llaridagi qog'ozlarni shunday ketma-ketlikda joylashtirishlari kerakki, qog'ozlarga yozilgan so'zlar bir butun hikoyani hosil qilishi lozim.

(Qog'ozlarda yozilgan so'zlar birgalikda shu hikoyani hosil qiladi.)

1-variant: Bahor kelishi bilan havo iliy boshlaydi. Daraxtlar gullab, maysalar ko'kara boshlaydi.

2-variant: Olimjon ko'chada yig'layotgan bolani ko'rib qoldi. U koptogini ariqqa tushirib yuboribdi. Olimjon bolaning koptogini olib berdi.

3-variant: O'rmon shohi sher yig'in o'tkazdi. Ular tulkixonning ishlarini muhokama qildilar. Tulkixon aybini bo'yniga oldi.

Bu o'yinni o'tkazishda darslikdagi hikoyalar yoki darslikdan tashqari hikoya va ertaklarni o'qish jarayonidan foydalanishlari mumkin.

Muxtasar qilib aytganda, motivlar o'quvchilarning bilimlarini chuqur egallashlariga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. “Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”. 2020-yil 20-oktabr.

2. Ona tili va o'qish savodxonligi. [Matn]: darslik 3-sinf uchun. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.

3. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari. (Metodik qo'llanma) RTM. 2016-y.

4. www.yuz.uz



INGLIZ TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY “ ONLINE WHITEBOARD” TA'LIM TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Bozorova Fazilat Abdulla qizi

Surxondaryo viloyati Qumqurg'on tumani

XTB ga qarashli 18-maktab o'qituvchisi

Telefon: +998(93)2211998

fazilatbozorova677@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada, ingliz tilini o'qitish jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyasidan darsda amaliy foydalanish hamda yangi texnologiyaning o'quvchilar ongiga ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim texnologiyasi, animatsion, analitik fikrlash, moslashuvchanlik, ko'nikma.

Zamonaviy ta'limda gurrakib rivojlanayotgan o'qitish turlaridan biri bu ta'lim texnologiyalari orqali dars o'tishdir. Shu o'rinda, ta'lim texnologiyasi nima? “degan savolga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Ta'lim texnologiyasi- o'rganishni osonlashtirish uchun kompyuter texnikasi, dasturiy ta'minot va ta'lim nazariyasi va amaliyotidan birgalikda foydalanishdir. Bu texnologiyadan foydalanish bilimlarni cheksiz egallash va boyitishdir. Ta'lim tizimiga yangi usul va texnologiyalarni qo'llash va tatbiq etish umuman an'anaviy o'qitish usullarini chetlab o'tishni anglatmaydi. Aksincha, bu innovatsiya butun o'quv jarayonining ajralmas qismidir. Ta'lim texnologiyalaridan keng foydalanish o'qituvchi va o'quvchiga dars davomida ko'proq moslashuvchanlik va darsni qiziqarli o'tishni ta'minlaydi. Bugungi kunda bunga bo'lgan talab tobora ortmoqda va texnologiya har bir fan uchun foydali hisoblanadi, shuningdek ingliz tilini o'qitishda ham eng ustuvor usullardan biridir. Ingliz tilini o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarning kommunikativ madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, bundan tashqari o'quvchini til bilish ko'nikmasini oshirishdan iborat. O'qituvchining vazifasi har bir o'quvchi uchun tilni amaliy o'rganishda qulay sharoit yaratish, o'z faoiylatini, ijodkorlik mahoratini namoyish etishiga imkoniyat yaratishdir. Bunday ta'lim usullaridan dars davomida foydalanish darning samaradorligini yanada oshiradi. O'qituvchining ma'suliyati ingliz tilini o'qitish jarayonida o'quvchining bilim salohiyatini oshirishdir. Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan biri “online whiteboard” animatsion dasturi bo'lib, bu texnologiyaning bir qancha afzalliklari mavjud. Ushbu ta'lim texnologiyasi dars jarayonini o'zgaruvchanligi va mavzuni keng yoritilishiga qaratilgan. Bu dastur orqali yangi mavzuni qulay va oson tarzda tushuntiramiz va mavzuga oid testlar tuzish orqali mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimi mustahkamlanadi. Shuningdek, whiteboard animatsion dasturi analitik fikrlashni rivojlantirishga imkon beradi va maktab o'quvchilarining dars jarayonini mustaqil ravishda rejalashtirish qobiliyatiga yordam beradi. Zamonaviy ta'lim texnologiyasining bu turi o'qituvchi uchun ham qulay va yangi mavzuni yoritib berishda juda ham foydali hisoblanadi. Bundan tashqari biz bu usulni turli xil yoshdagi o'quvchilar uchun foydalanishimiz mumkin.

“Online whiteboard” dasturida turli xil tushuntirish usullaridan foydalanishimiz mumkin. Bu usullar quyidagilardan iborat:

- matnni o'qish orqali mavzuni tushunish;
- mashqlarni moslashtirish orqali mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash;
- samarali o'yin faoliyatidan foydalanib o'quvchilar uchun turli xil o'yinlar tashkil etish;
- muzokarali o'yinlar tashkil qilish;
- yozuvli jarayonlar tashkil etish.

Yuqorida sanab o'tilgan usullar ingliz tilida juda samarali va foydali dars jarayonini ta'minlaydi. Buning bir qancha ustunlik tomonlari bor.

Birinchidan, bu o'quvchi qobiliyatini sezilarli darajada o'stiradi. Ya'ni o'quvchi yuqoridagi o'yinlar jarayonida faol bo'lishga harakat qiladi. O'quvchini diqqati ko'proq o'rganish usullariga qaratiladi.

Ikkinchidan, o'quvchida o'rganish obyektining xilma-xilligi paydo bo'ladi. Ya'ni bu xilma-xillik faol o'rganishni qo'llab-quvvatlashga yordam beradi va eslab qolish qobiliyatini rivojlantiradi.

Uchinchidan, til bilish mahoratini rivojlantirish. Bu usul asosan yosh bolalar uchun foydali hisoblanib, bunda o'quvchida o'yin turlardan amaliy foydalanish orqali til bilish ko'nikmasi paydo



bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim texnologiyasining bu turi dars jarayonining yanada sarmazmunligini va qiziqarli bo'lishi ta'minlaydi. Shuningdek, “online whiteboard” dasturi o'qituvchi uchun haqiqatan foydali va qulay.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://blog.heyhi.sg>.
2. <https://uz.m.wikipedia.org>.
3. <https://arxiv.uz>.



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING O'ZAKI VA YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISH

Bozorova Gulnoza Axatovna,

Navoiy viloyati, Navoiy shahar

17-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Telefon: +998 90 647 01 56

Annotatsiya: Maqolada “Ona tili va o‘qish savodxonligi “ darsliklari kommunikativ yondashuvdan asosida tuzilib, darslarda o‘quvchilarga grammatik bilimlar berilishi va nutqini rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Jamiyatdan, kitob, ertak, multfilm, kinolar, 1-sinf, mening oilam, Antraktida, nutqiy mavzu, punktuatsiya, leksikologiya, talaffuz, imlo.

O'quvchini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o'qitishning asosiy vazifalaridan sanaladi. O'quvchining o‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishda ona tili va o‘qish savodxonligi darsligida grammatik bilim alohida emas, nutqiy vaziyat ichida berilgan. Bunda boshlang'ich sinflarning “Ona tili va o‘qish savodxonligi “ darsliklari kommunikativ yondashuvdan samarali foydalanib tuzilganligi muhim ahamiyatga ega.

Darsliklarda tilning muloqot vositasi sifatidagi vazifasi birinchi o‘ringa qo‘yiladi. O‘quvchilarga ma’lum vaziyatda qanday gapirish to‘g‘ri bo‘ladi, ya’ni qanday ifoda yordamida fikrni bexato yetkazish mumkin – shu masalani hal qilish orqali til qonuniyatlari tushuntiriladi. O‘rganuvchiga ana shu bexato shakl asosida tilga oid qanday qoida borligi shu qoidaning bir necha xil vaziyatda aks etishi orqali tushuntiriladi. Darslarda faqat yozma matnlar bilan cheklanib qolinmasdan, tilning og‘zaki va yozma shaklidan baravar foydalaniladi. Ushbu darsliklarda, shuningdek, og‘zaki va yozma nutqni tushunish malakasiga ham alohida e’tibor qaratiladi.

“Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsliklarida ona tilini ma’lum qonun-qoidalar asosida emas, jamiyatdan, kitoblardan, ertaklardan, multfilm va kinolardan qabul qilish orqali o‘zlashtirishini nazrda tutilgan. Jumladan, 1-sinfda

“Mening oilam” mavzusida rasm berilib, tarmoqlash usulida oila a’zolarining nomlari: ota, ona, bobo, buvi, oyi, dada, aka, opa, singil, o‘g‘il, bola berilgan. Ushbu rasm yuzasidan quyidagi savollar berilgan:

1. Bir rasmga bir nechta so‘z mos kelishi mumkinmi? Nega shunday? 2. Sizning oilangizda kimlar bor?

Topshiriq” Oila a’zolaringizni bildiruvchi so‘zlarni yozing.

Mazkur darsda o‘quvchilar rasmdan ko‘rib, oila a’zolarini tasavvur qiladi. Birinchi savolga javob berish asnosida bir so‘zning bir necha ma’nodoshlari borligini bilib oladilar. Shuningdek, otani kimdir dada, onani oyi deb atashini anglaydi. Topshiriqni bajarish orqali yozma savodxonligi rivojlanadi. Keyin “Hoshimjonning oilasi” matni ustida ish olib boriladi. Ushbu matn orqali o‘quvchilar ismlar, ismlarning bosh harf bilan yozilishi, kasblar haqida tushunchaga ega bo‘ladi. O‘quvchilarda muomala madaniyati ham shakllantiriladi, ya’ni muloqot jarayonida “ruxsat bersangiz, nega desangiz” so‘zlarini qo‘llashning ahamiyati, Hoshim emas, Hoshimjon deb aytish hurmatlash belgisi ekanligini bilib oladilar.

1-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligining 1-qismi bo‘yicha o‘tilgan darslar orqali o‘quvchilarga quyidagi qoidalar o‘rgatiladi: “Kishilarning ism va familiyasi har doim bosh harf bilan yoziladi. Bayram nomlarining birinchi so‘zi bosh harf bilan yoziladi: Navro‘z bayrami.

“H” tovushi bo‘g‘izda, “x” esa tilning eng orqasida paydo bo‘ladi.

Dialog-ikki yoki undan ortiq kishi o‘rtasidagi og‘zaki muloqot, suhbat. Ikki narsani o‘zaro qiyoslaganda so‘zga –roq qo‘shimchasini qo‘shish mumkin: tez-tezroq.

So‘zga –li qo‘shimchasini qo‘shsangiz, o‘sha narsa bor ekanini bildiradi. Agar so‘zga –siz qo‘shimchasini qo‘shsangiz, o‘sha narsa yo‘q ekanini bildiradi.

3-sinf darsligida “Antraktida –muz saltanati” nomi ostidagi darslarni ko‘rib chiqamiz. Mazkur bo‘limga 6 soat berilgan. Nutqiy mavzuning maqsadi: o‘quvchilarning tabiatni tasvirlash jarayoni bilan bog‘liq tasavvurlarini kengaytirish, ushbu jarayonda ularni faol qo‘llanadigan til birliklaridan foydalanishga o‘rgatish, berilgan mashq va topshiriqlar yordamida og‘zaki, yozma,



o‘qib va tinglab tushunish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.

1-darsda o‘g‘zaki nutqni o‘stirish maqsadida o‘quvchilar bilan darslikdagi rasmlar asosida savol-javoblar orqali suhbat va yozma mashq o‘tkaziladi. Mashqni bajarish jarayonida o‘quvchilar rasm ostida berilgan hayvon nomlarini talaffuz qiladilar, o‘qituvchi har bir so‘zni alohida talaffuz qildirib, uning imlosi va talaffuzida qanday farq borligini sinf doskasida tushuntirib beradi. Masalan, “kashalot” so‘zida “o” harfi “o” tarzida talaffuz etiladi, ammo “o” yoziladi deb tushuntiriladi.

Ikkinchi darsda matnni o‘qib tushunish hamda matndan talaffuzi va imlosida farqlanadigan so‘zlarni aniqlab, shu asosida ish olib boriladi. 3-darsda yozma nutqni rivojlantirish, punktuatsiya qoidalarini o‘rganish; 4-darsda tinglab tushunish, yozma nutqni o‘stirish; 5-darsda darslikda berilgan she’rni o‘qib tushunish, yozma nutqni rivojlantirish, leksikologiya bo‘yicha lug‘at ishida so‘z ma’nolarini izohlash, sintaksis bo‘yicha she’rdan o‘quvchilarga ko‘chirma gaplarni yozish qoidasi biror namuna asosida tushuntiriladi. Shundan so‘ng berilgan she’riy parcha ko‘chirma gap holatiga keltiriladi. 6-darsda o‘tilgan mavzular asosida o‘quvchilar berilgan ma’lumotlar va rasmga qarab kichik hikoya yozadilar. O‘tigan mavzular davomida Antarktidaning tabiati bilan bog‘liq qanday til birliklaridan foydalanilgani yodga solinadi.

Xulosa qilib aytganda, yozma nutq bilan ko‘p ishlash og‘zaki nutq o‘z-o‘zidan rivojlanib qolishiga olib kelmaydi, chunki yozma nutq va og‘zaki nutq mazmun jihatidan bir nuqtada birlashsa-da, ularning amalga oshish jarayoni inson ongida boshqa-boshqa mexanizmning ishlashi orqali ta’minlanadi. Shuning uchun ularning har biriga alohida e’tibor qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 3-sinf. (O‘qituvchilar uchun metodik qo‘lanma) Toshkent. 2022-y.
2. Ona tili va o‘qish savodxonligi. (darslik 2-sinf uchun) 2021-y.
3. Ona tili va o‘qish savodxonligi. (darslik 3-sinf uchun) 2022-y



O'ZBEK TILI FANINI O'QITISHDA O'QUVCHILARNING YOZMA NUTQ MALAKASINI OSHIRISH USULLARINING AHAMIYATI

Daminova Dildora Abdusamatovna

Jalaquduq tumani 31-umumta'lim maktabining
birinchi toifali o'zbek tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada, bugungi kunda o'zbek tili fanini o'qitishda o'quvchilarda yozma nutq malakasini oshirishda qo'llanadigan usullarning ahamiyati haqida bir necha tahlillar berilgan.

Kalit so'zlar: asosdosh so'zlar, maqol, matal, hikmatli so'zlar, iboralar bilan ishlash, x va h tovushlarni farqlash.

Farzandlarimiz-maktabdan kamida ikkita xorijiy tilda so'zlashadigan, bilimdon avlod bo'lib, katta hayotga qadam qo'ysin. Bunday bilim bilan hech bir o'quvchimiz hayot yo'lida qoqilmaydi. Yurtimiz rivoji, xalqimiz faravonligini ta'minlashda mustahkam tayanch bo'ladigan shaxs bo'lib ulg'ayadi.

Sh.M.Mirziyoyev

Ma'lumki, yurtimizda o'zbek tili fani ta'lim o'zbek tilidan boshqa tillarda olib boriladigan umumta'lim maktablarda davlat tili sifatida o'qitiladi. Bunday tarzda ta'lim berilishidan maqsad shuki, yurtimizda yashovchi turli millat farzandlarining o'zbek tilini davlat tili sifatida kundalik mehnat, muomila vaziyatlarida og'zaki va yozma tarzda erkin nutqiy muloqot yuritish uchun yetarli malakalarini shakllantirishdan iborat. O'zbekistonda yashovchi barcha fuqarolar davlat tilida erkin muloqot yurita olishlari, o'z fikrini albatta bexato yozma bayon qila olishlari respublikamiz aholisining bahamjihatlik va do'stlikda yashashlari, birgalikda mehnat qilishlari Vatanimiz taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Shu bois bugungi kunda o'zbek tili barcha ta'lim bosqichlari va yo'nalishlaridagi rus guruhlarida o'qitilmoqda, uning qo'llash doirasi tobora kengayib, respublikamizda millatlararo aloqa vositasi sifatida nufuzi har tomonlama ortib bormoqda. Yurtimizda yashovchi millatidan qat'iy nazar har bir fuqaro, o'zbek tilini faqat og'zaki so'zlashuv uslubda bilibgina qolmay, balki davlat tilida to'g'ri yoza olishi, turli mavzularda o'z fikrini erkin bayon eta olishi hamda yozma rasmiy ish yuritish malakasiga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun o'quvchilarga bilim berishda bir qancha usullardan dars davomida foydalanish mumkin.

1. "Asosdosh so'zlar yasang" o'yini. Bunda o'quvchiga bir asos beriladi va uni davom ettirish vazifasi topshiriladi. Masalan: gul-gulzor-gulchi-guldon-gulgun-guliston-...; bog'-bog'bon-bog'cha kabi holatda davom etiladi.

2. Xalq og'zaki ijodining maxsus turi asosida topshiriqlar berish orqali. Masalan, o'quvchilarga biror maqol, matal, hikmatli so'z kabilarning boshlanish qismini berish va uni davom ettirish mashqlari asosidagi topshiriqlar: Vatani borning ..., Mehnatdan kelsa boylik..., Hunar bo'lsa qo'lingda, ... Mehnat - ... kabi. 3. "So'zdan so'z top" o'yini orqali. Masalan, Istiqbol so'zidan so'z topish vazifasini berishimiz mumkin: is, iqbol, ol, qol, tol, bol, boq, toq, tob, bot, bos, bil, olis, olti, iliq, qis, sol kabilar.

4. "Iboraning ma'nodoshlarini toping" o'yini orqali. Bunda biror ibora beriladi, o'quvchilar esa uning ma'nodoshlarini topib yozishlari kerak. Masalan lom-mim demadi-og'zini ochmadi kabi. Aynan mana shu topshiriqni "Iboraning zid ma'nosini yozish yoki omonimlik xususiyatini izohlash" tarzida ham berish mumkin. Masalan: kulini ko'kka sovurdi-obod qildi, bo'stonga aylantirdi. 5. Ijodiy topshiriqni vazifalar berish orqali. Bunda Fonetika bo'limi bo'yicha berilgan mavzularda ijodiy topshiriqni vazifalar berish usulidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib, biror harf bo'yicha bir xil harflar bilan boshlanuvchi so'zlar asosida kichik matn yaratish vazifasi berilishi mumkin: Asilaning ammasi Anzirat aya, asli Andijonning Asakasidan. Shu holatda ijod qilishga kirishadilar.

6. Qo'shimchalar va ularning turlari yuzasidan qiziqarli topshiriqlar berish ham mumkin. Masalan: uycha-yangicha, ko'pay-ishlay kabi. 7. Tinish belgilari yozma nutq mohiyatini anglash vositasi ekanligini o'quvchilar ongiga singdirish orqali. Yozma nutqning asosiy shartlaridan biri tinish belgilarining ishlatilishi o'rnini



anglashdan iborat bo'lib, o'auvchi mustaqil tarzda buni yozma nutqda to'g'ri qo'llay bilishi lozim.

8.”Imloviy xatolarni to'g'rillab yozamiz”o'yini. Bunda o'qituvchi turli imloviy xatolar bilan yozilgan so'z va iboralarni doskaga yozadi.O'quvchilarga ana shu so'z va iboralarni imlo qoidasiga asosan xatolarni to'g'rillab yozish topshirig'i beriladi. Masalan: o'quvchilarga quyidagi xato yozilgan so'zlar berilishi mumkin: hunuk, hushtam, gazita, labay, kuylak, izat kabi. O'quvchilar bu so'zlardagi imlo xatolarni to'g'rillab yozishlari lozim: xunuk, xushta'm, gazeta, labbay, ko'ylak, izzat kabi holatda.

9.“X” va “h” harflari imlosini o'rganamiz” o'yini asosida mazkur n harflar imlosiga doir bilim va malakalar mustahkamlanadi. O'yin shartiga ko'ra o'quvchilarga yuqoridagi ikki harf bilan yoziladigan so'zlarning atash ma'nolari o'qib beriladi.O'quvchilar shu so'zlarni topib, xatosiz yozishlari lozim bo'ladi. Masalan:

- 1) tasdiq, rozilikni ifodalovchi so'z.
- 2) biror narsaga qiziqadigan, uni yaxshi ko'radigan shaxs.
- 3) onaning singlisi yoki opasi .
- 4) yaxshi qaynamagan yoki pishmagan ma'nolarni anglatuvchi so'z.
- 5) qo'lda tutib, yerda tirab,tayanib yurishga xizmat qiladigan maxsus tayoq va boshqalar.

O'quvchilar javob tariqasida quyidagi so'zlarni yozadilar : ha, havaskor, xola, xom, hassa. Bunday so'zlar qatorini yana davom ettirish ham, har darsda almashtirib turish ham mumkin.

Bugungi kunda o'quvchilarning yozma nutqida uchraydigan kamchiliklarni ijobiy hal etish uchun o'zbek tili fani o'qituvchisi eng avvalo, har bir bola bilan iloji boricha individual holatda hamkorliknda ishlashni yo'lga qo'yishi kerak.buning uchun eng avvalo o'quvchining kitobga bo'lgan qiziqishini orttirishi kerak,o'quvchi aytmoqchi bo'lgan fikrini aniq, lo'nda va ravon ifoda qilish ko'nikmalarini shakllantirish darkor. Har darsda o'quvchi yoshiga moslab hech bo'lmaganda ikkita so'zni bo'g'inga bo'lib yozishni mashq qildirish kerak.So'z birikma va gaplar tuzdirib,tahlil qilish orqali o'quvchilar yozma savodxonligini oshirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.A. Hidoyatova.Malaka oshirish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish.
2. Zarifa Uskinova .Zamonaviy o'zbek tili grammatikasi.
3. Sh.Yusupova.Hozirgi o'zbek tili.



RUS ADABIYOTI TARIXIDAGI DASTLABKI REALISTIK ROMANNING MUALLIFI KIM?

Dehqonova Nilufar

Farg'ona viloyati Buvayda tumani
26-umumiy o'rta ta'lim maktabining
rus tili fani o'qituvchisi.
Tel nomeri: +998990044578

Annotatsiya: ushbu maqolada rus adabiyoti tarixidagi dastlabki realistik romanning muallifi kimligi haqida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: Pushkin, realizm, “Kavkaz asiri”, “Bog'chasaroy favvorasi”, “Yevgeniy Onegin”.

Aleksandr Sergeyevich Pushkin (1799 — 1837) — yangi rus adabiyotining asoschisi, rus adabiy tilining otasi. Pushkin, ijodida shoirona shogirdlikda bitilgan ilk lirika va janub dostonlari — “Kavkaz asiri”, “Bog'chasaroy favvorasi”, “Lo'lilar” dostonlarining romantizmidan — realizmga tadrijotni boshdan kechiradi. “Yevgeniy Onegin” she'riy romani Pushkinning eng samimiy asari edi. V. G. Belinskiy jumladan shunday yozadi: “Bunda Pushkinning butun umri, butun ruhi, butun muhabbati; bundadir uning his-tuyg'ulari, tushunchalari, orzu-umidlari. “Onegin”ni baholash — demak, shoirning o'zini ham uning ijodiy faoliyati butun ko'lamidan kelib chiqqan holda baholamoqdir”. Pushkin roman ustida sakkiz yildan ortiq ishlagan (1823-1831). Pushkin romanida — uning zamonasi, yangi XIX yuzyillik real shaxsining, qahramonlar xarakterini shakllantiruvchi konkret davr voqeligining haqqoniy tasviri, butun boshli tarixiy davr in'ikos ettirilgan, 20-yillar rus jamiyati turli-tuman qatlamlari: Peterburg “Kibor jamiyati”, Moskva boylari, provintsial dvoryanlar, krepostnoy dehqonlar turmushining lavhalari tasvirlab berilgan. Pushkin XIX asr rus adabiyotining bir talay dolzarb muammolarini birinchi bo'lib o'z asarlarida talqin etadi, bular: “Boris Godunov” — xalq tarixni harakatga keltiruvchi kuch sifatida, “Mis chavandoz” — shaxs va davlat; “Belkino qissalari” — “Kichik odam” taqdiri, “Dama qarg'a” — pulning inson ruhi ustidan hukmronligi. “Mosart va Saleri”, “Tosh mehmon” va boshqa kichik tragediyalarida, 30-yillardagi falsafiy lirikasida u borliqning tub masalalari: ishq-muhabbat, ijod, o'lim mavzulariga murojaat etadi. Umumbashariy muhabbat bilan uyg'unlashgan Pushkin she'riyati — rus va jahon adabiyotidagi uyg'un go'zal san'atning eng buyuk misolidir.

Pushkinga qadar rus she'riyatida qasida, marsiya, xat singari har bir she'riy janr klassisizm tomonidan belgilangan qat'iy qonun – qoidalar asosida yozilgan. Pushkin litsey lirikasidan farqli o'laroq Peterburg davri ijodida she'riy janrlar o'rtasidagi va uslubiy farqlarni bartaraf etib, rus she'riyati taraqqiyoti uchun yangi badiiy ufqlarni ochib bergan (“Ruslan va Lyudmila”, 1820). Pushkin ijodining tadrijiy yo'lini shartli ravishda 4 bosqichga ajratish mumkin. Agar 1813 – 1816 yillarni o'z ichiga olgan 1 – bosqichda Pushkin o'z zamondoshlarining badiiy tajribasini o'zlashtirgan bo'lsa, 2 – bosqich (1817 – 1820)da Pushkin ijodining g'oya va mavzular olami kengayib, u o'z uslubiga erishish yo'lida badiiy izlanishlar olib borib, kitobiy til bilan jonli xalq tilini o'zaro yaqinlashtirgan. Shoirning 1820 – 1824 yillar ijodida (3-bosqich) romantizm ustuvorlik qildi. Ammo ko'p o'tmay, Pushkin qahramonni poetiklashtirish va voqelikni ehtiros bilan tasvirlashda davom etgan holda romantik tasvir metodidan chekindi. Pushkin ijodining 1925 yildan boshlangan 4 – bosqichida obrazlar va mavzular ko'lamini chegaralashning har qanday ko'rinishini rad etuvchi, fikr bilan tuyg'uni, haqiqatni tadqiq etish bilan “jonli tasavvur”ni o'zaro uyg'unlashtirishga asoslangan realistik tizimni ishlab chiqdi. Pushkinning rus jamiyatidagi erksevar kuchlar ta'sirida yozilgan zulm va krepostnoylikni fosh etuvchi she'rlari chor hukumatida norozilik kayfiyatini uyg'otdi. 1819 yilda Pushkinning “Yashil chiroq” to'garagida ishtirok etishi esa Aleksandr I ni nihoyatda g'azablantirdi. U 1820 yil mayida Pushkinni Ekaterinoslavga surgun qildi. Shoir Ekaterinoslavga yetib kelishi bilan xastalikka yo'liqadi va ittifoqo shu yerda qo'noqda bo'lgan general N. N. Rayevskiyning oilasi bilan birga dastlab Kavkazga, keyin Qrimga yo'l oladi. Rossiyaning janubida yashash Pushkin ijodida yangi davrning boshlanishiga imkon berdi.



BOSHLANG'ICH MAKTABDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Dolimova Munira Meliqo'ziyevna

Farg'ona viloyati Buvayda tumani
26-umumiy o'rta ta'lim maktabining
boshlang'ich talim o'qituvchisi.
Tel nomeri: +998990073420

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich maktabda axborot texnologiyalaridan foydalanish haqida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: "Aloqa texnologiyalari", "Interaktiv ta'lim texnologiyalari", "Interaktiv ta'lim muassasalari", "Axborot texnologiyalari",

Boshlang'ich maktab o'qituvchisi ishida axborot va kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash zaruriyatidir. Shu munosabat bilan hayotimiz "Axborot texnologiyalari", "Aloqa texnologiyalari", "Raqamli ta'lim texnologiyalari", "Multimedia" "Interaktiv o'quv resurslari", "Interaktiv ta'lim texnologiyalari", "Interaktiv ta'lim muassasalari" va boshqalarga tegishli. Zamonaviy dunyo, o'qilishi va yozish qobiliyati kabi fazilatlariga ega bir qatorda bir qatorda. Texnologiyalar va ma'lumotlarga ega bo'lgan kishi boshqasiga ega yangi uslub Aks holda, uning faoliyatini tashkil etish uchun boshqa masalalarni baholashga boshqacha munosabatda bo'lishlari mumkin. Boshlang'ich maktabda o'qitish natijalaridan biri bu bolalarning zamonaviy kompyuter texnologiyalarini va boshqa o'zini o'zi o'qitish uchun olingan ma'lumotlardan foydalanish qobiliyatiga tayyorligi bo'lishi kerak. Zamonaviy maktabda axborot texnologiyalari o'qitish usullaridan biri sifatida ko'rib chiqilishi kerak.

Turli darslardagi AKTdan foydalanish, talabalarning mahoratli Internetdan oqilona foydalanishga, atrofdagi dunyodagi axborot oqimlariga yo'nalishni rivojlantirishga imkon beradi; Ma'lumotlar bilan ishlashning amaliy usullari; Zamonaviy texnik vositalar yordamida ma'lumot almashish ko'nikmalarini ishlab chiqing.

AKT quyidagi yo'nalishlarda ishlatilishi mumkin:

1. Ish haqi hujjatlarini elektron shaklda saqlash.

Ushbu sohaga quyidagilar kiradi: sub'ektlar, uslubiy piggyback, sinfni rivojlantirish, individual ish uchun kartalarni tayyorlash va talabalarning yutuqlari darajasini nazorat qilish. Bizning maktab o'qituvchi portfelini va talabalar portfelini yaratish ustida faol ishlamoqda. Maktabda elektron onalarga, o'z savollariga javob berish, ularning savollariga javob berish, maktab va sinfdagi voqealar rejasi va ularning natijalari, darslar jadvali.

1-4 sinf o'quvchilari aniq shaklga ega, shuning uchun men yig'ilgan uslubiy xunuk piggy bankida iloji boricha yuqori sifatli tasviriy materiallardan foydalangan holda o'qishni rivojlantirish juda muhimdir katta hajm O'qitilgan fanlar uchun multimedia materiallari. Mening darslarimda men Internetda, shuningdek o'z-o'zidan yaratilgan taqdimotlardan foydalanaman. Filmlarning saboqlaridan foydalanish sizga e'tiborni ko'paytirishga imkon beradi, ijobiy hissiy fonni yaratadi. Ularning poydevori animatsiya hisoblanadi, bu sizga ma'lum bir narsaga e'tiborni jalb qilishga imkon beradigan, talabalarning javoblarining to'g'riligini tekshirib ko'ring, mulohazalar ketma-ketligini va hk. Monitoring o'tkazishda biz testdan foydalanamiz. Bu tur Nazorat qilish talabalarning yutuqlarini ob'ektiv ravishda taqqoslashga, keyinchalik natijalarni statistik ishlashga to'g'ri keladi. Kerakli ma'lumotlarni topish uchun bolalarni o'rganayotgan darslarga tayyorgarlik jarayonida. Masalan, hisobot yoki dunyoning inshenti turli entsiklopediyalarda material qidirmoqda: "Kirill va hayvonlarning entsiklopediyasi", "Rossiyaning entsiklopediyasi", "Rossiyaning tabiati", aqlli va imloali lug'atlar bilan ishlashni o'rganing Ota-onalar yordamida boshqa saytlarda material qidirmoqda. Topilgan material nafaqat mavjud matn ma'lumotlari Shuningdek, fotosuratlar, video, animatsiya, kartalar, sxemalar, viktorina. Bizning darslarimizda darslik moddalarining maqolalaridan olingan ma'lumotlardan tashqari, yangi, noma'lum, elektron manbalardan qazib olingan va Internet ochilgan. Bolalar turli mavzularda o'z loyihalarni tasavvur qilishadi va himoya qiladilar.



ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA ERTAKLARNI O‘RGANISH

Ikromova Ziyada Islomovna,

Navoiy viloyati, Xatirchi tumani

91-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Telefon:+998 97 368 66 33

Islomov Normurod Rizaqulovich,

Navoiy viloyati, Xatirchi tumani

91-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Telefon:+998 99 750 19 58

Annotatsiya: Maqolada ona tili va o‘qish savodxonligi darsliklarida berilgan ertaklar ustida ishlash orqali o‘quvchilarda fanga oid va tayanch kompetensiyalarni shakllantirish haqida fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Rasmiy ertak, xalq ertagi, adabiy ertak, g‘oyaviy mazmun, xulosa, qo‘rqoq bug‘u, ikki irmoq, suhbat, generator, o‘qib tushunish, kommunikativ,.

Ertak xalqning turmush tajribalari, kundalik kuzatishlari natijasida yuzaga kelib, o‘z isbotini topgan maqollar, naqlarni hayot maktabi darsligi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ma‘lumki, boshlang‘ich sinflarda “Ona tili” va “O‘qish kitobi” darsligi birlashtirilib, “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligi bitta fan sifatida 1—2-sinflarda 2021—2022-o‘quv yilida, 3-sinfda 2022-2023-o‘quv yilida joriy etildi. O‘tgan o‘quv yillarida ona tilidan fonetika, leksika, so‘z turkumlari va boshqalar yuzasidan fonetik, morfologik, grammatik qoidalar o‘quvchilar o‘rgatilar va yod oldirilar edi. Yangi darslikda xalq ertaklaridan va adabiy ertaklar berilgan. Ertak matni ustida ishlash jarayonida so‘z, uning ma‘nolari, o‘rindoshlari, qo‘llanish o‘rinlari o‘rganiladi va bu jarayon o‘quvchilar lug‘at boyligini oshiradi.

1-sinfda “G‘alati ziyofat” rasmiy ertak bo‘yicha dars o‘tiladi. O‘quvchilarga xalq ertaklari haqida quyidagicha tushuncha beriladi: “Ertak-xalq to‘qigan badiiy asar.Hali kitob yo‘q vaqtda odamlar bir-biriga aytib berishgan.Bir kishi birovdan eshitgan ertagini boshqa kishiga so‘zlab bergan. Shu yo‘l bilan ertaklar avloddan avlodga o‘tgan.Har bir xalqning o‘z milliy ertaklari bor. Ertak qahramoni-ertakdagi voqeaning asosiy qatnashchisi.”

Ko‘rinib turibdiki, 1-sinf o‘quvchisiga xalq ertagi haqida qoida asosidagi nazariy ma‘lumot emas, sodda tilda, xuddi o‘zaro suhbat shaklida tushuncha berilyapti.

2-sinfda “Unarning foydasi” rivoyati, “Yalqov va qunduz” matni “Yolg‘iz qolgan yo‘l belgisi” va “Donishmand soat” ertaklari o‘tiladi. O‘quvchilar adabiy ertaklar haqida tushunchaga ega bo‘ladi.

3-sinfda darsligida “Vatan”, “Qo‘rqoq bug‘u”, “Ikki to‘lqin”, “Ikki irmoq” kabi adabiy ertaklarga ko‘proq o‘rin berilgan, shuningdek, “Ertak qahramonlari haqida suhbat” ertaklari hamda “Ertaklar-yaxshilikka yetaklar” kabi mavzularda o‘quv materillari mavjud. Darslikga kiritilgan ertaklarni o‘quvchilar bilan tahlil qilganada, ularda ifodalangan g‘oyaviy mazmun o‘quvchilarning ertak haqidagi xulosasi orqali ochib beriladi. Darslikda berilgan ertak matnlari ustida ishlash jarayonida o‘quvchilar ertak haqida o‘zlarining mustaqil xulosasini aytadi, o‘qituvchi esa bolalarning xulosalarini umumlashtiradi. Jumladan, “Vatan” ertagida vatanni sevis, o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurtga mehr-muhabbat g‘oyasi ilgari surilgan. “Qo‘rqoq bug‘u” ertagi jasurlik va mardlik, qo‘rqoqlik haqida bo‘lib, ertak orqali bolalarda mardlik va qo‘rqoqlik tuyg‘usini his etish, og‘ir hayotiy vaziyatlardan qanday yo‘l tutish kerakligi, muammo tug‘ilganda nima qilish lozimligi kabilar xislatlar shakllantiriladi.

Darslikdagi ertaklar orqali o‘quvchilarda fanga oid va tayanch kompetensiya elementlari shakllantiriladi. “Ikki irmoq” matni asosida o‘tiladigan darsda o‘quvchilarda fanga oid va tayanch kompetensiya elementlarini shakllantirishini ko‘rib chiqamiz.

Ertakning 1-qismini o‘rganishda o‘quvchilarda o‘qib tushunish kompetensiyasini shakllantirish:

O‘quvchilar darslikda berilgan “Ikki irmoq” matnini o‘qishlari lozim. Bunda o‘quvchilar bir yoki ikki gapdan o‘qigan holda matnni o‘qib chiqishadi. Bir o‘quvchi o‘qiyotgan vaqtda qolgan hamma matnni kuzatib turishi talab qilinadi. Matn 2–3 marta qayta o‘qib bo‘lingach, 56-sahifadagi savollar bilan suhbat boshlanadi.



Ertakning 1-qismi asosida savol-javoblar o‘tkaziladi. Ushbu savollarga o‘quvchilar daraxtlarning irmoq oldiga peshvoz chiqqan o‘rnini topib, irmoq va daraxtning suhbatida mantiqan fikrlab javob berishi lozim. O‘quvchilar berilgan savollarning javoblarini matndan keltiradi.

O‘quvchilar ertak mazmunidan kelib chiqib, hikoyadagi voqealar real tabiatda sodir bo‘ladigan voqea-hodisalarning badiiy talqini ekanini his qiladi. Bolalar tog‘dan oqib tushgan irmoqlar daryoni hosil qilishini bilib oladi.

O‘quvchilar savollarga javob berib bo‘lgach, ularning javoblari muhokama qilinib, munosabat bildiriladi. O‘quvchilar darslikda berilgan test ustida ishlashda to‘g‘ri javobni topib, nima uchun to‘g‘ri ekanini, qolgan variantlarni nima uchun noto‘g‘ri deb hisoblashlarini aytadilar.

Ushbu ertak ustida ishlash jarayonida o‘quvchilar ibora, qiyoslash, o‘xshatish haqida tushunchaga ega bo‘ladilar.

Ertakning 2-qismini o‘rganishda ham o‘quvchilarda o‘qib tushunish kompetensiyasini shakllantiriladi:

Ertakning 2-qismini o‘qishda o‘quvchilar bir yoki ikki gapdan bo‘lib, matnni o‘qib chiqishadi. Bir o‘quvchi o‘qiyotgan vaqtda qolgan hamma matnni kuzatib turishi talab qilinadi. Matn 2–3 marta qayta o‘qib bo‘lingach, savollar bilan suhbat olib boriladi.

Suhbat jarayonida o‘quvchilar generator(GES) haqida tushunchaga ega bo‘ladi. Generator daryoning kuchi bilan elektr toki oladi. Daryo oqimi gidroelektr stansiya(GES)ning generatorlarini harakatga keltiradi. Natijada elektr toki ishlab chiqariladi. Odamlar bundan bahra oladi, suvsiz dasht-u biyobonlarga suv yetib boradi.

Ertakning 2-qismi yuzasidan suhbat jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarning javoblarini tinglab, ularni to‘ldirgan holda ibora, qiyoslash, o‘xshatish kabi jihatlar so‘zlarning ta’sirchanlik kuchini oshirishini tushuntirib beradi.

O‘quvchilarda fanga oid kompetensiya: yozma nutq, sintaksis, sunktuatsiya bo‘icha bilim, malaka va ko‘nikmalar shakllantiriladi. O‘quvchilar ushbu topshiriqlarni bajaradi:

- Ertakdan xabar, so‘roq va buyruq mazmunidagi ikkitadan gap ko‘chiring. Tinish belgilariga e’tiborli bo‘ling.

Bunda o‘quvchilar matn bilan ishlaydi. Har bir gapga so‘roq berib, mazmunini anglagan holda ixtiyoriy ikkitadan so‘roq, buyruq va xabar mazmunidagi gapni ko‘chirib yozishi lozim. Bu topshiriqda asosiy e’tibor o‘quvchining gaplarga to‘g‘ri so‘roq berishi hamda tinish belgilarini o‘rinli qo‘llay olishiga qaratiladi.

Tahlildan ko‘rinib turibdiki, kommunikativ yondashuv asosidagi topshiriqlar ertakning mazmunini anglashga yo‘naltirilgan, so‘zlar va gaplar ana shu mazmunni ifodalashda qanday vazifani bajarayotganiga e’tibor qaratilgan.

Ertakda takabburlik katta irmoq misolida qoralangan, takabburligi tufayli katta irmoq halokatga uchradi. Kichik irmoqlar mehnatsevarligi, bir-biriga yordam berib, qo‘llab-quvvatlab katta daryo hosil qildi. Demak, ertakdan “Birlashgan uzar” degan xulosa kelib chiqadi.

Muxtasar qilib aytganda, yangilangan darslikdagi ertaklar o‘quvchilarni matnni tushunish va anglash ko‘nikmalarini shakllantirish, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, ularda ijtimoiy hayotning turli sohalar haqidagi dunyoqarashini kengaytirishda muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari. 2017-yil.
2. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 3-sinf.(O‘qituvchilar uchun metodik qo‘lanma) Toshkent. 2022-y.
3. Ona tili va o‘qish savodxonligi. (darslik 2-sinf uchun) 2021-y.
4. Ona tili va o‘qish savodxonligi. (darslik 3-sinf uchun) 2022-y.



РУС ТИЛИ ДАРСЛАРИ ЖАРАЁНИДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАРНИ ҚЎЛЛАШ

Жуманиязова Санобар, Холбоева Барно

Хоразм вилояти Кўшкўпир тумани 5-сон

ИДУМ нинг рус тили фани ўқитувчилари

Тел + 99-888-198-28-26, 97-442-33-38

jumaniyazovasanobar51@gmail.com

xolbayeva barno@gmail.com

Аннотация: Таълим олувчиларни фаоллаштирувчи ва мустақил фикрлашга ундовчи, таълим жараёнининг марказида таълим олувчи бўлган хақида суз юритилади.

Калит сўзлар: Методлар, муаммоли вазият, таълим, дарс жараени.

Ҳозирги вақтда таълим жараёнида ўқитишнинг замонавий методлари кенг қўлланилмоқда. Ўқитишнинг замонавий методларини қўллаш ўқитиш жараёнида юқори самарадорликка эришишга олиб келади. Таълим методларини танлашда ҳар бир дарснинг дидактик вазифасидан келиб чиқиб танлаш мақсадга мувофиқ саналади.

Анъанавий дарс шаклини сақлаб қолган ҳолда, унга турли-туман таълим олувчилар фаолиятини фаоллаштирадиган методлар билан бойитиш таълим олувчиларнинг ўзлаштириш даражасининг кўтарилишига олиб келади. Бунинг учун дарс жараёни оқилона ташкил қилиниши, таълим берувчи томонидан таълим олувчиларнинг қизиқишини орттириб, уларнинг таълим жараёнида фаоллиги муттасил рағбатлантирилиб турилиши, ўқув материални кичик-кичик бўлақларга бўлиб, уларнинг мазмунини очишда ақлий ҳужум, кичик гуруҳларда ишлаш, баҳс-мунозара, муаммоли вазият, йўналтирувчи матн, лойиҳа, ролли ўйинлар каби методларни қўллаш ва таълим олувчиларни амалий машқларни мустақил бажаришга ундаш талаб этилади.

Бу методларни интерфаол ёки интерактив методлар деб ҳам аташади. Интерфаол методлар деганда-таълим олувчиларни фаоллаштирувчи ва мустақил фикрлашга ундовчи, таълим жараёнининг марказида таълим олувчи бўлган методлар тушунилади. Бу методлар қўлланилганда таълим берувчи таълим олувчини фаол иштирок этишга чорлайди. Таълим олувчи марказда бўлган ёндошувнинг фойдали жиҳатлари қуйидагиларда намоён бўлади:

- таълим самараси юқорироқ бўлган ўқиш-ўрганиш;
- таълим олувчининг юқори даражада рағбатлантирилиши;
- илгари орттирилган билимнинг ҳам эътиборга олинниши;
- ўқиш шиддатини таълим олувчининг эҳтиёжига мувофиқлаштирилиши;
- таълим олувчининг ташаббускорлиги ва масъулиятининг қўллаб-қувватланиши;
- амалда бажариш орқали ўрганилиши;

“Ақлий ҳужум” методи-бирор муаммо бўйича таълим олувчилар томонидан билдирилган эркин фикр ва мулоҳазаларни тўплаб, улар орқали маълум бир ечимга келинадиган методдир. “Ақлий ҳужум” методининг ёзма ва оғзаки шакллари мавжуд. Оғзаки шаклида таълим берувчи томонидан берилган саволга таълим олувчиларнинг ҳар бири ўз фикрини оғзаки билдиради. Таълим олувчилар ўз жавобларини аниқ ва қисқа тарзда баён этадилар. Ёзма шаклида эса берилган саволга таълим олувчилар ўз жавобларини қоғоз карточкаларга қисқа ва барчага кўринарли тарзда ёзадилар. Жавоблар доскага ёки «пинборд» доскасига маҳкамланади. “Ақлий ҳужум” методининг ёзма шаклида жавобларни маълум белгилар бўйича гуруҳлаб чиқиш имконияти мавжуддир.

“Ақлий ҳужум” методидан фойдаланилганда таълим олувчиларнинг барчасини жалб этиш имконияти бўлади, шу жумладан таълим олувчиларда мулоқот қилиш ва мунозара олиб бориш маданияти шаклланади. Таълим олувчилар ўз фикрини фақат оғзаки эмас, балки ёзма равишда баён этиш маҳорати, мантикий ва тизимли фикр юритиш кўникмаси ривожланади. Билдирилган фикрлар баҳоланмаслиги таълим олувчиларда турли ғоялар шаклланишига олиб келади. Бу метод таълим олувчиларда ижодий тафаккурни ривожлантириш учун хизмат қилади.

“Ақлий ҳужум” методи таълим берувчи томонидан қўйилган мақсадга қараб амалга оширилади:

1. Таълим олувчиларнинг бошланғич билимларини аниқлаш мақсад қилиб қўйилганда,



бу метод дарснинг мавзуга кириш қисмида амалга оширилади.

2. Мавзуни такрорлаш ёки бир мавзуни кейинги мавзу билан боғлаш мақсад қилиб қўйилганда –янги мавзуга ўтиш қисмида амалга оширилади.

3. Ўтилган мавзуни мустаҳкамлаш мақсад қилиб қўйилганда-мавзудан сўнг, дарснинг мустаҳкамлаш қисмида амалга оширилади.

“Ақлий ҳужум” методини қўллашдаги асосий қоидалар:

1. Билдирилган фикр-ғоялар муҳокама қилинмайди ва баҳоланмайди.
2. Билдирилган ҳар қандай фикр-ғоялар, улар ҳатто тўғри бўлмаса ҳам инобатга олинади.

“Ақлий ҳужум” методининг афзалликлари:

1. натижалар баҳоланмаслиги таълим олувчиларда турли фикр-ғояларнинг шаклланишига олиб келади;
2. таълим олувчиларнинг барчаси иштирок этади;
3. фикр-ғоялар визуаллаштирилиб борилади;
4. таълим олувчиларнинг бошланғич билимларини текшириб кўриш имконияти мавжуд;

“Ақлий ҳужум” методининг камчиликлари:

- таълим берувчи томонидан саволни тўғри қўя олмаслик;
- таълим берувчидан юқори даражада эшитиш қобилиятининг талаб этилиши.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Азизхужаев. Н.Н Ўқитувчи тайёрлашнинг янги педагогик технологияси. Т.2000
2. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни. 1997



INGLIZ TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION
TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Mamadaliyeva Odina

Farg'ona viloyati Buvayda tumani
26-umumiy o'rta ta'im maktabining
ingliz tili fani o'qituvchisi.
Tel nomeri: +998998834104

Annotatsiya: ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida chet tillariga berilgan katta ahamiyat hamda ularni o'rganish uchun zarur bo'lgan innovatsion texnologiyalar yoritilgan

Kalit so'zlar: Chet tili, o'yin, innovatsion texnologiya, texnologik vositalar, usullar, metodlar

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, chet tillarini o'rgatishga qiziqish oshdi va yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratib berildi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, “Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyati o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatlarimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir”. Ushbu fikrlarning mantiqiy davomi sifatida 2012 yil 10 dekabrda qabul qilingan “Chet tillarini” o'rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida”gi Prezident Qarori chet tillarini o'rganish imkoniyatlarini kengaytirdi. Respublikamizda chet tilining o'qitilishi, chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o'quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tili o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Chet tili fani to'rt aspectga (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda. Ta'lim texnologiyalari, bu ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innavatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnoogiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy taxnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o'rganishning har bir aspect (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish)da qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD diskarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilar ham axborot — kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan: – kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin; – chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniedagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin; – ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va cassetalardan foydalanish; – CD pleyerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi. Bugungi kunda maktablarda interfaol o'yinlar orqali dars o'tish an'anaga aylanib bormoqda. Ma'lumki, darsning turli xil o'yinlar asosida o'tilishi o'quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko'nikmalarini oshirish va kuchli bo'lishlarini ta'minlaydi. O'yin texnologiyasidan foydalanishning asosini o'quvchini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi.



STOL TENNISINING RIVOJLANSH TARIXI

Mamajonova Dildora

Farg'ona viloyati Buvayda tumani

26-umumiy o'rta ta'lim maktabi

I toifali jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi

Telefon raqami: +99899.639-30-78

Annotatsiya: ushbu maqolada stil tennisi sport turning rivojlanish tarixi haqida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: stol tennisi, pingpong, stol tennisining koptogi, ITTF

Stol tennisi — kichik koptok va raketkalar bilan stolda o'ynaladigan sport o'yini. Sharqiy Osiyoda paydo bo'lgan. 20-asrning 20y.laridan ko'p mamlakatlarga tarqalgan. Dastlab „pingpong“ (frans. pingpong — koptokning raketka va stolga urilishida chiqadigan ovoz) deb atalgan. Stol tennisi uchun, odatda, stol o'lchami 152,5x274,3 sm; balandligi. 76 sm; turi 183x 15,25 sm bo'ladi. Yog'och raketkaning yuziga rezina plastina qoplanadi. Koptok oq plastikadan yasaladi, diametri 37,2—38,2 mm, og'irligi 2,4—2,53 g. O'yin maydonchasining o'lchami 6—7 x 12—14 m. Rasmiy musobakalar sport zallarida o'tkaziladi: erkaklar va ayollar — jamoa bo'lib, yakka holda va juftlikda hamda aralash juftlikda musobaqalashadilar. Uyin 3 yoki 5 partiyadan o'ynaladi. O'yinchilardan biri 21 ochko to'plasa, u g'olib hisoblanadi. Agar hisob 20:20 bo'lib qolsa, unda o'yinchilardan biri 2 ochko ortiq to'plaguncha o'yin davom ettiriladi. Stol tennisi Xalqaro federatsiyasi (ITTF, 1926-yil tashkil etilgan) 130 dan ortiq milliy federatsiyani birlashtiradi. 1926-yildan har 2 yilda jahon birinchiligi o'tkaziladi, 1988-yildan Olimpiada o'yinlari dasturiga kiritilgan O'zbekistonda Stol tennisi keng ommalashgan. O'zbekiston chempionati va kubogi musobaqalari muntazam o'tkazib turiladi. O'zbekiston Stol tennisi federatsiyasi 1993-yil ITTFga a'zo bo'lib kirgan. O'zbekistonlik Manzura Inoyatova, Saida Burhonxo'jayeva, Svetlana Geta jahon chempionatida (Doxa sh., Qatar, 2004-yil mart) lo'rinni olib, oltin medallar bilan taqdirlandi. Ular bilan birga Nodira Burhonxo'jayeva, Madina Ayupova ham bir qancha xalqaro turnirlarda g'olib bo'lishgan. Pingpong yoki stol tennisi uchun ishlatiladigan to'plam 2,74 gramm va 40mm diametri bilan tortilgan, seluloid yoki shunga o'xshash plastikdan yasalgan. Qiziqarli haqiqat: 2000 yil oldin to'plari havo qarshilik oshirish va tomoshabinlar yaxshi ko'rish mumkin, shunday qilib, o'yin tezligini olish maqsadida, Sidney Olimpiada o'yinlarida 38mm bilan almashtirildi, deb edi 40mm haqida edi o'yin va shu sababli uning mashhurligini oshiradi.

Sotsiumda har yili stol tennisi turniri o'tkaziladi. Ushbu o'yin muxlislari tanaffus paytida va ish kunidan keyin stollarda yig'ilishadi. Bir so'z bilan aytganda, bizning kompaniyalar guruhida bu korporativ sport turi. Buning ajablanarli joyi yo'q: stol tennisi o'ynash nafaqat tanani, balki ishda juda foydali bo'lgan fazilatlarni ham tarbiyalaydi. Ma'lum bo'lishicha, stol tennisi o'ynash nafaqat yaxshi jismoniy shakl va salomatlikni saqlash uchun foydalidir. Ushbu o'yin professional sohada va qiyin hayotiy vaziyatlarda yordam beradigan ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Tez qaror qabul qilish va vaziyatlarga zudlik bilan munosabatda bo'lish qobiliyati stol tennisi o'yinchilariga xos fazilatlardir. O'yin davomida dushmani "aldash", uni aldamchi usullar va fintlar yordamida sarosimaga solib qo'yish ham muhimdir. Va eng muhimi, o'zingizni bir soniya ham yo'qotmang, aks holda siz o'zingizni mag'lub deb topasiz. Shunday qilib, tennis stolidagi jang sxemasi har qanday kasbiy faoliyatga osongina proektsiyalanishi mumkin. Stol tennisi diqqatni, stressga chidamlilikni rivojlantiradi. Axir, o'yin nihoyatda o'ynaladi tez sur'at- daqiqada 173 zarbagacha (bu 1993 yilda o'rnatilgan jahon rekordi). bor professional sportchilar to'p soatiga 160 km dan yuqori tezlikda to'r ustida uchadi! Ushbu sport turida o'g'il bolalar va qizlar o'rtasida farq yo'q, u ikkalasiga bir xil darajada mos keladi. Yoshga kelsak, bo'lim turli bolalarni qabul qiladi, ularni tegishli guruhlariga taqsimlaydi.

Siz 6 yoshdan boshlab bolalar uchun stol tennisi o'ynashingiz mumkin

Treningni boshlash uchun ideal yosh - 6-7 yosh. Guruhga oldinroq kelish tavsiya etilmaydi - bu mavzuga diqqatni jamlash qobiliyatining pastligi va yosh bolalarda sekin reaksiya bilan bog'liq. Bundan tashqari, stol tennisi stollari standartdir, bolalar uchun maxsus imkoniyatlar yo'q.



ERGONIMLARNING FUNKSIYALARI ULARNING TASFONLASH XUSUSIYATLARI BO'YICHA.

Maxsudova Xolisxon Ummatovna

Andijon mashinasozlik instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida
Tayanch doktoranti
xolisxon@mali.ru
tel: +998911606100

Annotasiya: Ushbu maqola hozirgi vaqtda tilshunoslarning jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni aks ettiruvchi tilning holati va faoliyatiga qiziqishi tildagi shahar tili kabi bir hodisaga qaratilgan bo'lib, u til vositalarining majmui bilan tavsiflanadi. Ushbu tushuncha zamonaviy tilshunoslik uchun nisbatan yangi, ammo shunga qaramay, sotsiolingvistikada ushbu hodisani o'rganishning ma'lum bir an'anasi shakllangan.

Kalit so'zlar: adabiy onomastikada, antroponimikada, etnonimikada, toponimika, eponim, onim.

Hozirgi vaqtda inson hayotida turli voqeliklarning ortib borishi munosabati bilan jamiyat hayotidagi yangi hodisa va voqeliklarni individuallashtirish va aniqlash imkonini beruvchi o'ziga xos ismlar soni muttasil oshib bormoqda. Onimlarning shakllanish jarayoni boshqa turdagi nutqda kuzatiladi: adabiy onomastikada, antroponimikada, etnonimikada, toponimikada va boshqalarda. Turli sohalaridagi o'ziga xos nomlar majmui ancha harakatchan, kam o'rganilgan va o'ziga xos talqinni talab qiladi. Bu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Hozirgi vaqtda tilshunoslarning jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni aks ettiruvchi tilning holati va faoliyatiga qiziqishi tildagi shahar tili kabi bir hodisaga qaratilgan bo'lib, u til vositalarining majmui bilan tavsiflanadi. shahar til jamoasi tomonidan qo'llaniladigan kodlangan tizim. Ushbu tushuncha zamonaviy tilshunoslik uchun nisbatan yangi, ammo shunga qaramay, sotsiolingvistikada ushbu hodisani o'rganishning ma'lum bir an'anasi shakllangan.

Onimlarni o'rganishga turli yondashuvlar o'z talablarini belgilaydi. Funktsional nuqtai nazardan shuni bilish kerakki, "nominatsiya aktida faqat inson faoliyati yo'naltirilgan haqiqiy yoki xayoliy ob'ektlar nomlanadi" [10, p. 37]. G. V. Kolshanskiy ta'kidlaganidek, "nominatsiyaning mohiyati shundan iboratki, lisoniy belgi biror narsani bildirishi yoki narsa bilan qandaydir korrelyatsiya qilishi emas, balki u insonning bilish faoliyati natijasida qandaydir mavhumlikni, dialektik ziddiyatni namoyon qiluvchi mavhumlikni ifodalaydi. umumiy real predmetlar va narsalar» [8, b. 12].

Bunday kognitiv faoliyatning natijasi sub'ektning bir nechta funktsiyalarni birlashtiradigan tegishli nom yordamida ma'lum bir ob'ektni ajratib ko'rsatish niyatidir.

Funktsiya - bu nutqda takrorlanganda til birligi tomonidan bajariladigan tayinlash, rol. 506].

Tilning umumiy funktsiyalaridan farqli o'laroq, ergonimlarning vazifalari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Asosiy funktsiya nominativ (nominativ). Bu funktsiya barcha xos nomlar uchun umumiydir; ko'pincha identifikatsiyalash, individuallashtirish funktsiyasi bilan parallel ketadi. Qo'shimcha funktsiyalar ergonimiya bo'yicha tadqiqotlarda an'anaviy bo'lgan informatsion (axborot) va reklama (pragmatik) hisoblanadi.

Ergonomik tizimni tahlil qilishning turli yondashuvlari tadqiqotchilarga qo'shimcha funktsiyalarni aniqlash imkonini beradi, A.V.Superanskayaning fikriga ko'ra, ekstralingvistik, ya'ni. ijtimoiy, ekstralingvistik voqelik elementlari va til elementlari o'rtasidagi munosabat tufayli.

Bu funktsiyalarga ta'sir qilish, estetik (ism ijobiy assotsiatsiyalarni uyg'otadi, eufoniyaga ega); memorial (nomlarda asoschilarning ismlari, mashhur musiqa guruhlari, badiiy filmlar va boshqalarning nomlari mavjud); himoya funktsiyasi (nomlar maxsus qonunlar bilan himoyalangan va ularning mavjudligi ma'lum elementlardan foydalanganda nomzodlarni cheklaydi, masalan, "rus-", "ros-"); reklama ob'ektining kelib chiqishi yoki uning joylashgan joyini belgilash bilan bog'liq informatsion va pragmatik funktsiya; fatik funktsiya (maqsadli auditoriya bilan aloqa o'rnatish); konnotativ funktsiya (nomning milliy madaniy qadriyatlarga murojaati); til ijodkorligi jozibali va ekzotik funktsiyalar bilan shartlangan; ergonimlarning yetakchi vazifalari (nominativ va identifikatsiya qiluvchi) informatsion funktsiya (shahar ob'ektlarining ma'lumot beruvchi,



bilvosita ma'lumot beruvchi va shartli nomlari), shuningdek, lingvistik ta'sir funktsiyasi (ifodali, jozibali, mnemonik, sehrli, o'ynoqi) bilan to'ldiriladi.

Shu bilan birga, E. N. Ivanova ergonimning informatsion va pragmatik funktsiyalarini taqqoslashda ma'lum bir qonuniyatni ko'rish mumkinligini ta'kidlaydi: ismning axborot mazmuni qanchalik baland bo'lsa, u shunchalik ijodiy ko'rinmaydi.

Shunday qilib, bu turdagi onimlarning ko'p funktsionalligi nominatorning aqliy va nutqiy faoliyatiga bog'liq bo'lib, unda ob'ektni ko'rsatishda nomning ustuvor va yordamchi funktsiyalari aniqlanadi.

Qoida tariqasida, ergonik tizimni o'rganish sinxronlikda sodir bo'ladi, ya'ni. ma'lum bir vaqtning o'zida. Bu holat tilshunoslarning e'tiborini bir vaqtning o'zida va, qoida tariqasida, bir sohada faoliyat ko'rsatadigan nomlarga qaratadigan ergonomik maydonning shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan elementlarning muayyan vaqt davridagi o'zaro bog'liqligini, o'zaro ta'sirini, o'zaro bog'liqligini anglatadi. boshqacha aytganda, "vaziyatli ergonimlar" ga.

Tizimda ham, agregatda ham ergonimlarni o'rganish bo'yicha ko'plab tadqiqotlarga qaramay, shuni ta'kidlash mumkinki, ushbu onimlar qatlamining tizimliliigi va tizimliliigi yaxshi rivojlangan emas, mos ravishda ergonimik lug'atni tasniflash masalasi eng dolzarb masalalardan biridir. .

Zamonaviy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, barcha onomastik modellar ma'lum bir ergonimning niyatini aniqlaydigan funktsiyalar asosida olingan motivatsion xususiyatlarga asoslanadi. Mavjud tasniflarni tahlil qilish ularni ergonimlar bo'linishining etakchi xususiyatiga ko'ra guruhlash imkonini beradi.

Shunday qilib, T. P. Romanova va V. V. Starodubtseva tijorat nomlarining funktsional yo'nalishini asosiy xususiyat sifatida ishlatadilar, ya'ni nominatsiya, ma'lumotlilik va reklama. Sanab o'tilgan vazifalariga ko'ra, ergonimlar informativ, reklama-axborot, reklama va nominativ, shuningdek, haqiqiy va ramziy bo'linadi.

Bundan tashqari, N. V. Shimkevichning ta'kidlashicha, "tijorat ergonimlari ushbu ergonim bilan belgilangan kompaniya xizmatlarini raqobatdosh kompaniyalar xizmatlaridan afzal ko'rish to'g'risida qaror qabul qilish uchun qabul qiluvchiga nisbatan yuqori darajada ta'sir qiladi".

I. V. Kryukova, A. M. Emelyanovalarning tadqiqotlarida tasniflar bir qator xususiyatlarning o'zaro ta'siri asosida qurilgan: motivatsiya, assotsiatsiya, derivatsiya. O'z navbatida, M. E. Novichixina ergonimlarni uchta belgining o'zaro ta'siri tizimida ko'rib chiqishni taklif qiladi: motivatsiya darajasiga ko'ra; nomzodlar tuzilishi bo'yicha; oshkoralik darajasiga ko'ra.

Biz T.A.Novojilovanning tadqiqotida rasmiy derivativ xususiyatlarni topamiz, u nomlarning uchta guruhini nomlangan ob'ektni ko'rsatishning aniqlik darajasiga ko'ra (nomenklatura terminiga bo'lgan ehtiyoj) ajratadi [13].

Ergonimlar semantikasining kommunikativ-pragmatik potentsial bilan o'zaro ta'sirida konnotativ jihati M. G. Qurbonova ishida taklif qilingan. Bu xususiyatlar asosida muallif ergonimlarning pragmatik yo'nalishining uch turini ajratib ko'rsatadi: 1) informativ; 2) ramziy; 3) informativ-ramziy.

F.F.Alistanova ishida barcha motivatsion, funktsional, formal derivativ xususiyatlarning (rangi, shakli, o'lchami, me'moriy detallari, hududning o'ziga xos xususiyatlari, nominator bilan tasodifiy assotsiatsiyalar) o'zaro ta'siri mavjud bo'lib, bu haqda gapirishga imkon bermaydi. muayyan tasniflash xususiyatlari.

Shu bilan birga, A. A. Trapeznikova A. V. Superanskayaga ergashib, barcha turdagi tasniflar uchun asos sifatida onimlarni haqiqiy, ramziy va reklamaga bo'linishni taklif qiladi, bu uning fikricha, ergonimlarga jozibali va taklif qiluvchi funktsiyalarni bajarishga imkon beradi. aralash, sanab o'tilgan turlarning kombinatsiyasini ifodalaydi.

So'nggi o'n yilliklardagi ergonimlarning tasnifi tahlili shuni ko'rsatdiki, barcha tadqiqotlarning asosiy yo'nalishi semasiologikdir, ya'ni semantikaning ma'nosi ifoda tekisligidan tortib to ma'nosigacha o'rganiladigan jihatining tahlili mavjud. mazmuni. Odatda, semantikaning mazmun tekisligidan ifoda tekisligiga qadar ma'no o'rganiladigan jhati juda yuzaki ko'rib chiqiladi, garchi semasiologiya va onomasiologiya, ma'no nazariyasi va belgilanish nazariyasi zamonaviy tushunchada ikkitadir. bir xil ilmiy fanning jihatlarini va usullari - semantika.

Shubhasiz, semasiologiya so'zning semantik tuzilishiga e'tibor qaratadi va ko'p komponentli tuzilma sifatida so'zning leksik ma'nosini tahlil qiladi. Shu bilan birga, onomasiologik yondashuv og'zaki obrazlarning semantikasini yanada to'g'ri talqin qilishga, lingvistik shaxsning o'ziga xosligini aniqlashga yordam beradi. uning barcha darajalarida.



Leksik birliklarning qarama-qarshi semasiologik va onomasiologik tavsifi ularni tizimda qat'iy "o'rnatadi", bu ularning ma'nosi "chuqurligi" ning vizual tasvirini beradi.

Biroq, onomasiologik yondashuv tilning nominativ funktsiyasining mohiyati masalasini yangi til belgisi sifatida yangi nomning shakllanish jarayonida uning kommunikativ va kognitiv-kognitiv funktsiyalari bilan chambarchas bog'liqligini ko'proq adekvat ko'rib chiqadi.

E. S. Kubryakova onimlarni o'rganishning ushbu jihati haqida shunday ta'kidlaydi: “Ushbu birlik nominatsiya birligi bo'lishi uchun bitta talabni qondirishi kerak – belgilash, nom sifatida xizmat qilish, alohida shaxs va qiymat sifatida atalgan narsani ta'kidlash, nominativ funktsiya, ya'ni nominatsiya ob'ektida til orqali aniqlangan narsani ifodalaydi va keyinchalik nutq faoliyatida va ob'ekt bilan aqliy operatsiyalarda ushbu ob'ektni o'z nomi bilan almashtiradi” [10, s. 38].

Ergonimning funktsional-tasniflash holatini tahlil qilish ushbu turdagi onimlarni keyingi tadqiq qilish uchun zarur bo'lgan asosiy xususiyatlarni aniqlashga imkon beradi: 1) ergonimlarning ko'p funktsiyaliligi nominatorning ustuvorligi va maqsadiga asoslangan niyatlariga asoslanadi. tijorat ob'ektining yordamchi funktsiyalari; 2) mavjud tasniflarning semasiologik yo'nalishi onomasiologik yondashuvdan foydalanishga asos beradi, bu ergonomik materialni yanada aniqroq talqin qilishga va uning barcha darajalarida lingvistik shaxsning o'ziga xosligini ochib berishga yordam beradi.

Ushbu xulosa ergonimlarni kognitiv nuqtai nazardan tahlil qilish yo'nalishini oldindan belgilab berdi. Boshqacha qilib aytganda, ergonimlarni ma'lum bir yo'nalishda ko'rib chiqishdan oldin, o'rganilayotgan sohada ergonimlarning bajaradigan vazifalariga aniq ta'rif berish kerak. Tadqiqning bu jihati, eng avvalo, predmet nomlarining nom beruvchi ongida hukmronlik nuqtai nazaridan turli darajada u yoki bu vazifani bajarishi zarur.

Krasnodar o'lkasining onimlariga kelsak, shuni aytishimiz mumkinki, bu jihatda nomzod nuqtai nazaridan ma'lum bir funktsiyaning ustunligining to'rtta darajasi mavjud.

Biz birinchi darajali nomlarga murojaat qilishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz, faqat ma'lumot beruvchi vazifani hech qanday ma'nosiz, ya'ni. pragmatikaning to'liq etishmasligi bilan: maishiy texnika, ElektronServis, Delikates, Uy-ro'zg'or buyumlari, Bog'bon, Sport va madaniy mahsulotlar, Tortlar va boshqalar.

Ikkinchi daraja ikki funktsiyani bajaradigan nomlarni o'z ichiga oladi: informatsion va pragmatik: Musiqa olami, Rus marvaridlari, Stroybat, Video olami, Baliqchilik lageri, Bolalik sayyorasi, Knigomir, Malaxit qutisi, Kerakli narsalar, Sacvoyage, Maktab o'quvchisi, Marafon, Sevimli kitob, Qalam-xizmat, Bibliomaniac, Joriy qator, Uy olami, Prorab, Boss, Parhez, Barbekyu hovlisi, Yogurt bar, Ming kichik narsa va hokazo.

Biz uchinchi darajaga korxona faoliyati bilan bog'liq hech qanday ishora yoki assotsiatsiyalarsiz faqat pragmatik funktsiyani bajaradigan ob'ektlarning nomlarini ko'rsatishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz, ya'ni. informatsion komponentning to'liq yo'qligi bilan. O'rganilayotgan hududning ergonimlari tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu turdagi nomlar ko'pincha restoran, mehmonxona va boshqa shunga o'xshash muassasalarning nomlarini o'z ichiga oladi, bu erda nomenklatura belgilarining o'zi, korxona faoliyati ko'rsatib bo'lmaydi. “restoran”, “mehmonxona”, “mehmonxona” kabi ob'yekt faoliyatini aks ettirishda barcha semantik yukni o'z zimmasiga oladi: “Yetti juma”, “Omad karvoni”, “Yig'lama”, “Ivushka”, “Maple”, “Muvaffaqiyat siri,

Sakkizinchi jannat, janubiy tun, oltin toj, moviy nur, kunduz va tun, oq atirgul, oq oqqush, mayiz, shayton, orol, shamol va boshqalar.

To'rtinchi daraja semantik jihatdan yashirin, ma'lumotlilik va qabul qiluvchi uchun konnotativlik nuqtai nazaridan "bo'sh", ergonimlardir. Bunga lotin tilida yozilgan ismlar kiradi, ular apriori chet el deb qabul qilinadi va shuning uchun qabul qiluvchilarning katta qismi bunday onimlarni "bo'sh" deb qabul qiladi, hech qanday funktsiyani bajarmaydi, faqat nomzodning lingvokreativligini aks ettiradi: Milliy, Yumshoq, City, Carrera, Lounge, View, Stateman, Energy, Lighthouse, Vanilla, Parasole va boshqalar.

Shunday qilib, ergonimning funktsional-pragmatik yo'nalishi turli xil konseptual xususiyatlar mavjudligidan dalolat beradi, bu bizga onomastik tushunchalarni tanlash va ularni turli yo'nalishlarning kontseptual xususiyatlarini ajratib ko'rsatish orqali ifodalash ergonimning ishlashi va maqsadlariga bog'liqligini aytishga imkon beradi. muloqotda nom beruvchining. Onimlarning talqiniga bunday yondashuv funktsional nuqtai nazardan eng maqbul ko'rinadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alistanova F. F. Zamonaviy rus tilining ergonimlari mikrotizim sifatida: muallif. diss. ... k. filol. n. Maxachqal'a, 2011. 24 b.
2. Axmanova O. S. Tilshunoslik terminlari lug'ati. M.: Sov. Entsiklopediya, 1969. 606 b.
3. Butakova E. S. Tomsk ergonimiyasida til ijodkorligi // Tomsk davlat pedagogika universitetining xabarnomasi. 2013 yil. 3-son (131). 146-151-betlar.
4. Emelyanova A. M. Ko'p millatli shaharning lingvistik landshaftidagi ergonimlar (biznes nomlari misolida, Ufa shahridagi savdo, madaniy, sport inshootlari): muallif. diss. ... k. filol. n. Ufa, 2007. 23 b.
5. Emelyanova A. M., Yakovleva E. A. Onomastik makon "shahar tili" ning ajralmas qismi va uning asosiy birliklari sifatida (Ufadagi ergonimlar misolida) // Boshqird universitetining xabarnomasi. 2006. No 3. S. 90-94.
6. Ivanova E. N. Ijodiy nominatsiya texnikasi (Yekaterinburgdagi kitob do'konlari nomlari misolida) // Ural filologiya xabarnomasi. “Til. Tizim. Shaxsiyat: ijod tilshunosligi. 2013 yil. 3-son (22). 27-31-betlar.



ODOB AXLOQ – INSON ZIYNATI

Nasimova Nargiza

Farg'ona viloyati Buvayda tumani
26-umumiy o'rta ta'im maktabining
tarbiya fani o'qituvchisi.
Tel nomeri: +998998694773

Annotatsiya: ushbu maqolada **odob axloq qoidalari** haqida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: tarbiya, inson, oila, oilada farzand tarbiyasi, yaxshi tarbiya

Odobli, bilimdon, mehnatsevar, iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir. Darhaqiqat, har bir farzand shaxsi oilada shakllanadi. Demak, oila-barkamol avlod poydevori hisoblanadi. Shunday ekan, oilada farzandlarni axloqiy-huquqiy jihatdan tarbiyalash, ayniqsa, adolat, burch, vatanparvarlikni shakllantirish, ona vatanni sevish hissini uyg'otish o'ta muhim hisoblanadi.

Oilada farzandlarni o'z burchiga sadoqat ruhida tarbiyalash mas'uliyat, onglilik, vijdon kabi fazilatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Bunda ota-onaning o'zaro samimiy munosabati, ularning farzandlari bilan yaqin, do'stona munosabatda bo'lishi, ularning kelajakdagi orzu-maqсадlarini tushunib olishlari, farzandlarning sog'-salomat voyaga yetishlari uchun asos bo'ladi.

Inson tarbiya jarayonida yaxshi xulq-atvorga, odatlarga va aql-farosat omillariga ega bo'lgan bo'lsa, hayot saboqlarini shunchalik yaxshi anglaydi va yaxshi ishlarni amalga oshiradi, va aksincha, qanchalik tarbiyasi kam, hayotiy ko'nikmalari oz bo'lsa, bunday shaxs ba'zan bilib yoki bilmay yomon ishlarga qo'l uradi.

Hech qachon bolalarni tarbiyalashda yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklardan ko'z yummasligimiz kerak. Hozirgi turmushimizda ba'zi bir odobsiz, bilimsiz, aqlsiz, giyohvand, ota-onasiga qo'l ko'taradigan va o'z bolalarining baxtsiz yashashiga sababchi bo'layotgan kishilar uchraydi. Bundaylarning paydo bo'lishiga asosiy sababchi ota-onalari-ku? Bolasining insoniy xatti harakatlariga ularning tarbiyaga loqaydliklari sabab bo'lgan.

Yaxshi tarbiya, ba'zilar o'ylaganidek, bir soatlik yoki bir kunlik ish emas. Maqsadli tarbiya tarbiyachidan chidam, matonat, katta bilim va tajriba talab qiladi. Demak, har bir ota-ona va o'qituvchi tarbiyaga oid bilim va malakaga ega bo'lishi shart.

Bolalar tarbiyasida tezda ijobiy natijalarga erishish uchun ularga bilim berish bilan birga, ma'lum mehnat jarayonlariga jalb etish, kasb va mutaxassislik sir-sinoatlarini qo'shib o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Tarbiya ishining ba'zan samarasiz bo'lishiga asosiy sabablardan biri tarbiya jarayonida tartib-intizomning bo'lmasligidir. Shaxs qanchalik mehr-muhabbat va tartib-intizom asosida tarbiyalansa, yomon xatti harakatlardan shunchalik uzoq bo'ladi.

Tarbiyaning asosiy maqsadi yoshlarni baxt-saodatli, o'z zamonining aziz, hurmatli va fidoiy kishisi qilib tarbiyalashdan iborat.

Tarbiyaning murakkabligi shundaki, u hech qachon tugamaydi, ya'ni kishi tug'ilganidan to o'lguniga qadar zarur bo'ladi. Bundan tashqari, bir tarbiya ko'rgan avlod o'rniga kelgan farzandlarni yana qayta boshdan tarbiya qilish darkor bo'ladi. Bu esa tarbiyaning tinimsiz davriyligini va abadiyligini ko'rsatadi.

Islom ta'limotiga ko'ra, farzand ota-ona zimmasidagi omonat bo'lib, ular bu omonat haqida mas'uldirlar. Farzandlar tarbiyasiga e'tiborsizlik ulkan xato, omonatga xiyonat va kishi dinining nuqsonidir. Ota-ona farzandining birinchi murabbiyidirlar.

Qur'oni karimda oila ahliga e'tiborning qanchalik zarurligini Alloh taolo shunday bayon qiladi:

“Ey mo'minlar, sizlar o'zlaringizni va ahli-oilalaringizni o'tini odamlar va toshlar bo'lgan do'zaxdan saqlangizki, u (do'zax) ustida qattiqdil va qattiqqo'l, Alloh o'zlariga buyurgan narsaga itoatsizlik qilmaydigan, faqat o'zlariga buyurilgan narsani qiladigan farishtalar turur” (Taxrim, 6-oyat)

Har qanday tarbiya, xususan nasihat oilada boshlanadi. Tarbiyaning bosh maqsadi – bir-biriga mehr-oqibatli insonlarni voyaga yetkazishdir. Ota va onalar yana unutmasinlarki, bugun farzandlari tarbiyasiga e'tibor bermagan kishi oradan yillar o'tgach, uysiz, oilasiz qoladi.



ОНА ТИЛИ ВА О‘ҚИШ САВОДХОНЛИГИ ДАРSLARIDA О‘ҚУВCHILAR ИLMIY ДУНYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH

Pirmanova Aziza Xolmurot qizi,

Navoiy viloyati, Navoiy shahar

17-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Telefon:+998 94 226 75 85

Annotatsiya: Maqolada ona tili va o‘qish savodxonligi darsliklarida berilgan badiiy, informativ va ilmiy-ommabop uslubdagi matnlar o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishidagi ahamiyati haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Kompetensiya, tasvirlar, turli janrda, qiziqarli topshiriqlar, rasm, suhbat, audiomatn, fan, texnologiya, tevarak-atrof, narsa, hodisalar, nutqiy.

Ma’lumki, keyingi yillarda boshlang‘ich sinflarning ona tili va o‘qish savodxonligi darsliklari, mashq daftarlari va o‘qituvchilar uchun nashr qilingan qo‘llanmalar materiali mazmunan yangilandi. Ushbu darsliklardagi materiallarning asosiy mezonini matn va alohida gaplarning bilimni boyituvchi qimmati, leksik-uslubiy aniqligi, mavzu jihatdan xilma-xilligi, hayotning turli tomonlari bilan bog‘lanishi, matnlarning g‘oyaviy-mavzuviy yo‘naltirilganligi, kichik yoshdagi o‘quvchilarga mosligidir. 1-3-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darsliklarda berilgan matnlar va she‘rlar esa bolaning ijtimoiy hayotga kirishib keta olishida ko‘maklashadigan, ham badiiy, ham informativ, ham ilmiy-ommabop uslubdagi matnlardan iborat. Ayniqsa, darsliklarda tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun har bir mavzuga alohida topshiriqlar ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘qib tushunish kompetensiyasining barcha qismlarini qamrab oladigan savol va topshiriqlarning berilganligi muhim o‘rin tutadi. Ona tili va o‘qish savodxonligi darsliklarida tilning grammatikasini o‘rgatish, til strukturasi qoidalarni yod oldirishga emas, balki tilning eng muhim va kerakli qoidalarini o‘rganish ko‘zda tutilgan.

Umuman olganda, darsliklardagi rang-barang tasvirlar, turli janrdagi matnlar va qiziqarli topshiriqlar o‘quvchilarning darslarida tilni o‘rganish jarayonida ularda ilmiy dunyoqarash asoslari shakllanishiga yordam beradi. Darsliklardagi tilni o‘rganishga asos bo‘ladigan materiallar bilim berishdagi, g‘oyaviy-siyosiy va badiiy qimmati bilan hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. Darslarga o‘qituvchining metodologik yondashuvi, o‘quvchilar o‘zlashtiradigan ijtimoiy hodisa sifatida rivojlanib boruvchi til haqidagi bilimlar majmuasi, o‘quvchilar o‘rganib oladigan bilish usullari bolalarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stiradi. Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishda maktabda ona tilini o‘rgatishga asos bo‘ladigan material alohida qimmatga ega.

Ushbu maqolada darsliklarda berilgan ilmiy-ommabop matnlar hamda bu matnlarning o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishdagi ahamiyati haqida to‘xtalib o‘tamiz.

1-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darsligida “Siz buni bilasizmi?”, “Ko‘zoynakka qadar” matni, “Asalari qanday boqiladi?”, “Sabzavotlar nima deydi?”, “Yerning yo‘ldoshi” Baxtiyor Sheraliyevning nomi berilmagan (qizilishton haqida) matnlari; 2-sinfda “Qora oltin”, “Kutilmagan ixtiro”, “Quyosh-quvvat manbayi”, “Samarqand – tarix beshigi”, “Yozuvning tarixi”, “Olim bo‘lmoqchiman” “Kutilmagan ixtiro” kabi matnlar; “Baktiriya va mikroblar” “Tanamizni o‘rganamiz”, “Katta bo‘lsam, kim bo‘laman?”, “Robot ixtiro qilaman”, “G‘aroyib ixtirolar”, “Yozuvni kim ixtiro qilgan” mavzulari bo‘yicha rasm asosida suhbat; “Baktiriya va mikroblar”, “Tanamiz – mo‘jizamiz” kabi audiomatnlar; “Ko‘za yasash jarayoni”, “Men ishlab chiqaradigan dori”, “Men o‘qituvchi bo‘lsam, bolalarni qanday o‘qitaman?”, “Robot ixtiro qilaman” kabi mavzularda matn yozish; “Mening kichik fermam” va boshqa mavzularda loyihasini tuzish kabi o‘quv jarayonlarida o‘quvchilar fan va texnologiyalar, tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bo‘ladi. Ular olgan ma’lumotlari asosida rasm matn yaratadi. Mazkur mavzular asosidagi materialning g‘oyaviy yo‘nalishi va badiiy ifodaliligi o‘quvchilarning fikrlash faoliyatiga, his-tuyg‘ulariga ijobiy ta’sir qiladi, atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytiradi, tilga va uni yaratgan xalqqa mehr-muhabbat hissini tarbiyalaydi, o‘quvchilarning umumiy taraqqiyoti darajasini o‘stiradi va ularning shaxsiy sifatleri va dunyoqarashlarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Yuqorida ona tili va o‘qish savodxonligi darsliklarida berilgan materiallarning ahamiyat shundaki, ularda fanlararo aloqadorlik o‘z ifodasini topgan.



Shuni aytish lozimki, yangilangan darsliklardagi rasm asosida suhbat, tinglashga oid audiomatn, matn ustida ishlash kabi ilmiy-ommabop materiallarga mos ravishda badiiy matnlar ham berilgan. Masalan, 2-sinfda “Baktiriya va mikroblar” mavzusida rasm asosida suhbat, “Mikrob” she’ri va she’rni yod olish,

“Baktiriya va mikroblar” audiomtni, “Baktiriyalar” hikoyasi, “Ozadalik qoidalari” berilgan.

Demak, o‘quvchi ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning nutqiy savodxonligini oshirish jarayonida ular da ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish, tafakkurini rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Jumladan, “Yozuvni kim ixtiro qilgan?” mavzusida ras asosida suhbat, “Yozuvning tarixi” matni, “Yozuvning tarixi” matni asosida suhbat, “Dangasa harflar” audiomatni, “Yozuv ‘yovuz’ bo‘lmasin she’ri, “Belgilarni izohlash” va “Bo‘g‘in” o‘yini mavzularida o‘tilgan darslarda tarixiy ma’lumotlarga ega bo‘ladi, yozuvlar faqat harflar ko‘rinishida emas, balki turli belgilar va rasmlar shaklida ham bo‘lishini bilib oladi, chiroyli yozishga intiladi, bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga amal qilishni o‘rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari. 2017-yil.
2. Ona tili va o‘qish savodxonligi. [Matn]: darslik 1-sinf uchun Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021
3. Ona tili va o‘qish savodxonligi. [Matn]: darslik 2-sinf uchun Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.
4. [www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz).



“ЎТИРИКТИН ЎМИРИ QISQA” R.GAMZATOVТИН ЎМИРИ ҲАМ ДЎРЕТИВШИЛИГИ

POLVONNIYOZOVA SOHIBA

ЎМИВДЎРЯ RAYONЎ XBBine qarashlı
2-SANLЎ ULЎWMA BILIM BERIW MEKTEBINЎ
QARAQALPAQ TILI PЎNI MUЎALLIMI

Annotatsiya: Usi metodikaliq isde R. Gamzatovtin ѓmiri hЎm dЎretiwshiligi temasinda ashiiq sabaq islenbesi boyinsha usunislar berilgen.

Gilt sЎzler:

1) bilim beriwshilik: Sabaq barısında oqıwshılardıǵa búgingi taza tema boyınsha túsiniq hЎm maǵlıwmatlar berip, “Balalıqtaǵı umıtilmas waqıya” gúrrińiniń mazmunına toqtalıp ótemen.

2) tárbıyalıq: Oqıwshılardı ata-ananı húrmetlewge, tuwǵan ana watanǵa sadıq perzent bolıwǵa, doslıqqa opadar bolıwǵa, ádep-ikramlı, tártipli hЎm qorshaǵan ortalıq tábiyatımızdı asırıp hЎm abaylawǵa tárbıyalaw.

3) rawajlandırıwshılıq: Sabaq barısında oqıwshılardıń sawatlılıq dárejesin, erkin halda pikirlewın, yad alıw qábiletin, jazıw hЎm oqıw uqıplılıǵın ele de rawajlandırıwhЎm ámelde sınaw.

4) kompetenciya:

I. TK-tayanısh kompeteciya

O TK1-kommunikativ kompetenciya

O TK2-xabarlar menen islew kompetenciyası

O TK3-ózin-ózi rawajlandırıw kompetenciyası

O TK4-sociyallıq belsendi puqaralıq kompetenciyası

O TK5-milliy hЎm ulıwma mádeniy kompetenciya

O TK6-matimatikalıq sawatlılıq, pЎn hЎm texnika jańalıqlarınan xabardar bolıw hЎm de paydalanıw kompetenciyası

II. PK-páńge tiyisli kompetenciyalar

O PK1-sóylew kompetenciyası (tıńlap túsiniw, oqıw, sóylew, jazıw)

O PK2-lingvistikalıq kompetenciya (stillikatqa tiyisli)

Sabaq barısı:

I.Shólkemlestiriw: (3 minut) Klasqa kirip oqıwshılar menen sálemlesemen. Taxta menen klastıń tazalıǵın kózden ótkeremen. Oqıwshılardıń sabaqqa tayarlıǵın tekseremen hЎm oqıwshılardıń qatnasın barlayman. Oqıwdan qalǵan oqıwshılardıń sebepli ya sebepsizligin anıqlastıraman.

II.Úyge tapsırma soraw: (10 minut) Ótken sabaqta úyge berilgen tapsırmanı oqıwshılardıń eslerine túsiremen hЎm jurnalda bahası az oqıwshılardan úyge berilgen tapsırmanı sorayman. Úyge berilgen tapsırmanı orınlamay kelgenlerden ne sebep orınlamay kelgenligin anıqlastıraman.

III.Taza tema túsindiriw: (15 minut) R.Gamzatovtin ѓmiri hЎm dЎretiwshiligi

XX ásir jáhǵn poeziyasınıń kórnekli wákili Rasul Gamzatov-Daǵıstandaǵı avar xalqınıń perzenti. Ol óziniń qosıqların menen kishkene ǵana xalıqtı dúnya júzine tanıttı. Ol 1923-jılı tuwılǵan. 13-14 jaslarınan-aq qosıq ajza baslaǵan. Birinshi kitabı 1943-jılı baspadan shıqqan.

I.Yusupov penen zamanlas,dos bolǵan. Onıń “Taw qosıǵı”, “Meniń júregim tawlarda”, “Taw qızı”, “Ullı juldızlar”, “Daǵıstanım” atlı qosıq topalmları onıń atın pútkil dúnyaǵa tanıttı.

IV.Bekkemlew: (10 minut) Taza temanı bekkemlew maqsetinde oqıwshılardıǵa qosımsha sorawlar beremen hЎm “Balalıqtaǵı umıtilmas waqıya” gúrrińin oqıttıraman.

V.Úyge tapsırma beriw: (3 minut) Úyge tapsırmaǵa R.Gamzatovtin “Balalıqtaǵı umıtilmas waqıya” gúrrińin oqıp keliwlerin tapsıraman.

VI.Bahalaw hЎm juwmaqlaw:(4 minut) Úyge berilgen tapsırmanı orınlaǵan hЎm sabaq barısında aktiv qatnasıp, berilgen qosımsha sorawlarǵa juwap berip otırǵan oqıwshılardıǵa tiyisli bahaların qoyaman. Oqıwshılar menen xoshlasıp, búgingi sabaqtı juwmaqlayman.

Paydalanilg’an adibiyatler:

1. Ubaydullayev Q. Qaraqalpaq tili boyınsha tanlamalı miynetler. 114 b.



О'ТКИР HOSHIMOVNING HAYOTI VA IJODI OCHIQ DARS ISHLANMASI

Qurboniyozova Shahnoza Xalillayevna

Amudaryo tumani 27-sonli umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu ishlanmada maktab adabiyot darslarida o'quvchilarga o'tkir Hoshimovning hayoti va ijodi haqida ochiq darslar tashkil etish uchun tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Jurnalistika, roman, qissa, “Kim chaqqon” o'yini

Dastlab o'quvchilar ikki guruhga bo'linadi. Mirtemirning hayoti va ijodi, she'rlari haqida test beriladi. Test o'quvchilar tomonidan yechiladi.

1-savol. Mirtemir Tursunov qayerda tug'ilgan?

- a) Hozirgi Qozog'istonning Turkiston shahriga yaqin Iqon qishlog'ida
- b) Toshkentning Do'mbirabod mahallasida; d) Toshkent shahrida bo'zchi oilasida

2. Mirtemirning birinchi she'rini belgilang.

- a) “Shu'lalar qo'ynida b) Tanburim ovozi d) Tong e) “Yodgorlik”

3. Ko'k yuzida dam qaldiraq, dam sukut, Davomini to'g'ri toping

- a) Oq bulutdan sut yog'armi yoki qut; b) Yog'may o'tma pag'a bulut, oq bulut
- d) Bir qarasang osmon to'la oqquvlar; e) Usta rassom chizmish ajib manzara

4. Mirtemir qaysi she'rida buvisi ni eslaydi?

- a) “Bulut” b) “Shudring d) “Baliq ovi e) she'rlarining hech qaysisida buvisi ni tilga olmaydi

5. Mirtemir “Shudring she'rida shudringni nimalarga o'xshatadi?

- a) kelinlar taqinchog'iga; b) uzukning ko'zlariga; d) ko'zmunchoqqa, onasining ko'z yoshlariga; e) barcha javoblar to'g'ri

6. Shoirning umrining oxirida yozgan she'riy to'plami qaysi?

- a) “Yodgorlik b) “Tanburim ovozi” d) “Shu'lalar qo'ynida e) “Qirg'iz qiz” dostoni “

Yangi mavzu bayoni: O'tkir Hoshimov 1941-yilda Toshkentning Do'mbirabod mahallasida tug'ilgan. Yoshligidan ilmga, adabiyotga, san'atga qiziqqan bo'lajak yozuvchi 5-sinfda o'qib yurgan vaqtidayoq, demak, siz tengi yoshlarida she'r mashq qila boshlagan. Yozuvchi o'zi tug'ilgan yillar bilan bog'liq voqealarni quyidagich xotirlaydi: “Oyim bir gapni ko'p aytardi; Sen tug'ilganingda qiyomat qoyim bo'lgan edi. Lagerdagi o'ris xotinlar urush boshlanibdi, deb yig'lagan, men ammamning buzog'i hayron bo'lgandim. Urush allaqayoqda bo'layotibdi-yu, bular nega dod solidi, degandim. Keyin aqlim yetdi. O'tkir Hoshimov o'rta maktabni tugatgach, 1959-1964-yillar mobaynida ToshDU filologiya fakultetining Jurnalistika fakultetini tugatadi. Uning dastlabki kitobi talabalik yillarida e'lon qilingan. Hozirda adibning “Urushning so'ngi qurboni” “Muhabbat hikoyalari”, “Nur boki, soya bor”, “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar” nomli romanlari, “Odamlar nima derkin”, “Shamol esaveradi”, “Ikki karra ikki besh” “Bahor qaytmaydi” “Dunyoning ishlari” nomli qissalari, “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” nomli hikmatlar to'plami respublikamiz va xorijda sevib o'qilmoqda.

Yangi mavzuni mustahkamlash uchun “Kim chaqqon” o'yini o'tkaziladi. Stolga savol yozilgan kartochkalar qo'yiladi. Guruhlardan o'quvchilar chiqadi. O'qituvchi tomonidan savol o'qib eshittiriladi va qaysi guruh ishtirokchisi oldin javobni topsa, o'sha guruh g'olib bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S. Ahmedov va b. Umumta'lim maktablarining 5-sinflari uchun darslik. 2020y.
2. K. Jalilov. Adabiyot. O'quv qo'llanma. 2018



ЧЕТ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ИННОВАЦИОН ҒОЯЛАР ХАМДА ХАЛҚАРО ТАЖРИБАЛАР

Боймуратова Сабохат, Яхшимова Лобар

Хоразм вилояти Кўшкўпир тумани 35-сон
мактаби немис ва инглиз тили фани ўқитувчилари

Тел + 99-893-280-17-12 , 97-362-68-36

sabohatboymuratova@gmail.com

lobaryaxshimova@gmail.com

Аннотация: Ушбу мақола ёш ўқитувчилар учун чет тилини ўқитишда самарали натижага эришишга ёрдам беради. Бундан ташқари, халқаро тажрибалар асосида амалга оширилган кузатишлар натижасидир. Янги инновацион технологияларни ўринли қўллаш, ўқувчилар билан қандай ишлаш, технологиялардан вақт тақсимотига кўра тўғри фойдаланиш лозимлиги ҳақида тушунчалар беради.

Калит сўзлар: Методлар , муаммоли вазият, таълим, дарс жараёни.

Ҳозирги вақтда таълим жараёнида ўқитишнинг замонавий методлари кенг қўлланилмоқда. Ўқитишнинг замонавий методларини қўллаш ўқитиш жараёнида юқори самарадорликка эришишга олиб келади. Таълим методларини танлашда ҳар бир дарснинг дидактик вазифасидан келиб чиқиб танлаш мақсадга мувофиқ саналади.

Маълумки, нутқ жараёнида лексик, грамматик ва талаффуз кўникмалари бир бутун ҳолда намоён бўлади. Нутқда грамматик шаклларнинг етарли даражада тезкорлик билан тўғри қўлланиши лексик кўникмаларнинг қанчалик шаклланишига, яъни сўзловчининг ўзига керакли сўзларни тез ва тўғри танлай билишига боғлиқ. Бироқ шуни унутмаслик керакки, ҳар қандай гап нутқ жараёнида муайян услубга хос меъёрий талаблардан келиб чиқиб тузилади. Шунинг учун ҳар бир тил бир тилда айнан бир фикрни турли синтактик тузилмалар воситасида турлича ифода қилиш имконияти ҳам мавжуд.

Чет тилини ўқитишда қиёсий грамматикадан ҳам кенг фойдаланиш зарур. Бунда ўзбек ва чет тилларидаги халқ мақоллари ҳам тил ўрганишда жуда қўл келади.

“Мен бошладим, сен давом эттир” усули ҳам чет тилини ўзлаштиришда муҳим аҳамиятга эга. Бунда ҳар бир гуруҳдан 2 кишидан чиқиб, олдиндан ёзилган сўзларни давом эттиради. Машқ бажариш учун 3 дақиқа вақт берилади. Вақт тақсимотига амал қилиш лозим. Синф жамоасини тўғри тақсимлаш зарур. Қолган ўқувчилар билан “Саволга тескари жавоб” усулидан ҳам фойдаланиш яхши самара беради. Бу усул шартига кўра ўқитувчи айтган фикрга тўғри бўлса “Йўқ”, хато бўлса “Ҳа” деб жавоб беришлари керак бўлади.

Тилни ўзлаштиришда тил қурилишини билиш шарт. Шуни айтиб ўтиш лозимки, айтиш қурилиш бирликлари билан қандай фойдаланиш, уларни нутқда бевосита қандай қўллаш масаласи шаклланимаган бўлса, тилни билиш мукамал эмас. Тил таълимида ҳар бир дарсдан кутиладиган натижа ўқувчиларга берилаётган назарий билимларни амалий қўллаш кўникмаларини ҳосил қилиб бориш ҳамда уларнинг оғзаки ва ёзма нутқ малакасини шаклланишига қаратилиши шарт. Бунинг учун ўқувчиларнинг мустақил фикрлашини ривожлантириш, уларни нафақат ўрганилган нутқий конструкцияларни қўллай олишга, балки анологик бирикмалар тузиш орқали ўз фикрини мустақил ифодалашга ўргатиб бориш ҳам зарур бўлади. Шу боис тил таълимида тўрт асосий амал: тинглаб тушуниш, ўқиш, сўзлаш машқларини биргаликда ҳар бир дарс жараёнига тенг тақсимланган тарзда тадбиқ этиш тақозо этилади.

Чет тилини ўқитишда тил материалларини тақсимлаш жиддий ёндашувни талаб этади ва бунда ҳар бир таълим босқичи хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда турли тамойиллардан фойдаланиш керак бўлади. Луғавий сўз захираси жамланади. Дарс жараёнларида луғат билан ишлаш самарали натижаларни беради.

Расмлар орқали хотирани мустаҳкамлаш мумкин. Бунда “Кимнинг хотираси кучли?”, “Муаллифни топ!”, “Топсанг сенга, топмасанг сенга”, “Кластер”, “Глабинго!” каби усуллардан фойдаланилса, кўзланган натижага эришилади. Айниқса, “Сўз топиш ва унинг ҳаракатини айтиш” ўйинида бир ўқувчи сўз айтади, ёнидаги партадоши сўзнинг ҳаракатини айтади.



Уйга вазифа беришда ҳам бажарилиши лозим бўлган вазифадан ташқари ўзбек ва чет тилларидаги мақол ва ибораларни ёд олиб бориш, шеър, мақола ёзиш машқи бериб борилса, мақсадга мувофиқдир. Ўқувчилар ёшини ҳам назарда тутган ҳолда уй вазифаси берилади. Шунинг учун керакки, танланган инновацион технологиялар вақт ва ёшни ҳисобга олган ҳолда қўлланиши лозим. Доимо вазифа берилгандан сўнг чет тилига оид мақол, шеър, буюк шахсларнинг сўзларидан мисоллар келтирилса, чет тилига бўлган эътибор янада кучаяди, қизиқиш ортади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Азизхужаев. Н.Н Ўқитувчи тайёрлашнинг янги педагогик технологияси. Т.2000
2. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни. 1997.



RUS ADABIY TILI TARIXI ILMIY FAN VA O'QUV PREDMETI SIFATIDA

Tursunova Marvaridxon

Farg'ona viloyati Buvayda tumani
26-umumiy o'rta ta'lim maktabining
rus tili fani o'qituvchisi.
Tel nomeri: +998996352488

Annotatsiya: ushbu maqolada rus adabiy tili tarixi ilmiy fan va o'quv predmeti sifatida haqida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: rus adabiy tili namoyondalari, A.A.Alekseev, A.I.Sobolevskiy, V.V.Vinogradov, E.F.Budda.

Rus adabiy tili tarixi faqat oktyabrdan keyingi davrda, asosan, asrimizning 30-40-yillarida rus tilining umumiy tarixidan ajratilgan maxsus ilmiy fan sifatida rivojlandi. To'g'ri, bundan oldin ham rus adabiy tilining rivojlanish yo'lini va ayniqsa zamonaviy rus adabiy tilining rivojlanishini to'liq ko'rsatishga urinishlar qilingan.

"Rus adabiy tili tarixi" kursini (Kiyev Rusidagi lingvistik vaziyatdan boshlanib, shoir Nadsongacha bo'lgan zamonaviy rus adabiyoti tili bilan yakunlangan) yaratgan tilshunos-russhunoslarning birinchisi prof. A.I.Sobolevskiy. Biroq nashrga tayyorlangan ma'ruzalar kursi, shekilli, hech qayerda o'qilmagan va qo'lyozmada qolgan. Hozir bu qo'lyozma A.A.Alekseev tomonidan nashrga tayyorlanmoqda, u 1889 yilga tegishli.

17-19-asrlar rus adabiy tili tarixi bu asrning boshida professor E.F.Budda tomonidan tadqiq qilingan bo'lib, u faqat taniqli yozuvchilarning asarlari tilini o'rganishga e'tibor qaratgan. Afsuski, nomi tilga olingan kitob rus adabiy tilining yagona stilistik tizim sifatida rivojlanishini qamrab olmaydigan fonetik, morfologik va ba'zan leksik lingvistik faktlarning tasodifiy to'plami sifatida haqli ravishda tanqid qilinadi va shuning uchun, albatta, lingvistik faktlar to'plami sifatida tan olinmaydi. rus adabiy tili fanining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Agar rus adabiy tili tarixi mavzusini rus yozuvi tili - birinchi navbatda badiiy adabiyot yodgorliklari tilining tarixiy mavjudligining yo'llari va natijalarini tushunish bo'yicha tajribalar sifatida tushunadigan bo'lsak, unda bu ilmiy fanning o'ziga xos xususiyatlari bor deb taxmin qilish mumkin. rivojlanishning uzoqroq manbalari. Bir paytlar V.V.Vinogradovning maqolasi ana shu kelib chiqishlarni yoritishga bag'ishlangan edi.

Biroq, rus adabiyoti rivojlanishining butun davri uchun yozma yodgorliklar va so'z san'ati asarlari tilini o'rganish jarayonida filolog-rus olimlari tomonidan to'plangan heterojen bilimlarni umumlashtirish tadqiqotchilar tomonidan faqat 30-yillarda amalga oshirildi. bizning asrimiz. 18-19-asr rus adabiy tili tarixiga oid murakkab va rang-barang lingvistik materialni tizimga joylashtirishga birinchi urinish V.V.Vinogradovning "XVII-XIX asr rus adabiy tili tarixining ocherklari" monografiyasi bo'ldi. asrlar" (1-nashr., 1934; 2-nashr-M "1938).

Shu bilan birga, 30-yillarning birinchi yarmida 17-asrgacha butun qadimgi rus davri uchun adabiy tilning an'anaviy g'oyasi qayta ko'rib chiqildi. inklyuziv, cherkov slavyan tili edi. Eng aniqlik va ravshanlik bilan bu fikr akad tomonidan ishlab chiqilgan. A. A. Shaxmatov. Olimning fikricha, rus adabiy tili asrlar davomida jonli xalq tiliga yaqinlashib kelgan va asta-sekin o'zining begona qiyofasini yo'qotgan va yo'qotib borayotgan rus zaminiga o'tgan cherkov slavyan (kelib chiqishi bo'yicha qadimgi bolgar) tilidir.

Cherkov slavyan tilining rus zaminida amal qilishini o'rta asrlarda G'arbiy Yevropa xalqlari orasida lotin tilining adabiy til sifatidagi o'xshash qo'llanilishi bilan solishtirib, A.A.Shaxmatov Rossiyadagi cherkov slavyan tili bilan bog'liq vaziyat boshqacha ekanligini ta'kidladi: begona edi. odamlarga, o'rta asr lotinlari kabi, masalan, nemislar va slavyanlarga. Cherkov slavyan tili rus zaminida paydo bo'lishining birinchi yillaridanoq rus xalq nutqiga cheksiz ravishda singib ketdi - axir, bu tilda so'zlashuvchi rus xalqi na talaffuzini, na so'zlardan foydalanishni talaffuz va so'z ishlatishdan ajrata olmadi. ular o'rgangan cherkov tili. 11-asr yozma yodgorliklari shuni ko'rsatadiki, o'shanda ham cherkov slavyan tilining talaffuzi ruslashgan bo'lib, u rus nutqiga yot xususiyatini yo'qotgan; o'shanda ham rus xalqi cherkov slavyan tilini o'z mulki sifatida qabul qilgan, uni assimilyatsiya qilish va tushunish uchun chet ellik o'qituvchilarning yordamiga murojaat qilmasdan.



ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'QUVCHILAR ONGIGA MILLIY-MA'NAVIY QADRIYATLARNI SINGDIRISH

Usarova Dilafruz Saloxiddinovna,
Navoiy viloyati, Navoiy shahar
17-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Telefon: +998 99 021 42 27

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich ta'lim ona tili⁸ va o'qish savodxonligi fanini o'qitish jarayonida o'quvchilar ongiga milliy va ma'naviy qadriyatlarni singdirish xususida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Yetuk mutaxassis, komil insonlar, o'zligi, olamni anglash, bo'limlar, xalqimiz tarixi, lanka, milliy o'yinlar, mahalla, hashar, kasb, hunar.

Xalqimizning asrlardan-asrlarga meros bo'lib kelayotgan milliy qadriyatlari uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Milliy qadriyatlarimizda jahonning boshqa xalqlariga o'xshamaydigan urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlar va an'ana-laridagi o'ziga xoslik ham bor.

Yangi O'zbekistonning yoshlari o'zlarida umuminsoniy qadriyatlar, zamonaviy fan va texnika yutuqlari bilan bir qatorda milliy va ma'naviy an'analarimizdagi eng oliyjanob xislatlarni mujassamlashtirgan, yuksak madaniyatli, ma'rifatli, inson-parvar, o'z Vataniga fidoyi, yetuk mutaxassis bo'lishlari kerak. Maktabda ta'lim-tarbiya ishlari va o'quv jarayoni ana shu maqsadga qaratilgan.

Jumladan, boshlang'ich ta'limning barcha fanlaridagi o'quv materiallari, shuningdek, ma'naviy, ommaviy, tarbiyaviy tadbirlar o'quvchi-yoshlarimiz ongiga milliy va ma'naviy qadriyatlarni singdirish, ularni har tomonlama komil insonlar etib tarbiyalashga qaratilgan. Fikrimizga "Ona tili va o'qish savodxonligi" dars-ligida berilgan o'quv materiallari misol bo'la oladi. Ona tili va o'qish savodxon-ligi darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra boshlang'ich ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Barcha fanlarni ona tili va o'qish fanisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Aynan ona tili va o'qish savodxonligi darslarida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi. Shuning uchun mazkur darslikdan ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi, va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnat va istiqloq, milliy-ma'naviy qadriyatlar, inson salomatligi, texnologiyalar, do'stlik va tinchlik kabi turli mavzular kiritilgan.

Ona tili va o'qish savodxonligi darsliklaridagi o'quv materiallari har bir sinf uchun alohida bo'limlarda berilgan. Masalan, 1-sinf bo'limlari: "Men, sen, u va ular", "Tabiat ne'matlari", "Sog'tanda- sog'lom aql", "San'at va madaniyat", "Til va dil", "Fan va texnologiyalar" bo'limlari, 2-sinf bo'limlari: "O'zbekiston-mening Vatanim", "Men, sen, u va ular", "Tabiat ne'matlari", "Sog'tanda- sog'lom aql", "Kasbim-faxrim", "Yosh iqtisodchi", "Fan va texnologiyalar", "Til va dil", "Tarix xazinalari", "San'at va madaniyat", "Huquqimiz-haqimiz". Darslik bo'limlaridagi mavzular ma'lum izchillikda berilib borilgan.

Yoshlarimiz qalbida sog'lom hayot tarziga intilishni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'ularini bolalik paytidan boshlab shakllan-tirishimiz lozim. Bu borada boshlang'ich ta'lim jarayonida ona tili va o'qish savodxonligi darslari asosiy o'rinni egallaydi. Bola darslarda milliy qadriyatlarimizni ulug'lash, tabiatni sevish, O'zbekiston istiqbolini hurmatlash, qadrlash g'oyalarini, xalqimiz tarixi va madaniyati kabilarni o'rganib boradilar.

Jumladan, 1-sinfda "Sog'tanda-sog'lom aql" bo'limida "Lanka" matni, Anvar Obidjonning "Meshpolvonning o'yinlari" she'ri berilgan. O'quvchilar "lanka" matni orqali lanka-o'zbek milliy bolalar o'yini ekanligi, bu o'yinni o'ynagan bola to'g'ri nafas olishni o'rganadi, YUNESKO lankani eng foydali o'yinlardan biri deya baholagani va u jahon bolalari o'yinlari ro'yxatiga kiritilgani haqida tushunchaga ega bo'ladi.

"Meshpolvonning o'yinlari"da eshakmindi, quloqcho'zma, mo'ri-mo'ri, bekin-machiq, urshapaloq, hakkalakam, to'ptosh, oq-ko'k terak o'yinlari haqidagi she'r bo'lib, bolalar o'zbek xalqining milliy o'yinlari haqida, "Mehmon bo'lish odobi" matni orqali biror mehmo ma'lumotga ega bo'ladilar.

2-sinfda berilgan "Mening mahallam" mavzusida rasm asosidagi suhbat va "Mahalla-ota-ona" she'ri orqali bolalarda asrlar davomida o'zbek xalqining ma'naviy-axloqiy urf-odatlari



va qoidalari, jamoatchilik fikri hamda o‘ziga xos dunyoqarashi mahallada shakllanib kelganligi haqida tushunchaga ega bo‘ladilar. “Hashar-elga yarashar” audiomatni orqai hashar xalqimizning qadimiy va azaliy qadriyatlaridan, odamlar orasida udumga aylangan ijtimoiy hamkorlik va beg‘araz yordam shakllaridan biri ekanligini bilib oladilar.

“O‘zbek hunarmandlari” audiomatni o‘zbek hunarmandlari tomonidan yaratilgan zardo‘zlik, zargarlik, to‘quvchilik mahsulotlari, xalq amaliy san‘ati haqidagi ma’lumotlar, o‘quvchilarda katta qiziqish uyg‘otadi. “Hunarning foydasi” ertagi, “Hunarning hidi” she’ri bolalarni biror bir kasb-hunarni o‘rganishga intilishga undaydi va ularda kasb egallashga qiziqish oshadi.

Xalqning ma’naviy qiyofasini belgilashda moddiy, ma’naviy, madaniy yodgorliklarning ahamiyati beqiyosdir. Bunday boyliklar xalqimiz tomonidan uzoq yillar mobaynida yaratiladi va avaylab-asrab kelinadi. Samarqand qadimiy shahar bo‘lib, undagi tarixiy obidalar vnoyob boylik sifatida davlat muhofazasi ostiga olingan. “Samarqand-tarix beshigi” matni bolalarda xalqimiz o‘tmishiga, buyuk ajdodlarimizga nisbatan hurmat va ehtirom tuyg‘usini uyg‘otadi.

“Bu-bizning O‘zbekiston” she’ri bolalarning mustaqil O‘zbekiston va uning mehnatsevar xalqi hayoti hamda turli sohalarida erishgan yutuqlari haqidagi tasavvurlarni umumlashtirish va kengaytirishga imkon beradi.

Darslikning “Ti va dil” bo‘limidagi o‘quv materiallari bolalarni vatanparvar, insonparvar, mehnatsevar, ma’naviytli, o‘z ona tilini qadriga yetadigan, ona tilini hurmatlaydigan komil insonlar qilib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, yosh avlodni ma‘nan barkamol etib tarbiyalashda ham shubhasiz, xalqimizning milliy va ma’naviy qadriyatlariga asoslanamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar sama- radorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”.2019-y. 3-may.
2. Xo‘jamurodov I. Ma’naviy qadriyatlar va milliy o‘zlikni anglash.-Toshkent,2010-y.
3. 1-2-sinf. “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligi. 2021-yil.



KIMYO FANINING SANOATDAGI AHAMIYATI

Zokirova Shaxzoda

Farg'ona viloyati Buvayda tumani
26-umumiy o'rta ta'lim maktabining
kimyo fani o'qituvchisi.
Tel nomeri: +998990520144

Annotatsiya: ushbu maqolada kimyo fanining sanoatdagi ahamiyati haqida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: kimyo, imyo sanoati, ammiak, noorganik kislotalar, ishqorlar, mineral o'g'itlar, soda, xlor va xlorli mahsulotlar, suyultirilgan gazlar.

Kimyo sanoati — og'ir sanoat tarmoqlaridan biri, xilma-xil kimyoviy mahsulotlar turlari: kon-kimyo xom ashyosi, asosiy kimyo mahsulotlari (ammiak, noorganik kislotalar, ishqorlar, mineral o'g'itlar, soda, xlor va xlorli mahsulotlar, suyultirilgan gazlar va b.), plastmassa va sintetik smolalar, shu jumladan, kaprolaktam, sellyuloza atsetatlari, kimyoviy tola va iplar, plastmassa va shisha-plastiklardan materiallar va buyumlar, lok-bo'yoq materiallari, sintetik bo'yoqlar, kimyoviy reaktivlar, fotokimyo mahsulotlari, maishiy kimyo tovarlari va boshqalarni ishlab chiqaradi. K.s.ning mustaqil sanoat tarmog'iga aylanishi sanoat to'ntarishi bilan bog'liq. Sulfat kislota bo'yicha dastlabki zavodlar 1740 yilda Buyuk Britaniyada (Richmond), 1766 yilda Fransiyada (Ruan), 1805 yilda Rossiyada (Moskva gubernyasi), 1810 yilda Germaniyada (Leypsig yaqinida) barpo etilgan.

To'qimachilik va shisha-oyna sanoatining rivojlanishi bilan soda ishlab chiqaradigan zavodlar qurildi. Bunday korxonalar — soda zavodlari Fransiyada 1793 yilda (Parij yaqinida), Buyuk Britaniyada 1823 yilda (Liverpul), Germaniyada 1843 yilda (Elba bo'yidagi Shyonebek sh.da), Rossiyada 1864 yilda (Barnaul)da qurildi. 19-asr o'rtalaridan Buyuk Britaniya (1842), Germaniya (1867), Rossiya (1892)da sun'iy o'g'itlar ishlab chiqaradigan zavodlar ishlay boshladi. AQShda kimyo sanoati Yevropa mamlakatlariga nisbatan kechroq paydo bo'ldi, lekin 1913 y.ga kelib kimyoviy mahsulotlar i.ch. hajmi bo'yicha jahonda 1-o'ringa chiqib oldi.

O'zbekistonda tegishli xom ashyo manbalari bo'lishiga qaramay 20-asrning 30-yillarigacha kimyo sanoati. deyarli yo'q edi. 1910-yillarda ohak kuydirish, o'simlik bo'yog'i olish, oltingugurt i.ch., ishqoriy moddalar tayyorlash, sovungarlik bilan shug'ullangan bir qancha kichik korxonalar (12 sovun zavodi, neftni haydash zavodi, 2 bo'yoq fabrikasi) bo'lgan.

Zamonaviy kimyo sanoatining shakllanishi 1932 y. qadimdan oltingugurt qazib olingan Sho'rsuv oltingugurt koni (Farg'ona vodiysi)ning ishga tushirilishi bilan boshlandi. Bu korxona sobiq SSSRda ishlab chiqariladigan oltingugurtning 57% ini bergan va Itti-foqning oltingugurt mustaqilligini ta'minlashda muhim rol o'ynadi. Kimyo sanoatining eng yirik korxonasi Chirchiq elektr kimyo kti 1940 y. oktabrdan mahsulot bera boshladi. Shu yili 608,9 t ammiak, 961,7 t kuchsiz azot kislotasi va 930 t ammiak selitrasi ishlab chiqarildi. 1940 yilda respublikaning jami sanoat mahsuloti hajmida K.s. hissasi 0,8% ni, kimyo sanoatida band bo'lgan ishchilar soni sanoat ishchilarining 1% ni tashkil etgan, sanoat i.ch. fondining 7,4% kimyo sanoati hissasiga to'g'ri kelgan.

Urushdan keyingi yillarda 1946 yilda Qo'qon, 1957 yilda Samarqand superfosfat zavodlari ishga tushirildi va bu zavodlar respublika qishloq xo'jaligining fosforli o'g'itlarga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashga xizmat qildi. Buxoro viloyatida Gazli gaz koni ishga tushirilishi bilan tabiiy gazdan foydalanish asosida 1963 yilda Farg'ona azotli o'g'itlar zavodi, 1964 yilda Navoiyda kimyo kombinati ishlay boshladi.

1958—65 yillarda Olmaliq konmetallurgiya kti qoshida sulfat kislotasi zavodi, Pop rezina oyoq kiyimlari zavodi, Yangiyo'l gidroliz zavodi qurildi. 1965 yilda respublikada birinchi marta Farg'ona azotli o'g'itlar zavodida g'o'za bargini to'kishda ishlatiladigan magnit xlorat defolianti ishlab chikarila boshladi. Jizzaxda plastmassa quvurlar zavodi (1972), 1973 yilda Olmaliqda ammos fos ishlab chiqaradigan yirik korxonaning 1-navbati ishga tushirildi.



ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARGA ILG'OR PEDAGOGIK METODLARNI QO'LLASH

Ashurova Hurriyat G'ayrat qizi

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani

36-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

+998900458175

shohijahonobiddinovya@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'na tili darslarida o'quvchilarga ilg'or pedagogik metodlarni qo'llash tavsiya etiladigan interfaol metodlar va ularning mazmuni xususidagi fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiya, metod, texnologiya, interfaol, bayon qilish.

Yangi asr o'qituvchisini tayyorlashda uning pedagogik - psixologik jihatdan chuqur bilimga egaligi, intellektual salohiyatning yuksak darajadaliigi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, ta'limning interfaol usullari va ilg'or samarali metodlariga oid ijodiy faollikni oshirishning samarali usullaridan xabardor bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda barcha ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonida interfaol usullardan foydalanishga erishilmoqda. Bu esa interfaol ta'lim asosida tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarning mazmun-mohiyatini to'liq tushunib yetishga va ularni samarali, qiziqarli, sifatli bo'lishini ta'minlashga ko'maklashadi. Interfaol usullaridagi darslar o'quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrni erkin bayon etishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma ravishda bayon etishga chorlaydi. Interfaollik - bu o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni bunda o'quv-biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida yoki o'quvchining o'zaro muloqotiga asosan kechadi. Interfaol ta'lim asosini interfaol metodlar tashkil etadi. Talim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish, faollikni oshirish, ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni samarali o'zlashtirish, ularda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar interfaol metodlar sanaladi. Ona tili darslarida zamonaviy usullardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish hamda mavzuni o'zlashtirishda yaxshi samara beradi. Ona tilini o'qitishda o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi faoliyatini tashkil etish shakllari, metodlari va usullari ta'lim tizimining takomillashuvi bilan bog'liq holda rivojlanib, yangilanib bormoqda. XX asrning oxirgi yillariga qadar o'qitish metodlari sifatida tushuntirish bayon metodi, suhbat metodi, analiz - sintez metodi, mustaqil ish metodi, induktiv va deduktiv metodlar ona tili ta'limi darslarini tashkil etishda ko'proq qo'llanilib kelinmoqda.

Bayon qilish metodi ona tili darslarida qo'llangan asosiy metodlardan biri bo'lgan. Bunda o'qituvchi bayon qilishdan oldin o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzu yuzasidan bilimlarini aniqlab olgan. Bu o'quvchilarni o'qituvchi bayonini kuzatib, tinglab borishga, faol bo'lishga undagan. O'qituvchining bayoni, ya'ni bayon qilish metodida grammatik mavzuning xususiyatidan kelib chiqib, o'qituvchi ma'lumotlarni o'z so'zlari bilan bayon qilib bergan. Bunda o'qituvchi zimmasiga o'rganilayotgan grammatik mavzuning muhim o'rinlarini aniqlash, lo'nda, misollar tahlili bilan izchil bayon qilib berish vazifasi yuklangan.

Suhbat metodi boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitishda keng qo'llaniladigan va shu bosqich o'quvchilari tabiatiga mos metod sanaladi. Suhbat metodi savol-javob metodi deb ham yuritiladi. Suhbat metodi o'qituvchidan mavzuning xususiyatini o'zida aks ettirgan o'quv materialini topishni, grammatik mavzuning muhim belgilarini aniqlash, ularning o'xshash va farqli jihatlarini ajratish, o'xshash va farqli jihatlariga qarab guruhlash, umumlashtirishga, xulosa chiqarishga yo'naltirilgan savollar tuzishni, ularni o'quvchilarga izchil berib borishni talab etadi.

Muammoli o'qitish metodiga amerikalik pedagog va psixolog Dyun 1894 - yilda asos solgan. Bu metodning maqsadi ilmiy tushunchalarni o'zlashtirishga yordam berishgina emas, balki o'quvchilarning bilish qobiliyatini ham rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish hamdir. Bunda suhbat davomida o'qituvchining topshirig'i bilan o'quvchining oldiga biror muammo qo'yiladi va darsda muammoli vaziyat yaratiladi. Bu muammoni o'quvchi oldin egallagan bilimlari asosida hal etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining hayotiy tajribalari kamligi sababli o'qituvchi muammoni hal qilishga yordamlashuvchi savollar beradi. Muammoni o'quvchi hal qila olmasa, uni o'qituvchining hal qilishiga to'g'ri keladi. Shuning uchun boshlang'ich sinfda muammoli



o'qitish metodi yarim izlanishli muammoli metod deb ham yuritiladi. Masalan, muammoli o'qitish metodini leksik - semantik va grammatik mashqlarni tashkil etishda ham qo'llash mumkin. Bu metoddan 1sinfdan boshlab foydalanish mumkin, ona tili darslarida mustaqil ish metodi asosan o'rganilgan mavzuni mustahkamlash qismida mashqlar ishlash jarayonida qo'llaniladi. O'quvchilar o'qituvchining topshirig'i bilan mustaqil ishlarni og'zaki yoki yozma shaklda bajaradilar. Topshiriq qiyin va ko'p vaqtni olmasligi, o'quvchilar kuchi yetadigan qilib, muayyan vaqt ichida bajarishga mo'ljallangan bo'lishi kerak. Mustaqil ishlash uchun topshiriq 1sinfdan boshlab beriladi va u asta - sekin murakkablashtirilib boriladi. „Yozgan so'zlaringizni lug'atdan tekshiring“, „Rasmga qarab sabzavot nomlarini alifbo tartibida yozing“, „Rasmni kuzating. Unda tasvirlangan narsalarni aniqlang va ularning nomini yozing“ kabi topshiriqlar beriladi. Analiz-sintez metodi savod o'rgatish darslariga rustuzem maktablari va tatar o'qituvchilarining faoliyati orqali kirib kelgan. Ona tili ta'limi jarayoniga analiz — tahlil grammatik hodisaning muhim belgilarini aniqlash maqsadida, o'rganilgan grammatik tushunchaning yangi qirralarini ochish va mustahkamlash maqsadida tatbiq etiladi. Fonetik, leksik, morfologik va sintaktik tahlil shu metodning amalda namoyon bo'lishidir. Sintez qismlarga bo'lib o'rganilgan grammatik materialni yaxshilashdir. Masalan, ot, sifat, fe'l, son kabi so'z turkumlari o'rganilayotganda ularga oid so'zlar berilib, ular ishtirokida gap tuzish, aralash berilgan so'zlardan gap tuzish, aralash berilgan gaplarni voqealar rivoji asosida tartiblashtirib matn tuzish, mazmunan tahlil qilingan rasm asosida hikoyacha tuzish kabi ishlarda sintez metodi namoyon bo'ladi.

Analiz - sintez metodida ham o'quvchilarni faollashtirish o'qituvchining o'quvchilarga beradigan savol va topshiriqlariga, ishni tashkil etish shakllariga bog'liq bo'ladi. Induksiya metodida o'quvchilar o'qituvchi tavsiya etgan til dalillarini kuzatadi, tahlil qiladi va shu asosda xulosa va ta'riflar keltirib chiqaradi. Deduksiya metodida o'quvchi tayyor qoida — ta'rif bilan tanishadi va uning mohiyatini til dalillari asosida ochadi. Bu metodlarning samarasi o'qituvchining savol - topshiriqlari mazmuni grammatik hodisaning muhim tomonlariga o'naltirilganligiga, izchilligiga, faoliyatni tashkil etish shakllariga, o'quv vositalari (darslik, turli xarakterdagi lug'atlar, rasm, jadvallar, texnik vositalar)ga bog'liq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda yuqoridagi barcha metodlarning muvaffaqiyati o'qituvchining beradigan savol - topshiriqlariga bog'liq. Yo'l - yo'lakay duch kelgan savollar bilan kichik yoshdagi o'quvchining anglash faoliyatini ishga solish kutilgan natijani bermaydi. So'nggi yillar davomida ta'lim tizimiga an'anaviy metodlar bilan birga zamonaviy pedagogik texnologiya usullari kirib keldi. Ulardan ona tili ta'limi jarayonida foydalanish bo'yicha yutuqlar qo'lgakiritilib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug' va kelajagi farovon bo'ladi. T.: “O'zbekiston”, 2019.
2. Yo'ldoshev J., Yo'ldosheva F., Yo'ldosheva G. Interfaol ta'lim - sifat kafolati. -Toshkent, 2008.
3. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). T., “Sharq”, 2013.
4. www.ziynet.uz
5. www.pedagog.uz



BADMINTON SPORT TURNING RIVOJLANSH TARIXI

Dadaboyev Yahyo

Farg'ona viloyati Buvayda tumani

26-umumiy o'rta ta'lim maktabi

I toifali jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi

Telefon raqami: +99899.366-76-85

Annotatsiya: ushbu maqolada badminton sport turning rivojlanish tarixi haqida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: badminton, uchyotgan tuk, Tomas kubogi, tuk, Taunders jamoasi, Swans.

Badminton insoniyat tsivilizatsiyasining eng qadimiy o'yinidir. Uning kelib chiqishi haqida ko'plab hikoyalar mavjud. Qadimgi Yunoniston, Yaponiya, Hindiston va hatto Afrika xalqlarining urf-odatlarini kattalar va bolalar bu erda voyaga etdilar. "Uchayotgan tuk" ning eng qadimgi sport o'yini Xitoyda miloddan avvalgi 1000 yildan beri ma'lum Yaponiyada u "Oliaban " Olelanan "VLAOR" tomonidan bir nechta g'oz-patlar va quritilgan Sakuraning quritilgan rezavorlaridan yasalgan. Evropada Gugo va Shiller fantastika XVI asrda ma'lum bo'lgan. Frantsiyada bunday o'yin "bir xil de Pom" nomi deb nomlangan (olma bilan o'yin). Ingliz tilini gightine aksiyalari vojiblarni bir-birlariga otib tashlashgan. Ular shunday o'yin o'ynashdi va Rossiyada. Bu XVIII asr chizmalari tasdiqlanadi. Gabriel Derjavin operatsiya qilingan xat haqida yozgan. 1650 yilda Shvetsiya Kristina "tuklar" da o'ynayotgani uchun "Taunders" jamoasida Sudni Stokgolmda qurgan, u erda boshqa mamlakatlar va mehmonlar bilan o'ynagan. Sud hanuzgacha Shvetsiya poytaxtida mavjud va hozirda cherkovning mulki.

XIX asrda Angliyada maxsus mashhur o'yin Beufort Gersog 'oilasida alohida mashhurlik qildi. Gertsog badminton uyushmasining homiysi, zalning old qismi egasi bo'lgan, u erda va hozirda eski raketkalar va oqshomlarning ajoyib to'plami bor edi.

Zamonaviy badminton - hind kelib chiqishi. U Hindistondagi Hindistonda "Pune", do'sti - "Poonslar" deb nomlangan o'yindan kelib chiqadi Hindistonda xizmat qilgan ingliz xodimlari ushbu o'yindan hayratga tushishdi va 1872 yilda o'z vatanlariga qaytish, Glaxesterhire yaqinida Badmintonning beli bilan belbog 'bilan o'yinni namoyish etdilar. Bu yil Vilandagi sport o'yinining tug'ilishi yili bo'lib, u Angliyada "badminton" nomini olgan. 1875 yilda Badminton "Folkstoun" klubi ofitser shakllantirildi. Pune o'yinlari qoidalariga asoslangan yangi qoidalarni yaratishda yangi qoidalarni yaratishda faol ishtirok etgan polkovnik Dolbyning birinchi prezidenti bo'ldi. Ularning ba'zi fikrlari hozirgi kungacha saqlanadi. Angliyada yangi klublar paydo bo'ldi. Aytishim kerakki, turli xil joylarda turli xil o'lchamlarda o'ynadi. Va eng ommabop gvilford sudidir. Uning o'lchamlari (44x20 fut yoki 13 4012x6,096 m) va 1887 yilda badminton klubi tomonidan nashr etilgan o'yin qoidalariga kirdi. 1898 yil mart oyida badminton turniri bo'lib, 1899 yil 4 aprel kuni Londonda birinchi ingliz chempionati bo'lib o'tdi. Kelgusida Badminton klublarining soni o'sib borayotgan chempionatlar ommalashdi. Badminton Buyuk Britaniya bo'ylab va Evropada tarqala boshladi.

Badminton sport o'yini tezda mashhurlikka erishdi. "Swans" ning ommaviy ishlab chiqarish boshlandi. Ularning ishlab chiqarish bo'yicha birinchi patenti 1898 yilda Angliyada Badminton nafaqat Angliyada, balki ko'p sonli koloniyalarda ham tarqatildi. Bu tasodifan emas, balki 1934 yil 5 iyulda, Xalqaro Badminton Federatsiyasi (IBF) bu Britaniyaning sobiq imperiyasining bir qismi bo'lganligi tasodif emas. Hozir 100 dan ortiq mamlakatlar federatsiyasida. IBF xalqaro ayollar jamoalari va Ubf kubogida (Mashhur IBF Faoliyati (taniqli IBF faoliyati) orasida musobaqalar o'tkazmoqda.

Tomas kubogi 1948 yildan har uch yilda bir marta yangradi. Dastlabki o'yinlar to'rt zonada o'tkaziladi: Amerika, Avstraliya Osiyo, Osiyo va Evropa. Turnir g'oliblari musobaqada g'olib uchun arizachini belgilaydi. U ushbu faxriy kubokning oldingi egasi bilan uchrashadi. Uber kubogining musobaqalari 1956 yildan beri har uch yilda ham o'tkaziladi.

1968 yildan beri har ikki yilda bir marta shaxsiy va 1972 yilgi va Yevropa qo'mitasi chempionati va jamoaviy jamoalar 5 ta o'yinni o'tkazadi: yolg'iz erkak, bug 'erkak va bug' aralashmasi va bug 'aralashtirilgan. Xalqaro federatsiyani ham bir qator rasmiy turnirlar o'tkazadi. Yaqin vaqtgacha asosiy Angliyaning ochiq chempionati bo'lib, u dunyodagi norasmiy chempionat deb hisoblanadi. Birinchi marta Angliya ochiq chempionati 1899 yilda bo'lib o'tdi.



ONA TILI DARSLARINI O'QITISH METODLARI VA USULLARI

G'oyibnazarova Mahliyo Umurzoqovna

Navoiy viloyati Navbahor tumani
20-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili darslarini o'qitish metodikasi va unda qo'llanadigan usullar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: nutq, noanaviy dars, interfaol usullar, breyn ring, ilm qasri, fanlar.

Insoniyat paydo bo'libdiki, tarbiya jarayoni mavjud, tarbiya paydo bo'lgan vaqtdan beri pedagogik faoliyat uzluksiz davom etib kelmoqda. O'qituvchilik kasbi barcha ijtimoiy tuzumlarda sharaflil hamda o'ta mas'uliyatli, qiyin va murakkab kasb hisoblanadi. O'quvchilarning yoshi, psixofiziologik xususiyatlari, umumiy o'rta ta'lim tayyorgarligiga mos hamda grammatik materiallarni asta-sekin, oddiydan murakkabga tomon borish asosida ona tilivadabiyot fanidan iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash ta'lim jarayonini takomillashtirish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchilardagi qobiliyat va iste'dodni yanada kamol toptirishda o'quvchilar kompetensiyalarini shakllantirish lozim. Ayniqsa, ona tili darslarida o'quvchilar nutqiga jiddiy e'tibor qaratish zarur. Ona tili darslarida asosiy vazifa o'quvchilarning nutq odobini tarbiyalash, zukkolik, tezkorlik va hozirjavoblik singari fazilatlarini shakllantirish, mustaqil fikrlash ijodiy faoliyat ko'rsatishdan iborat.

Bu quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

BIRINCHI BOSQICHI: nutqning to'g'riligi. *To'g'rilik sifati nutq tarkibi va qurilishining amaldagi adabiy til me'yorlariga to'la mosligi asosida yuzaga keladi. O'zbek adabiy tilida quyidagi me'yorlar farqlanadi:*

1)leksik me'yorlar 2)talaffuz me'yorlari 3) so'z yasash me'yorlari kabilar...

IKKINCHI BOSQICHI: aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik, soflilik, jo'yalilik Aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, soflilik, boylik, jo'yalilik nutq to'g'ri tuzilsagina yuzaga chiqadi.

Nutqning aniqligi quyidagi omillarga bog'liq:

- 1.Voqea-hodisalar nomining ular bildirgan tushunchalar bilan muvofiq qo'llanilishi.
- 2.Sinonimlardan o'rinli foydalanish
- 3.Ko'p ma'noli so'zlardan o'rinli foydalanish
- 4.Paronimlardan o'rinli foydalanish.
- 5.So'zlarning uslubiy bo'yog'iga e'tibor qaratish.

Bunda biz bir qancha interfaol usullardan foydalanishimiz mumkin.

10-sinfda ONA TILI DARSIDA “Terminlar, kasb-hunar leksikasi va iboralar uslubiyati” mavzusida

Matnda keltirilgan terminlarni
iboralarni ajratish, farqlash
leksikasi va uslubiyatini
anglash nutqda to'g'ri
foydalanish yuzasidan ushbu
usulni qo'llash dars
samaradorligini oshishiga olib
keladi

BREYN RING

Texnologiya ikki raundda o'tkaziladi. Har bir raunda oltita topshiriq mujassamlashtiriladi. O'qituvchi slaydlarni namoyish etib, topshiriqni ikki marotaba o'qiydi. So'ng: “vaqt ketdi” jumlasini ishlatadi. Shundan so'ng guruh o'quvchilari topshiriqni bajarishga kirishadi. Topshiriq bajarilgach, guruhdagi o'quvchilar qo'llarini ko'tarib xabar berishlari shart. Har bir guruhdan spiker (boshlovchi) tanlanadi. Spiker doskada bajarilgan topshiriqni izohlab berishi lozim. Birinchi raundda so'ng reklama e'lon qilinadi. Bu reklama – uyga berilgan vazifani tasviriy so'z vositalari asosida ifodlashdan iborat.

Reklama uchun 1 daqiqa vaqt ajratiladi. Ikkinchi raundda faoliyat baholanadi. Har bir to'g'ri izohlangan javob uchun- 2 ball, to'liq bo'lmagan javoblar uchun 1 ball. Noto'g'ri javoblar uchun 0 ball belgilanadi. Umumiy ballar yig'indisi guruhlariga taqdim etilgan jamoaviy nazorat varoqlariga tushuriladi. O'qituvchi faollarni baholaydi.



“O‘ynab gapirsang ham o‘ylab gapir” usuli. Bunda bir o‘quvchi so‘z aytib, ko‘ptokni 2-o‘quvchiga beradi, 2-o‘quvchi o‘sha so‘zni o‘tgan zamon fe‘li bilan qo‘llaydi. M: 1-o‘quvchi-gul, 2-o‘quvchi-gul terdi; 3-o‘quvchi- she‘r, 4-o‘quvchi- she‘r o‘qidi...

“ILM QASRI” usuli. Texnologiya didaktik o‘yin tariqasida o‘tkaziladi. Qasrning konturlari bilim darchalari bilan bezatiladi. Bu o‘yin texnologiyasi orqali o‘quvchilarda darchalar orqali “Ilm qasriga” ketma-ket tashrif buyurishadi. Tashrif ketma-ketligiga qarab o‘quvchilar faoliyati baholanadi. Birinchi tashrif buyurgan o‘quvchi qasrning qiroli, keyingisi vaziri va keyingilari shu tarzda lavozimlarga ega bo‘lishadi. Bu texnologiyada oldin o‘tilgan mavzular va yangi mavzu o‘rtasida bog‘lanish hosil qilishda, o‘quv materialining uzviyligini davom ettirishda qo‘llaniladi hamda o‘quvchilarda yangi bilimlar, tushunchalar shakllanishiga xizmat qiladi.

“Fanlararo bog‘lanish” usuli.

Tasviriy ifoda” mavusini o‘tganda fanlararo bog‘lanishni amalga oshirish mumkin. Bunda botanika, tibbiyot, adabiyot, tarix, musiqa, geografiya, mehnat fanlari bilan bog‘liq tasviriy ifodalarning javobini topish talab qilinadi.

1- kasb-hunarga oid:

Salomatlik posbonlari –

Charm qo‘lqop ustalari–

Mo‘yqalam sohiblari–

2- geografiyaga oid:

Yerosti bo‘roni –

Qora oltin–

Zangori olov –

3-sportga oid:

Futbol qiroli –

Millionlar o‘yini –

Aql gimnastikasi –



Shuningdek, quyidagi noanaviy usullar ham ona tili o‘qitishda samara beradi.

Teatrlashtirilgan dars — dars mavzusi bilan bog‘liq sahna ko‘rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusi bo‘yicha chuqur, aniq ma‘lumotlar berish darsi.

Kompyuter darsi — tegishli o‘quv fani bo‘yicha dars mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimedia, virtual o‘quv kursi va shu kabilar) asosida o‘tiladigan dars.

Kim oshdi savdosi darsi — o‘quv fanining ayrim bo‘limi bo‘yicha bilimlarni har bir o‘quvchi qanchalik ko‘p bilishini namoyish etish darsi.

Yarmarka darsi — dars mavzusini bo‘laklar bo‘yicha oldindan o‘zlashtirgan o‘quvchilarning o‘zaro muloqot asosida sinfga qiziqarli tushuntirish orqali o‘tiladigan dars.

Formulalar darsi — o‘quvchilarning formulalarni puxta o‘zlashtirishlari bo‘yicha turli o‘yinlar shaklidagi matnlar o‘tkazish darsi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.SH.Po‘latov “Ta’lim menejmenti,yoxud ta’lim muassasasini ilmiy-metodik boshqarish texnologiyasi”.

2.U.Asrnova,M.Pardaeva,I.Mannopova “Shaxsga yo‘naltirilgan metodik xizmat”.



O'ZBEK TILI DARSLARIDA GRAMMATIK MAVZULARNI O'TISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARGA YECHIMLAR

Magzumova Olima Xusanboyevna

Namangan viloyati Kosonsoy tumani

5-sonli maktabning o'zbek tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tili darslarida grammatik mavzularni o'tishdagi muammolar va ularga yechimlar berilgan. Bu jarayonda o'qituvchining pedagogik mahorati va o'quvchilarning mavzuni tushuna olish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, grammatika, lug'at, til, qonuniyat, mavzu, o'quvchi.

Til bizning ongimizda imkoniyat, umumiylik, munosabatlar, belgilar sistemasi sifatida mavjud. U nutq orqali yuzaga chiqadi, nutqda muayyan moddiy shaklga, ko'rinishga ega bo'ladi. Til qonuniyatlari dialektik qonuniyatlar asosida tadqiq etiladi. Biroq bu qonuniyatlarning har biri o'z alohida tizimiga ega bo'lib, ular aynan bir xil hodisa emas.

O'zbek tili darslari ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 2-11 sinflarida o'tiladi. Boshlang'ich sinflarda asosan o'quvchilarning og'zaki va yozma savodxonligiga, lug'at boyligini oshirishga va muloqotga kirisha olish ko'nikmalarini hosil qilishga e'tibor qaratiladi.

5-sinfdan boshlab esa o'quvchilarga o'zbek tilida so'z turkumlari haqida nazariy ma'lumotlar berish boshlanadi. Nutqiy mavzularni o'zlashtirishda har bir mavzu yuzasidan lug'at darslikda berib boriladi va ularni o'zlashtirish, ya'ni matn mazmunini tushunish o'quvchi uchun unchalik ham qiyin bo'lmaydi.

Nazariy bilimlar bo'yicha berilgan qoidalar va atamalar esa o'quvchilarda tushunmovchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Masalan: 5-sinf darsligida grammatik mavzu **olmosh** (uning ma'no turlaridan ba'zilar berilgan) mavzusi bilan boshlanadi. O'quvchi o'zbek tilida bu tushuncha bilan hali tanish emas. O'qituvchi darslikda berilgan qoidani va olmosh haqida umumiy ma'lumot berib ketsa, o'quvchi bu qoidani ko'r - ko'rona yod oladi yoki mavzuni umuman tushunmaydi. To'g'ri, berilgan mashqlar mavzuni mustahkamlashga yordam beradi, lekin hamma vaqt ham emas. O'quvchilar mashqlarni to'liq anglab emas, shunchaki nuqtalar o'rniga mos so'zlarni yoki qo'shimchalarni qo'yish yoki mazmunini moslash orqali bajarishlari tajribada ko'p sinalgan.

Xo'sh, o'quvchilar grammatik mavzularni to'liq anglab tushunishi uchun nimalarga e'tibor qilish kerak? Biz o'zbek tili darslarida o'quvchilarning har ikki tilda tushunib fikrlashlari, kishilar bilan o'zbek tilida muloqotga kirisha olishlari, yozganda o'zbek tilida imlo xatolariga yo'l qo'ymasliklariga e'tibor berish bilan birga ularning grammatik bilimlarni puxta egallashlariga ham erishishimiz zarur. Buning uchun yuqorida tilga olingan **ikki tilda** ham tushunchasiga to'xtalishni zarur deb hisoblaymiz. O'quvchi matn bilan ishlaganda uni o'z ona tilida tushunsa, o'zbek tilida qayta hikoya qilishi, mazmuni yuzasidan xulosa chiqarishi osonlashadi. Xuddi shu tamoyil grammatik mavzular uchun ham tegishli, chunki o'zi ta'lim olayotgan tilda shu atama yoki tushunchani bilsa, o'zbek tilida ham tushuna oladi. Masalan: o'quvchiga **kelishiklar** mavzusi o'tilganda bu tushunchaning rus (ta'lim tili qaysi bo'lsa, o'sha tildagi muqobili) tilidagi tarjimasini va asosiy tomonlari aytib o'tilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki lug'atlarda **faqat matnlarda** berilgan so'zlarning tarjimasini berilgan xolos.

O'zbek tilida - kelishik - ular 6 ta (kelishiklarning turlari alohida soatlarda o'tib borilishi jarayonida har bir soatda o'qituvchi ularning o'xshash va farqli tomonlarini tushuntirib boradi) **rus tilida - падеж - ular 6ta** yoki **qozoq tilida - cennik - ular 7 ta** kabi ma'lumotlar berib borilsa, o'quvchilar bu mavzularni yaxshi tushunadi, ya'ni ularda grammatik mavzular yuzasidan shunchaki **TUSHUNCHA** emas, balki **BILIM** hosil bo'ladi. Bilimni ko'nikma, malakaga aylantirish amaliy mashqlar bajarish orqali amalga oshirilib boriladi va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishga erishiladi.

Biz yuqorida faqat birgina mavzuni misol qilib oldik, lekin shunday mavzular borki, ular ancha murakkab. Ya'ni bu mavzular bo'yicha o'qituvchi o'zbek tilida mukammal bilimga ega bo'lishi mumkin, biroq o'quvchiga yetkazishda qiyinchiliklarga duch kelishi turgan gap.

Demak, har bir grammatik mavzuni tushuntirayotganda o'quvchilarning ona tilidagi muqobili bilan qiyoslanishi shart. Aks holda o'quvchi hatto gap nima haqida ekanligini ham anglab yeta olmasligi mumkin. O'qituvchi nafaqat o'zbek tilini, balki o'zi ta'lim berayotgan o'quv



muassasasining tilini ham qiyosiy bilishi lozim.

Hozirgi kunda o'zbek tili darslarini asosan o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishini bitirgan mutaxassislar o'tib kelishmoqda. Oliy ta'limda ularga faqat **ona tili va adabiyoti** bo'yicha ta'lim berilgan (qayta tayyorlashdan o'tgan pedagoglar ham shular jumlasidan). O'qituvchining bilim darajasi ona tilidan qanchalik kuchli bo'lishiga qaramasdan, u o'quvchiga bu bilimlarni yetkazib bera olmasa, unga grammatik mavzuni tushuntirolmasa, bu o'qituvchining kamchiligi uning shu tilni bilmagani hisoblanadi. Bu fan o'qituvchilari shu til doirasida asosiy tushunchalarni, ma'lumot va atamalarini bilishi zarur.

Ta'lim qardosh tillarda olib boriladigan ta'lim muassasalarining o'zbek tili o'qituvchilari va o'quvchilari uchun **maxsus qo'llanmalar** yaratish zarur. Chunki bu tillardagi grammatik tushunchalar har xil. Shunda o'zbek tili o'qituvchilari o'zbek tilidagi qoidalarini, nazariy ma'lumotlarni o'quvchiga uning o'z ona tili bilan **qiyoslab o'rgatish** imkoniyatiga ega bo'lar edi. Grammatik lug'atlarni yaratish nafaqat ta'lim boshqa tilda olib boriladigan maktab o'qituvchi va o'quvchilari, balki o'zbek tilini mustaqil o'rganuvchilar uchun ham ajoyib tuhfa bo'lsa ajab emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G.Mamatova, X.Boqiyeva, U.Masharipova. Ona tili o'qitish metodikasi.
2. R.Rasulov, A.Mirazizov. “O'zbek tili” 2015 - yil .
3. M.Hamroyev “O'zbek tilidan mashqlar to'plami” 2009 - yil.
4. Ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning “O'zbek tili” darsliklari. 5-11-sinflar uchun.
5. www.tadqiqot.uz
6. www.ziyonet.uz



TERMINLAR- FAN TILIDAGI EPONIMLAR

Maxsudova Xolisxon Ummatovna

Andijon mashinasozlik instituti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası

Tayanch doktoranti

xolisxon@mali.ru

tel: +998911606100

Annotasiya: Ushbu maqola falsafa, fizika, kimyo, geologiya kabi fanlar terminologiyasida o'ziga xos atoqli otlarni qo'llash muammosiga bag'ishlangan. Kelib chiqishi, tuzilishi va lug'atda izohlangan ma'nosi jihatidan bir-biridan farq qiluvchi termin-eponimlar ko'rib chiqiladi, muallif amaliy maqsadlarda ma'nosini to'g'ri yo'naltiruvchi termin-eponimlardan foydalanishni tavsiya qiladi.

Kalit so'zlar: termin-eponimlar, atoqli otlar, ensiklopedik ma'no, termin ma'nosini to'g'ri yo'naltirish.

Termin-Eponimlardan, yoki taniqli kishilar nomlaridan foydalanish, ya'ni atoqli otlardan hosil bo'lgan atamalar fan tilida an'anaviy bo'lib, uning shakllanishining eng qadimgi davrlariga to'g'ri keladi.

Ayrim mualliflar termin-eponimlarga toponimlar asosida yaratilgan degan fikrlar ham mavjud. Bu eponimiya doirasini sezilarli darajada kengaytirib, muhokamalarga mavzu bo'la oladi. Biz bu maqolada faqat antroponimlar, ya'ni shaxsiy ismlar va familiyalar asosida tuzilgan atamalar eponimlar deb hisoblaymiz,

Eponimlarining o'ziga xosligi, birinchi navbatda, ular turli "yosh" ga asoslanganligidir, ya'ni taniqli zamondoshlarimiz ismlari hamda o'tmishda yashab o'tgan olimlar, siyosiy va jamoat arboblarning nomlari. Binobarin, shu nomli nomlar o'z davrining "esdaliklari"ga aylanadi va bu ularning katta qadriyatidir. Masalan, falsafada aristotelchilik, pifagorchilik, kantchilik, marksizm va boshqa ko'plab atamalar tarixni, ilmiy maktablarning o'zgarishini aks ettiradi.

Ba'zi bir eponimlar osonlik bilan aniqlanadi, ularning paydo bo'lishi yangi bilim sohasining paydo bo'lishi bilan bog'liq. Masalan, Galileyning nisbiylik printsipi, Torrichelli formulasi, Torrichelli bo'shlig'i va boshqalar atamalar- fizikaning fan sifatida jadal rivojlanish davri, XVII asrga to'g'ri keladi.. Kimyoda birinchi eponimlar XVIII—XIX asrlada fanga kirib kelgan bo'lib, ular yangi ilmiy fanning rivojlanishini aks ettiradi, o'sha davrning mashhur kimyogarlari nomlarini eslatadi (Genri qonuni, Dyuma usuli, Dalton qonunlari atamaları).

Shunday qilib, eponimlarning faol shakllanishi kelib chiqish davrida, shuningdek, ma'lum bir bilim sohasining jadal rivojlanish davrida sodir bo'ladi. Termin-eponimlar bir-biridan nafaqat "yoshi" bo'yicha, balki ular tarkibiga kirgan antroponimlarning tuzilishi bilan ham farqlanadi. Har bir davr nominatsiyada ishtirok etgan o'ziga xos atoqli otlar to'plami mavjud - fan tilining shakllanishining dastlabki davriga xos bo'lgan mashhur mifonimlar (masalan, astronomiyada bu yulduz turkumlarining nomlari - Ariadna sochlari, Veronika sochlari) mavjud. Bir qator atamalar adabiy qahramonlarning nomlari bilan ataladi, bu ayniqsa tibbiyot terminologiyasiga xosdir (Alisa mo'jizalar mamlakatida sindromi, Xarlekin sindromi).

Biroq, umuman atama yasaliishi bilan bir xil qonuniyatlar asosida yuzaga keladigan atonimik atama yasaliishining o'ziga xos xususiyatlari bor. Eponimlarning majburiy komponentlari - bu nomlar bo'lib, ularning semantikasi muammosi xuddi shu nomli lug'atni tahlil qilish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan eng murakkab va bahsli muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Atoqli otlarning ma'nolarini o'rganadigan onomastikadan farqli o'laroq, ya'ni ularni qanday apellativ asoslardan shakllanganligi va nimani anglatishini terminologiyada birinchi navbatda ilmiy tushuncha bilan bog'lash, shuningdek, tushunchaning muhim belgilari nomida aks ettirish muhim ahamiyatga ega.

Ismlarning ma'nosi, ularning to'g'riligi, antik filologiyada paydo bo'lgan "nomina appellativa" va "nomina propria" o'rtasidagi farq mezonlari haqidagi bahslar bizning davrimizda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Ko'rinib turibdiki, atoqli otlarga tabaqalashgan holda yondashish, ularning til va nutq darajasida o'ziga xosligi turlicha bo'lishini mumkin: mono-referentsial, keng tarqalgan nomlar (masalan,



Mendeleyev, Pushkin, Balzak) va ko'p referentli, umumiy nomlar (Tatyana, Jon va boshqalar), ular aniq obyektlar bilan boshqacha munosabatda bo'ladi.

Ensiklopedik ma'no ko'pincha o'tmishda yashagan olimlarning ismlarini qayta-qayta ishlatishga sabab bo'ladi. Shunday qilib, informatikada fibonachchi kompyuterlari, fibonachchi mikrosxemalari atamaları paydo bo'ldi, ularning asosini antroponim - 13-asrning mashhur italyan matematigining ismi, aniqrog'i taxallusi tashkil etadi. Fibonachchi seriyasini kashf etgan Pizalik Leonardo. Mutaxassislarning fikricha, Fibonachchi kodlari yordamida yuqori ishonchlilik darajasiga ega kompyuterlarni yaratish mumkin.

Ikkilamchi nominatsiyaga misol sifatida paskal atamasi (fizikada bu bosim va mexanik kuchlanishning СИ birligi). Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida. dasturlashda Algol-60 tilining vorisi paydo bo'ldi. Paskal, uni muallif Niklas Virt 17-asrdagi fransuz olimi sharafiga shunday nomlagan, u dunyoda birinchi bo'lib raqamlarni qo'shish imkonini beruvchi avtomatik qurilmani ixtiro qilgan.

V.Blanar va uning izdoshlari asarlarida bayon etilgan komponentli tahlil ma'lumotlariga ko'ra, antroponimning lingvistik, rasmiy ma'nosi mohiyatan "shaxsning ismi yoki familiyasi" ta'rifiga qisqartiriladi, ya'ni shu ma'noda atoqli otlar semantik bo'lib, tushunchalar bilan bog'lanishni ifodalamaydi. Keyingi, ensiklopedik ma'noga kelsak, bu turli xil otlar va shunga mos ravishda ular kiritilgan eponimlar uchun bir xil emas.

Umuman olganda, tilda maxsus maqsadlarda faoliyat ko'rsatadigan nomli ismlar tizimini hisobga olgan holda, biz ensiklopedik ma'nosiga qarab ikki turdagi nomlarni ajratamiz:

- bevosita yirik yoki fundamental muhim kashfiyot qilgan, yangi ilmiy yo'nalish, maktab va boshqalarni boshqargan shaxslarning ismlarini o'z ichiga olgan atamalar;

- xotirada yoki shaxs sharafiga yangi ob'ektlarga berilgan familiyalarni o'z ichiga olgan atamalar.

Birinchi turdagi atamalar semantik turtki va mantiqiy asoslanadi, ikkinchi turdagi atamalar esa "zaif" ma'noda motivatsiya bilan tavsiflanadi. Ular uchun ijtimoiy funktsiya etarli, motivatsiya esa faqat ramziy ma'noga ega va nolga yaqinlashadi. Bu, masalan, quyosh tizimining kichik sayyoralarning nomlari: Axmatova, Vysotskiy, Shukshin, Yuriy Raksha. Bular, qoida tariqasida, asosiy ma'lumotlar apellyatsiya elementida (asteroid, sayyora, kometa va boshqalar) mavjud bo'lgan yagona tushunchalarning nomlari yodgorlikdan tashqari holatlarda atoqli ot faqat belgi bo'lib, boshqa maqsadlarga ega bo'lishi mumkin emas. Bunday ob'ektlarni nomlash amaliyotida seriya raqami qo'llaniladi, u ham o'ziga xos nominativ funktsiyani bajaradi.

Eponim atamasining motivatsiyasi, shuningdek, aniq bir nominativ birlikni qat'iy belgilangan toifadagi tushunchalar qatoriga kiritish fakti bilan ham amalga oshirilishi mumkin. Bunga an'anaviy ravishda nomlar deb ataladigan jismoniy o'lchov birliklar, epominlar kiradi. Bu atamalar semantik hosilalanish doirasidagi shakllanishning metonimik usulini bildiradi.

Motivatsiyaning shunga o'xshash usuli morfologik hosilaning ba'zi modellarida qayd etilgan. Bular geologiyada (Eremeevit, Korjinskiy, Rentgenin), kimyoda (Kuriy, Fermium, Eynshteynyum) nominativ birlikning kategorik atributi maxsus qo'shimcha morfema (-it, -in, -iy) antroponimning hosil qiluvchi asos sifatida belgilanishi ham sof ijtimoiy funktsiya bilan chegaralangan shakllanishlar bilan ifodalangan. Muayyan antroponimdan generatsiya asosi sifatida foydalanishda ma'lum bir shartlilikning dalili turli xil antroponimlar asosida bir xil o'ziga xos tushunchaning turli tillarda nominatsiyasi bo'lishi mumkin.

Antroponimlar asosida morfologik usulda shakllangan mavhum semantika atama-eponimlarida motivatsiya ma'lum bir olim, jamoat arbobi nomi bilan bog'liq bo'lgan semantik ixtisoslashgan derivativ morfemalar va ensiklopedik ma'lumotlarning o'ziga xos birikmasi orqali amalga oshiriladi. (Averroizm, lassalizm, tomizm va boshqalar). Boshqacha qilib aytganda, bu har doim ma'lum bir shaxs, ilmiy yo'nalish muallifi, ijtimoiy hodisa va boshqalar bilan bog'liq bo'lgan ma'lum miqdordagi ma'lumotlarni anglatadi.

Taxminan xuddi shunday holat sostavli eponimlarda sodir bo'ladi, birgina farqi shundaki, kategorik xususiyat iboraning apellativ elementi (qonun, usul, kasallik, sindrom va boshqalar) bilan ifodalanadi, differensial belgilar esa, go'yoki: bilvosita, aniqrog'i, antroponim bilan birlashtirilgan, chunki ular ma'lum bir tadqiqotchi, shifokor, ixtirochi va boshqalarning ta'limoti, nazariyasi, kashfiyoti bilan bog'liq.

Ilm-fan tili uchun ushbu atash usuli tabiiydir va professional muloqotda qiyinchiliklarga olib kelmaydi. Umumiy qo'llanadigan eponimlar (Altsgeymer kasalligi, Vasserman reaksiyasi, Kox tayoqchasi va boshqalar) ham juda taniqli, garchi eng umumiy shaklda, professional tafsilotlarsiz,



odatda kundalik (sodda) qo'llash uchun tushunarli.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, birinchi turdagi eponimlar atamalar sifatida, ya'ni to'g'ri yo'naltirilgan ensiklopedik ma'noga ega bo'lganlar ko'proq ma'qullanadi; ikkinchi turdagi shartlar ma'lum bilim sohalarida yagona (nomenklatura) ob'ektlar nominatsiyasi uchun juda maqbuldir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

[1] [Kakzanova E.M. Iskustvo pamyati: terminy-eponimy. — Iskustvo pamyati: vospitanie nacionalno-kulturnogo soznaniya molodezhi // Sb. nauch. st. mezhregionalnoj nauchno-metodicheskoy konferencii 24 noyabrya 2010 goda. — Sankt-Peterburg: Obshchestvo «Znanie» Sankt-Peterburga i Leningradskoy oblasti, 2011.]

[2] [Varnavskaya E.V. Status i funkcionirovanie eponimov v medicinskoj terminologii ispanskogo yazyka: Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. — Voronezh, 2009.]

[3] [Mishkevich M.V. Semantika imeni sobstvennogo // Metodika obucheniya inostrannym yazykam. Romanskoe i germanskoe yazykoznanie. — Minsk: Izd-vo BGU. Vyp. 2.]

[4] [Potebnya A.A. Iz lekcij po teorii slovesnosti. — Xarkov: Izd-vo Xarkovskogo un-ta, 1894.]

[5] Lopatin V.V. Russkaya slovoobrazovatel'naya morfemika (problemy i principy opisaniya): Avtoref. diss. ... d-ra filol. nauk. — M., 1976.]



ОНА ТИЛИ ВА О‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA О‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH

Mirzayeva Fotima Xolmurodovna,
Navoiy viloyati, Navoiy shahar
17-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon: +998 93 612 96 23

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirishda 2-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligiga kiritilgan o‘quv materiallari va ularning ahamiyati haqida tahliliy ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Kompetensiyaviy yondashu, badiiy, ilmiy-ommabop, matnlar, suhbat, audiomatn, rasm chizish, she’r, lug‘at, savollar, so‘z ma’nosi, kasb egasi.

Bugungi kunda jamiyatni, iqtisodiyotni kasb-hunarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shuning uchun o‘zib kelayotgan yosh avlodni kasb-hunarga yo‘naltirish ta’lim sohasidagi dolzarb masalalar sanaladi. Kichik yoshdan bolani biror bir kasb-hunarni egallashga bo‘lgan qiziqishini oshirish maktabgacha ta’lim va umumiy o‘rta ta’limning maqsad va vazifalaridan sanaladi. Jumladan, boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligi, texnologiya, matematika, tasviriy san’at va boshqa fanlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitilishi bolani kelgu -sida jamiyatga xizmat qiladigan bilimli, o‘z kasbiga ega bo‘lgan shaxs sifatida kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich ta’limning “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligida faqat badiiy va ilmiy-ommabop matnlar berilmas- dan, rasm asosida suhbat o‘tkazish, audiomatnni tinglash, rasm chizish, biror bir narsani yasash jarayonlari ham amalga oshiriladi. Misol uchun 2-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida “Hunar–hunardan unar”, “Kasblar”, “Katta bo‘lsam, kim bo‘laman”, “Vaqtning qadri”, “Robot ixtiro qilaman” mavzularida rasm asosida suhbat; “O‘zbek hunarmandlari”, “Sobirjon fermer”, “Kelajak robotlarnikimi?”, “Ikki g‘aroyib ixtiro” audiomatnlari; “Hunarning foydasi” rivoyati, “Hunarning hidi qanaqa?” she’ri, “Shifokor o‘yini” qo‘shig‘i, “Olim bolmoqchi- man”, “Ixtirochilar tanlovi”, “Kutilmagan ixtiro” mavzularidagi matnlar; “Ko‘za yasash jarayoni haqida”, “Men ishlab chiqaradigan dori”, “Men o‘qituvchi bo‘lsam qanday o‘qitaman?” mavzularida matnini yozish; “Mening kichik fermam” loyiha tuzish va loyiha asosida matn yozish kabi darslari texnologiya va tasviriy san’at fanlari bilan uyg‘unlashgan.

Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligida berilgan har bir material o‘quvchilarda o‘qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish hamda tayanch kompetensiya elementlarini shakllantirishga qaratilgan. Masalan, italiyan adabi J. Rodarining “Hunarning hidi qanaqa?” she’ri quvnoq misralar asosida qurilgan bo‘lib, o‘quvchini bir o‘qishda, tinglashda o‘ziga rom etadi. She’r mavzusi bolalarda: “Iya, hunarning ham hidi bo‘ladimi?” degan fikrni uyg‘otadi. Ammo dars jarayonida bolalar she’rni o‘qib, tinglab, Rodariga qoyil qoladi, o‘quvchi haqiqatdan ham har bir hunarning hidi borligiga ishonadi.

Rodari “Hunarning hidi qanaqa?” she’ri dastlab o‘qituvchi tomonidan ifodali o‘qib berilgandan keyin sinfdagi o‘quvchilardan 4-5 nafari ham she’rni ifodali o‘qiydi. Shundan so‘ng lug‘at ustida ish olib boriladi. She’r matnidagi o‘quvchilar uchun yangi bo‘lgan so‘zlarga izoh beriladi. Masalan:

1. payraha- yog‘och yoki taxtani tesha bilan yo‘nib tekislash jarayonida ajralgan yog‘och bo‘laklari.
2. zamaska- deraza oynasi atrofida ochiq joylarni yopish uchun ishlatiladigan modda.
3. omoch- omoch qismlari qattiq yog‘ochdan tayyorlanadi. Tananing old tomoni uchli bo‘lib, unga tish (metall tig‘) kiydirilgan (shu tig‘ bilan yerni ag‘darib ketgan). Qadimda asosiy yer haydash quroli hisoblangan. Omochni hukuz yoki otga bog‘lab yerni ag‘dargan.

She’rda ifodalangan mazmun savol-javoblar asosida aniqlanadi. O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. She’rda qaysi kasb egalari haqida fikr bildirilgan?
-Nonvoy, duradgor-usta, bo‘yoqchi, oynachi, haydovchi-shofer, temirchi-ishchi, qandolatchi, shifokor, dehqon, dehqon, baliqchi.
2. She’r mazmunidan qaysi sohalarini bilish mumkin?



-Novvoychilik, ustachilik, buyoqchilik, oynachilik, haydovchilik, temirchilik, qandolatchilik, shifokorlik, dehqonchilik, baliqchilik.

3. She’rda bekorchilar haqidagi misralarni o’qing:

Faqat bekorchilaning

Hidi bo'lmas hech qanday.

Ishyoqmas boy qanchalik

Atir sepsin behuda!

Bolalar! Uning hidi

Qo'lansa bo'lar juda!

Mazkur misralardagi “qo'lansa” so'zining ma'nodoshi va qarama-qarshi ma'nosini topish:

1. Manadoshi: yomon hidli, sassiq. 2. Qarama-qarshi ma'nosi: yoqimli hid, yaxshi hidli.

Ushbu she'r matni bilan ishlashda o'quvchilar muallifning so'z qo'llash mahorati bo'yicha tushunchaga ega bo'ladi, ularda she'ryatga bo'lgan qiziqish uyg'onadi, nutqiy savodxonlik rivojlanadi va turli kasblar haqida tasavvur hosil bo'ladi. Shuningdek, o'quvchilar bekorchilik, biror bir kasbni egasi bo'lmaslik yomon illat ekanligini va biror bir kasbni egallash kerakligini anglaydilar.

Xulosa qilib aytganda, ona tili va o'qish savodxonligi darslarida badiiy matnlar, rasmlar, audiomatnlar va boshqa turli mehnat faoliyatlari bilan o'quvchilarni tanishtirish orqali ularning turli kasblarga qiziqishlari, layoqatlari, qobiliyatlari va individual xususiyatlarini rivojlantirish ko'zda tutilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari. 2017-yil.

2. “O'qish madaniyatini oshirish” ilmiy-amaliy seminari materiallari 2018 –y.

3. Ona tili va o'qish savodxonligi. [Matn]: darslik 2-sinf uchun Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.



AL-XORAZMIYNING MATEMATIKA FANIGA QO'SHGAN HISSASI

Munosimova Dilshoda Ma'miraliyevna

Farg'ona viloyati Buvayda tumani
26-umumiy o'rta ta'lim maktabining
matematika fani o'qituvchisi.
Tel nomeri: +998996352488

Annotatsiya: ushbu Al-xorazmiyning matematika faniga qo'shgan hissasi haqida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: Xorazmiy, matematika, Ya'qub ibn Tariq, Kufiy, “Musulmon renessansi”, Adama Metis

Xorazmiy, Abu Ja'far (Abu Abdulloh) Muhammad ibn Muso al Xorazmiy (783, Xiva — 850, Bag'dod) — xorazmlik matematik, astronom, geograf, fan tarixidagi ilk qomusiy olimlardan. Zahiriddin va Firdavs qo'lida tahsil olgan bilan birga ishlagan.

Dastlabki ma'lumotni Xiva shahrida olgan va yetuk olim bo'lib shakllangan. Bunda arab istilosidan so'ng muayyan darajada saqlanib qolgan qadimgi Xorazm fani an'analari asosiy rol o'ynagan. Xalifa Horun ar Rashidning o'g'li va uning Xurosondagi voliyasi al Ma'mun huzuriga — Marvga taklif etilgan. 819-yilda Bag'dodni egallagan al Ma'mun Markaziy Osiyolik olimlardan Xorazmiy, Ahmad al Farg'oniy, Habash al Hosib Marvaziy, Abul Abbos Javhariy va boshqalarni o'zi bilan olib ketib, o'ziga xos ilmiy jamoa tashkil etgan. Bu jamoa fan tarixidagi dastlabki rosmiyan akademiya deb qaraladigan ilmiy muassasa — “Bayt ul Hikmat” („Donishmandlik uyi“)ning asosini tashkil etgan. Bu akademiyada Xorazmiy yetakchi olim va ilmiy rahbar bo'lgan. U shu davrdan boshlab Bag'dodda al Ma'mun (813-833), so'ng al Mo'tasim (833-842), al Vasiq (842-847) xalifaligi davrlarida yashab ijod etgan.

Xorazmiyning bizgacha o'ntacha asari to'liq, qisman yoki ayrim parchalar tarzida yetib kelgan. Shu asarlarning o'ziyoq ko'rsatadiki, Xorazmiy insoniyat sivilizatsiyasiga buyuk hissa qo'shgan olimdir. Amerikalik fan tarixchisi George Sarton Xorazmiyning „O'z zamonasining eng buyuk matematigi, agar barcha holatlar e'tiborga olinsa, barcha zamonlarning eng buyuk matematiklaridan biri“, deb baholagan. Bunday baho Xorazmiyning matematika tarixida tutgan beqiyos o'rnini sabab.

Miloddan avvalgi 6-asrdan milodiy 5-asrgacha ravnaq topgan yunon madaniyati 4-asrga kelib inqirozga yuz tutdi. 415-yilda yunon fanining xazinasi bo'lgan Iskandariya kutubxonasi vayron qilinib, minglab kitoblarni yoqib yuborildi. Natijada fan taraqqiyotdan to'xtab, hatto qo'lga kiritilgan yutuqlar ham unutila boshladi. 4-8-asrlarda olis Xitoy va Hindistondagi ayrim olimlar faoliyatini hisobga olmaganda Konstantinopol (Vizantiya) va Gandishapurda (Eronning hozirgi Huziston viloyatida) jon saqlagan yunon olimlari, ayrim suryoniy, yahudiy va nasroniy ruhoniylari omon qolgan yunoncha kitoblarni saqlash, tarjima qilish, sharxlar bitish bilangina shug'ullangan, diniy ehtiyojlar tufayli ayrim astronomik kuzatuvlarga olib borilgan.

IX asrda Arab xalifaligi kuchayib, uning poytaxti Bag'dod ulkan iqtisodiy-ijtimoiy markazga aylandi va bu yerga ilm ahli oqib kela boshladi. Al Hajjoj ibn Matar al Kufiy, Abu Zakariyya Yahyo ibn al Bitrik, Huaayn ibn Ishoq, Qusta ibn Luqo al Baalbakiy va boshqa yunon olimlarining asarlarini, Muhammad al Fazariy, Ya'qub ibn Tariq va boshqa olimlar hind tilidagi kitoblarni arab tiliga tarjima qila boshladilar, arab tilida dastlabki sharxlar bitildi. Lekin fan yangi marallarni egallashi uchun uni yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarish lozim edi. Fan tarixchisi Adam Mets iborasi bilan „Musulmon renessansi“ deb atalgan fan tarixidagi bu hodisa birinchi navbatda Xorazmiy nomi va ilmiy jasorati bilan bog'liq.

Xorazmiy Bag'dodda yunon fanining yutuqlarini o'rganadi, hind va eron manbalari, hatto bevosita Bobildan kelgan ayrim faktlar hamda xitoy manbalari bilan ham tanishadi, ularni o'zining muhim kashfiyotlari bilan boyitadi va fan tarixida abadiy iz qoldirgan fundamental asarlar yaratadi. Shuning uchun Xorazmiy o'zigacha mavjud bo'lgan sivilizatsiya merosini sintez qilib, boyitib jahonga yoygan fan dahosi hisoblanadi.



AL-XORAZMIY MEROSIGA QIZIQISH

Nurmatova Maxzuma Shuhratjonovna

Farg'ona viloyati Buvayda tumani

26-umumiy o'rta ta'im maktabining

matematika fani o'qituvchisi.

Tel nomeri: +998996068315

Annotatsiya: ushbu maqolada Al-Xorazmiyning ilmiy merosini qiziqib o'rgangan olimlar haqida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: Algebra, Arifmetika, N. Zuter, V.Millas, „Astrolyabiya bilan amallar haqida kitob“

Xorazmiyning ilmiy merosiga qiziqish uning hayotlik davridayoq boshlangan. Zamondoshlaridan Ahmad al-Farg'oni, Xuttaliy va boshqa uning asarlariga sharhlar yozishgan. Xorazmiy uzining „Zij“ini yozishda xind „Sindhanta“lariga va Ptolemeyning „Almagest“ asariga tayangan bulsa, „Algebra“, „Arifmetika“va boshqa asarlari batamom original asarlar sanaladi. Xorazmiy asarlarining mundarijasi, tuzilishi va bayon uslubi keyingi olimlar uchun namunaga aylanadi. Shu bilan birga uning ijodi fanning keyingi taraqqiyoti uchun muxim pog'ona vazifasini utadi. Masalan Beruniy Xorazmiyning „Zij“ iga atab uchta risola bitgan.

Xorazmiy asarlari 12-asr boshidayoq Yevropa shaharlariga kirib borgan ma'lum. Kitoblarga ehtiyoj kuchayganidan so'ng ular lotinchaga tarjima qilingan. Xorazmiyning „Algebra“, „Arifmetika“, „Geografiya“si va „Zij“i 16-asrgacha darslik vazifasini o'tagan. Xorazmiy asarlari o'sha davrlarda Hindistonga ham olib ketilgani haqida dalillar mavjud.

19-asr boshlarida Xorazmiy merosiga tarixiy nuqtai nazardan qiziqish boshlangan. Xorazmiy „Algebra“sini 1817-yilda K. Koulbruk qisman, 1831-yilda F. Rozen to'liq hajmda Londonda, 1838-yilda G. Libri Parijda chop ettiradi. Hozir bu asarning inglizcha (L.S. Karpinskiy, 1915-yil, AQSH), arabcha (A.M. Musharrafa, 1939-yil), ruscha (Yu.Xorazmiy Kopelevich, B.A. Rozenfeld, 1964-yil) va boshqa nashrlari mavjud.

Xorazmiyning „Arifmetika“sini birinchi marta B. Bonkompani Rimda (1857), Karrolyne Fogel Germaniyada (1963), Adolph-Andrei Pavlovich Yushkevich Moskvada (1954) chop ettirishgan.

Xorazmiy „Zij“ini o'rganishga ham katta e'tibor berilgan. Uni 1914-yilda N. Zuter, so'ng O. Neygebauer (1962), V.Millas, Goltsteyn (1963) va boshqalar nashr qilishgan. 1919-yilda F. J. Videman „Astrolyabiya bilan amallar haqida kitob“ini nashr etgan.

Xorazmiyning „Geografiya“si birinchi marta Xorazmiy fon Mjik (1926) tomonidan chop etilgan. Olimning boshqa qo'lyozmalarini izlab topish, o'rganish, chop etish va tarjima qilish — matematika tarixi sohasining dolzarb muammolaridan bo'lib qolmoqda.

1983-yilda Xorazmiy tavalludining 1200-yilligi munosabati bilan uning barcha asarlari rus tilida (A.Axmedov, Adolph-Andrei Pavlovich Yushkevich, B.A. Rozenfeld va boshqalar tarjimalarida) hamda tanlangan asarlari o'zbek tilida (A. Axmedov tarjimasida) nashr etildi.

Xorazmiy ilmiy merosini o'rganish va uning fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasini targ'ib qilishda nomlari yuqorida zikr etilgan olimlardan tashqari J. Sarton, E.S. Kennedi, D. King (AQSH), S.A. Nallino (Italiya), Xorazmiy Zemanek (Avstriya), A. Allar (Belgiya), R. Rashed (Fransiya), S. Brokelman, D. Samploinius (Germaniya), M. M. Rojanskaya (Rossiya) va boshqalar ham muhim hissa qo'shgan.

O'zbekistonda Xorazmiy hayoti va faoliyati bilan birinchi bo'lib T.N. Niyoziy qiziqqan. 1960-yillardan S.H. Sirojiddinov va G.P. Matviyevskaya rahbarligida Yaqin va O'rta Sharq fani tarixi, jumladan, Xorazmiy merosini o'rganish va dunyo miqyosida targ'ib qilish bo'yicha keng ko'lamda ilmiy tadqiqotlar boshlab yuborildi. 1983-yilda buyuk olim tavalludining 1200-yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan Xalqaro ilmiy anjuman (Moskva, Toshkent va Urganch shahrida) Xorazmiyning jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rnini belgilashda muhim tadbir bo'ldi.



ONA TILI DARSLARINI INNOVATSION METODLAR YORDAMIDA TASHKIL ETISH USULLARI

Ollaberganova Feruza Boltayevna
Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani
16 – maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda o'quvchilarda til va nutq ta'limida uchraydigan muammo va kamchiliklar to'g'risida, ularni hal qilish va bu jarayonda innovatsion metodlarning ahamiyati, darslarni qiziqarli texnologiyalar asosida tashkil qilish usullari haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: ona tili, nutq, til, muammo, gap, so'z, charxpalak, sifat, guruh.

Komil inson tarbiyalashda maktab ta'limida yetakchi fan hisoblangan ona tili fanining o'rni beqiyosdir. Ona tili ta'limining asosiy talablariga ko'ra, o'quvchi mavzu bo'yicha belgilangan bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash uchun darslikdagi mashq va topshiriqlarni mustaqil, ijodiy fikrlash orqali bajarish kerak.

Shuningdek, berilgan topshiriqlarni bajarishda kuzatish, umumiylikni topish, farqlarni aniqlash, qiyoslash, tasniflash, xulosa chiqarish, amaliyotda qo'llash kabi amallarni bajarish kerak. Afsuski, keyingi paytlarda til va nutq ta'limida quyidagi muammolarga duch kelyapmiz:

- Matnda mavzuga uyg'un holda asosiy fikrni yoritib bera olmaslik;
- So'z tanlashdagi xatoliklar, ma'nodosh so'zlardan foydalana olmaslik;
- Bitta gap yoki yondosh gaplarda bir so'zni o'rinsiz takrorlash;
- Gap tuzishda so'zlar tartibiga e'tibor bermaslik, gap bo'laklari o'rnini chalkashtirish;
- Ko'proq bir qolipdagi oddiy va sodda sintaktik qurilmalarni qo'llash;
- Yozma nutqda murakkablashgan sodda gaplar qo'shma gaplarning deyarli ishlatilmasiligi;

- Turli tasvir vositalari ishlatilgan jumlarlar, hissiy-ta'siriy bo'yoq bildiruvchi ifodalarning qo'llanmasligi.

Xo'sh, bunday vaziyatda nima qilish kerak, degan savol tug'iladi. Fikrimizcha, ayni chog'da, lo'nda qilib aytganda, umumiy o'rta ta'limda “Grammatika grammatika uchun” emas, balki “Grammatika –fikrning aniq va lo'nda ifodasi uchun” shioriga amal qilish maqsadga muvofiq. Buning uchun, o'quvchilarning aniq va ravon so'zlashlariga qaratilgan fikr-mulohazalarimizni keltirib o'tamiz.

Ona tili darslarini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etish va o'quvchilarda mustaqil ishlash, shuningdek, ijodiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishda “Juftlikda ishlash”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Daraxt yechimi”, “Tugallanmagan gap mashqi”, “Charxpalak”, “Adashgan so'zni topish”, “Chalkash ma'lumotlar”, “Alifbo”, “Tarozi”, “Loto”, “Qora quti” kabi metodlardan foydalanish o'qituvchi mehnati samaradorligini ta'minlaydi. Yuqorida berilgan metodlardan “Charxpalak” texnologiyasini ko'rib chiqamiz. Ushbu texnologiya o'quvchilarni o'tilgan mavzularni yodga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berishga va o'z-o'zini baholashga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan.

Charxpalak texnologiyasi o'quv mashg'ulotining barcha turlarida dars boshlanishi yoki dars oxirida yoki o'quv predmetning biron bir bo'limi tugallanganda, o'tilgan mavzularni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini baholash, oraliq va yakuniy nazorat o'tish uchun mo'ljallangan.



Mashg'ulotni o'tkazish tartibi. O'quvchilar guruhlariga bo'linadi, talab va qoidalar tushuntiriladi. Guruhlarga mos tarqatma materiallar tarqatiladi. Har bir guruh a'zosi o'zi ishlagan tarqatma materiallarining o'ng burchagiga guruh raqamini yozadi, chap burchagiga esa o'zining ramziy belgisini chizib qo'yadi. Vazifa bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlariga “charxpalak aylanmasi” yo'nalishida almashtiriladi. 1-guruh fikrini 2-guruh, 2-guruh fikrini 3- guruh, 3-guruh fikrini 1-guruh davom ettirib charxpalak hosil qiladi. Qaysi guruh fikr topa olmasa o'sha guruh o'yinni tark etadi.

Reja bo'yicha belgilangan mavzu asosida hamda o'qituvchining qo'ygan maqsadiga mos tayyorlangan tarqatma materiallar guruhlar soniga qarab tayyorlanadi. Bu jarayonda masalan barcha guruhlariga “Til deganda nimani tushunasiz?” degan bir xil tarqatma berib har xil javob olish mumkin. Bunda fikrlar ketma-ket guruhlararo amalga oshiriladi. Masalan o'qituvchi tomonidan har bir guruh 20 ta fikr yig'ish kerak bo'lsa, 15-16 ta o'quvchilar tomonidan fikr yig'ilgan bo'lsa, o'quv materiali o'zlashtirilgan hisoblanadi. Har bir to'g'ri fikr uchun 1 ball beriladi va guruh baliga qo'shib boriladi.

“Charxpalak” texnologiyasining afzalligi

1. O'quvchilarni guruh bo'lib ishlashga, ya'ni hamjihatlikka o'rgatganligi;
2. Kafolatlangan natijaga yo'naltirilganligi;
3. O'quvchilarni o'rtasida sog'lom raqobatni yo'lga qo'yilganligi;
4. O'quvchilarda mustaqil ishlash va mantiqiy fikrlashga o'rgatish;
5. Kommunikativ shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish;
6. O'quvchilarimizda milliy qadriyatlarni bilishga qaratilganligi;

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, qo'llanilgan usullar o'quvchilarning intellektual faollik, qiziqishlari hamda moyilliklaridan kelib chiqqan holda bilimlarning ortishi va ko'nikmalarining malakaga aylana borishini ta'minlaydi. Ta'lim sifat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.J.Ishmuhamedov, M.A.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. -T., 2017
2. Xalq ta'limi. Xalq ta'limi vazirligining ilmiy metodik jurnali. T., 2014.



AL-XORAZMIY VA ALGEBRA

Ortiqova Nilufar Abdusattorovnaa

Farg'ona viloyati Buvayda tumani

26-umumiy o'rta ta'im maktabining

matematika fani o'qituvchisi.

Tel nomeri: +998998404106

Annotatsiya: ushbu maqolada Al-Xorazmiy algebra fani asoschisi ekanligi haqida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: Algebra, „Aljabr valmuqobala hisobi haqida qisqacha kitob, Pifagor teoremasi, irratsionallik, ishoralar qoidasi

Xorazmiy algebra faniga asos solgani, bu fan atamasi uning „Kitob muxtasar min hisob aljabr valmuqobala“ („Aljabr valmuqobala hisobi haqida qisqacha kitob“) asari nomidan kelib chiqqani yaxshi ma'lum. Lekin ba'zan Xorazmiy faqat o'zidan avval ma'lum bo'lgan chiziqli va kvadrat tenglamalar yechish usulini tizimga solgan, degan nuqtai nazar uchraydi. Bu fikr Xorazmiy asari shu mavzudan boshlanganligi tufayli paydo bo'lgan. Holbuki, Xorazmiyning kitobi, birinchi navbatda, algebraik hisobga bag'ishlangan. Bu shundan ham ko'rinadiki, kitob nomi ikki muhim algebraik amal — aljabr va almuqobala bilan atalgan. Xorazmiy algebraik amallarni, avval tenglamalarni yechishda qanday qo'llanishini bayon etib, so'ng algebraik shakl almashtirishlariga o'tgan. Aks holda kitobning maqsadini tushunish qiyin bo'lar edi. Xorazmiy asari 12-asrning boshlarida kremonalik Gerardo, chesterlik Robert tomonidan lotinchaga tarjima qilingan, nomi qisqarib „algebra“ (fransuz, ingliz tillarida), „algebra“ (nemis, rus tillarida) deb atala boshlagan va fan nomiga aylanib ketgan.

„Aljabr val muqobala“ kitobi

Uning muqaddimasida kitob nima maqsadda yozilgani bayon qilinadi: "Men arifmetikaning oddiy va murakkab masalalarini o'z ichiga oluvchi „Aljabr val muqobala hisobi haqida qisqacha kitob“ni ta'lik qildim, chunki meros taqsimlashda, vasiyatnoma tuzishda, mol taqsimlashda, adliya ishlarida, savdoda va har qanday bitimlarda, shuningdek, yer o'lchashda, kanallar o'tkazishda, geometriyada va boshqa shunga o'xshash turli ishlarda kishilar uchun bu zarurdir".

Kitob uch qism (kitob)dan iborat. Uning 15 bobli birinchi qismi „Kitob almuxtasar filjabr valmuqobala“ deb nomlangan va sof matematik faktlar bayoniga bag'ishlangan. Xususan, unda Qadimiy Bobildan ma'lum bo'lgan birinchi va ikkinchi darajali tenglamalarni yechish usullari bayon qilingan. Xorazmiy manfiy sonlardan foydalanmagani uchun tenglamalarni quyidagi ko'rinishda qaraydi: $ax^2=bx$, $ax^1=c$, $bx=c$, $ax^2+bx=c$, $ax^2+c=bx$, $ax^2=bx+c$. (Ular hozirgi fan tilida birinchi va ikkinchi darajali tenglamalarning musbat sonlar yarimmaydoni ustidagi kanonik ko'rinishlaridir).

Xorazmiy har bir holda tenglamani yechish qoidalari hamda ularning qat'iy isbotlarini keltiradi. Isbot garchi tashqi ko'rinishda geometrik tilda bayon qilinsada, mohiyatan hozirgi algebraik isbot bilan mos tushadi.

Kitobning keyingi bobida algebraik hisob, xususan, aljabr val muqobala amallari bayon qilinadi. Bu bobda „irratsionallik“ tushunchasi kiritiladi, „ishoralar qoidasi“ keltiriladi. Kitobning navbatdagi ikki bobi algebradan masalalar to'plami bo'lib, aljabr va muqobala amallari bilan yechiladigan murakkabroq misollarga, „O'lchashlar haqida bob“i geometriyaga bag'ishlangan. Unda shakllarning yuz va hajmlarini o'lchash qoidalari, Pifagor teoremasi va boshqa faktlar bayon qilingan. Bu bob hajm jihatdan kichik bo'lsa ham, o'sha davr amaliyoti uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. Lekin muallif muqaddimada qayd etganidek, bu bobdan ko'zlangan asosiy maqsad geometriyani bayon qilish emas, balki algebra geometriyada ham qo'llanishini namoyish qilish bo'lgan. Kitobning qolgan ikki qismi „Vasiyatlar kitobi“ va „Takdir aylanishlari hisobi haqida“ deb nomlanib, musulmon fikri bo'yicha, meros taqsimlashga oid masalalar algebra usullari bilan qanday hal etilishi ko'rsatilgan. Shunday qilib, „Aljabr valmuqobala hisobi haqida qisqacha kitob“ algebra asoslari hamda algebrani amalda tatbiq etishga bag'ishlangan mukammal darslik bo'lgan



INGLIZ TILIDA OLMOSHLARNING UMUMIY KLASSIFIKATSIYASI

Rajabov Arslonbek O'ktamboy o'g'li
Matyaqubova Martaba Ismailovna
 Xiva tumanidagi 25-maktabning
 ingliz tili fani o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilida olmoshlarning qo'llanilishi va ularning umumiy klassifikatsiyasi haqida bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Sintaktik aloqa, so'z turkumlari, olmoshlar, leksik ma'no, substantiv olmoshlar, ad'ektiv olmoshlar.

Tilda mavhum ma'no va mustaqil funksiyaga ega bo'lgan predmetlarni va ularning belgisini hamda predmetning o'rtasidagi sintaktik aloqalarni qisman ko'rsatib kelgan so'z turkumiga olmosh deyiladi. Olmoshlar garchi har xil so'z turkumlari o'rnida ishlatilsa ham ular predmet va ularning ma'nosini to'g'ridan to'g'ri ifodalamaydi.

Ingliz tili grammatikasida ham bir qator masalalar tilshunos olimlar tomonidan o'rganilganda turli-bahs munozaralarga sabab bo'lmoqda. Ana shu muammoli masalalardan biri olmoshlardan leksik ma'no jihatdan alohida so'z turkumiga ajratish bir oz mushkul.

Olmoshlar ma'no va ishlatilishiga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. **Substantiv olmoshlar. (Substantive or noun pronouns).**

2. **Ad'ektiv olmoshlar. (Adjective pronouns).**

Ot o'rnida kelib ega, to'ldiruvchi va predikativ vazifasida qo'llaniladigan olmoshlar **substantive** olmoshlar deyiladi.

Masalan: When they had taken their places, she said abruptly: I have a crow to pluck with you (G. Joyce).

Ular o'z joylarini egallashgandan so'ng u qo'pollik bilan dedi. Mening qarg'amborsiz bilan patlarini yulishuchun.

• It smells like giraffe and it hicks like Giraffe, it hasn't any form (P. Kipling).

U jirafa kabi hid taratadi va u jirafadek tepadi, u hech qanday shaklga ega emas.

• She got up and danced round her (Jbid).

U uyg'ondi va uning atrofida raqsga tushdi. Masalan: • The girl Glanced back at him over her shoulder and said with great bitterness. (J. Joyce).

Qiz unga tikilib orqasiga qaradi va chuqur g'am bilan aytdi.

Predmetning belgisini, sifatini aniqlab gapda asosan aniqlovchi vazifasida keluvchi olmoshlar deyiladi.

Masalan: • She nodded **her** head gravely (J. Joyce).

U boshini jiddiy holatda irg'itdi.

• "O **my** Enemy and Mosher of **my** enemy" said the cat.... (R. Kipling).

Ey, mening dushmanim u dushmanimning onasi-dedi mushuk...

• "That's **your** very own hump that you've brought upon **your** very own self by not working (Gbid)".

• On **his** heart he was satisfied.

Yuragidan u mamnun edi. (D. H. Lawrence).

Ayrim olmoshlar ham substantive, ham ad'ektiv olmosh vazifasida kelishi mumkin.

Masalan: • **All** (substantiv) was dark in the house. (Galsworthy).

Hamma narsa uyda qorong'u edi.

• But we don't want **all** (ad'ektiv) those (ad'ektiv) teeth: Only put two.

Lekin biz anashu tushlarning hammasini xohlamaymiz, faqat 2 ta qo'ying.

• She wondered about the **other** (ad'ektiv) girl. (P. Abrahams).

U boshqa qiz haqida qiziqdi.

• The others (substantiv) just care about being a good dresser. (B. J. Friedman).

Boshqalar faqatgina yaxshi oshxona javoni bo'lishi haqida o'ylashdi.

Keyingi ikki gapning birinchisidagi "**Other**" so'zi "**girl**" so'zini aniqlab, ad'ektiv olmoshi vazifasida kelayotgan bo'lsa, u gapning ikkinchisida ko'plik qo'shimchasini "**-S**"ni olganligi hamda aniq artikl "**the**" bilan ishlatilib, gapda ega bo'lganligi uchun ham substantive olmosh vazifasida kelyapti.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.A.Bonk, G.A.Kotiy, N.A.Lukyanova "Ingliz tilidan qo'llanma" Toshkent-2014



ONA TILI DARSLARIDA HIKMATLI SO'Z, MAQOL VA MATALLARDAN FOYDALANISH USULLARI

Safarova Mehriniso

Buxoro viloyati Jondor tumani

29-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

Telefon: +998 (94) 125-82-00

yulduzrazzoqova@267gmail.com

Annotatsiya: Ona tili darslarida hikmatli so'z, maqol va matallardan foydalanish tartibi, usullari, bularning yosh avlodni tarbiyalashdagi ta'siri, avlod-ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan boy tajriba, qadriyatlarning meros sanalishi haqida.

Kalit so'zlar: hikmatli so'z, maqol, matal, qadriyat, intellektual mulk, “Komil” inson, ma'naviy meros, madaniy meros, Qur'oni karim, Alisher Navoiy.

Xalq asrlar mobaynida to'plagan hayotiy tajribasini turli vositalar yordamida kelajak avlodlarga meros qilib qoldiradi. Maqollar, hikmatli so'z va matallar ana shunday bebaho meros namunasi hisoblanadi. Maqollar xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari singari, har bir xalqning milliy adabiy va madaniy boyligi hisoblanadi. Ular xalqning milliy madaniy xususiyatlari va uning qirralarini dunyoqarashi, axloqiy me'yor va prinsiplarini, an'ana va qadriyatlarini, millatning ruhiy holatini to'liq ifodalaydi hamda jamiyatning, ayniqsa, ertangi kun egasi bo'lgan yoshlar ongini o'stirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, buyuk allomalarimiz tomonidan yaratilgan hikmatli so'zlar ham yosh avlodning ma'naviy dunyoqarashini, tafakkurini boyitishda muhim vositalardan biri sanaladi. Ana shunday boy ma'naviy, madaniy intellektual mulklarga matallar, hikmatli so'z va maqollar kiradi. Shunday ekan, darslarda bunday milliy boyliklarimizdan foydalanish o'quvchi yoshlarni kelajakda “Komil” inson qilib tarbiyalashda qo'l keladi.

Dunyoda tarkibida maqollar bo'lmagan birorta ham til yo'q. “Maqollar-deyiladi “O'zbek tilining izohli lug'atida”, -hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand-nasihat mazmuniga ega bo'lgan ixcham obrazli va hikmatli ibora, gap” hisoblanadi. Shuningdek, matallar va hikmatli so'zlarda ham kelajak avlodni ilmlilik va birlikka, odob va axloqqa, ta'lim va tarbiyaga, xayrli ishlar qilishga undovchi da'vatlar o'z aksini topgan.

Maqol, matal, hikmatli so'z kabi noyob ma'naviy, madaniy merosdan yosh avlodni tarbiya qilish targ'ibotida unumli va ta'sirli foydalanish bugungi kunning eng muhim talablaridan biridir.

Hikmat izlaganga hikmatdir dunyo, Illat izlaganga illatdur dunyo.

Hikmatli so'zning lug'aviy ma'nosi-chuqur ma'noga ega bo'lgan oqilona aytilgan gap demakdir. Hikmatli so'z- bu Qur'oni karim oyatlarida payg'ambarimizning haq yo'lini ko'rsatuvchi va'zlari ma'nosida qo'llanilgan. Hikmatlar X asrdan buyon tasavvufga oid kitoblarda ishlatilib kelingan.

Hikmatli so'z ya'ni aforizmlar. Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, xalqning turmush-tajribasiga tayanib ma'lum bir shaxs tomonidan yaratilgan qisqa, obrazli barqaror birikmalarga hikmatli so'zlar deyiladi. Turkiy til dahosi bo'lmish Alisher Navoiyning quyidagi misrasini hikmatli so'zga misol qilish mumkin.

Odami ersang demagil odami, Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami.

“Maqol” so'zi arabcha bo'lib “so'z” demakdir. Maqollarda fikr aniq, xulosa tugal, ifoda lo'nda va albatta, hukm tarzidagi ibratli fikr bo'ladi. Maqol uchun mazmun va shaklning dialektik birligi, ko'p hollarda qofiyadoshlik, ba'zan ko'p ma'nolik, majoziy ma'nolarga boylik kabi xususiyatlar xarakterli bo'lib, ayniqsa, antiteza hodisasi ko'p uchraydi. Buni quyidagi maqolda ko'rish mumkin.

Kattaga hurmatda bo'l, Kichikka izzatda bo'l.

“Matallar-muayyan hayotiy hodisani aniq va to'g'ri belgilab beradigan obrazli ifoda, iboradir. Matallarda o'xshatish, taqqoslash, kinoya, qochiriq so'z kabi badiiy vositalardan foydalaniladi. Majoziy iboraning o'z asl ma'nosi bilan ko'chma ma'nosi o'rtasida aniqlik, mantiqiy bog'lanish bo'lishi lozim. Matallar bir yoki bir necha jumladan tuziladi. Ular orasida hamisha ham qofiya saqlanmaydi. Buni quyidagi misollarda ko'rish mumkin.

“Qizim sanga aytaman, kelinim san eshit”.

“Shamol bo'lmasa, daraxtni uchi qimirlamaydi”.

Ona tili darslarida maqollarni o'rganishda turli usullarni qo'llash mumkin.



Jumladan,
 “Kim ko’p maqol biladi” o’yini,
 “Maqollarni sharhlaymiz” o’yini,
 “Maqollar zanjiri” o’yini,
 “Marraga kim oldin keladi” o’yini,
 “Maqollar bozori” o’yini,
 “Maqollarning mavzuli estafetasi” o’yini,
 “Koptokni qaytarish” o’yini.

Yuqoridagilardan ba’zilarini sharhlaymiz.

“Maqollarni sharhlaymiz” o’yinida o’quvchilar guruhlariga bo’linishadi. Bir guruh tegishli maqollarni aytadi. Boshqalar uni sharhlab, izohlab berishga harakat qilishadi. Bu usulda maqollarning mazmuni, uning qanday hayotiy vaziyatlarda qo’llanishini idrok etish uchun real sharoit yaratiladi.

“Maqollarning mavzuli estafetasi” o’yini estafeta qoidalari asosida tashkil etiladi. Estafeta tayoqchasi maqol aytish navbatini belgilab beradi. O’yinda barcha guruhlar ishtirok etadi. Bunday mashg’ulotlar o’quvchilarning maqollarning mazmun va mohiyatini teran anglashlari, ularning mavzuviy guruhlariga ajratish va tahlil etish, yaxlit umumlashma va xulosalar chiqarishga oid ko’nikma va malakalarning rivoji uchun mustahkam zamin yaratadi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko’p asrlar mobaynida yaratib kelingan g’oyat ulkan, bebaho ma’naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko’tarilgan muhim vazifa bo’lib qoldi. Shuningdek ona tilimizga bo’lgan e’tibor ham kuchaydi. O’zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog’i, gerbi, Kostitutsiyasi qatorida turadigan, qonun yo’li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollardan biriga aylandi.

Hozirda ona tili fanini o’qitishda darslarni ilg’or texnologiyalar asosida tashkil etish, fanlararo aloqadorlikni qo’llash, shuningdek, xalq og’zaki ijodidan foydalanib dars o’tish o’quvchilarni kundalik hayot bilan hamohang o’sib, ulg’ayishida katta vazifani bajaradi. Ayniqsa, “Gapning tuzlishiga ko’ra turlari”, “Fe’l kesim va ot kesim” kabi mavzularda maqollar, hikmatli so’zlardan ko’proq foydalanish maqsadga muvofiq bo’ladi.

Adabiyotlar

1. “O’zbek tilining izohli lug’ati” 2 tomlik. 1-tom.
2. To’ychiboyev B. “Til ta’limida dialektal maqollarning o’rni” to’plam.
3. Bobomurodova A. “Ona tili jarayonida o’yin topshiriqlaridan foydalanish”.
4. Qodirov Muhammadjon, Ne’matov Hamid “Ona tili” darsligi 8-sinf.



О‘ЗБЕК ТИЛИДА АДАБИЙ ТИЛНИНГ ОГ‘ЗАКИ ФОРМАСИ

Samijonova Muattar Olimjonovna

Namangan viloyati Pop tumani

2-sonli maktabning o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilida adabiy tilning og‘zaki formasi haqida, adabiy til, milliy til va badiiy tilning farqli va o‘xshash jihatlari haqida mulohaza qilingan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, adabiy til, stil, milliy til, badiiy til, dialekt, umumxalq tili, sheva, forma.

Adabiy tilning yozma formasi mavjud bo‘lgan joyda ham ayni bir vaqtda uning og‘zaki formasi yoki shu og‘zaki formasining turli ko‘rinishlari uning yozma formasi bilan parallel ravishda mavjud bo‘lishi va parallel ishlashi mumkin. Har bir adabiy tilning taraqqiy etishida tashqi faktlar ham muhim rol o‘ynaydi. Masalan: O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, milliy tilimiz taraqqiy qildi. Unga davlat tili degan maqom berildi. Bu qonun tilimizni yanada rivojlantirishga sababchi bo‘ldi.

Milliy til tushunchasi bilan adabiy til tushunchasining yana bir farqi shundaki, milliy tilning ayrim asoschilari bo‘lmaydi. Milliy tilning asoschisi shu tilning egasi bo‘lgan xalqdir. Adabiy til umumxalq tilining yoki milliy tilning shoirlar, adiblar va o‘z ustalari tomonidan qayta ishlangan, ma‘lum normaga solingan va standartlashtirilgan qismidir. Boshqacha qilib aytganda, adabiy til bu umumxalq tilining silliqashtirilgan, sayqal bergan va amalda xususan yozuvda ko‘proq qo‘llaniladigan qismi yoki formasidir. Shu jihatdan qaraganda, adabiy til tushunchasiga boshqa funksional stillar va ularning turli xil ko‘rinishlari ham kiradi.

Badiiy til ham adabiy tilning bir ko‘rinishidan iborat va u adabiy til tushunchasi doirasiga kiradi. Aslini olganda badiiy til degan kategoriya yo‘q. Badiiy til deyishimiz adabiy tilning badiiy stildagi ko‘rinishi yoki badiiy stilga to‘g‘ri keladi. Shunga ko‘ra badiiy til iborasi, shu jumladan Navoiy tili, Bobur tili, A.Qodiriy tili, M.T.Oybek tili degan iboralar aslida Navoiy stili, Bobur stili kabi tushunchalarga tengdir. Lekin yuqoridagi iboralar aslida uzoq vaqtdan buyon an‘anaga aylanib, odat tusiga kirib qolgani uchun ular hozirgi adabiy tilimizda ham shu holda qo‘llanilaveradi.

Adabiy til bilan kishilarning nazarida go‘yo milliy til va umumxalq tiliga nisbatan yuqoriroq dabdabaliroqday va hatto kengroqday bo‘lib tuyuladi. Buning sababi adabiy tilning qayta ishlanganligida silliqashtirilganligi tufayli tovlanib ko‘rinishida, uning ko‘proq qo‘llanilishida va hamma funksional stillarning xususiyatini o‘zida aks ettirishidadir. Lekin milliy til bilan badiiy til orasida, shuningdek, adabiy til bilan badiiy til orasida unchalik ajralish yo‘q. Aksincha, ular orasida uzviy bog‘liqlik va doimiy o‘zaro munosabat mavjud. Chunki milliy tilning bu qismida uning qandaydir xususiyatlari doimo ishlanib va qayta ishlanib, o‘z imkoniyatlaridan ba‘zan ba‘zi tomonlarini adabiy tilga o‘tkaza boradi. Shu yo‘l bilan adabiy tilning eskirgan elementlari oshib, mukammallashadi. Boshqacha qilib aytganda, adabiy tilning o‘zi milliy til asosida quriladi va uning bazasida rivojlanib, takomillasha boradi. Demak milliy til adabiy tilning mustahkam poydevori, tayanchi bo‘lib hisoblanadi, shu nuqtai-nazardan qaraganda milliy tilsiz adabiy tilning o‘zi ham bo‘lmaydi. Chunki milliy til adabiy tilda yo‘q narsani unga beradi. Qisqasi milliy til yoki umumxalq tili bilan adabiy til o‘rtasida uzviy bog‘liqlik bo‘lishi bilan bir qatorda ularning o‘zaro aloqasi va bir-biriga munosabati, bir-biriga ta’siri doimiy to‘xtovsiz jarayon sifatida davom etadi.

Milliy tilning quyi formalari bo‘lgan mahalliy dialektlar va xalq shevalarining ham adabiy til bilan bog‘liqlik jarayoni va o‘zaro aloqasi doimiy xodisa sifatida davom etib turadi. Mahalliy dialektlar va xalq shevalarining qandaydir formalari doimo asta-sekinlik bilan adabiy tilga o‘ta boradi, uni boyitadi. O‘z navbatida har bir adabiy til ham milliy tilning boshqa tillarga, xususan, uning quyi formalari hisoblangan mahalliy dialekt va shevalarga kuchli ta’sir ko‘rsatib, ulardan o‘ziga moslashtiradi, bo‘ysindiradi va o‘ziga singdiradi.

FOYDALANILGAN АДАБИЙОТЛАР

1. Doniyorov X. va boshqalar. “Adabiy til va badiiy stil”.
2. Qo‘ng‘urov R., Karimov S., Qurbonov T. “O‘zbek tilining funksional stillari”.
3. Sh. Shoabduraxmonov va boshqalar. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”.



EDUCATIONAL STRATEGIES IN ORGANIZING ENGLISH LESSONS

Shahnoza Umarova

Navbahor District, Navoi Region

English teacher of school 20

Abstract: This methodological recommendation deals with educational strategies in the organization of English language classes.

Keywords: Activity, interactive methods, teaching technology, Simon Says, world, library ...

At the current stage of educational reforms, it is important to learn, generalize, popularize and put into practice the best practices for successfully solving tasks. Effective organization of English language lessons and the use of educational strategies in lessons are of great importance.

1. Read the text. Hello. My name is Malika. I study at school. My school is big. There are 10 classrooms in our school. Our classroom is large and bright. There is a library in our school. It is not big but there are a lot of books there.

2. Match the words and pictures.



School, canteen, staff room, gym, library, classroom.

3. Make up sentences. Use There is / there are

e.g. There is a library in our school.

Revision lessons.

Y	D	C	A	T	J
G	O	O	S	E	N
H	G	W	P	F	K
R	A	B	B	I	T
L	P	Z	M	S	G
D	U	C	K	H	H

		M					
		O					
2	*	N	*	*	*		
3	*	D	*	*	*	*	*
	4	A	*	*	*	*	*
		Y					

Activity 3 Play “Simon Says”.

Objectives: to revise the vocabulary related to parts of the body; to have fun

Explain to the pupils how to play “Simon says”. If you command with the words “Simon says”, the pupils should perform it. If you only command without “Simon says”, the pupils must not perform it, for example, „Simon says: Touch your head! Simon says: Touch your nose! Touch your eyes!

Stand up.
Wash your face.
Comb your hair. Wash your hands. Brush your teeth.
Sit down. Touch your head.
Touch your nose. Touch your eyes. Touch your hand. Touch your leg.



Simon says: Touch your hand! Touch your leg!” etc.

You can use the parts of the body with the following commands: brush your teeth, comb your hair, wash your face, wash your hands, touch your + parts of the body



Activity 4 Work in pairs. Play “RobDo the puzzle.

1									
2									
3									
4									
5									
6									
7									
8									
9									
10									

Questions:

1. The first day of the week.
2. It is domestic animal. It is big. It is brown. It says neigh.
3. My brother likes playing _____ games.
4. Rus tili-?
5. It is wild animal. It has got stripes. It eats grass. It is black and white.
6. I like _____ TV.
7. Red + yellow is _____.
8. It is vegetable. It is green.
9. It is fruit. It is yellow.
10. It is wild animal. It is green. It is dangerous.

In short, the quality of education is determined by the final results of the students' knowledge level. It depends on the fact that the students can use the knowledge they have acquired in practical activities and understand the basic knowledge.

References:

1. Teens' English .Svetlana Xan Toshkent 2018
- 2 .**Reading diagnosis for teachers:** An instructional approach (5th ed., pp. 168-207). Boston, MA: Pearson Education.



INGLIZ TILI DARSLARDA IJODIY JAMOA METODI

Xalmuratova Nasiba Egamberganovna

Xorazm viloyati Yangibozor tumani

17-umumiy o'rta ta'lim maktab

Ingliz tili fani o'qituvchisi

e-mail: nasibaxolmuratova989@gmail.com

Atajanova Yulduz Salayevna

Xorazm viloyati Yangibozor tumani

17-umumiy o'rta ta'lim maktab

Ingliz tili fani o'qituvchisi

e-mail: yulduzatajanova@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu tezisda ingliz tili fani darslarida ijodiy jamoa metodidan foydalanishning ahamiyati haqida fikr yuritilib, 5-sinf ingliz tili fanidan “Review (Unit 3-4)” mavzusi asosida misol keltiriladi.

KALIT SO‘ZLAR: innovatsion metod, “ijodiy jamoa”, ijodiy faollik, erkin fikrlash, slayd-topshiriqlar, dars jarayoni.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar bilimida sifatli natijaga erishish uchun har bir fan o'qituvchisining zamonaviy metodlardan o'z o'rnida foydalanishi maqsadga muvofiq sanaladi. Ingliz tili darslarida zamonaviy innovatsion metodlardan foydalanish orqali nafaqat o'quvchilar bilim samaradorligini oshirish, balki ularning erkin fikr yuritish, ijodiy faolligini oshirish, o'zaro fikr almashish hamda hamkorlikda birga ishlash ko'nikmasini rivojlantirish mumkin. Ayniqsa, “Ijodiy jamoa” metodi o'quvchilarga dars jarayonida o'quv materialini o'zlashtirish bilan bir qatorda kerakli so'z va iboralarni o'z o'rnida qo'llay olish, muhokamalarda ishtirok etish, o'z shaxsiy fikrini bildirish hamda ijodiy faollik ko'nikmalarini oshirish imkonini yaratadi. Misol tariqasida, 5-sinf ingliz tili fanidan “Review (Units 3 and 4)” mavzusini ushbu metod bo'yicha ko'rib chiqamiz.

O'quvchilar 4/5 ishtirokchidan iborat jamoalarga ajratiladi va fan o'qituvchisi tomonidan oldindan tayyorlangan slayd-topshiriqlar asosida dars jarayonining tashkiliy qismi quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Read, listen and choose the word.

On my eleventh birthday, I **visit/visited** my favorite **art gallery/movie theater** in London with my family. The movie theater has the **biggest/smallest** screen in the United Kingdom, and it was great. We watched a very **dangerous/interesting** movie. It was called Under the Ocean. The movie was in 3-D, and we **need/needed** special **headphones/glasses**.

There were lots of beautiful sea animals and some funny ones, too. The **strongest/funniest** one was a crab with a jellyfish on its head! The most **exciting/dangerous** animals were the sea snakes. We also **listened/learned** about taking care of our oceans. We should keep them **clean/dirty**.

It was my favorite birthday ever!

Tom

Answer key: visited, movie theater, biggest, interesting, needed, glasses, funniest, exciting, learned, clean.

2. Read again and answer the questions.

1. How old was Tom? 2 Where did he visit on his birthday? 3 What movie did he watch? 4 What was the funniest sea animal? 5 What did Tom learn about oceans?

3. Work in groups of 4/5. Think of a visit to the movie theater. Ask and answer the questions. Then make a group presentation.

What movie did you watch?

Was it in 3-D?

What was it about?

Each group works creatively and fills out a table based on this questions and names of group members . Then they will make a presentation.



Homework: Exercise 1-2 Workbook page 46

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Guess what!” Student’s book 5.Susanna Reed with Kay Bently. Series Editor : Lesley Kaustaff. Cambridge University Press. Page 59.
2. “Guess what!” Teacher’s book 5.Susanna Reed Cambridge University Press. Page 56.



BIOLOGIYA FANINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Xoldarova Shohida

Farg'ona viloyati Buvayda tumani
26-umumiy o'rta ta'lim maktabining
biologiya fani o'qituvchisi.
Tel nomeri: +998911478974

Annotatsiya: ushbu maqolada biologiya fanining rivojlanish bosqichlari haqida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: biologiya, Afina, Gippokrat, "meva", "perikarp", "yadro", Aristotel.

Inson tirik mavjudotlar haqidagi birinchi ma'lumotlarni, ehtimol, o'zining atrofdagi dunyodan farqini anglagan paytdan boshlab to'plashni boshladi. Misr, bobil, hind va boshqa xalqlarning adabiy yodgorliklarida allaqachon ko'plab o'simlik va hayvonlarning tuzilishi, bu bilimlarning tibbiyot va qishloq xo'jaligida qo'llanilishi haqida ma'lumotlar mavjud. XIV asrda. Miloddan avvalgi e. Mesopotamiyadan topilgan ko'plab mixxat yozuvli lavhalarda hayvonlar va o'simliklar, hayvonlarni yirtqich va o'txo'rlarga, o'simliklarni esa daraxtlar, sabzavotlar, dorivor o'simliklar va boshqalarga bo'lish yo'li bilan tizimlashtirish to'g'risida ma'lumotlar bor edi. IV-I asrlarda yaratilgan tibbiy yozuvlarda Miloddan avvalgi e. Hindistonda ota-onalar va bolalarning o'xshashligining sababi sifatida irsiyat haqida g'oyalar mavjud va "Mahabharata" va "Ramayana" yodgorliklarida ko'plab hayvonlar va o'simliklar hayotining bir qator xususiyatlari tasvirlangan.

Quldorlik tuzumi davrida hayvonlar va o'simliklarni o'rganishda Ion, Afina, Iskandariya, Rim maktablari vujudga keldi.

Ioniya maktabi Ioniyada (miloddan avvalgi VII-IV asrlar) vujudga kelgan. Hayotning g'ayritabiiy kelib chiqishiga ishonmagan holda, bu maktab faylasuflari hodisalarning sababiyligini, hayotning ma'lum bir yo'lda harakatlanishini, dunyoni boshqaradi deb da'vo qiladigan "tabiiy qonun" ni o'rganish uchun mavjudligini tan oldilar. Xususan, Alkmeon (miloddan avvalgi 6-asr oxiri — 5-asr boshlari) ko'rish nervi va tovuq embrionining rivojlanishini ta'riflagan, miyani hislar va tafakkur markazi deb e'tirof etgan, Gippokrat (miloddan avvalgi 460-370 yillar) birinchi bo'lib nisbatan batafsil tavsif bergan. odam va hayvonlarning tuzilishi, kasalliklarning paydo bo'lishida atrof-muhit va irsiyatning rolini ko'rsatdi.

Afina maktabi Afinada rivojlangan. Bu maktabning eng ko'zga ko'ringan vakili Aristotel (miloddan avvalgi 384-322 yillar) hayvonlar haqida ko'p qirrali ma'lumotlarni o'z ichiga olgan to'rtta biologik risola yaratdi. Aristotel atrofdagi dunyoni to'rtta shohlikka (jonsiz yer, suv va havo, o'simliklar dunyosi, hayvonlar dunyosi va inson dunyosi) ajratdi, ular orasida ketma-ketlik o'rnatildi. Keyinchalik bu ketma-ketlik "maxluqlar narvoniga" aylandi (XVIII asr). Aristotel, ehtimol, hayvonlarning birinchi tasnifiga tegishli bo'lib, ularni to'rt oyoqli, uchuvchi, qushlar va baliqlarga ajratgan. U kitsimonlarni quruqlikdagi hayvonlar bilan birlashtirdi, lekin u suyakli va xaftaga tushadigan baliqlar bilan emas. Aristotel sutemizuvchilarning asosiy xususiyatlarini bilar edi. U insonning tashqi va ichki organlari, hayvonlarning jinsiy farqlari, ularning ko'payish usullari va turmush tarzi, jinsning kelib chiqishi, ayrim belgilarning meros bo'lib o'tishi, deformatsiyalar, ko'p homiladorlik va hokazolarga tavsif berdi.



ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИКТ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

Бекчанова Шахло Зариповна

Ахметова Мухайё

Учителя русского языка и литературы
общеобразовательной средней школы № 9,
г. Хивы, Хорезмской области

Аннотация: Статья посвящена вопросу использования ИКТ (информационно-компьютерных технологий) на уроках русского языка и литературы в общеобразовательных школах с нерусским языком обучения. Раскрыты приемы активизации познавательной деятельности обучающихся с применением мультимедийных технологий с целью повышения эффективности педагогического процесса в школе.

Ключевые слова: ИКТ (информационно-компьютерные технологии), метод, урок русского языка, урок литературы, учитель, ученик.

Изучение познавательных интересов учащихся показывает, что в большинстве случаев русский язык и литература не имеют высокой рейтинговой оценки среди учащихся. Особенно это можно увидеть в школах с нерусским языком обучения. Причины этого заключаются в высокой сложности изучения: большое количество исключений из правил в русском языке, большой объём произведений в литературе. Повышать мотивацию необходимо за счёт создания игровых ситуаций, использования нетрадиционных форм и методов преподавания, активного внедрения ИКТ, способствующих развитию интереса, дифференциации и индивидуализации обучения. Подготовка и проведение уроков с компьютерной поддержкой требуют от учителя много времени и терпения, создают некоторые неудобства организационного характера. Но зато такие уроки приносят большое удовлетворение и ученикам, и учителю. Основной целью использования информационных компьютерных технологий является повышение эффективности урока. Для достижения этой цели мы считаем необходимым реализовать следующие задачи:

- повышение мотивации обучения,
- развитие познавательной активности учащихся,
- стимулирование самостоятельности учащихся при подготовке к урокам;
- совершенствование форм и методов организации учебного процесса.

На своих уроках я использую компьютер как:

- средство для предоставления учебного материала учащимся с целью передачи знаний;
- средство информационной поддержки учебного процесса;
- дополнительный источник информации;
- средство для определения уровня знаний и контроля над усвоением учебного материала.

Внедрение новых информационных компьютерных технологий (ИКТ) меняет традиционный взгляд на образование, помогает преодолеть противоречие между активным использованием различных педагогических технологий и недостаточным ростом эффективности обучения.

Мультимедиа позволяет готовить различные задания к занятиям: тесты, разноуровневые задания, стихотворения и прозу для анализа и сопоставительного анализа, небольшие сообщения, буклеты, презентации.

Мы хотели бы подчеркнуть, что компьютер ни в коем случае не заменяет учителя, он просто дополняет его. Мы используем ресурсы электронного обучения: презентации к урокам, логические игры, тестовые задания, ресурсы Интернет. Информационные технологии используются мною на всех этапах урока: при объяснении нового материала, повторении, обобщении, контроле.

ИКТ уроках русского языка. Так на уроке русского языка в 7 – классе «Как сравнить качества действий?» Переходим к повторению темы " степени сравнения прилагательных". На экране появляется мудрая сова предлагает учащимся вспомнить таблицу. Повторив ранее изученный материал, мы проводим аналогию с новой темой, учащимся легче воспринимать



новую тему.

Компьютерные программы «Фраза», «Репетитор» могут оказать значительную помощь учителю в работе не только со слабыми, но и с сильными учащимися. Так, сильным ученикам можно предложить более трудный дидактический материал, т.е. слова с несколькими орфограммами, сложным морфологическим составом, задания творческого характера. Для слабых учащихся включить дополнительный материал, который восполнял бы пробелы в знаниях, актуализировал бы их опорные знания, умения и навыки, необходимые для изучения каждой конкретной темы. Сильный ученик, не допустивший ни одной ошибки, получает заслуженные «5» или «4», продолжает работу, выполняя новое задание. Для слабых учеников этот путь будет несколько иным: ошибка – получение дополнительных теоретических сведений – практическая отработка нового материала.

Мы используем компьютерные технологии для работы со сложными и новыми словами: Форм и приёмов в словарной работе достаточно много. Система приёмов работы с трудными написаниями сводится к следующему:

1. Обращение к этимологии слова (происхождение слова).
2. Лексическое значение слова (толкование).
3. Морфемное строение (однокоренные слова).
4. Правописание. Нахождение орфограмм.
5. Определение части речи.
6. Проговаривание.
7. Включение слов в тексты, составление со словами словосочетаний, предложений.

Работая над словом дома, учащиеся обращаются к словарям: этимологическому, толковому, иностранных слов, словообразовательному и т.д. Эта работа увлекает, приучает их к ответственному и бережному отношению к слову.

На уроке литературы ИКТ позволяют открыть активный познавательный потенциал учащихся, дают им возможность всесторонней подготовки к непрерывному процессу образования. Привнесение информационных технологий в среду урока обогащает его трофику (звуковую, визуальную, эмоциональную, интеллектуальную, духовную). Кроме того, создаёт стихии заинтересованности, поиска, творчества, воспроизводства знаний, а также стихию доброжелательности, в которой ученик и учитель выступают в качестве партнёров.

На уроке литературы также можно совершить виртуальную экскурсию на родину писателя или поэта, побывать в его музее (например: в Клуб-музей А. Ахматовой в Ташкенте «Мангалочий дворик», литературный музей С.Есенина в Ташкенте), услышать мастерское чтение любимых классических произведений, просмотреть шедевры советского и русского кинематографа по произведениям писателей 19-20 веков. Просмотр фрагментов фильма заставляет учащихся по-новому взглянуть на произведение, визуализация образов героев делает их ближе, у них появляется желание перечитать произведение, сравнить фильм с текстом.

Компьютерные технологии дают самые широкие возможности для развития творческого потенциала школьников. Учитель может научить ученика грамотно использовать компьютер. При умелом наставничестве педагога подросток учиться среди обилия информации в Интернете находить нужную, учиться обрабатывать эту информацию, что является наиболее важной задачей.

Использованная литература

1. Власкин А.А., Сенцова Т.М. Автоматизированная система обучения русскому языку: Материалы VI Международной конференции. «Информационные технологии в образовании» («ИТО – 97/98)
2. Васянина Е. Интернет ресурсы по РКИ: достижения и детские болезни. Русский язык за рубежом, 1, 2004, 60 – 70.
3. Замковая Н., Моисеенко И. Инновационные формы работы на уроках русского языка как иностранного. Таллинн, 2006.
Fikrning borliqqa bo‘lgan munosabatini bildirib, so‘z vagaplarga turli modal ma’no qo‘shadigan yordamchi so‘zlar yuklamalar deyiladi. Yuklamalar ham gap bo‘lagi vazifasida kelmaydi. Yuklamalar shakl xususiyatlariga ko‘ra ikki xil: so‘z **yuklamalar**, **affiks yuklamalar**. So‘z yuklamalar **faqat, hatto, agar, nahot, nahotki, xuddi**. Bular shakl jihatidan so‘zlarga teng kelsa ham vazifa nuqtai nazaridan yuklamadir. Affiks yuklamalar **-gina (-kina, -qina), -mi, -chi, -a, (-ya), -u, (-yu)**, **-da, -oq, -yo‘q, -ku, -dir**. Yuklamalar quyidagi modal ma’nolarni bildiradi: 1. So‘roq va taajjub yuklamalari **-mi, -chi, -a (-ya), nahotki**. Bu yuklamalar turli so‘zlarga qo‘shilib so‘roq ma’nosini, **nahot, nahotki** yuklamasi esa taajjubni ifodalaydi. Saltanatning gaplari-chi? Ularda haqiqat yo‘g-mi? (O‘.U.) 2. Kuchaytiruv va ta’kid yuklamalari **-ku, -u, (-yu), -da, oq, (yo‘q), -ki (kim), axir, hatto, hattoki**. Bu yuklamalar ma’noni kuchaytirish, ta’kidlash uchun ishlatiladi. Tolmas Azimovday insofli **odamlar-ku**, achinishadi”: (O‘.U.) Bu gal eshik tezda **ochildi-yu**, ichkaridan professorlar hiqib keldi. (O‘.U.) 3. Ayiruv va chegaralov yuklamalar **-gina (-kina, -qina), faqat**. Bu yuklamalar narsa-hodisani boshqalaridan ajratish, ish-harakatni chegaralash uchun ishlatiladi. Zebixon bu pachoqqina ko‘rimsizgina kamgap bolaning ichida shuncha gap borligini bilmagan ekan. (S.A.) 4. Aniqllov yuklamasi **xuddi**. Gap mazmunidan anglashiladigan voqea-hodisani boshqasiga o‘xshatish uchun ishlatiladi. Osmon **xuddi** tomlarga tegib turganday. (A.Q.) 5. Gumon yuklamasi **-dir**. Bu yuklama gumon, noaniqlik ma’nolarini ifodalaydi. Shu payt birdan qo‘shiq tindi. Nimadir shitirladi. (S.A.) • Yordamchi so‘z turkumlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning uch turi mavjud: bog‘lovchi, ko‘makchi va yuklama. Ular 5-7-8-sinflarda o‘rganiladi. 5-sinfda yuklamalar uchun bir soat ajratilgan. Unda yuklamalar haqida umumiy ma’lumot, so‘z va qo‘shimcha yuklamalar tasnifi berilgan. Demak, o‘quvchilar 5-sinfda yordamchi so‘zlar haqida umumiy ma’lumot oladilar xolos.

7-sinfda yuklamalar uchun yetti soat ajratilgan bo‘lib, ushbu sinfda yuklama haqida o‘quvchilar ancha keng ma’lumotga ega bo‘ladilar. Bu sinfda yuklamalar haqida ma’lumot, sof va vazifadosh yuklamalar, so‘roq va taajjub yuklamalari, ayiruv-chegaralov yuklamalari, kuchaytiruv-ta’kid yuklamalari, o‘xshatish-qiyoslash yuklamalari, gumon va inkor yuklamalari uchun soatlar ajratilgan.

8-sinfda esa yordamchi so‘zlar uchun bir soat ajratilgan. Bu darsda o‘quvchilar yuklamalar yuzasidan oldingi sinflarda olgan bilimlarini esga oladilar.

Bu darslar davomida o‘quvchilarning yuklamalar haqidagi tushunchalari kengaytirilishi, to‘ldirilishi va to‘la shakllantirilishi kerak. Buning uchun, avvalo, o‘qituvchi yuklama haqida keng va puxta bilimga ega bo‘lishi zarur.

Bu savollarga javob toppish, ularni o‘quvchilar ongiga singdirish, buning uchun ta’limning eng yaxshi va yangi usullaridan foydalanish har birimizning oldimizdagi mas’uliyatli burchimizdir.

Yuklama so‘z yoki gaplarga so‘roq, ta’kid, ayiruv-chegaralash, gumon, o‘xshatish, inkor ma’nolarini yuklovchi so‘z va qo‘shimchalardir.



Ularga: 1) axir, hatto, faqat, ham, xuddi, go‘yo, go‘yoki, naq, hech, sira, nahotki, na...na so‘zlari;
2) -mi, -chi, -a, (-ya), -ku, -u (-yu), -da, -oq (-yoq), -gina (-kina, -qina), -dir kabi qo‘shimchalar kiradi.

Ularning birinchi guruhi so‘z yuklamalar, ikkinchi guruhi qo‘shimcha yuklamalar hisoblanadi. Yuklamalar ma‘nosiga ko‘ra olti turga bo‘linadi:

1. So‘roq-taajjub yuklamalari: -mi, -chi, -a (-ya).
2. Kuchaytiruv - ta‘kid yuklamalari: hatto, -ki, ham, nahotki, axir, g‘irt, -u (-yu), -da, oq (-yoq).
3. Ayiruv-chegaralov yuklamalari: faqat, atigi, -gina (-kina, -qina).
4. O‘xshatish-qiyoslash yuklamalari: go‘yo, go‘yoki, xuddi, naq.
5. Gumon yuklamasi: -dir.
6. Inkor yuklamalari: hech, sira, na...na.

Yuklamalar sof va vazifadosh bo‘ladi: -u (-yu), -da yuklamalari o‘rnida va bog‘lovchisini ishlatish mumkin.

Inkor yuklamasi so‘z yoki gapga inkor ma‘nosini yuklaydi. Inkor yuklamalariga also, sira, hech, na...na kabilar kiradi. Yuklamalarni o‘quvchilarga ongli va qiziqarli tushuntirish, albatta, o‘qituvchidan bilim va mahorat talab etadi. Dars jarayoni qiziqarli hamda tushunarli bo‘lishi uchun ba‘zi usullarni qo‘llab ko‘rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. B. To‘xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyadova – “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi”, “Yangi asr avlodi” 2006.
2. N.Mahmudov, (A.Nurmonov), A.Sobirov, V.Qodirov, Z.Jo‘raboyeva. 5-sinf Ona tili. Toshkent-2015.
3. N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva. 6-sinf. Ona tili. Tosh



KISHILIK OLMOSHLARINI O'RGATISH METODIKASI

Ishchanova Nafisa Atajanovna

Xorazm viloyati Yangiyo'z tumani

7-son maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Tel:+998941177725

Qo'shnazarova Gulandom Tojiboyevna

Xorazm viloyati Yangiyo'z tumani

10-son maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Tel:+ 998937444069

Elektron pochta: shukurjonmadaminova483@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishimiz “Ona tili darslarida kishilik olmoshlarini o'rgatish metodikasi” mavzusida yozilgan bo'lib, maktab ta'limida mazkur mavzuni o'quvchilar ongiga singdirish usullari keltirilgan.

Kalit so'zlar: kishilik olmoshlari, mustaqil so'zlar, ot, sifat, son so'z turkumlari, birlik, ko'plik, bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi

Olmosh ham mustaqil so'zlar turkumiga mansub bo'lib, nutqda ot, sifat, son so'z turkumlari o'rnida qo'llanadi. Olmosh shaxs, narsa, belgi va miqdorni ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Olmoshlar ham xuddi sonlar kabi boshqa so'z turkumlaridan morfologik yoki sintaktik yo'l bilan yasalmaydi. Biroq son va olmosh turkumiga mansub so'zlar boshqa so'z turkumlarini yasash uchun asos bo'lishi mumkin: birlik, ikkilanmoq, biryo'la, sensiramoq, sizlamoq, manmanlik, allaqachon kabi. Olmoshlar ma'no va grammatik xususiyatlariga ko'ra yetti guruhga bo'linadi.

Kishilik olmoshlari. Bu turdagi olmoshlarga quyidagilar kiradi:

Birlik sonda Ko'plik sonda

I sh. men I sh. biz; II sh. sen II sh. siz; III sh. u III sh. ular

O'zbek tilida 1 shaxs birlik sondagi kishilik olmoshi ko'plik sondagi I shaxs kishilik olmoshi bilan almashinib ham qo'llanadi. Masalan: Kitoblarni men keltiraman. Kitoblarni biz keltiramiz. Ushbu gaplarning har ikkalasida ham ishni bajaruvchi birlik sondagi birinchi shaxsdir. Shuningdek, II shaxs birlikdagi kishilik olmoshi o'rnida II shaxs ko'plik sondagi kishilik olmoshi qo'llanib, ko'plikni emas, balki hurmat ma'nosini anglatadi. Masalan: Uyga sen birinchi kir. Uyga siz birinchi kiring. Har ikkala holatda ham bir kishi nazarda tutilyapti. Odatda ko'plik ma'nosi -lar qo'shimchasi qo'shilganda anglashiladi: Sizlar tezroq boraveringizlar, orqalaringizdan yelib boramiz. Bugun qabul tugadi, sizlami boshqa kuni yana chaqiramiz.

Kishilik olmoshi kelishiklar bilan quyidagicha turlanadi:

1. Bosh kelishik: men, sen, u, biz, siz, ular.

2. Qaratqich kelishigi: mening, sening, uning, bizning, sizning, ularning.

3. Tushum kelishigi: meni, seni, uni, bizni, sizni, ularni.

4. Jo'nalish kelishigi: menga, senga, unga, bizga, sizga, ularga.

5. O'rin-payt kelishigi: menda, senda, unda, bizda, sizda, ularda.

6. Chiqish kelishigi: mendan, sendan, undan, bizdan, sizdan, ulardan. Men va sen kishilik olmoshlari qaratqich va tushum kelishiklarining qo'shimchalarini olganda, ular tarkibidagi bir (i) tovushi tushib qoladi: men-ning, sen-ni shaklida emas, me-ning, se-ni shaklida bo'ladi. Xuddi shuningdek, u kishilik olmoshi jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishiklarining qo'shimchasini olganda, tarkibida bir [n] tovushi orttiriladi: u-ga, u-da, u-dan shaklida emas, balki un-ga, un-da, un-dan kabi. Men kishilik olmoshi o'rnida mumtoz adabiyotda kamina faqir, qulingiz, banda kabi so'zlar ham qo'llanib kelingan. O'zbek tilida sen kishilik olmoshiga-lar ko'plik qo'shimchasi qo'shilgan holda qo'llanishi ham uchraydi. Bunda mensimaslik, kamsitish, istehzo, ta'na kabi ma'nolar bo'rtib turadi. Masalan: Senior bu yerda nima qilyapsanlar? Men senlarga aytyapman. Senlarni deb shuncha g'alvaga qoldim.

Ko'plik sondagi birinchi shaxs biz kishilik olmoshi ham nutqda-lar ko'plik qo'shimchasi bilan qollanishi mumkin. Bunda ko'plik ma'nosi yanada kuchaytiriladi. Masalan: Bu ishni biz bajaramiz. Gapdan anglashilayotgan ish-harakatni bir kishi yoki ko'pchilik bo'lib bajarish mumkin. Bu gap bilan qiyoslang: Bu ishni bizlar bajardik. Ish-harakat bir kishi tomonidan bajarilmagan, ko'pchilik tomonidan bajarilgan.



Birlik sonda		Ko‘plik sonda
I sh. o‘zim		I sh. o‘zimiz
II sh. o‘zing		II sh. o‘zingiz
III sh. o‘zi		III sh. o‘zlari
	Kelishiklar	
Bosh kelishik:		o‘zim
Qaratqich kelishigi:		o‘zimning
Tushum kelishigi:		o‘zimni
Jo‘nalish kelishigi:		o‘zinga
O‘rin-payt kelishigi:		o‘zimda
Chiqish kelishigi:		o‘zimdan

Egalik qo‘shimchalarini olgan o‘zlik olmoshi uchala shaxsdagi kishilik olmoshlariga sinonim bo‘ladi: men — o‘zim, sen — o‘zing, u — o‘zi, biz—o‘zimiz, siz —o‘zingiz, ular — o‘zlari kabi. Bu xatni men yozdim. Bu xatni o‘zim yozdim. So‘roq olmoshlari shaxs, narsa, belgi, vaqt, miqdor va hokazolar to‘g‘risidagi so‘roq ma‘nosini bildiradigan so‘zlardir. Bu tur olmoshlarga quyidagi so‘zlar kiradi: kim? nima? qanday? qanaqa? qaysi? necha? nechta? qancha? qachon? nega? nimaga? qani? nechanchi? kimniki? kabi. O‘zbek tilida aksariyat so‘roq olmoshlari ko‘plikda ham qo‘llana oladi: kimlar? nimalar? qaysilari? nechta? qanchalar? nechalar? qachonlar? kabi.

So‘roq olmoshlari ham egalik va kelishik qo‘shimchalarini olib turlanadi:

Birlik va ko‘plik sonda Kelishiklar;	Ish. kimim Bosh kelishik: kimim
Qaratqich kelishigi: kimimning	II sh. kiming Tushum kelishigi kimimni
III sh. kimi Jo‘nalish kelishigi: kimimga	I sh. kimimiz O‘rin-payt kelishigi: kimimda
II sh kimingiz Chiqish kelishigi: kimimdan	III sh. kimlari; kabi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. B. To‘xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyadova – “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi”, “Yangi asr avlodi” 2006.
2. N.Mahmudov, (A.Nurmonov), A.Sobirov, V.Qodirov, Z.Jo‘raboyeva. 5-sinf Ona tili. Toshkent-2015.
3. N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva. 6-sinf. Ona tili. Tosh



ABDULHAMID CHO‘LPON – KO‘P QIRRALI IJODKOR SIFATIDA...

Dilorom Turayeva Alimboyevna

Xorazm viloyati Yangiyo‘l tumani

26-son maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Tel: +998996210612

Qodirova Ro‘za Qadamboy qizi

Xorazm viloyati Yangiyo‘l tumani

26-son maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Tel: +998973625595

Elektron pochta: maksadrahmonov1988@mail.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishimizda Abdulhamid Cho‘lponning ijod qirralari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Cho‘lpon, adabiyotshunos, shoir, nosir, dramaturg, tarjimon, publitsist, adabiy-tanqidiy, “Ayqap” jurnali.

Har qanday chinakam iste’dod sohibi kabi Abdulhamid Cho‘lpon ham ijodning deyarli hamma sohalarida samarali faoliyat ko‘rsatgan. U ham shoir, ham nosir, ham dramaturg, ham tarjimon, ham publitsist bo‘lishi bilan birga, barkamol munaqqid, mohir adabiyotshunos, o‘ziga xos tarzda fikrlaydigan san’atshunos ham bo‘lgan.

Uning badiiy asarlari xalq ma’naviyatini shakllantirishda qancha muhim rol o‘ynagan bo‘lsa, adabiy-tanqidiy maqolalari ham shunchalik katta qimmatga ega. Ammo istibdod zamonida Cho‘lpon ijodini o‘rganish u yoqda tursin, nomini tilga olish ta’qiqlangani uchun keng jamoatchilikka emas, hatto adabiyotshunos mutaxassislar ham Cho‘lpon ijodining bu qirrasini to‘g‘risida g‘oyat mavhum va tumanli tasavvurga ega edilar. Faqat so‘nggi yillardagina Sh. Turdiev, N. Karimov, B. Do‘stqoraev, M. Olimov, U. Dolimov, Z. Eshonova, D. Quronov, U. Sultonov kabi adabiyotshunoslarning harakati bilan Cho‘lponning inqilobdan oldin va keyin chop etilgan, hozir esa topilishi amri mahol bo‘lib qolgan, jurnallar va gazetalarda sochilib yotgan adabiy-tanqidiy asarlari ilmiy muomalaga kira boshladi. Surxondaryolik yosh cho‘lponshunos N. Yo‘ldoshev esa Cho‘lpon hayoti va ijodiga doir bibliografiya e‘lon qilib, unda birinchi marta Cho‘lpon maqolalarining ro‘yhatini berdi. Bibliografiyada ko‘rsatilishicha, shoirning 1914—1937 yillar mobaynida chop etilgan adabiy-tanqidiy maqolalari hozircha 63 ta ekan. Izlanishlar davom ettirilsa, bu raqamning ko‘payishi turgan gap. O‘zini professional munaqqid yoki muayyan akademik qoidalar asosida ish yurituvchi adabiyotshunos olim deb hisoblagan emas. Cho‘lpon estetika bobida, san’at nazariyasida yangi sahifa ochgan emas, jahon san’atini va san’atshunosligini batamom yangi yo‘llarga burib yuboradigan tugal ta’limot ham yaratmagan. Shunga qaramay, yangi o‘zbek adabiyoti tarixini Cho‘lponning adabiy-tanqidiy faoliyatisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Yangi o‘zbek adabiyotini shakllantirishda, 20—30-yillardagi g‘oyat murakkab ijodiy kurashlar muhitida unda izchil realistik uslubning ustivorligini ta’minlashda Cho‘lponning adabiy-tanqidiy qarashlarining ahamiyatini kamsitish mumkin emas. Munaqqid sifatida, birinchi navbatda, adabiyot va san’atning amaliy masalalari bilan shug‘ullangan, yanada aniqroq aytganda, ma’naviy uyg‘onish va madaniy rivojlanish asosida adabiy jarayon davomida qo‘ndalang bo‘lgan dolzarb muammolarga javob topishga intilgan, shu tarzda adabiyotni o‘z davrining ilg‘or g‘oyalari bilan boyitishga, Sharq va G‘arbning bebaho tajribasini yangi o‘zbek adabiyotiga olib kirishga harakat qilgan. U adabiy-tanqidiy merosining ahamiyati faqat shu bilan cheklanmaydi. Yuqorida aytganimizdek, adib tanqidiy faoliyati bilan estetika sohasida yangi bir ta’limot yaratishni maqsad qilib qo‘ymagan bo‘lsa-da, uning maqolalarini ichki yaxlitlikdan mahrum, har xil yillarda har xil munosabatlar bilan yozilib, har xil narsalar to‘g‘risida bahs yurituvchi parokanda asarlar yig‘nog‘idan iborat deb qarash mumkin emas. Aksincha, har bir maqolaning yugurik misralari ortidan uning o‘zi qarab turganday bo‘ladi. Har bir maqolada u shaxsiyatining aniq muhri borki, xuddi shu narsa ularni bir yaxlit holga keltirib turadi. Uning adabiy-tanqidiy merosi bu ulug‘ adib shaxsiyatining turli qirralarini, madaniy saviyasini, e’tiqodi va dunyoqarashini o‘rganishda, ijtimoiy hayotning muhim jihatlariga uning munosabatini aniqlashda, ijodiy biografiyasining ba’zi nuqtalarini to‘laroq yoritishda ham g‘oyat ahamiyatlidir. Biz bu merosni muayyan tartibda o‘rganish natijasida uning g‘oyaviy-estetik evolyutsiyasi qanday kechgani haqida tasavvurga



ega bo‘lamiz, hatto «ijtimoiy tuzum va iste’dod» degan muammoni qo‘yib, sovet voqeligi uning san’atkor sifatida o‘shiga qanday salbiy ta’sir etganini, bir san’atkor taqdiri misolida totalitar tuzumning chinakam iste’dodga qanchalik dushman ekanini to‘laroq tasavvur etishimiz mumkin.

Adabiyotshunosning birinchi tanqidiy asari «Adabiyot nadur?» degan maqola bo‘lib, «Sadoi Turkiston» gazetasida 1914-yil 4-iyun kuni e‘lon qilingan. Bu maqola, umuman, Cho‘lponning matbuot yuzini ko‘rgan ilk asarlaridan biridir. Cho‘lpon uni 16 yoshida yozgan. Maqola shaklan juda ixcham bo‘lsa-da, mazmunan g‘oyat teran. Undagi fikrlar va mulohazalar shu qadar pishiqki, 16 yashar o‘smirning shunchalik tiyraklik bilan qalam tebratganiga qoyil qolmay ilojingiz yo‘q. Faqat favqulodda iqtidorga ega odamgina 16 yoshida tafakkurning bunchalik yuqori pog‘onalarga ko‘tarilishi mumkin. Sarlavhaning o‘zidanoq ayon ko‘rinib turiptiki, maqola juda muhim masalaga bag‘ishlangan. Adabiyot adabiyot bo‘lgandan beri Sharqda ham, G‘arbda ham ne-ne buyuk iste’dod sohiblari «Adabiyot, san’at nadur? Uning kimga keragi bor? San’atkor kim? U jamiyat oldida burchdormi? Burchdor bo‘lsa, bu burch nimalardan iborat? Burchdorlik bilan ijod erkinligi o‘zaro qanday chiqishadi?» kabi muammolarga ro‘para kelishgan. Ko‘rinib turiptiki, bular ijodning hayot-mamot masalalari, ijodkor ularni loaqal o‘zi uchun hal qilmay turib, e’tiqod qilib olsa arziydigan estetik nrintsiplarni aniqlamay turib samarali ijod qilolmaydi. Lekin shunga qaramay, hanuz adabiyot va san’atning yetakchi xossalarini qamrab oladigan, hamma davrlar uchun baravar ma’qul bo‘ladigan universal ta’rif, mukammal javob topilgani yo‘q.

Endi Cho‘lponga murojaat qilaylik. «Yosh munaqqid «Adabiyot nadur?» maqolasida, birinchi navbatda, adabiyotning ijtimoiy mohiyati to‘g‘risida fikr yuritadi. Uning fikricha, adabiyot millatni taraqqiy ettirish vositasi, uning ma’naviyatini ta’minlaydigan omil. Cho‘lpon bu xulosaning chinligiga shu qadar ishonganki, maqolada hech qanday e’tirozga o‘rin qoldirmaydigan tarzda «adabiyot yashasa — millat yashar» deya tasdiqlaydi:

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I. A. Karimov. Adabiyotga e’tibor-ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. — Sharq yulduzil jurnali, 2009.
2. N. Rahmon. O‘zbek mumtoz adabiyot tarixi. O‘quv qo‘llanma, 2014
3. R. Orzibekov. O‘zbek adabiyot tarixi. Toshkent, 2006



ABDULLA QAHHORNING “O’G’RI” HIKOYASIDAGI AYRIM SINTAGMATIK XUSUSIYATLAR

Mustafoyeva Nigora Nurullayevna,
O’qituvchi. Navoiy viloyati, Xatirchi tumani,
2-umumiy o’rta ta’lim maktabi
+99888 322 91 11

Quvondiqova Malika Zokir qizi
Navoiy viloyati, Xatirchi tumani
2-umumiy o’rta ta’lim maktabi
+99894 225 55 91

Annotatsiya. Maqolada o’zbek tili sintagmatik xususiyatlarining badiiy asarlardagi voqelanish jarayonlari misollar asosida yoritilgan. Unda o’zbek tilining mental sintagmatik belgilari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: Sintagmatika, sintagmatik munosabat, sintaktik munosabat.

Til jamiyat taraqqiyoti, inson tafakkuri va hissiyoti bilan uzviy ravishda rivojlanib borar ekan, so’zning leksik ma’nosida, sintagmatik strukturasida ma’no qirralari kengayib boraveradi.

Tilimiz grammatikasi shunchalik mantiqiy teran, tarang va takomil sayqal topganki, ayrim G’arb lingvistlari ta’biri bilan aytganda, “xuddi bir guruh mutaxassislar birgalashib ishlab chiqqanday”.

Nutqning yuzaga kelishida lisonida mavjud bo’lgan barcha leksemalar ham shaklan ham mazmunan bog’lana olishi lozim. Shuning uchun har qanday lisoniy birlikning sintagmatik strukturasiga alohida e’tibor qaratish lozim.

Sintagmatika – bu lisoniy birliklarning o’zaro affikslar yoki ohang yordamida “qo’shniçilik munosabati” (lisoniy birliklarning yonma-yon qo’llanib ham shaklan ham mazmunan bog’lana olish xususiyati) ni yuzaga keltirishidir. Sintagmatik aloqa grammatik vositalar yoki mazmuniy bog’lanish orqali yuzaga keladi. Masalan, rangni bildiruvchi lisoniy birliklar *-ish* affiksi bilan sintagmatik aloqaga kirisha oladi: *ko’kish, oqish* kabi. *Sariq, qizil* leksemalari bu affiksni qabul qilganda fuziyaga uchraydi: *sarg’ish, qizg’ish*. *Qora* leksemasi bu affiksni qabul qilmaydi, ya’ni sintagmatik munosabatga kirishmaydi. *-ish* affiksi shakl-hajm, maza-ta’im, xususiyatni ifodalovchi leksemalar bilan mutlaqo sintagmatik munosabatda bo’lmaydi.

Sintagmatika faqat grammatik unsurlar orqali yuzaga chiqmaydi. Leksemalar hech qanday affiks yoki suffiksiz ham yonma-yon qo’llanib mazmun va ohang yordamida sintagmatik aloqani yuzaga keltirishi mumkin. *Suv* leksemasi *chuchuk, tiniq, sho’r, loyqa* kabi belgini bildiruvchi, *ichmoq, kechmoq* kabi harakatni bildiruvchi lisoniy birliklar bilan birgalikda qo’llanib sintagmatik aloqani yuzaga keltiradi. Ammo bu leksema *yemoq* leksemasi bilan “qo’shniçilik munosabati”ni yuzaga keltira olmaydi. Ferdinand de Sosyur talqini bilan aytganda, sintagmatik munosabat bu lisoniy birliklarning to’g’ri chiziq bo’ylab birin-ketin joylashishidir.

Badiiy adabiyotlarda grammatik shakllar birining o’rnida ikkinchisi qo’llanilib sinonimik sathni yuzaga keltiradi. Bunday vaqtda sintagmatik aloqaning asl mohiyati lisoniy birlikning shaklidan emas, balki mazmunidan anglashiladi.

O’zbek adabiyotining taniqli vakili Abdulla Qahhor ijodida ham sintagmatik munosabatlarning noodatiy ko’rinishlariga guvoh bo’lishimiz mumkin. Birgina “O’g’ri” hikoyasida keltirilgan quyidagi jumalarga e’tibor qilsak:

- *O’zi qaytib kelmasmikin?.. Birov olib ketsa, qaytib kela ber, deb qo’yilmagan ekan-da! Nega yig’lanadi? A? Yig’lanmasin!* Mazkur misolda *deb qo’yilmagan ekan-da* birligi asli *deb qo’ymagan ekansiz-da* ma’nosini ifodalab majhul nisbat affiksi aniq nisbat ma’nosini, III shaxs shakli esa II shaxs ma’nosini ifodalagan. *Yig’lanmasin* so’zi tarkibidagi buyruq maylining III shaxs *-sin* affiksi II shaxs ma’nosini ifodalab, *yig’lamang* shakliga teng keladi. Yana ushbu asarda shunday jumalar keltirilgan:

- *Qidirtirsakmikin-a? - dedi amin chinchanog’ini etigining ostiga artib, - suyunchisi nima bo’ladi? Suyunchidan chashna olib kelinmadimi?* Mazkur misolda ham *kelinmadimi* leksemasi tarkibidagi zamon ma’nosini ifodalovchi *-di* affiksining vazifasi III shaxs shaxs-son ma’nosini ifodalashdan iborat bo’lib, ushbu o’rinda u II shaxs *-ngiz* shaxs son affiksi ma’nosida qo’llanilgan va sintagmatik aloqani yuzaga keltirgan.



Badiiy uslubda leksimalar hamda affikslarning sintagmatik munosabati juda keng uchraydi. Bunday holatlar esa o'zbek tilining imkoniyatlarini ko'rsatish bilan bir qatorda badiiy asarning tasviriyligi va ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Baxranov . Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent
2. A. Nurmonov. Tilni sistema sifatida o'rganish. – Namangan, 2011.
3. O. Azizov. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 1996.
4. R. Rasulov. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2006.



FRANSUZ TILIDAGI FONOSTILISTIK USLUBLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Norbayeva Umida,

Xorazm Viloyati Qo'shko'pir tumani
24-maktabining fransuz tili fani o'qituvchisi

Nematjonova Yulduzxon,

Xorazm Viloyati Bog'ot tumani
45-maktab fransuz tili o'qituvchisi

Karimova Gulyor,

Xorazm Viloyati Qo'shko'pir tumani
24-maktabining fransuz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Hozirgi kunda fransuz tilida talaffuz uslublarning ko'plab tasniflari mavjud bo'lgani kabi, so'zlashuvning fonostilistik farqlanishida hali ham ko'plab muammolar mavjud. Mazkur maqola bu muammolarni inobatga olgan holda hozirgi fransuz tili fonostilistikada kommunikativ vaziyatga mos ravishda og'zaki nutqning turli tip va janrlarida fonostilistik farqlanishi va fonetik vositalarning o'zgarishini o'rganadi.

Kalit so'zlar: Kommunikativ vaziyat, og'zaki nutq, talaffuz uslublari, stressli urg'u, ritm, orfoepik me'yor, tovushlar artikulyatsiyasi, nutqning tezligi, ohang, urg'usiz bo'g'in.

Inson tili muloqot vositasi sifatida bir hil emas. Bu muloqot sharoitlariga, suhbatdoshlar o'rtasidagi munosabatlarning tabiatiga, so'zlayotgan sub'ektning niyatlariga va u murojaat qilayotgan kishiga, shuningdek uzatilgan xabarga bo'lgan munosabatiga qarab o'zgaradi. Galereyada, ishxonada, ko'chada, oilada, do'stlar o'rtasida va hokazolarda so'zlashuv tili bir xil bo'lmaydi.

Hozirgi fransuz tili fonostilistika kommunikativ vaziyatga mos ravishda og'zaki nutqning turli tip va janrlarida fonetik vositalarning o'zgarishini o'rganadi. Umuman olganda, uslublarning fonetik vositalarini tanlash natijasi bo'lib, orfoepik me'yorning o'zgarishlaridan birini aks ettiradi. Talaffuz uslublarning ko'plab tasniflari mavjud, ammo fransuz tilida so'zlashuvning fonostilistik farqlanishi hali ham ko'plab kamchilik va muammolardan holi emas.

Izlangan uslub - tinglovchilar oldida aytiladigan tantanali nutq, uni ishontirishga, taassurot qoldirishga yoki teginishga harakat qiladi. Bu yig'ilish, marosim, yubiley va boshqalar nutqi hisoblanadi. Mazkur maqola ushbu uslubning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib beradi: bu unli va undoshlarning aniq talaffuzi (shuningdek, urg'usiz bo'g'inlarda); bu ko'p sonli [ə] ning saqlanishidir. Ohang juda tantanali bo'lsa, bu holatda barcha mumkin bo'lgan [ə] ni talaffuz qilish maqsadga muvofiqdir.

So'zdagi undosh tovushlarning talafuzi juda aniq bo'lgani uchun so'z oxirida [ə] paydo bo'ladi ammo talaffuz qilinmaydi. Chunki so'zning oxiridagi o'qilmaydigan unli undan oldin kelgan undoshni aniq talaffuz qilish uchun xizmat qiladi. Masalan: **monde, tumulte, homme**.

Bog'lanishlar 2 guruhga bo'linadi:

- 1) undosh bog'lanish (**liaison consonantique**)
- 2) unli bog'lanish (**liaison vocalique**).

Fransuz tili fonetikasida (Enchainement) bog'lanishlar mavjud. Birinchi so'zning oxiridagi o'qilmaydigan undosh va ikkinchi so'zning boshidagi o'qiladigan unli o'rtasida undosh bog'lanish (**liaison consonantique**) deyiladi. Misol uchun: je dis encore, nous sommes obligés.

Birinchi so'z oxiridagi unli va ikkinchi so'zning boshidagi unli o'rtasidagi liaison vocalique ya'ni unli bog'lanish deyiladi. Misol uchun: Il va à la gare, Il va au cinéma. Hozirgi fransuz tilida bog'lanishlar soni sezilarli darajada oshmoqda. Majburiy ulanishlar haqida gapirmasa ham bo'ladi. Sababi og'zaki nutqda ko'plab grammatik qoidalarga amal qilinmayapti, natijada o'z-o'zidan fonetik o'zgarishlar yuzaga kelmoqda. Bu o'zgarishlar yangi ilmiy tadqiqot ishlarni olib borish kerakligini taqazo qilmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati :

1. Chigarevskaya N. Traité de phonétique française. Cours théorique. – Moscou : Vischaia shkola, 1973.



2. Béchade H. D. Phonétique et morphologie du français moderne et contemporain. – Paris : Presses universitaires de France, 1992.
3. D.Sh.Islomov. (2021). The Definition of The Concepts of «Phoneme» and «Phonostylistics». Middle European Scientific Bulletin, 9. <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.9.204>
4. D.Sh.Islomov. (2021). Phonetics and Phonology. Middle European Scientific Bulletin, 11. Retrieved from <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/470>
5. Islomov, D. (2021). THE ROLE OF PHONOSTYLISTIC UNITS AND PHONEMES IN THE PROCESS OF TEACHING FRENCH TO ADULTS IN THE ANALYSIS OF EXAMPLES. Конференции, 1(1). <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.971>



RUS TILINI O‘RGANISHDA TA’LIM METODLARINING AHAMIYATI

Komilova Shahnoza,

Xorazm viloyati Xonqa tumani

8-maktab rus tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

Ortiqova Guliston,

Xorazm viloyati Xiva tumanidagi

35-maktab rus tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada rus tilini o‘rganish muammolari, rus tilini o‘qitish va rivojlantirishda ta’lim metodlari, ularning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: rus tili, metod, ta’lim, tarbiya, chet tili, rivojlanish, o‘qituvchi.

Hozirgi kunda o‘tib kelayotgan yosh avlodni chet tillariga o‘qitish sifatini ta’minlash, chet tillarida erkin so‘zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, chet tillarni o‘zlashtirish orqali jahon ta’lim standartlariga javob beradigan yetuk kadrlarni tayyorlash yurtimizda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotining maqsadlaridan biridir. Til o‘rgatishdagi imkoniyatlarni aniqlash va ularni yuzaga chiqarishda o‘qituvchining bilimi, ijodkorligi, talabalarni o‘z faniga nisbatan muhabbatini uyg‘ota olishi, o‘quvchi bilan hamkorlik munosabatini o‘rnatish hozirgi davr talabini taqozo etadi.

Shu bilan birga aytish joizki, har bir o‘rganilayotgan tilning o‘ziga xos qonun-qoidalari, sirsinoatlari mavjud. Xalqaro standartlarga javob beruvchi yetuk mutaxassis kadr bo‘lish uchun o‘rganuvchidan tilning eng nozik qatlamlarini nazardan qoldirmaslik talab etiladi.

Ta’lim metodi - o‘qituvchining o‘quvchilar bilan muntazam qo‘llaydigan, o‘quvchilarga o‘z aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarini rivojlantirish, bilim va ko‘nikmalarini egallay hamda ulardan amalda ham foydalanish imkonini beruvchi ish usulidir. Belgilangan ta’lim berish maqsadiga erishish bo‘yicha ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar o‘zaro faoliyatini tashkil etishning tartibga solingan usullar majmuasi hisoblanadi. Quyida rus tilini o‘rganishda yaxshi samara beradigan ayrim metodlar bilan tanishamiz.

SUHBAT metodi bu - o‘quvchi shaxsini g‘ayaviy, ma’naviy, axloqiy jihatdan shakllantirishda o‘qituvchining jonli so‘zi eng ta’sirchan usullardan biri hisoblanadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur sinf o‘quvchilari uchun har tomonlama mosligi, dolzarbligi muhim ahamiyatga ega. Suhbat quyidagi mavzularda uyushtirilishi mumkin:

1. Etik mavzular (ijtimoiy, ma’naviy, axloqiy, jamoa orasida o‘zini tutish qonunqoidalari)
2. Estetik mavzular (tabiat go‘zalligi, inson go‘zalligi, shaxslararo munosabatlar)
3. Siyosiy mavzular (davlatning ichki va tashqi siyosati, dunyo voqealari, xalqaro munosabatlar).
4. Ta’lim va bilishga oid mavzular (koinot va hayvonot dunyosi va boshqalar) kabi mavzularda suhbat tashkil etish ijodiy natija beradi.

Suhbat davomida o‘quvchilarga ularning o‘z fikrini erkin ifoda etishlari hamda mustaqil fikr yuritishlariga imkon beruvchi savollar bilan murojaat etish juda muhimdir. Bu borada bahsmunozaraning ham katta ahamiyati bor.

HIKOYA metodi bunda o‘quvchilar odatda turli xil misollar bilan boyitilgan hikoyalarga qiziqishadi va ularni sevib tinlashadi. Ularga xalq o‘tmishi, ertak qahramonlarining hayoti, ularning ko‘rsatgan jasoratlari haqida so‘zlab berish mumkin. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari, gazetalar, jurnallar, radio televideniyaedagi malumotlar ham o‘quvchilarni aslo befarq qoldirmaydi. Suhbat yokki hikoya mavzusining o‘quvchilar tomonidan tanlanishi, ularning mazmunli va qiziqarli o‘tishini ta’minlaydi. Buning natijasida o‘quvchilar ilgari surilayotgan bu mavzuga e’tiborsiz bo‘lishmaydi. O‘z fikrlarini erkin ravishda bildira oladi. Bu esa fikrlarini rivojlanishiga olib keladi.

O‘Z-O‘ZINI BAHOLASH metodi bunda xatti-harakatlari, fazilatlarini, xulq atvorini tahlil qilish, asosida o‘z shaxsiga baho berishga yo‘naltirilgan faoliyat turi hisoblanadi. O‘quvchi o‘zo‘zini baholash qiyin, lekin ularni bunga yetarlicha tayyorlash mumkin. Buning uchun o‘quvchi o‘z burchini tushunishi, tahsil va tarbiya olish uchun sababli asos bo‘lishi, ya’ni tarbiyalanishni xohlashi, o‘z - o‘zini takomillashtirishga intilishi lozim. Bu usul ularga o‘zlariga chetdan turib, xolisona baho berishga yordam beradi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.X.Toxtaxodjayev. “Pedagogika” Toshkent – 2010 y.
2. O.Z.Suyunov. “Pedagogika Psixologiya” O‘quv - majmua. Samarqand- 2013 y.
3. Bospalko V.P. Pedagogika va ilg‘or ta’lim texnologiyalari. - M., 1995 y.



“ФЕЪЛ” МАВЗУСИНИ ЎҚИТИШДА СИНЕКТИКА УСУЛИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Сайфиева Тожино, Ражабова Шахноза

Навоий вилояти Хатирчи тумани 4- умутаълим мактаб

Она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси

Аннотация: Мақолада нутқ қисмлари – феълларни синектик усул билан ўқитишнинг самарадорлиги муҳокама қилинган.

Калит сўзлар: Синектика, модел, ўрганиш, феъл, нутқ қисмлари, аналог, метофара.

Аннотация: В статье рассматривается эффективность обучения частей речи – глаголов методом синектика.

Ключевые слова: синектика, модель, обучения, глагол, части речи, аналог, метафора.

Annotation: The article discusses the effectiveness of teaching parts of speech - verbs by the synectic method.

Key words: synectics, model, learning, verb, parts of speech, analogue, metaphor.

Синектика – ижодкорона ўйлаш модели бўлиб, кўринишидан турлича бўлган ҳодиса ва предметларни ўзаро боғлиқликда ўрганиш ҳисобланади. Унинг асосий воситаси аналог ёки метафора бўлиб, бу модел кичик гуруҳларда бирор муаммо га ечим топишда креатив жавоблар топишнинг такомиллаштирилишига имкон беради. Бунда янги маълумотга эга бўлиниди, янги ечим топиш учун мотивация ҳосил қилиниди, муаммонинг турли сабаблари кашф қилиниди. Синектика талабаларнинг ижодкорлик қобилиятини фаоллаштирувчи индуктив модел бўлиб, у талабаларга эски фикрларни янгича йўл билан бир неча ҳодисалар билан боғлашга туртки беради. Моделнинг афзалликлари: чуқур ўйлаш; эски нарсалардан янги перспектива ҳосил қила олиш; диалоглар. Моделни амалга ошириш шакли: 1. Бевосита аналог (Direct Analogy) – ўқитувчи муайян тушунчани бошқа тушунчага билан тенглаштиради. 2. Шахсий аналоглар (Personal Analogy) – бунда баъзи талабаларнинг тортитуви ви кузатилади. 3. Аналог қарама-қаршилиқ (Analog Contrast) – талабалар муайян объект ва унинг аналогини ўзаро қийслайдилар ва зидлайдилар. Биз куйида “Ҳозирги ўзбек адабий тили” модулидаги феъл сўз туркумини йил фасллари билан қийслаб, аналог сифатида таққослаймиз. Аввал бош муаммони белгилаб олишимиз лозим.

Бош муаммо: Феълларнинг қўлланишини юзага келтирувчи воситалар.

Моделни амалга ошириш босқичлари:

1-босқич: Феъллар - бу йил фасллари дир. Талабалардан бу икки тушунчанинг характерли хусусиятларини ёритиб бериш талаб этилади ва бу икки тушунчанинг ўхшаш жиҳатлари аниқланади. Талабаларнинг бу жараёнга оид фикр мулоҳазаларини билдиради. Феълнинг таърифи, саволлари, категориялари ва бошқалар. Йил фасллариининг нечталиги, ҳар бир фаслнинг ўзига хос хусусиятлари, ҳаво ҳарорати даражаси ва бошқалар. Ўхшашлик: Ҳар иккала ҳолатда ҳам ушбу предмет ва тушунчаларнинг бир- бири билан ўзаро боғлиқ жиҳатлари келтирилади. Масалан, баҳор – ёғмоқ, кўкармоқ; ёз – исийди, киздиради, пишади ва ҳоказо.

2- босқич. Бунда талабалар томонидан феъл сўз туркуми ва йил фаслларига оид янги, хилма - хил фикрлар айтилади. Масалан: – Сўз туркумлари ичида равиш, сифат ва сонга нисбатан феъл туркумининг аҳамияти катта, чунки киши ўз фикрини ифодалашда, гапларнинг тузишида феъл сўз туркумидан фойдаланади.

– Тўғри фикр, лекин менга киш фасли ёқмайди, чунки қишда ҳаво жуда совуқ бўлиб, табиат уйкуга кетади. Мен учун йил фасллари ичида энг яхшиси баҳор, чунки баҳор яшариш фасли.

3-босқич. Талабалар ушбу жараёнда феъл туркуми ва йил фасллариининг бирбирига ўхшаш ва ўзаро фарқли жиҳатларини қийслайдилар. Қийслаш жараёнида талабалар турли янги, ижодкорона ва бир-бирини такрорламайдиган фикрларни баён этадилар.

1-Фикр: Мен феъллар инсоннинг феъл-атвориға хос деган аналог мос тушади деб ўйлайман. Қолаверса инсоннинг ташқи кўринишини тасвирлашда муҳим роль ўйнайди.

4-босқич. Бунда талабалар 2 гуруҳга бўлинган ҳолда ўзларининг яна янги аналогларини яратишга ҳаракат қиладилар ва ўзлари яратган аналогларини изоҳлаб берадилар. Бу-моделнинг сўнгги босқичи бўлиб, талабалар ўзлари яратган моделларини бирма-бир тақдим



этадилар. Бу уларда янги аналогнинг юзага келишига сабаб бўлади.

Ҳар иккала гуруҳ топган аналоглари тўғри ёки нотўғрилиги кўриб чиқилади ва далиллар исботланади. Ўқитувчи томонидан иккала гуруҳнинг ҳам барча жавоблари изоҳланади.

Хуллас, сўз туркумларини талабаларга тушунтиришда “Синектика” усули самарали ҳисобланади. Чунки талабалар грамматик категорияларни тушунишга қийнадиладар, шунда ҳаётий ва табиадаги ҳодисаларга қиёслаб тушунтирилса, мавзуни яхшироқ тушунадиладар.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 235 B.
2. Yo‘ldoshev J.G‘. Pedagogik innovatsiyalarni hayotga tatbiq etishning tashkiliy asoslari. // Xalq ta’limi. – T., 1999. - №6. – B.4-9.
3. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – T.: O‘qituvchi, 2004. – 101 b.
4. Rahmatullaev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. –T. 2006. – 520 b.
5. Ҳожиёв А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. –Т: Фан, 1966. – 183 б.



ГЕНДЕР ТИЛШУНОСЛИГИДА РАНГНИНГ АССОЦИАТИВ ТАСНИФИ

Мухаммад Чўтпўлатов

филология фанлари бўйича (PhD) фалсафа доктори
Ўзбекистон Республикаси Жамоат
Хавфсизлиги Университети
Тошкент, Ўзбекистон

Аннотация. Мазкур мақола инглиз, рус ва ўзбек тилларида рангларнинг ассоциатив таснифи таҳлил қилган. Мазкур йўналишда фаолият юритган олимларнинг ушбу рангларга келтирилган фикрлари, ишлари ўрганилган, шунингдек, бир қанча адабиёт ва журналлардаги мақолалар лингвостатистик асосда таҳлил қилинган.

Таянч сўзлар: тилшунослик, гендер, гендер лексикаси, инглиз тили, лингвостатистика, ранг, респондент, реакция, эркак, аёл.

Атрофимизни ўраб турган олам ранглар билан уйғунлашган. Гарчи ранг спектори универсал бўлса-да, турли маданият вакиллари рангни турлича қабул қилади ва ўзининг рангли образини яратиб, уни изоҳлайди. Психология, маданиятшунослик, хусусан, тилшуносликда фаолият олиб бораётган кўплаб олимларнинг саъй-ҳаракатлари боис турли маданиятлардаги рангга боғлиқ сўз ва кўпгина тушунчаларнинг пайдо бўлиши билан бир қаторда, уларнинг эволюцияси ва фаолият кўрсатиш моделлари яратилган.

Маълумки, ҳар қандай тил ва маданиятда ранг ифодаланишининг бир қатор усуллари мавжуд бўлиб, турли маданиятларда рангга алоқадор бўлган лексикани ифодалаш учун асос бўладиган адабий манбаларнинг таҳлили тилда ранг классификациясининг бир қатор қатламлари мавжудлигини тасдиқлайди [1].

Тилда ранг маъносини ифодаловчи сўзлар яхлит лексик-семантик гуруҳни ташкил қилиб, унда элементлар (лексик бирликлар) тўплам семантикаси ва мутаносиблиги тарихан ўзгарувчан бўлади. Ушбу сўзларнинг семантик тараққиёти натижасида тилда ўз, кўчма ва рамзий маъноларининг ёнма-ён туришини келтириш мумкин. Баъзи рангларнинг семантик маъноси тарихан ўзгарувчан бўлиб, вақт ўтиши билан ўз рамзий маъносини йўқотиши ёки кучсизлантириши мумкин.

Мазкур ҳолатлар ўзга маданиятни бир миллат маданиятига чуқур таъсир қилганида содир бўлади. Масалан, ўзбек халқида азал-азалдан аёллар қора рангли либос кийишмаган, бу ғам, қайғу, аза ранги ҳисобланган. Бугунги кунда эса бу ўзбек аёлларининг севимли либос рангларида бирига айланиб улгури. Бу қора рангнинг ўз рамзий маъносининг кучсизланганлигидан далолат беради, зотан, адабиётимизда “тун зулмати каби совуқ ва қоп-қора” каби жумлалар ҳалигача кучли таъсир воситаларидан бири ҳисобланади.

Шундай экан, ранглар ифодаловчи маънолар кенгайиб ёки асл миллий маъносини йўқотиб боришини кўриш мумкин.

Айрим тажрибаларда рангнинг эркаклар ва аёллар томонидан турлича қабул қилиниши кузатилади. Жинслар орасидаги рангни қабул қилиш тадқиқ этилганда, аёллар предметни тасвирлашда эркакларга нисбатан кўпроқ ранглардан фойдаланиши аниқланди. Е.П. Ильин карама-қарши жинс вакиллариининг ранг қабул қилиш хусусиятларини шарҳлар экан, аёллар уни яхшироқ фарқлашини таъкидлайди [3].

Ўзбек халқининг оғзаки нутқида ранг энг муҳим таърифловчи воситалардан биридир. Ушбу тилда сўзлашувчилар, аксарият ҳолларда, рангни ишлатадилар. Масалан “узун бўйли қорачадан келган”, “қалин муқоваси яшил”.

Оламда шундай ҳодисалар ҳам борки, улар тилга олинганда, биринчи навбатда, уларнинг ранги кўз олдингизга келади. Чунки уларнинг энг кўзга ташланадиган ёки бирдан-бир тасоввур ҳосил қилувчи воситаси бу уларнинг ранги ҳисобланади. Мисол тариқасида осмон – мовий, водий – яшил, тун – қора, тоғ – кўк қабиаларни келтиришимиз мумкин.

Шу қаторда, биз ҳам ранглар асосида ассоциатив тадқиқот олиб бордик. Тадқиқотда иккала жинс вакилларида тенг сонли респондентлар қатнашди. Олиб борилган тадқиқотни Е.И. Горошкованинг иши билан чоғиштириб таҳлил қилишга ҳаракат қилдик.

Кларкнинг фикрича, ҳаво ранг – тинчлик, сокинлик, Коденскийнинг фикрига кўра, ғамгинлик, илохий сокинликни ва қорамтир ҳаво ранг эса ғамгинликни бартараф этувчи, оч



ҳаво рангни тинч, ёқимли, тушунарли сифатида таърифлаган.

Ҳаво ранг ўзбек халқининг сеvimли рангларида бири бўлиб, уни кўпинча, феруза ранг деб ҳам аташади. Бу рангга берилган реакцияларни ўрганиб чиққар эканмиз, жинслар таърифлари ўртасидаги фарқ кузатилади. Яъни эркак респондентларнинг бу рангга бўлган қарашларида нисбатан ўта илоҳийлаштиришган, инсон руҳиятининг туб-тубини англаувчи таърифлардан фойдаланилганига гувоҳ бўламиз: чексизлик, бағрикенглик, баркамоллик, нафислик, осойишталик, поклик, сокинлик кабилар. Аёл респондентлари келтирган таърифлар орасида асосан, доимийлаштирувчи сўзлар кўп учрайди. Масалан: армон, барака, бахт, гўзаллик, жиддийлик, қайғусиз, ёқимли, кўнгил ва самимийлик каби рекциялар келтирган. Ушбу ранга эркак респондентлари берган таърифда бошқа стимулларга нисбатан анча субъективликка чекинилган. Шунингдек, инкор маъно англаувчи реакциялар ҳам қайд этилган. Масалан: мағлубият, бемани одам, енгил табиат, эришилмаган бахт кабилар қайд этилган. Мазкур ҳолатда ҳам эркак респондентлар устунлик қилишганига гувоҳ бўлиш мумкин. Аёл респондентлар келтирган таърифларда “адолат” реакцияси учрайди. Ушбу реакция олимлар келтирган реакциялардан тамоман фарқ қилади ва “келажак, мақсад, ёшлик, завқлантирувчи, тозаллик, умид, нафосат” каби стимуллар қайд этилади. Ўзбек респондентларининг реакциялари юқоридаги фикрларга олимлар фикрига мос келган ҳолда, ўзининг кўшимча маъноларига эга. Бу ранг табиий бўлиши билан бир қаторда, биз учун бир оз ҳаёлийроқ ҳамдир.

Сариқ рангни олимлар қуёш, илиқлик, озодлик, мустақиллик, ёз ҳақидаги тасаввурни кўзгатувчи таърифлар билан таъкидлайдилар. Ўзбек халқида эса сариқ ранг мутлоқо тушқун кайфиятни ифодаловчи маънолар билан боғланган бўлиб, респондентлар келтирган таърифларда ҳам бу ўз аксини топган. Улар берган субъектив таърифлар орасида деярли ижобий маъно берувчи фикр учрамайди, ёки учраса-да, умумий таъриф ёки иккала маънони ҳам бера оладиган таъриф бўлиши мумкин: бойлик, бетакрор, ёлғизлик завқи, жозиба, кўнгил очилиши кабилар. Сариқ ранг ўзбек халқи учун айрилиқ, ҳижрон, бахтсизлик, бўшлиқ, жудолик, ғамгинлик, унутмоқ, қайғу, ҳазонрезги, куз фасли, яъни сариқ ранг берувчи барча маънолар олимлар ва баъзи бошқа менталитет қарашларидан фарқли ўларок, ўта салбий бўлса-да, агрессивлик уйғотмайдиган ҳисобланади.

Ушбу рангга эркак респондентлар томонидан берилган реакциялар аёлларникидан деярли икки баробар оз. Эркак респондентларининг таърифларида сариқ ранг ҳақида ижобий фикрлар учрайди: адолат, иссиқлик, билим, поклик кабилар.

Кўк ранг, кўпинча, ҳаво ранг билан ажратилмаган ҳолда ишлатилади. Бунинг таъсири респондентлар реакцияларида яққол сезилган. Яъни улар ҳаво рангга қўллаган айна таърифларини такрорлаган. Масалан: мусаффо, софлик, тоза, тинчлик кабилар.

Бошқа рангларга берилган таърифлардан фарқли ўларок, кўк рангда жуда кам реакция қайд этилган. Шунингдек, ушбу рангга бўлган муносабат жинслар орасида тубдан фарқ қилади. Яъни кўк рангга ўзбек аёл респондентлари келтирган таърифлар мутлоқо ижобий бўлса, эркаклар берган таърифлар эса мутлоқо салбийдир. Аёллар таърифларни ҳаво ранг билан қориштириб юборишган ва субъективликка урғу беришган: кўнгли очик, беғуборлик, меҳрибон, мусаффо кабилар. Эркак респондентлар таърифларида сиёсий атамалар номлари учраган ва агрессивликни уйғотувчи атамалар иккаласи биргаликда мутлоқо эркакча феъл-атвор ҳосил қилувчи таърифлар уйғунлигини ҳосил қилган, яъни Америка, Гитлер, Бен Ландин, Жорж Бурш, япон, самурай, Фаластин кабилар ёки лақаб, уруш, совуқчилик, гумон, ишончсизлик, кўкарган башара, кўзни кўкартириш кабилар. Бошқа рангларга нисбатан бу ранг реакциялари сон бўйича эркак респондентлар устунлик қилган, шунингдек, аёлларда учрамайдиган реакцияларни қайд этганлар.

Ўзбек респондентлари томонидан сариқ рангга бўлган салбий реакциялар қайд этилган, аммо агрессивлик йўқ. Шунингдек, эркак респондентлар кўк рангга ўта салбий агрессив ўзига ҳослик касб этувчи таърифларни бериб ўтган. Аммо иккала тип вакиллари учун энг кўп салбий агрессив реакцияларда қора ранг ҳам кўрсатилган. Барча салбий тушунча уйғотувчи ҳис-туйғуларни қора рангга ўхшатишган: адоват, амал, бахтсизлик, даҳшат, ёвузлик, ёлғон, қаҳр, камситиш ва жаҳл кабилар. Мазкур ранга бошқа стимул ва ранглар каби, аёлларда эркакларникига нисбатан жуда кўп реакциялар қайд этилган. Вақт ўтиши билан, бу рангга бўлган муносабат бир оз ижобийлашган, масалан, жиддийлик, ишонч, кучлилиқ, сеvimли ва розилиқ кабилар. Шундай экан, бугунги кунда қора либос жиддий кўриниш касб этивчи



ранг бўлиб, психологларнинг таъкидлашича, ўзига қанақа рангли либос ярашишини билмаган инсонлар, охир-оқибат, қора рангли либос олар эканлар. Уларнинг фикрича, бу ўзига ишонмасликдан, ўзига жалб қилишга қўрқишдан далолат беради.

Аёллар ва эркекларнинг ранг ажратишдаги тафовутда аёллар устунлик қилишини Соловьёва исботлаган. Кўпчилик эркеклар нутқда жами бўлиб 10-12 та рангни ишлатиш билан чекланишса, аёллар бир рангнинг оч-тўқлигига, ўша рангдаги нарса-буюмларнинг тузилишига қараб, бир неча турга бўлишади.

Қадимги Шарқ, Хитой ва Япония давлатларида шойи бўяшда 20 мингга яқин ранг ишлатилгани қайд этилади. Баъзан, эркеклар бутунлай бир-бирига бир оз ўхшайдиган бошқа номли ва тусли рангларни бир ном билан атаб, рангларга эътиборсизликларини билдиради. Масалан, пушти рангни қизил, яшил рангни кўк дея ишлатиш бунга яққол мисолдир.

Демак, жамият ва уни ўраб турган атроф-муҳит ранг маъноларининг кенгайиши ва торайишига таъсир этади, бинобарин, ранглар турли тилларда турлича талкин қилинади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Наркулова, И. Р. к. (2022). СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНОЕ ВАРЬИРОВАНИЕ ЗАИМСТВОВАНИЙ (НА МАТЕРИАЛЕ СЛОВАРЯ С.И.ОЖЕГОВА). INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(10), 7–9. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/cf/article/view/407>
2. Индира Рустам Кизи Наркулова Реализация межпредметных связей через бинарные занятия (на примере дисциплин «Русский язык» и «Гражданское право») // Science and Education. 2022. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/realizatsiya-mezhpredmetnyh-svyazey-cherez-binarnye-zanyatiya-na-primere-distiplin-russkiy-yazyk-i-grazhdanskoe-pravo> (дата обращения: 08.12.2022).
3. Наркулова И. Р. РАЗВИТИЕ ПРОЕКТНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ КУРСАНТОВ ВЫСШИХ ВОЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ //International journal of conference series on education and social sciences (Online). – 2022. – Т. 2. – №. 7.
4. Наркулов А. К. У. Патрулирование основа обеспечения общественного порядка // Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 1334-1339.
5. Наркулов А. К. У. НОРМАТИВНО-ПРАВОВАЯ БАЗА ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН И МЕЖДУНАРОДНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ОБЛАСТИ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КИБЕРТЕРРОРИЗМУ //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 217-224.



ZULFIYA SHE'RLARIDA UMUMINSONIY G'OYALAR

**Eshchanova Farida Egamberganovna,
Boltayeva Shoxista Toxirjanovna**

Xorazm viloyati Xiva tumanidagi 3-son umumiy o'rta
ta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari
telefon: +998990913412
telefon: +998990847279

Annotatsiya: maqolada Zulfiya hayoti va ijodi, uning she'riyatida umuminsoniy g'oyalarning ifodalanishi haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: she'riyat, ijod, kuy, shoir, bahor, tarjimon.

O'zbek xalqining atoqli va ardoqli shoirasi Zulfiyaxonim XX asr o'zbek adabiyotida ilhomining tozaligi, hislarining nafisligi, she'rlarining samimiyligi bilan yorqin yulduzga aylandi. Shoir a ijodiyot mashaqqatidan zavq, nash'a tuyub, xalq bilan birga, xalq yuragidan kuylab yashadi.

Davr va poeziya ayol erki, ayol qalbi, ona baxti va armonlarini kuylovchiga intizor bo'tgan paytda Zulfiyaxonim bir chaqmoq kabi ana shu bo'shliqni to'ldirib yuzaga chiqdi. Uning sadosi chaqmoqday bo'tsa-da, davriyligi qisqa bo'tmadi. Hayot sinovlari, yo'qotishlar baxtga, muhabbatga limmo-lim qalb tug'yonlarini to'sa olmadi. Zulfiyaxonim sermashaqqat ijod bog'ining haqiqiy malikasi edi. Surati va siyratidan ibo, andisha, muhabbat va mehr yog'ilib turgan she'r shaklidagi nafosat malikasi!

O'zbek poyeziyasida Zulfiya she'riyatining o'ziga xos bo'tgan taraqqiyot yo'ti borligini hammamiz juda yaxshi bilamiz. Zulfiya ijodida inson shaxsi, ma'naviy dunyosining murakkab hayot hodisalari bilan bog'tiqlikdagi ko'rinishlarini yuksak intellektuallik, falsafiy teranlik bilan badiiy tadqiq etish, xalq hayoti manzaralarini davr ijtimoiy siyosiy taraqqiyoti tamoyillari bilan bog'liq holda butun murakkabliklari bilan ko'rish, ko'rsatish, idrok etish, g'oyaviy-estetik badialarini yuksak gumanizm bilan sug'orish adabiyotning xarakterli xususiyatiga aylandi.

Bu xususiyat Zulfiya she'riyatida samimiylilik, quruq g'oyaviylikdan qochish hamda chuqur mushohadorlikka tortishi bilan ko'zga tashlanib turadi. Voqeylikni ko'pincha tabiat hodisalari orqali aks ettirishga intilgan shoir a she'rlarida tabiat bilan inson o'zaro bog'liq holda gavdalanadi. Zulfiyaning o'zi bu haqda shunday yozadi: “Hayotda donolik va bilimning sira tuganmas konlari shu qadar ko'p ekanki, undan bahramand bo'lishi uchun butun umrini sarflasa ham, yetmasa kerak. Men hammasini birday yaxshi bilib olishga intilar edim. Navoiy va Pushkin, Hofiz va Shekspir, Bayron va Nekrasov, Lermontov va Lutfiyini o'qir edim, o'qir va o'qishga intildim. Ulkan shoir, o'z ona tili va adabiyotining bilimdoni, kam uchraydigan qobiliyat va intizom sohibi, do'stlarga mehribon, dushmanlarga ayovsiz H.Olimjon faqat mening turmush yo'ldoshim va bolalarimning otasi bo'lib qolmasdan, ayni chog'da qalbm va ruhimga uyg'un hamrohim va sezgir maslahatchim edi. Men undan fikrlashni, mehnat qilishni va she'r yozishni o'rgandim, uning ijod maktabida ta'lim oldim”, - degan fikrlarida uning ilhom jilg'asi suv ichgan chashmalarining birinchisi Hamid Olimjon bo'lganligidan darak beradi. Tabiat go'zalliklaridan behad chuqur hayajonga tushish, o'z tuyg'ularini tabiatdagi tovlanishlar surati orqali berish Zulfiya ijodiga xos xususiyatlardan biridir.

“Kecha jimjit, ko'p go'zal kecha,
Qaraysan-u suqing kiradi.
Yonadi gul, jilmayar g'uncha,
Yellar g'ir-g'ir esib turadi”.

Satrlardagi jarangdor musiqiylik, mayin va ta'sirchan tasvir, maftunkor tashbehtar o'quvchini o'ziga xos sehtarlab oladi. Biroq parchaga jiddiy diqqat qilinsa, uning ikkinchi misrasi aynan Hamid Olimjon satri ekanligini ko'rish qiyin emas. Faqat gap shundaki, bu yerda shu o'zlashgan misrani she'rxon ilg'amay qoladi.

Zulfiya inson baxtini kuylar ekan, bu ijtimoiy hodisani gavdalandiruvchi shoir shaxsi, she'riyati bilan to'liq his qilishga olib keladi:

“Salqin saharlarda, bodom gulida,
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Binafsha labida, yerlarda bahor.
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor”.



Bahorni, yasharish faslini poetik tadqiq etganda, Zulfiya asosan H.Olimjon an'anasining ko'tarinki, romantik ohangiga mos motiv tanlaydi. Biroq o'z qalbidagi sog'inch, armon tuyg'ularini ifodalashda u yangicha, mutloq original yo'ldan boradi, o'ziga xos ifodalash usulini qo'llaydi. Shu bilan birga, bu yangilik H.Olimjonning hayotbaxsh an'ansi ta'sirida yuzaga kelgan badiiy hodisa hamdir.

“Gul-u rayhonlarning taraldi atri,
Bu qo'shiq naqadar oshno, yaqin,
Samoni qopladi mayin bir qo'shiq,
Naqadar hayotbaxsh, otashga to'liq”

Haqiqiy, hayotbaxsh romantik usulining imkoniyat ufqlari benihoya keng va rang-barangdir. Bu ifoda usuli shoira she'riyatiga Hamid Olimjon lirikasi ta'sirida singishgani uchun ham, shoiraning ijodiy yo'lini belgilovchi mezonga aylanib qolgani uchun ham o'quvchilarda sun'iylik taassurotini uyg'otmaydi. Aksincha, she'riyat go'zallikka xizmat etishini isbotlab turadi. Unda, hatto, fojiani ham ko'tarinkilik bilan, o'ta ta'sirchan rang va ohanglarda o'quvchiga yetkazish mumkin. Yuqoridagi satrlarda ham sog'inch, bir umrlik armon tuyg'usi yashirin. Butun borliqdan mayin bir qo'shiq singari taralayotgan timsolda Olimjon ruhiy olamini gavdalandirishda yana Zulfiyaga xos bo'lgan an'analarni ko'ramiz.

Zulfiyani bir umrlik armon dardini ifodalash emas, balki shoir ijodi, so'zining umrboqiyligi qiziqtiradi. Natijada armon, sog'inch motivlarining roli kamayadi, u shunchaki ifodalash usuliga aylanadi. Har bir so'z, har bir birikma, har bir obraz — men Hamid Olimjonnikiman !”deb hayqirib turgan bu she'rda shoiraning insoniy armoni o'zganing so'zlarini o'zgarishsiz takrorlash orqali ro'yobga chiqqandir. Shoiraning hayot haqidagi falsafiy fikrlari lirik kechinma yo'nalishi hamda tabiat tasviri hamohang teranlashib, tiniqlashib boradi. Fikr bilan tuyg'u uyg'unligini inson umrining abadiylikka daxldorligi mohiyatini ochadi. Tabiat tasviri fikr va tuyg'uni bir-biriga payvandlaydi. Zulfiya mahoratidagi bunday o'ziga xoslik uning tasvir obyektni yangicha tadqiq etishi, u haqda yangicha fikrlashga intilishi natijasidir.

Xulosamiz shundan iboratki, Zulfiya asarlarida insonni sevis, ardoqlash, tabiatni, Vatanni e'zozlash motivi orqali lirik qahramonlarning ma'naviy dunyosi ravshan ko'rinishi bilan ajralib turadi. Insonlarni kelajakka ishonch bilan qarash, yashash, yaratish tuyg'ularini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdukarimov T. ”Zulfiyaning 70-80- yillar ijodida lirik qahramon tasviri” 1995
2. Zulfiya Tong bilan shom aro. Saylanma . Toshkent. Sharq. 2006 y.
3. Yana bahor keldi, sizni so'roqlab. Toshkent. Tafakkur. 2015 y.
4. Bahor keldi seni so'roqlab . Toshkent. Yangi asr avlodi. 2015 y



RUS TILI FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Ganjayeva Hilola Komil qizi

Xorazm viloyati Bog‘ot tumani

21-maktab rus tili fani o‘qituvchisi

Ganjayev Inomjon Komiljon o‘g‘li

Xorazm viloyati Bog‘ot tumani

48-maktab rus tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida rus tili fanini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish haqida so‘z boradi. Shuningdek ayrim interfaol metodlarni tahlili ham keltirib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: rus tili, dars, interfaol ta’lim, interfaol metod, B-B-B chizmasi, Klaster, Aqliy hujum.

Bugungi kun o‘qituvchisiga qo‘yilgan talablardan biri ularning ta’lim jarayoniga tadbqiq etilgan, dunyo tajribasidan o‘tgan va samara bergan metodlarni yaxshi bilishi va ularni amalda qo‘lay olishidir.

Buning uchun o‘qituvchi doimiy ravishda izlanishi, o‘rganishi va o‘rganganlarini tajribada sinab ko‘rish, o‘zi ham ushbu metodlarga ijodiy yondashib o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritib borishi zarur.

O‘quv jarayonini tashkil etishda ko‘plab ta’limiy metodlardan foydalanib kelinmoqda, ular orasida interfaol ta’lim va uning asosini tashkil etuvchi interfaol metodlar ayniqsa samarali sanaladi. Quyida rus tili fanini o‘qitishda qo‘llaniladigan interfaol metodlarning ba’zilar haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Interfaol va interaktiv so‘zlari bir xil ma’noda bo‘lib, interaktiv so‘zi inglizcha “inter” - “birgalikdagi” va “act” - “harakatlanish” so‘zlaridan olingan. Interaktivlik birgalikda harakatlanish yoki suhbat, dialog rejimida nimadir (masalan, kompyuter) yoki kimdir (o‘qituvchi) bilan bo‘lish demakdir. Bundan kelib chiqadiki, interaktiv ta’lim - avvalo dialogli ta’lim bo‘lib uning davomida o‘qituvchi va o‘quvchi, o‘quvchi va kompyuter o‘zaro hamkorligi amalga oshiriladi. Interfaol ta’limning asosini yuqorida aytilganidek interfaol metodlar asosida darsni olib borish tashkil etadi. Ta’limning interfaol metodlari o‘quvchilarning ulkan ta’limiy qudratidan foydalanish va faollashtirish, o‘quv jarayoniga musobaqa elementlarini kiritish imkonini beradi: ta’lim oluvchilar guruhining aqliy kuchi uning a’zolari kuchi yig‘indisidan ko‘proq (ya’ni guruh natijasi individual natijalar yig‘indisidan doimo ortiq).

Interfaol metodlarni tasnifi

O‘rganilayotganlarini o‘zlashtirishga da’vat qilish metodlari	Yangi materialni anglash metodlari	O‘rganilganlarini fikrlashga imkon beruvchi metodlar
Erkin yozish. Klaster. Aqliy hujum. B-B-B chizmasi. Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi. Blits-so‘rov.	Insert chizmasi. B-B-B chizmasi. O‘qitish bo‘yicha qo‘llanma. Bir-biriga o‘rgatish. Bir-biridan so‘rash. Ikki qismli kundaliklar. Eng asosiy tushunchalar	Eng asosiy tushunchalar, takrorlash. T-chizma. Toifalash jadvali. Nima uchun? chizmasi. “Qan.day?” diagrammasi. Venn diagrammasi. Besh minutlik esse. O‘n minutlik esse.

O‘rganilayotganlarini o‘zlashtirishga da’vat qilish metodlari ushbu metodlardan umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘qitiladigan deyarli barcha fanlarni o‘rgatishda foydalanish mumkin bo‘lib, agar ushbu metodlar to‘g‘ri qo‘llansa albatta yaxshi natijaga erishish mumkin. Buning uchun o‘qituvchining o‘zi yuqoridagi metodlarni qo‘llash haqida tushunchaga ega bo‘lishi lozim. Erkin yozish, Klaster, Aqliy hujum, B-B-B chizmasi, Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi, Blits-so‘rov kabi metodlar o‘quvchilarni tez o‘ziga jalb qiladi, ularning darsdagi faolligini oshiradi.



Rus tilida darslarida ushbu metodlardan o'quvchilarning yoshiga moslagan holda dastlab sodda shaklda keyinroq murakkab shaklda foydalanish kerak. Boshlang'ich sinflarda ham yuqori sinflarda ham ushbu metodlarni qo'llash orqali tashkil etilgan darslar samarali bo'ladi.

Yangi materialni anglash metodlari o'quvchilarni fanni o'zlashtirishda o'zaro hamkorlik, bilmagan, tushunmagan narsalarini ustozidan, do'stlaridan so'rab o'rganish va o'zgalarga o'rgatishga qaratilgan metodlardir. Ushbu metodlar nafaqat aqliy shuningdek tarbiyaviy ahamiyati ham samarali sanaladi ya'ni ushbu metodlar, o'quvchilalar o'rtasida do'stlik, halollik, mexr-oqibat kabi tuyg'ularni shakllantiradi.

O'rganilganlarini fikrlashga imkon beruvchi metodlar o'quvchilarni yangi o'tilgan mavzuni qay darajada o'zlashtirganlarini aniqlab beruvchi metodlardir. Ularni qo'llash orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, o'rgangan bilimlarini taqqoslay olish kabi ko'nikmalar shakllanadi.

O'quv jarayonida ushbu metodlarni darsning maqsadi va mazmunidan kelib chiqib, loyihalashtirib qo'llash quyidagi natijalarga olib keladi:

- * o'rganuvchilarning o'qishga qiziqishlari va motivatsiyasi kuchayadi;
- * o'rganuvchilarning darsda zerikishi va charchashining oldi olinadi;
- * o'rganuvchida ijodiy ishlash ko'nikmalari va faol fikr rivojlanadi;
- * mavzu bo'yicha yangi assotsiativ fikr va tasavvurni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda til o'rganish o'quvchilar uchun murakkab jarayon sanaladi. O'quvchilar xorijiy tillarni o'zlashtirishda doimo qiyinchiliklarga duch keladilar. Biz yuqorida sanagan interfaol metodlar esa anashu qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi va o'quvchilarni xorijiy tillar, xususan rus tilini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlarini orttirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayeva F. Kasbiy fanlarni o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish(uslubiy qo'llanma). Toshkent - 2013
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/interfaol-metodlar-o-quvchilar-kreativliginioshirishning-muhim-omili>
3. www.ziynet.uz



ТА’ЛИМДА ЗАМОНАВИЙ АХБОРОТ ВОСИТАЛАРИНИНГ О’РНИ

Haqnazarova Obida Mamarajabovna,

Navoiy viloyat Nurota tuman

3-maktab ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’limda axborot texnologiyalari barkamollik asosi ekanligi, ta’lim tizimidagi xodimlarning zimmasiga ta’lim mazmunini sifat jihatdan rivojlantirish borasidagi dolzarb vazifalar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: Axborot texnologiyasi, axborot xavfsizligi, ichki va tashqi xavflar, axborot xurujlari

Bugungi kun o’qituvchisiga barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazishdek mas’uliyatli vazifa yuklangan bo’lib, ta’lim mazmunini takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni belgilab olish, zamon bilan hamnafas bo’lib, ta’limning zamonaviy texnologiyalarini joriy etgan holda o’quvchilarda o’z faniga qiziqish uyg’otishlari, hurmat-ehtirom tuyg’ularini shakllantirib borishlari talab etiladi.

Qadimdan inson savodini chiqarishda avlodlarimiz qaysi bir jamiyatda yashashidan qat’i nazar vaqtlar o’tishi bilan ta’lim jarayonini sifat jihatdan o’zgartirishga va rivojlantirishga harakat qilganligining guvohi bo’lib kelmoqdamiz. Mamlakatimizda yil sayin rivojlanib borayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’lim tizimiga ham jadallik bilan kirib borayotganligi, ta’lim jarayonini sifat va mazmun jihatdan yanada yuqori bosqichga ko’tarish uchun xizmat qilayotganligining guvohi bo’lmoqdamiz. Ta’limda axborot texnologiyalari barkamollik asosi ekan, ta’lim tizimidagi xodimlarning zimmasiga ta’lim mazmunini sifat jihatdan rivojlantirish borasidagi dolzarb vazifalar turibdi. Bu esa, zamon shiddat bilan rivojlanayotgan davrda, o’qituvchilar bilan birga ta’lim muassasalari rahbarlari zimmasiga kechiktirilmasdan bajariladigan vazifalarni yuklaydi. O’quvchilarga beriladigan bilim esa fundamental asosga ega bo’lib, har qanday axborotlarni tahlil qila oladigan, mantiqiy to’g’ri xulosa chiqaradigan kuchga ega bo’lishi lozim. O’quvchilar ana shunday intellektual bilim olishda zamonaviy texnik vositalardan oqilona foydalanish, ta’lim tizimida sifat o’zgarishiga olib kelishi shubhasiz. Ayniqsa, ta’lim jarayonini mazmunli tashkil etish uchun zamonaviy texnik vositalardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu esa, ya’ni dars mashg’ulotlari jarayonida texnologiya, axborot, kompyuter, multimediya, internet va shunga o’xshash axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish o’zining samarasini bermoqda. Shu o’rinda yuqoridagi texnik vositalar o’quvchining o’zlashtirish darajasini oshirish, berilayotgan bilimlarni tushunish darajasini, xotirada saqlash va uni qo’llashni yuksaltirish imkoniyatlarini ham bermoqda.

Elektron taqdimot – darsda slaydlardan ko’rgazmali material sifatida foydalanish o’qituvchi uchun keng imkoniyat yaratadi. O’quv materialining elektron taqdimotida animatsiyalar asosida o’tilayotgan materialning berilishi mavzuni o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilishini yengillashtiradi va ko’rgazmalilikni oshiradi. Namoyish slaydlarini o’quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatlaridan shaxsga yo’naltirilgan ta’limni rivojlantirish, o’quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda samarali foydalanish kerak.

Yuqoridagi fikrlarimizni ona tili va adabiyot fanida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish qanday ijobiy natija va samara berishi misolida dalillaymiz. Darslarda axborot kommunikatsiyalaridan foydalanish quyidagi natijalarni beradi:

- o’qituvchilarning fikri yoki darsning mohiyati bir zumda monitorda paydo bo’ladi;
- bir vaqtning o’zida hamma jarayonni ko’rish, o’qish va eshitish mumkin;
- o’z-o’zini o’qitish, baho berish, kuzatish, kichik tadqiqot o’tkazish mumkin;
- eshitib, ko’rib, his qilib olingan bilimning uzoq muddatli va samarali bo’lishini ta’minlash mumkin;
- o’qituvchining mustaqil ishlashi, yangiliklar yaratishiga, kasbiy mahoratini rivojlantirishga va vaqtni tejashga erishishi;
- ta’lim jarayonida berilayotgan ma’lumotlarni chuqurroq va mukammalroq o’zlashtirish imkoniyatining mavjudligi;
- ta’lim jarayonida bilim olish vaqtining qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoniyatiga



erishish va shuning hisobiga ko'proq bilimga ega bo'lish;

- olingan bilimlar samaradorligini yuqori darajadali, yoshlar xotirasida uzoq muddat saqlanishi va uni amaliyotga qo'llash imkoniyatining mavjudligi va hokazo.

Zamonaviy ta'lim tizimining xususiyatlaridan biri bilimlarni saralash, jamg'arish, tizimlashtirish va uzatish jarayonida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi.

Insonning axborotni qayta ishlash bo'yicha imkoniyatlarini kuchaytiruvchi zamonaviy texnologiyalar bilan qurollantirish - axborotlashtirish sanoatini jadal rivojlantirishni talab etuvchi eng muhim vazifa hisoblanadi. Ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish axborotlar sifati, uning aniqligi, obyektivligi, tezkorligini va buning natijasi sifatida esa boshqaruv qarorlarini o'z vaqtida qabul qilish imkoniyati oshirishini ta'minlaydi. Demak, ta'lim olayotgan talaba yoki o'quvchi uchun bir qator imkoniyatlar yaratiladi.

Ta'lim sohasiga axborot texnologiyalarini joriy etish, asosan, quyidagi yangi imkoniyatlarni beradi: zaruriy o'quv va ilmiy axborotni izlash vaqtining qisqarishi va ulardan foydalanish imkoniyati; yangi o'quv va uslubiy adabiyotlarni ishlab chiqishga o'qituvchilar vaqtining qisqarishi hisobiga yangilash jarayonining jadallashuvi; ta'lim oluvchilarda individual mustaqil ishlash uchun qo'shimcha vaqt paydo bo'lishi; ta'lim jarayonining sifatini oshirish vazifalarini hal qilish imkoniyatini beradi. Chunonchi, yangi axborot texnologiyalari ta'limning har bir bosqichida uning sifatini kuzatib borish, ta'limning sifatiga innovatsion texnologiyalar ta'sirini aniqlashga imkoniyat yaratadi.

Ta'limda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish eng dolzarb talablardan biri ekan bugungi kun o'qituvchisidan, avvalo, kompyuter savodxonligi, matbuot va internet xabarlaridan voqif bo'lishi, o'z ustida tinimsiz ishlashi va izlanishi zamon bilan hamnafas bo'lishi talab etiladi. Aks holda bugungi kunning qiziquvchan va aqlli o'quvchisi kompyuter savodxonligi bo'yicha o'qituvchi-pedagoglardan ilgarilab ketishi mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Imomnazarov M. Eshmuhammedova M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. –Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2001. - 250 B.
2. O'zME. 1-12-tomlar. Toshkent, 2000-2006 .



WHY DO WE NEED MULTIMEDIA IN ENGLISH LESSONS?

Muhiddinova Munira Muhiddinovna,
Samarqand viloyati, Paxtachi tumani,
3-maktab o'qituvchisi

Annotation: the present article is devoted to the features of using multimedia during English lessons and its recognition.

Key words: learning process, integral part, human activity.

Modern information technologies based on telecommunications and multimedia are the basis of changes in education area. Development is an integral part of any human activity. A person is constantly growing by accumulating experience, improving ways, methods of action, expanding his mental abilities.

The same process is applicable to any human activity, including teaching. At different stages of its development, the society imposed several new standards and labor requirements. This necessitated the development of the education system.

People who work in both state and business system should constantly improve their skills in order to withstand competition in the labor market, since the competitiveness of a modern specialist is determined not only by his high qualifications in the professional sphere, but also by his readiness to solve professional tasks.

The transition from natural communication in the traditional form of education, to virtual communication in ICT determines the characteristics of modern education. Multimedia is a set of technical and software tools that enable a person to communicate with the computer using the natural environment: audio, video, graphics, texts, animation, and more.

Training specialists in the field of communications through the multimedia tools has the following advantages:

- a) The materials are taught deeper and they are more accessible;
- b) Communication is closer accepting the areas of education;
- c) Achieving time-savings as a result of curriculum downtime;
- g) The gained knowledge will be kept in memory for a long time.

On the basis of the recommended multimedia tools students can find the information they need from a computerized information bank and exchange their experiences with others on an e-network basis. This ensures that learners can communicate well with others, and encourage their knowledge by this kind of training.

As well as, Innovative multimedia teaching tools affect the quality and methodology of teaching, allowing us to expand the practical component of the lesson, as well as qualitatively improve the perception of theoretical information. The use of multimedia technology in the educational process directly affects the cognitive activity of trainees. Thanks to multimedia technologies, educational materials became more visible and interesting.

The use of multimedia presentations allows us to use not only listening, but also visual memorization. Also, the use of animated effects in presentations helps to focus the attention of students and diversify the visual range, thus the associative visual memory will be involved. In addition, a multimedia presentation prepared by the teacher in advance significantly saves study time.

Multimedia integrates powerful distributed educational resources; they can provide an environment for the formation and indicator of key competencies, which primarily include informational and communicative. Multimedia technologies open fundamentally new methodological approaches in the education system.

Thus, the use of information and communication technologies in teaching FL allows:

- provide a positive motivation for learning;



- conduct lessons on a high aesthetic and emotional level (music, animation);
- increase the amount of work performed in the lesson by 1.5-2 times; - improve the control of knowledge;
- rationally organize the learning process, improve the effectiveness of the lesson;

References

1. Starodubcev, V. A. Komp'yuternyj mul'timedijnyj kompleks soprovozhdenija kursa Konceptii sovremennogo est- estvoznaniya / V.A. Starodubcev //



MOTIVATIONAL STRATEGIES IN TEACHING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE

Nishonova Tamanno Abdupattoyevna
Solijonova Zebuniso Abduvoxid qizi
 Fergana district Fergana region
 English teacher secondary school – 63

Annotation: this article covers motivational strategies in teaching english as a foreign language.

Key words: motivation, strategies, language classrooms

Different helpful motivational strategies can be found by looking through the literature about foreign language teaching strategies. In this research paper several literature are addressed and suitable and viable strategies are provided.

Motivational strategies are techniques that promote the individual's goal-related behavior. Because human behavior is rather complex, there are many diverse ways of promoting it, in fact, almost any impudence a person is exposed to might potentially affect his/her behavior. Motivational strategies refer to those motivational influences that are consciously exerted to achieve some systematic and enduring positive effect (Dornei2001).

With respect to the various strategies promoting classroom EFL learning, there are several ways to organize them into separate 'themes'. We could, for example:

- focus on the internal structure of a typical language class and cluster the strategies according to the various structural units (e.g. strategies to present new material, give feedback, set up communicative tasks or assign homework).
- design a primarily trouble-shooting guide in which some particularly problematic facets of the classroom's motivational life are listed and suggestions are offered on how to handle these (e.g. how to deal with student lethargy; lack of voluntary participation; or anti-learning influences of deviant children).
- focus on key motivational concepts such as intrinsic interest, self-confidence or student autonomy and use these as the main organizing units.
- centre the discussion on the main types of teacher behavior that have motivating effects (e.g. showing a good example and modeling student behavior; communication and rapport with the students; consciousness raising about self-regulated strategies; or stage managing classroom events).

Although, all these approaches mentioned above have their merits, it was recommended to follow a fifth approach which focuses on the different phases

of the process-oriented model described earlier (in Section 1). The model has been specifically developed for educational applications and it offers an important advantage over the other approaches: comprehensiveness. When planning on the structure of this qualification paper, it seemed to me that following through the motivational process from the initial arousal of the motivation to the completion and evaluation of the motivated action is in many ways more logical than making somewhat arbitrary decisions about which central themes the material should be built around.

Key units in this process-oriented organization include:

- Creating the basic motivational conditions
- Generating initial motivation
- Maintaining and protecting motivation
- Encouraging positive retrospective self-evaluation

Figure 1 contains a schematic representation of the system, with details of the sub-areas that will be covered.

Motivational strategies proposed by Dornei (2001), even those which are generally the most reliable, are not rock-solid golden rules, but rather suggestions that may work with one teacher or group better than another, and which may work better today than tomorrow. This is particularly true if we consider how varied language learning situations are worldwide. It is unlikely that, say, a group of pupils studying English in Uzbekistan will benefit from exactly the same strategies as primary school learners of English in Hong Kong or university learners of Latin in Sweden.



Differences amongst the learners in their culture, age, proficiency level and relationship to the target language may render some strategies completely useless/meaningless, while highlighting others as particularly prominent.

The framework is based on Dornyei's systematic overview of the extensive motivational techniques in teaching a second/foreign language (Dornyei, 2001b). The four dimensions include the macro-strategies associated with each dimension. Each dimension is associated with at least thirty macro-strategies, each of which was broken down into about one hundred micro-strategies in teaching a second/foreign language. This extensive list of recommended motivational teaching strategies has been frequently and widely utilized and modified by researchers to discover what specific strategies are perceived by students or language teachers as beneficial for the students' motivation in their particular context.

In the past, few studies aimed to find out whether the proposed strategies actually work in language classrooms (Dornyei&Csizer, 1998). The fact that there may be a discrepancy between the assumed and the actual motivational power of certain teaching strategies in second/foreign language learning has concerned second/foreign language scholars. Therefore, the existing recommended teaching strategies should be regarded as mere hypotheses to be tested in determining what strategies work in a certain second/foreign language classroom.

References;

1. Byram, M. 1997. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. Clevedon: Multilingual Matters.
2. Carter, R. and D. Nunan (Eds.) 2001. Applied Linguistics. Cambridge: Cambridge University Press.



ОНА ТИЛИ ВА АДАБИЙОТ ФАНИНИ О'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM TEKNOLOGIYALAR

**Parizod Nomonzoda Azamjon qizi,
Shahlo Tillabayeva Hasanboyevna**

Farg'ona viloyati Farg'ona tumani
21-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari

Annotatsiya: ushbu maqolada ona tili va adabiyot fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, bahs munozara, zamonaviy ta'lim.

Ta'limdan asosiy maqsad bolalarga bilim berishgina emas, balki bilim olish yo'llarini o'rgatish, ularni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish demakdir. Yangicha ijtimoiy, iqtisodiy sharoitda tilni o'qitish mazmunini takomillashtirish, darslarni jahon andozalariga mos ravishda tashkil etish o'quvchi faolligini oshiradigan muhim omillardan hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya - ta'lim jarayonida oldindan rejalashtirilgan va to'laligicha loyihalashtirilgan, muayyan vaqtga mo'ljallangan, ta'lim jarayonida ko'proq ta'lim oluvchi shaxsiga qaratilgan, faollashtirilgan usullar va zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalangan holda o'quv maqsadiga erishishni kafolatlaydigan ta'lim berish jarayonidir.

Pedagogning jonli nutqi, harakatli mashqlari tarbiya vositasi vazifasini bajaradi. Texnologiyalarni qo'llaganda o'quvchi bilimni kuzatish, bilimlarining o'sishida jamiyatda vujudga kelgan asosiy g'oyalar bilan taqqoslash, ularning rivojlanish yo'llari va usullarini aniqlash, mosini tanlash, turli vositalar, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullariga ahamiyat berishimiz kerak.

Texnologiyalarni metodikadan farq qiluvchi omillar:

1. Zamonaviy - an'anaviy o'qitish elementlarining mavjudligi;
2. Pedagogik jarayonda shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyani mavjudligi;
3. O'quvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish asosidagi pedagogik texnologiyalar;
4. O'quv jarayonini samarali boshqarishga asoslangan pedagogik texnologiyalar;
5. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari;
6. Xususiy o'quv predmetlariga tegishli texnologiyalar.

Nutqiy faoliyatda har bir til hodisasining o'z o'rni, o'z vazifasi bor. Yoshlar til imkoniyatidan vaziyatga qarab foydalanish malakasiga ega bo'lishlari, o'z fikrini aniq ifodalashga, zarur bo'lgan so'z va gap shakllari, ibora va tasviriy ifodalarni tanlay va qo'llay bilishlari davr talabidir. Buning uchun ona tili o'qituvchisi o'z ixtisosligini puxta bilishi, ilg'or pedagogik texnologiya hamda zamonaviy o'quv-texnik vositalaridan yaxshi xabardor bo'lishi lozim. Shundagina ta'lim samarasi ham, o'qitish darajasi ham yuqori bo'ladi. Ona tilidan dars beruvchi o'qituvchi haqiqiy ijodkor bo'lishi, ta'lim jarayonida o'quvchining mavzuni tinglash, anglash, erkin va mustaqil fikrlash, qiyoslash, farqlash, alohidaliklarga ajratish va tasnif qilishga yo'naltirilgan faoliyatini rag'batlantirish, o'z fikrini, g'oyalarini o'zgalarga yetkaza bilish ko'nikma va malakalarining shakllanishini nazorat qilishi, boshqarishi darkor. Shuningdek, u yoshlarning ahloqiy-ma'naviy tarbiyasi bilan shug'ullanishi, ularga sharqona muloqot odobi, milliy an'analarimizga hurmat, ona Vatanga muhabbat tuyg'usi kabi zaruriy xislatlarni singdira bilishi lozim.

Ona tili darslarida musobaqa mashqlarini o'tkazishdan maqsad o'quvchining til darsida olgan bilimlarini sinab ko'rish, o'zaro munozara-muloqot jarayonida til imkoniyatlaridan foydalana bilish, nutqiy mahorat, tez va aniq fikrlash darajasini, muammoli vaziyatlardan chiqqa olish malakasini baholashdan iboratdir.

Musobaqa darslari o'quvchilarda faollik, topqirlik, zukkolik fazilatlarini shakllantiradi, ularni mustaqil ijodiy mushohada yuritishga odatlantiradi, zarur va foydali ko'nikmalarni hosil qilishga yordam beradi. Samarali dars shakllaridan biri bo'lgan musobaqa darsi til mashg'ulotlarining qiziqarli o'tishi va o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlovchi vositadir. Musobaqa darslari uchun mavzular: “Qiziqarli alifbo”, “So'zdan gaplar yasang”, “Nutq tovushlari musobaqasi”, “Zakovat” darslari va hokazolar.

Bahs – munozara darslari musobaqa darslaridan yechib ulgurmagan, biror to'xtamga kelinmagan masalalarni oydinlashtirish, to'g'ri, aniq xukm va muxtasar xulosalar chiqarishi bilan farqlanadi.



Bahs – munozara o`quvchilardan hushyo`rlikni talab etadi. U mustaqil va jadal fikrlashga , hozirjavoblikka, aytilgan fikrning to`g`ri yo`ki noto`g`riligi haqida va o`z fikrini mantiqli va izchil isbotlashga o`rgatadi.

O`zaro tortishuv va bahs oqibatida eng to`g`ri va ma`qul yechimga kelinadi.

O`quvchi bahs - munozara orqali qarshi tomonning ishonarli dalillarini tinglaydi, o`z “men”ini anglab etadi, o`z dunyoqarashi, ilmiy –ijobiy tafakkuri ko`lami, haq yo`ki nohaq ekanligi to`g`risida, o`zi mustaqil hulosasi chiqaradi. O`z fikrini himoya qilish uchun turli usul va vositalarni ishga solish, ijodiy fikrlash, til imkoniyatlaridan unumli foydalanishga o`rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Rafiyev A. , G`ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). T. , “Sharq”, 2013.
2. Erkaboyeva N. Q. Adabiyot fanidan savol-javoblar to`plami. T. “Navro`z”, 2018.



O'QUVCHILAR BILIMINI NAZORAT QILISHDA DIKTANT VA UNING TURLARI

Qalandarova Shoiri Umidjon qizi,
Soporboyeva Mardona Murodjonovna
Xorazm viloyati Yangibozor tumani
32-sonli maktabning
ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari:
Tel:919990044
Tel:977711196

Annotatsiya: ushbu maqolada ona tili darslarida o'quvchilarning bilimini nazorat qilishda diktant va uning turlari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: diktant, ta'kidiy diktant, nazorat diktant, tekshirish diktant.

O'quvchilar savodxonligini oshirishda foydali mashqlardan biri diktantdir. Diktant o'tkazishda o'quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olish, ishda aniqlikka e'tibor berish, soddadan murakkabga borish muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, o'quvchilarni o'z-o'zini tekshirishga odatlantirish zarur. O'quvchi diktant yozishda so'zning harfiy ifodasini ko'rmay, eshitish sezgisi orqali tovushlar majmuasini tasavvur etadi, tovushlarni harflar bilan almashlab yozadi. Bunda psixologik jarayon bilan fiziologik jarayonning birgalikda harakatlanishi so'zlar shaklining bolada mustahkamlanib borishiga imkon beradi. Shuning uchun ham diktant imlo o'rgatishda o'z tabiatiga ko'ra to'la ta'limiy yozma ish hisoblanadi. Diktantlar maqsadiga ko'ra ikki turli bo'ladi:

I. Ta'limiy diktant.

Diktantning bu turi o'rganilgan mavzularni mustahkamlash maqsadida yozuv darsining biror qismida o'tkazilib, unga alohida soat ajratilmaydi. Ta'limiy diktantlar tashkil etish va bajarilish usuliga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Ta'kidiy diktant.
2. O'z diktant yoki yoddan yozuv diktanti.
3. Izohli diktant.
4. Saylanma diktant.
5. Erkin diktant.
6. Rasm diktant.
7. Lug'at diktant.
8. Ijodiy diktant.

Shulardan saylanma, erkin va ijodiy diktantlarda matn ma'lum o'zgarishlar bilan yoziladi. Tekshiruv diktantida yaqinda yoki ilgari o'rganilib, mashqlar bilan mustahkamlangan qoidalarini o'quvchilar qay darajada o'zlash-tirganliklari aniqlanadi. Tekshiruv diktanti biror bo'lim o'rganilgandan so'ng yoki chorak oxirida o'tkaziladi. Tekshiruv diktanti o'quv yili davomida 5-6 marta o'tkaziladi.

Diktantning bu turida yo'l qo'yilgan xatolar chuqur tahlil qilinadi, ularni bartaraf qilish usullari belgilanadi. Shu jihatdan tekshiruv diktantining ta'limiy ahamiyati katta. Imloviy mashq sifatida diktantning xilma-xil turlaridan foydalaniladi. Ta'kidiy diktantdan qoidani amaliyotga tatbiq etish usullarini yaxshi bilib olish maqsadida foydalaniladi. Matnni yozishdan oldin, uni yozish jarayonida, izohli yozuvdagi kabi, o'quvchilar so'zni qanday yozishni va nima uchun shunday yozilishini tushuntiradilar.

O'z diktant yoki yoddan yozuvda o'rganilgan imloviy qoida asosida yoziladigan so'zlar bo'lgan matnni o'quvchilar o'zlari o'qib yodlaydilar (ko'rib idrok qiladilar) yoki o'qituvchi rahbarligida eshitib yodlaydilar (idrok qiladilar), keyin o'zlari mustaqil yozadilar. Izohli diktant o'quvchilarning qobiliyatiga qarab ikki xil o'tkaziladi. O'quvchi, odatda, o'qituvchining ko'rsatmasi bilan ma'lum so'zning yozilishini diktant yozishdan oldin yoki keyin izohlaydi. So'zning yozilishini bo'g'in-tovush, tovush-harf tomondan tahlil qiladi, unga qoidani tatbiq etadi.

Bu diktantda o'quvchilar qoidalarga oid so'zlarning tagiga chizadilar. Saylanma diktantda o'quvchilar diktoverka qilingan gaplar yoki matnning hammasini yozmaydilar. Uning o'qituvchining topshirig'iga mos qisminigina (o'rganilgan qoida asosida yoziladigan so'zlarni, so'z birikmalarini) yozadilar. Diktant uchun 3—5 qismli matn tanlanadi. O'qituvchi awal matnni bir marta ifodali o'qib beradi, so'ngra matn mazmuni yuzasidan suhbat o'tkazadi. Ayrim qoidalarni eslatadi.



Keyin matnning bir qismi qayta o'qib beriladi, o'quvchilar uning mazmunini yozadilar. Erkin diktant imlo qoidalarini mustahkamlashga xizmat qilishi bilan birga, o'quvchilar nutqini o'stiradi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Rasm diktant predmet rasmini yoki o'zini ko'rsatib o'tkaziladi: predmet rasmi ko'rsatiladi, o'quvchilar uning nomini aytadilarvayozib vergul qo'yadilar, ish shunday davom etadi (Birinchi so'z bosh harf bilan, qolganlari qoidaga ko'ra yozilishi eslatiladi). Rasm diktantda o'rganilgan qoidani, ayniqsa, o'quv yili davomida o'rganiladigan imlosi qiyin so'zlarni to'g'ri yozishni puxtalash, shuningdek, ularni o'quvchilar qanday o'zlashtirganliklarini sinash maqsadi ko'zda tutiladi. O'qituvchi mazkur maqsaddan kelib chiqib, imloviy malakani shakllantirish ustida ishlash bosqichini hisobga olgan holda, diktantning barcha turlaridan izchillik bilan foydalanadi. 34 Bayon o'quvchilarning lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqini o'stirishga qaratilgan orfografik mashq turlaridan biri hisoblanadi. Bayon orfografik mavzularni o'rganishning yakunlovchi bosqichida, o'quvchilar qoidalarini bilib olib, uni tatbiq qilishga o'rganganlaridan so'ng o'tkaziladi. Bayon yozganda o'rganilgan imlo qoidalarini to'g'ri tatbiq etish ularning ongli o'zlashtirilganligini ko'rsatadi

II. Tekshirish diktanti.

Diktantning bu turi o'rganilganlarni o'quvchilar qanchalik o'zlashtirganini sinash, tekshirish maqsadida o'tkaziladi. Shu o'rinda biz bu aytib o'tgan diktant o'tkazish usullari xususida to'xtalishni joiz deb bildik. Lug'at diktanti. Lug'at diktant o'rganilgan imlo qoidalarini mustahkamlash, o'quvchilarning so'z boyligingi oshirish maqsadida o'tkaziladi. Bundan tashqari, o'rganilgan imlo qoidalarini o'quvchilar tomonidan qanchalik o'zlashtirilganini sinash, hisobga olish maqsadida ham o'tkazilishi mumkin. Lug'at diktant uchun o'rganilgan imlo qoidasi asosida yoziladigan so'zlar, so'z birikmalari yoki turli narsalar va ularning rasmlaridan foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbektilifanidanxalqarobaholashdasturiga o'quvchilarnio'qitishbo'yichametodikqo'llanma.
2. O'zbek tili darslik 9 sinf Toshkent 2018yil



О‘ЗБЕК ТИЛИ ДАРSLARIDA METODIK USULLARDAN FOYDALANISH

Raximova Xilola Azamatovna


Navoiy viloyati Tomdi tumani

1-IDUM-o‘zbek tili o‘qituvchisi

Annotatsiya: Darsning mazmunli o‘tishi, unda qanday metodlardan foydalanilgani va natijaga erishilgani o‘qituvchining mahorati, bilim darajasini belgilaydi. Mazkur maqolada o‘zbek tili darslarida foydalanishga tavsiya etiladigan interfaol metodlardan namunalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: interfaol, metodik usullar, texnologiya, keys stadi, namoyish, til...

Bugungi ta’lim jarayonini interfaol usullarsiz tasavvur etish qiyin. Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan interfaol usullar muayyan guruhlarda o‘qitiladigan o‘quv fanining bosh maqsadiga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Aks holda, qo‘llanilgan interfaol usul hech qanday ahamiyatga ega bo‘lmay qoladi. O‘qituvchi tanlagan usul dars davomida bolaning faolligini, kattalar va tengdoshlari bilan to‘g‘ri muloqot qila olishini ta’minlashi, tilda mavjud, biroq o‘quvchi uchun notanish bo‘lgan yangi so‘z va iboralarning mazmunini anglash, eslab qolishga, muloqot jarayonida qo‘llashga harakat qilish ko‘nikmalarini shakllantirishi zarur.



Har bir darsni o‘ziga xos usulasosida o‘tish, o‘quvchining fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg‘otish o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq. Muallimning mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardir. Zamonaviy pedagogik texnologiya – hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli. Har bir zamonaviy pedagog mavjud pedagogik texnologiyalarni o‘z darslarida qo‘llasa, albatta ijobiy natijaga erishadi. Bugungi kun o‘qituvchisining maqsadi barkamol yoshlarni tarbiyalash, ularga puxta ta’lim-tarbiya berish, zarur axborotlar bilan ta’minlash, mustaqil fikrlashga o‘rgatish, bilim va hayotiy ko‘nikmalar hosil qilish, ular qalbida vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg‘ularini qaror toptirishdan iborat. Bu ezgu maqsadlarni ilg‘or pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida o‘tilgan mashg‘ulotlarda amalga oshirish mumkin.

Innovatsion texnologiya – ta’lim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogik jarayonlarni loyihalash va amalda qo‘llash orqali bilim egallashni takomillashtirish usullari. Uning asosiy maqsadi ta’lim jarayonida o‘qituvchi va bilim oluvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgartirishlar kiritish bo‘lib, interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg‘ulotga aylanadi. Interfaol ta’lim strategiyalari. “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinamazinga”, “Muzyorar”, “Rotastiya”, “Yumaloqlangan qor” va k. Interfaol ta’lim metodlari tarkibidan interfaol ta’lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma’lum ma’noda strategiyondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko‘proq jihatdan



interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q. Interfaol grafik organayzerlar: “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konseptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “T-jadval”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va b. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q. Interfaol ta'lim metodlarini ko'pincha turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtda qo'llanmokda. Bu metodlarni qo'llash mashg'ulot ishtirokchilarining faolliklarini oshirib, ta'lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

«Keys-stadi» inglizcha so'z bo'lib, («case» — aniq vaziyat, hodisa, «study» — o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. O'zbek tili darslarida asosan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan matnlar keys topshirig'i uchun tanlanadi. Masalan: Kunlardan bir kuni sohibqiron Amir Temur olis qabilalardan biriga hujum qilibdi. Tabiiyki, Temurning son jihatdan ko'p va shu bilan birga juda yaxshi qurollangan lashkari qabilani osongina bosib olibdi. Sohibqironning huzuriga qabila oqsolini olib kelibdilar. Qabila oqsoli Amir Temurga: —Ey Temur, agar sen jallod bo'lsang, jonimizni ol, agar qassob bo'lsang, mayli bizni so'y, agar sen ... bo'lib kelgan bo'lsang,

.... Keys topshiriqlari: Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, matnni davom ettiring, xulosalang. Tugallangan matnga mos sarlavha tanlang. Matn olib borilayotgan mashg'ulot mavzusiga mos ravishda tahlil eting. Masalan: reja bo'yicha «Morfemik tahlil» mavzusi o'rganilayotgan bo'lsa, matn morfemik jihatdan tahlilga tortiladi.



Xullas o'zbek tili darslarida bir qator interfaol usullardan samarali foydalanish mumkin. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarning tafakkurini o'stirish, ularning mustaqil ishlash mahoratini oshirishga qaratilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Собирова, М. Р. О'zbek tili darslarida interfaol usullardan foydalanish. 2020-y.
2. Internet saytlari: -kitob.uz, -ziyonet.uz.



MULTIMEDIA EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN ENGLISH LANGUAGE LESSONS

Toxirova Nozima Alijon kyzy

№21-school

Taptiyeva Moxinur Ulugbek kyzy

№26-school

Fargana region, Fargana district

Annotation: This article emphasizes the importance of ICT in the study of a foreign language, and also describes the issue of possible options for their use. The article discusses the modern concept of a lesson using information and communication technologies.

Key words : information and communication technologies (ICT), foreign language, teaching methods.

Modern information and communication technologies (ICT) contribute to the development of individual critical and creative thinking, moral qualities in students. Everything that is acquired by students at the initial stage of the formation and formation of his personality and moral qualities is preserved for life. This also applies to the ability to think critically and to be critical of the information that surrounds and accompanies them.

The conclusions of scientists say that the use of information and communication technologies in teaching is based on data from human physiology: 1/4 of the material heard, 1/3 of what is seen, 1/2 of what is seen and heard, 3/4 of the material remains in the memory of a person if the student is actively involved in the process. Information and communication technologies have taken a firm place in the process of teaching a foreign language.

Information and communication technologies are an effective tool designed to develop the creative abilities of students and contribute to the formation of motivation for independent educational and research activities. The purpose of using this tool is to improve the quality of education at all stages. The use of ICT helps the teacher to solve the following didactic tasks:

- formation of sustainable motivation;
- activation of thinking abilities;
- attracting passive students to work;
- a qualitative increase in the intensity of the educational process;
- accustoming students to independent analytical work with various sources of information;

In the practice of the teacher, there is a certain classification of ICT tools according to the field of methodological application:

- trainers, the essence of which is to communicate new knowledge, to form skills, skills in educational and practical activities, thereby ensuring the required level of assimilation;
- simulators designed for the development of various kinds of skills and practical skills, the assimilation of the passed material;
- information retrieval and reference, which provide information, form skills and abilities in the system of building information;
- laboratory, which allow to conduct experiments remotely on real equipment in real time;
- modeling, allow you to model objects or phenomena in order to study their visual and other characteristics;
- settlement, which allow you to automate calculations and other operations in various fields;
- educational and game, the essence of which is in the creation of various educational situations in which the activity is realized in the form of a game.

Currently, the following areas of ICT are widely used:

- Creation of multimedia presentations. This is one of the easiest and most accessible ways to present educational material in a colorful and visual way .;
- Use of Internet resources. Includes search for relevant and useful information;
- Work with didactic games and educational programs. It helps to stimulate the motivation of students, allowing you to control and systematize the knowledge gained in a fun way.

Like any other medium, the use of ICT has both positive and negative sides. Therefore, it is very important to build the educational process in such a way as to make the most of only the positive



aspects, namely:

- deepening in a thorough study of theoretical knowledge;
- application of the acquired knowledge to practice;
- organization of the educational process using technical means;

ICT tools at school help the teacher to interest children, and students to better assimilate new material. But at the same time, their frequent use can lead students to get used to that they can solve different problems only in similar versions, and an unillustrated lesson will no longer cause them to be active.

ICT should be used only when this use has an undeniable pedagogical effect and the use of a computer cannot be considered a tribute to the times and turn it into a fashionable hobby.

Literature:

1. Zakharova, I.G. Information technologies in education: - M.: Publishing Center "Academy", 2013. - 192 p.
2. Methods of teaching foreign languages / M.V. Lyakhovitsky [and others] ;. - M.: Higher school, 2015. -- 160 p.



E'L SO'Z TURKUMI.O'QUVCHILARGA SHAXS-SON QO'SHIMCHALARI USLUBIYATI MAVZUSINI O'RGATISH YUZASIDAN MULOHAZALAR

Ziyabidinova Ra'noxon Mamitaliyevna

Namangan viloyati Norin tumani

39--maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Telefon nomeri :+99894 173 28 76

Annotatsiya: Ushbu maqolada fe'l so'z turkumi, shaxs-son qo'shimchalari, ularning uslubiylati yuzasidan mulohazalar bayon etiladi

Kalit so'zlar: fe'l, munosabat shakllari, shaxs-son qo'shimchalari, sintaktik shakl yasovchi, birlik ko'plik

Prezidentimiz tomonidan ta'limni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.Hatoot Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida, avvalo,yoshlarga o'z ona tilini o'rgatish zaruligini uqtirib, barcha ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarining xursandchiligiga sabab bo'ldi. Bugungi kun davlat ta'lim standartlarida o'quvchining kreativ fikrlashiga ko'proq e'tibor qaratilmoqda,ya'ni o'quvchi faqat quruq qosa yodlash bilagina chegaralanib qolmasligi kerakligini,olgan bilim va ko'nikmalarini hayotga tatbiq eta olishi zaruligi asosiy masala qilib qo'yilgan.Lekin bu degani ustoz -murabbiylarlar ham umuman grammatiadan chekinsin degani emas,shuning uchun ushbu maqolada morfologiya bo'limida fe'l so'z turkumi bo'yicha fikr yuritiladi.

Morfologiya bo'limi Ichidagi eng yirik so'z turkumi fe'ldir.

Fe'l shaxs va narsalarning harakati va holatini bildiradi,ba'zi ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari fe'lni faqat harakatni bildiruvchi so'z turkumi sifatida o'quvchilarga o'rgatadilar. Lekin fe'l faqat harakatni emas, balki holatni ham ifodalaydi. Masalan, ertasiga boy meni qidirtirib, ko'tartirib olib keldi. (G. G'ulom "Shum bola", 19-bet).Bu gapda uchta fe'l mavjud va hammasi harakatni ifodalanmoqda,qidirtirib,ko'tartirib, olib keldi. Har ikkalamizning yuragimiz yaproqday qaltirab turibdi(G. G'ulom "Shum bola", 25-bet).Bu yerda yurakning qaltirashi holatni ifodalamoqda.

Fe'llarning shaxs-son va zamon qo'shimchalari bilan ifodalanishi tuslanish deyiladi. Tuslanish hodisasining shaxs-son qo'shimchalari haqida ko'p ma'lumotlar berilgan bo'lsa-da, ba'zi o'quvchilar bu grammatik vositalarni ajratishga biroz qiynaladilar. Shuning uchun shaxs - son qo'shimchalarini tez oson yo'l bilan ajratish usuli va yo'llari haqida to'xtalmoqchiman.

Shaxs-son qo'shimchalari fe'ldan ifodalanagan harakat va holatning bajaruvchi shaxsini bildirib, uni kesim sifatida shakllantiruvchi, ega bilan bog'lovchi vositalardir. Fe'llarning shaxs-son qo'shimchalari maxsus shakllar orqali ifodalanadi. III shaxs o'tgan zamon qo'shimchasi esa shaxs - son i ham ifodalab keladi. Shuni unutmaslik kerakki, shaxs - son qo'shimchalari doimo zamon qo'shimchalaridan so'ng keladi. Shaxs harakat yoki holatning qaysi shaxs tomonidan bajarishini ifodalasa, son birlik, ko'plikni ifodalab keladi. Fe'llar uch zamonda tuslab, shaxs - son qo'shimchalarini ajratamiz:

Birlik. Ko'plik

I. Bordim. I. Bordik

II. Bording. II. Bordingiz

III. Bordi. III. Bordilar

Bu yerda o'tgan zamon qo'shimchasi - di, - m, - ng, - k, ngiz shaxs-son qo'shimchalaridir. III shaxs o'tgan zamon qo'shimchasi - di, bu yerda III shaxs-son qo'shimchasining maxsus shakli yo'q.

Birlik. Ko'plik

I. Boryapman. I. Boryapmiz

II. Boryapsan. II. Boryapsiz

III. Boryapti. III. Boryaptilar

Bu so'zlarda - yap hozirgi zamon qo'shimchasi, undan so'ng qo'llanilgan - man, - san, - ti, - miz, - siz, - ti shakllari shaxs-son qo'shimchalaridir.

Birlik. Ko'plik

I. Boraman. I. Boramiz

II. Borasan. II. Borasiz

III. Boradi. III. Boradilar

Bu tuslangan fe'lda - a kelasi zamon qo'shimchasi, - man, - san, - di, - miz, - siz, - di shaxs-son



qo'shimchalari hisoblanadi.

I shaxs birlik qo'shimchalari, I shaxs ko'plik qo'shimchalariga sinonim bo'lib, bu yerda kamtarlik, hurmat, ko'tarinkilik ma'nolarni ifodalanadi. Biz ham qarab turmasmiz, yordam qilamiz, - dedim o'zimni kattalardek tutib. (X. To'xtaboyev "Sariq devni minib", 35-bet).

I shaxs birlik II shaxs birlikka sinonim bo'ladi. Ko'zingni och, bu gaplar senga emas, - dedim-u, o'zingma kela olmadim. (T. To'la "Yetti zog'ora qissasi").

II shaxs I shaxs ko'plikka sinonim bo'lib keladi. Qani, Bolalar, yozamiz(yozinglar o'rnida).

II shaxs birlik III shaxs ko'plikka sinonim bo'ladi. - Shunaqa ham past bo'ladimi odam, - deb mahdumni o'ziga qaratdi.

I shaxs birlik III shaxs birlikka sinonim bo'ladi. Bu orada kamina ham uzr so'raydi. (uzr so'rayman o'rnida).

II shaxs birlik yo ko'plik III shaxsga sinonim bo'ladi. U ta'zim qildi: "Safo keldilar. Kelinlar!" - dedi Gulshanga.

III shaxs birlik III shaxs ko'plikka sinonim bo'ladi. Marg'ilondan shunday kelinlar keldilarmi? (keldimi o'rnida)

Shaxs-son qo'shimchalarini o'z o'rnida to'g'ri qo'llay olish darkor. Lekin uslub talabi bilan bir shaxs - son qo'shimchalari o'rnida ikkinchidan foydalansa bo'ladi va nutqning sifatini pasaytirmaydi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR

1. N.Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov. Ona tili. Umumta'lim maktabilarining 7-sinfi uchun darslik. "Ma'naviyat". Toshkent. 2000.

2. Abdulla Qahhor. Anor. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.



МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОБУЧЕНИЯ ИЗЛОЖЕНИЯ И СОЧИНЕНИЯ

Ахмат-Охунова Шахноза Игоревна,
Учитель русского и языка и литературы
II категории
Навоийская область,
СОШУИОП №1 города Навои

Аннотация: В данной статье говорится о месте сочинения и изложения в школе, какое место они занимают в системе речевых упражнений.

Ключевые слова: Сочинения, изложения, синтаксические конструкции, связный текст.

Сочинения и изложения в школе занимают особое место: им в известном смысле подчинены все другие речевые упражнения. В сочинении школьник приближается к естественным условиям порождения речевых высказываний – к таким условиям, какие складываются в жизни. Сочинения и изложения перерастают в серьезную планируемую умственную работу, имеющую не только учебно-воспитательное значение, но и служащую самовыражению, становлению личности учащегося. Они служат эффективным средством формирования личности, возбуждают эмоции, умственную самостоятельность, приучают детей осмысливать, оценивать и систематизировать виденное, пережитое и усвоенное, развивают наблюдательность, учат находить причинно-следственные связи, сопоставлять и сравнивать, делать выводы.

Сочинение – это упражнение, с помощью которого учитель пытается сделать более совершенной естественную монологическую речь учащихся, стремится обогатить их опыт речевой деятельности. В начальных классах дети постепенно учатся выражать устно и письменно в связном тексте свои мысли и знания, все усложняющиеся и по содержанию, и по форме.

Готовясь к устному рассказу и письменному сочинению, школьники планируют свою деятельность и учатся:

- понимать заданную тему;
- раскрывать тему и основную мысль;
- передавать в тексте рассказа или сочинения свою позицию;
- располагать материал в определенной последовательности, выделять смысловые части в тексте;
- озаглавливать части (составлять план) и придерживаться его в конструировании связного текста, а в случае необходимости поменять последовательность;

Сочинения как устные, так и письменные различаются по источникам материала, по степени самостоятельности, по способам подготовки, по жанру. По степени самостоятельности, по методам подготовки различаются изложения и сочинения коллективные, проводимые на общую тему для всех и требующие общеклассной подготовки. В процессе работы над текстом школьники учатся анализировать, синтезировать, выделять главное, сосредотачивать внимание на одних явлениях и абстрагироваться от других.

Изложение (устное и письменное) формирует умение в разных видах речевой деятельности. с одной стороны, умение воспринимать текст на слух (аудирование) или зрительно (чтение), с другой – умение пересказывать текст устно (говорение) или письменно. При работе над выборочным изложением важно правильно отобрать материал, сохранив при этом стиль автора. Во время подготовительной работы по отбору материала важным повторить изученные средства выразительности, провести словарную работу, составить план будущего изложения. Выборочное изложение – это такой вид изложения, при котором учащиеся передают содержание по одному из освещённых в тексте вопросов. При проведении выборочного изложения сначала находят главы, в которых описываются определённые явления или события (например, из жизни какого-либо героя), затем выделяют в них части и озаглавливают каждую часть. Отсюда следует вывод, что этап планирования своих действий при работе над изложением и сочинением в структуре речевого действия незаменим и отсутствие его приводит к нарушению единой системы развития связной речи в речевой деятельности.

Использованная литература:

1. В. Маяковский. Полное собрание сочинений. В 13-ти т. М. 1959 т 12
2. Вопросы литературы, 1986 № 10.



ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИЧИНЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ТРУДНОСТЕЙ ПРИ ИЗУЧЕНИИ МЛАДШИМИ ШКОЛЬНИКАМИ ГРАММАТИЧЕСКИХ ПОНЯТИЙ

Нарматова Нодира Куранбай кизи

Учительница русского языка школы №32
Янгибазарского района Харезмской области

Аннотация: В данной статье глагол как часть речи рассматриваются, психологические причины возникновения трудностей при изучении младшими школьниками грамматических понятий.

Ключевые слова. Структура курса, глаголь, предмет задачи, цели обучения.

Полноценное усвоение знаний предполагает формирование таких познавательных действий, которые составляют специфические приемы, характерные для той или иной области знаний. При этом мыслительная деятельность совершается при помощи мыслительных операций: сравнения, анализа и синтеза, абстракции, обобщения и конкретизации.

Понятия, как известно, представляют собой форму мышления, в которой отражаются предметы и явления окружающего мира в их существенных признаках и взаимосвязях.

В грамматическом понятии так же, как и в любом другом, в обобщенном виде отражены существенные признаки явлений. Специфика грамматического понятия обусловлена своеобразием языковых явлений, т. е. содержательной стороной понятия. Языковые явления, языковые категории отличаются более высокой степенью абстрактности по сравнению с биологическими, физическими, общественными и другими явлениями, наблюдаемыми в начальных классах.

При формировании биологических и физических понятий в качестве исходного материала чаще всего выступают конкретные явления и предметы, признаки которых можно наблюдать, систематизировать и обобщать. Грамматическое понятие -- результат абстрагирования и обобщения существенных признаков, свойственных словам, словосочетаниям, предложениям, морфемам, лексемам, фонемам и т. п. Иначе говоря, сам первичный материал, на основе которого создано человеком грамматическое понятие, достаточно абстрактен. «Всякое слово (речь) уже обобщает. Чувства показывают реальность, мысль и слово - общее».

Таким образом, грамматическое понятие является обобщением над уже обобщенным, или, как справедливо отмечает известный советский психолог Д. Н. Богоявленский, - это «своего рода второй этаж абстракций, надстраиваемый над уже обобщенными значениями слов и предложений».

Указанное свойство грамматических понятий является причиной затруднений, возникающих у младших школьников при формировании понятий. Для овладения грамматическим понятием необходим определенный уровень развития абстрактного мышления, который создается в процессе обучения и требует специальных упражнений, направленных на формирование вполне определенных умственных умений и комплекса лингвистических представлений и знаний. Рядом исследований, в частности исследований, проведенных С. Ф. Жуйковым, Д. Н. Богоявленским, А. М. Орловой и др., доказано, что процесс формирования понятий одновременно является и процессом овладения школьниками такими мыслительными операциями, как анализ и синтез, сравнение, обобщение и систематизация, абстракция и конкретизация. Результативность формирования понятия у младших школьников находится в прямой зависимости от степени развития абстрагирующей деятельности их мышления. Школьная практика неоднократно убеждала в том, что учащиеся, которые затрудняются абстрагировать грамматическое значение слова от его лексического значения, не в состоянии сравнивать слова и объединять их в одну группу по существенным грамматическим признакам, испытывают значительные трудности при формировании понятий и допускают ошибки. Например, при изучении глагола учащиеся узнают, что глаголы обозначают действия предметов. У некоторых глаголов лексическое значение может совпадать с грамматическим (бежать, лететь, прыгать и т. п.). У большинства глаголов такого совпадения нет. Под действием предмета в грамматике понимается наряду с движением состояние предмета, его отношение к другим предметам, изменения



качества предмета и т.п. (спать, думать, любить, зеленеть, развиваться и т. п.). Такое расширенное, обобщенное понимание «действия предмета» затрудняет учащихся, только что приступивших к изучению языка, поскольку их конкретное представление о действии связано чаще всего с передвижением. Поэтому часть учащихся на начальном этапе работы над глаголами не считают, что такие слова, как сидеть, мерзнуть, болеть, стоять, краснеть, обозначают действия предметов. Подобное явление можно наблюдать и при изучении имен существительных. Некоторые дети оказываются в плену житейского понимания «предмет», не могут отвлечься от конкретного лексического значения слова и такие слова, как быстрота, мужество, тишина, крик, шаг, прыжок, зелень, не относят к именам существительным. Для формирования понятия требуется развить у учащихся умение абстрагироваться, отвлекаться от конкретного лексического значения слов и объединять их в одну группу, учитывая общие грамматические признаки, присущие всем словам этой группы (например, все слова, отвечающие на вопросы кто? что?, объединяются в разряд «Имена существительные», общим для всех этих слов является то, что они обозначают предметы, не изменяются по родам, большинство из них изменяется по числам и падежам и т. п.).

Литературы

1. Гозиев. Ё.Ё «Общая психология» 1-2 том Тошкент 2002
2. Русский язык: Учебник для класса общеобразовательных учебных заведений / М. М. Разумовская, С. И. Львова, В. И. Капинос, В. В. Львов; Под ред. М. М. Разумовской, П. А. Леканта. 7-е изд. М., 2003.



TEACHING LISTENING AND SPEAKING THROUGH MUSIC

Усманова Севара Салимжановна,
г.Навоий, СШУИОП №1
учитель английского языка

Annotation: the present article is devoted to teaching pupils with the help of songs. Most of the teachers nowadays use music during their lessons and by using the they improve pupils' listening and speaking skills.

Key words: receptive skill, induction and deduction approach, dialogue and monologue speech

As learning English is becoming more important than ever in Uzbekistan and is used for different purposes, it is necessary to engage learners in the process of language learning via effective and engaging methods. Teachers are in constant search for essential activities that allow learners to improve their learning abilities of a foreign language. Through innovative technologies, interactive and communicative methods language teachers can create the right climate for language learning. Currently, in higher education, teachers use music, songs, comics, sound films, stories, fairy tales, language games, cartoons and movies to make the teaching-learning process more interesting. According to Girard, D. & Trim, J. L. M. «...teachers sometimes use these when the theme or lesson is difficult and to keep students motivated to continue learning foreign languages. Playing different language games, listening to music, singing songs, watching various education related films or cartoons can help learners understand target (nonnative) language. Inclusion of a wide range of activities is connected with students» multiple intelligences as well. First founded by Howard Gardner, the theory of multiple intelligences proved to be considered by teachers while developing curricula and material designers to address most of the intelligences for achieving effective teaching-learning environment. The purpose of this book is to reveal how songs can stimulate students with multiple intelligences to learn new vocabulary. It is probably safe to say that almost everyone loves music. While not everyone appreciates the same kind of music, some like classical, while others love hard rock, jazz. Students especially enjoy listening to, discussing, and sharing their favorite music with each other. Thus, for ESP teachers who may want to «live up» their classes, we would like to suggest that they offer their students a «music presentation day» in which they allow their students to showcase their favorite songs/singers/bands. As Thornbury S mentioned music, songs and sounds influence people's state and mood. They evoke emotions, encourage, cure and teach. Today, we know that music and songs are used for pedagogical purposes as well. Many teachers include songs in their lesson plans to explain grammar rules, new vocabulary or concepts in a more interesting and creative way. Songs provide examples of authentic, memorable and rhythmic language. They can be motivating for students keen to repeatedly listen to and imitate their musical heroes. However, incorrectly pronounced sounds strain communication, sometimes even changing a phrase's meaning. Songs are authentic and easily accessible examples of spoken English. The rhymes in songs provide listeners with repetition of similar sounds. Students often choose to listen to songs time and again, indirectly exposing them to these sounds. Here we are going to give some activities using songs during the lesson.

Activity 1

We can choose six words from a song from which minimal pairs can be created by.

- heaven — even
- hunger — anger
- man — mad

(From «Imagine» by John Lennon)

We write the pairs separately on cards and give out one set per group of four or five students. The students then match the pairs. They then listen to the song and «grab» the correct one. Choices are then checked against the lyrics.

Activity 2

We give out the lyrics, with certain words for students to guess the number of syllables, leaving a space by each word to write the number in. Students then listen, checking their predictions. At higher levels, we repeat the activity, with students underlining the stressed syllable whilst



listening. We then drill these words and sing or chant the whole song through. Here using songs is to focus on connected speech. Connected speech is the natural way we speak, linking together and emphasizing certain words, rather than each word standing alone. Contractions (two words forming one) are an extreme example of the way we connect speech, to the extent that the written form too is affected. Songs, and especially the chorus, provide real and “catchy” examples of how completely phrases are pronounced often to the extent that students find it difficult to pick out individual words. Songs, like other spoken texts, are full of contractions. Students can be keen to reproduce this, in order to sing the song as they hear it. In this article, we use the following songs. These songs can ease the process of learning the body parts in the English language. As an English teacher, I use them in the classroom and find them to be effective in creating a relaxing atmosphere and entertaining learning process, and eliminating students’ negative attitude towards foreign language learning. Thus, singing songs, even simple nursery rhymes, is useful in teaching English and providing systematic and active learning even to adults. Finally, for any teachers who may be wondering if using any of the ideas we have presented here will really work for a class they are teaching, we encourage you to simply play a song or two in your class and see how your students react. We believe that teachers who have not used music in their classes previously will quickly discover that songs are a great way for teachers and students to “bond” together, and enjoy the time we have together.

References:

1. Girard, D. & Trim, J. L. M., (Eds.) (1988) Project no 12. Learning and teaching modern languages for communication. Final report of the project group (activities 1982–87), Strasbourg: Council of Europe.
2. Griffiee, D. T., (1995) Songs in action, Hertfordshire: Phoenix.



ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION VA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

Sobirova Dildora Bekturdi qizi

Xorazm viloyati Bog'ot tumani 21-son
maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Jumaboyeva Munisxon Sheripboy qizi

Xorazm viloyati Bog'ot tumani 21-son
maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: mazkur maqolada ona tili darslarida o'quvchilar bilan ishlashda interfaol hamda innovatsion metodlarning ahamiyati haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Modulli talim texnologiyasi, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, muammoli ta'lim texnologiyasi, Interfaol metod texnologiyasi, didaktik o'yinlar texnologiyasi, sinov darslari.

Buyuk islohotlar amalga oshirilayotgan sharoitda ijodiy fikrlovchi yoshlarga bo'lgan talab davr taqozosidir. Chunki shaxsiy dunyoqarashga ega bo'lgan insonlargina jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi muvaffaqiyatlarga erishishga qodir bo'ladilar. Respublikada olib borilayotgan davlat siyosatining bosh omillaridan biri ham ijodiy fikrlovchi, keng dunyoqarashga ega, iqtidorli shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalashdir. Bularni amalga oshirishda o'qituvchining darslar va sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida interfaol metodlardan unumli foydalana olishi ham muhim o'rin tutadi. Interfaol metodlardan amalda foydalanishda quyidagi asosiy xulosalarini hisobga olish lozim:

- o'quvchi o'zi o'rganishi kerak, aks holda unga hech kim hech narsani o'rgata olmaydi;
- o'qituvchi o'quvchilarga bilimlarni «kashf qilishga» yordam beradigan jarayonni tashkil qiladi ya'ni yapon xalq maqoli misolida olsak, o'qituvchi baliq tutib bermaydi, balki unga baliq tutishni o'rgatadi;
- bilim borliqdan ko'chirilgan nusxa emas, uni odam shakllantiradi kabilar.

Shuningdek o'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi.

Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchini faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari izlab topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Yangi pedagogik texnologiyalarga bag'ishlangan adabiyotlar va maqolalarda bir qator oqitish usullari haqida soz yuritilmoqda. Bu usullar innovatsion metodlar sifatida taqdim etilmoqda. Shulardan ona tili darslarida bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashda foydalanish mumkin bo'lgan ayrim metodlar xususida so'z yuritamiz.

1. Modulli talim texnologiyasi. Bu o'quvchilarda darslik, ilmiy-ommabop va qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalari, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsadida o'tkaziladi. Modulli ta'lim texnologiyasining o'ziga xos jihati o'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlariga imkon beradigan modulli dastur tuzishdir.

2. Hamkorlikda oqitish texnologiyasi, uning asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini va faqat birgalikda bajarish emas, balki o'quvchilarni hamkorlikda o'qishga orgatadi, ular o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam va fikr almashinishi vujudga keltirish.

3. Muammoli ta'lim texnologiyasi. Muammoli vaziyat yaratish, savollar qo'yish, masalalar



va topshiriqlarni taklif qilish, muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan muhokamani uyushtirish va xulosalar to'g'riligini tasdiqlashdir.

4. O'quvchilarning ijodkorligiga tayanish, darsda erkin bahs-munozara sharoitini tug'dirish. Buning uchun sinf kichik guruhlariga bo'linadi va dars davomida shu guruhlar bilan ishlanadi.

5. Didaktik o'yinlar texnologiyasi. Dars jarayonida turli didaktik o'yinlarni qo'llash va ular orqali darsda jonlanish, faol harakat va qiziqish uyg'otish.

6. Sinov darslari. Yangi pedagogik texnologiya asosida dars o'tish shakllari va usullarini o'zgartirib, ularni xilma-xil qilib, oqituvchi oquvchini o'quv jarayonining faol qatnashchisiga aylantiradi.

O'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati bu darsni interfaol darsga aylantiradi. O'qitishning yangi interfaol shakllari – ta'lim-tarbiya masalalarini unumli yechishga, o'quvchilarning bilish faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan o'quv mashg'ulotlarini takomillashtirish yo'llaridan biri.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi 4947-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida”gi № 187-sonli Qarori.



ROLE OF ICT IN THE IMPROVEMENT OF LEARNING ENGLISH LANGUAGE

Isroilova Shaxnoza Islambayevna,
English teacher of the Department
Uzbek Language and Social Sciences
of the Uzbekistan State Conservatory

Annotation: This article focuses on the role of English language in our life and how we can enhance the process of learning. The creation of innovative technologies is the main factor for people who aimed to learn English language at any sphere, especially education. This serves as a major factor for learners to master their knowledge.

Аннотация: Это статья посвящена роли английского языка в нашей жизни и тому, как мы можем улучшить процесс обучения. Создание инновационных технологий является основным фактором для людей, которые стремились изучать английский язык в любой сфере, особенно в сфере образования. Это в свою очередь, служит основным фактором для учащихся овладеть своими знаниями.

Key words: innovative technologies , computer software , Moodle, communication, ICT (Information and Communication Technology), globalization, explosion, field, health, entertainment, industries, economics, agriculture, training, GNH (General Public License), classroom, tools, stimulus, hesitations, inhibitions, collaborate, multi-media.

Ключевые слова: инновационные технологии, компьютерное программное обеспечение, Moodle, коммуникация, ИКТ (информационные и коммуникационные технологии), глобализация, взрыв, поле, здоровье, развлечения, отрасли, экономика, сельское хозяйство, обучение, GNH (GeneralPublicLicense), классная комната, инструменты, стимул, колебания, запреты, сотрудничества, мультимедиа.

In our rapidly changing world English language is considered to be a global language. English is one of the most important language which has played role in the process of globalization and knowledge explosion. It is the most common means of communication throughout the globe. Thus, people nowadays increase the action of learning English effectively and as quick as possible. In that case ICT can help them with its versatile capabilities. Now ICT is being used in a number of fields such as: health, entertainment, sport, transportation, agriculture, economics, industries and education. With a single click we can get exchange a lot of information of the world due to the use of ICT. The field of education is not untouched by the ICT. Now we can not imagine education without use of Information and Communication Technology. With the help of ICT a lot of persons can get education and training simultaneously at low cost. One of the striking example here is MOODLE software. Moodle is the world's open source learning platform. It is provided freely as open source software under the GNH General Public License. Anyone can adapt, and benefit from the cost-efficiencies, flexibility and other advantages of using Moodle. The software allows educators of any kind, to create a private space online, filled with tools that easily create courses and activities, all optimized for collaborate learning. Furthermore, you can get any information about some subject and home assignments instead of do not participating lessons. It provides straight teaching and learning process of learning English language with teacher and students. Moodle is continually being reviewed and improved on to suit the current and evolving needs of its users.

I should mention is that, in earlier times the teacher was the focal point of education but now, the role of teachers has changed a lot. He is considered as a guide and friend of students who helps in learning, does not provide knowledge. So, with the help of ICT both teachers and students can achieve their goals immediately. Moreover using the ICT in the classroom as a tool for language learning has lot more benefit. It gives stimulus to undertake the tasks that the students may otherwise avoid. In an ICT enabled language learning class, the students would conduct the activities on computer software platform and they will not have any sorts of hesitations or inhibitions. It would make repetitive tasks more interesting and would have content which could be in multi-media formats. It is obvious that, the more interest increases to learn, the better can learn the language. So, the use of multi-media while learning English could help in creating a long lasting impact on the learners.

The list of used literature:

1. <http://www.sites.google.com>
2. Merriam-Webster dictionary.



O'QUV-TARBIYA JARAYONIDA KICHIK YOSHDAGI O'QUVCHILARDA AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI

Saidova Shahnoza Baxtiyarovna.

Karimova Nilufar

Urganch shahar 5 - son maktab

Ma'lumki, maktab bu – ta'lim-tarbiya o'chog'idir. Ammo, tarbiyaviy vazifalar asosan odobnoma darslari yoki darsdan tashqari sharoitlarga mo'ljallab amalga oshiriladi, to'g'ri, bu pedagogik shart-sharoitlar, tarbiya vositalari muhim ahamiyatga ega ekanligini bildiruvchi jarayonlardir. Vaholanki, tarbiyaning maqsad va vazifalarini hal etishda asosiy tashkiliy shakl – bu arsdur. O'quvchilarni tarbiyalash vazifalarini faqat odobnoma darslarida emas, har qanday fanni o'tish jarayonida amalga oshirish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, ta'lim va tarbiya bu yaxlit, bir butun pedagogik jarayondir. Boshlang'ich sinflarda barcha fanlarni o'qitishda didaktik maqsadlar bilan bir qatorda o'qituvchi tarbiyaviy maqsadini ham aniq belgilab olishi va ularni hal etishi lozim. Masalan, matematika - aqliy tarbiyaning, o'qish, ona tili - axloqiy tarbiyaning, tabiatshunoslik – ekologik tarbiyaning, mehnat - iqtisodiy va mehnat tarbiyasining, musiqa - estetik tarbiyaning, tasviriy san'at - badiiy tarbiyaning asosiy vositalari bo'lsada, boshqa tarbiyalar bilan ham yaqin aloqador bo'lib, bir-birlarini to'ldiradilar. Amaliyotda ko'pchilik boshlang'ich sinf o'qituvchilari nafaqat tarbiyaviy, hattoki ta'limiy maqsadlarni ham oldindan aniq belgilab olmaydilar. Ularning dars-reja ishlanmalarida tarbiyaviy maqsadlar qo'yilmaydigan xollari ham uchrab turadi. Ular belgilab olingan taqdirda ham umumiy harakterga ega bo'ladi. Masalan, darsning tarbiyaviy maqsadi «o'quvchilarni axloqiy tarbiyalash», «ekologik tarbiya berish» kabi umumiy tushunchalar bilan cheklanadi. Bir soatlik dars davomida butun bir ekologik tarbiya maqsadiga erishish mumkin emasligini har qanday pedagog tushunadi. Demak, tarbiya maqsadi aniq qo'yilishi, u darsning o'quv materialini mazmunidan kelib chiqib oldindan aniq belgilanishi lozim. Tarbiya maqsadi dars jarayonida qanchalik aniq bo'lsa, unga erishish yo'llarini tanlash ham ancha qulay bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi suhbat, hikoya, namuna, yaltirish, topshiriq, mashq, rag'batlantirish kabi tarbiya usullaridan foydalanishi mumkin. Masalan, «Sen ham o'rto'g'inga yoki ukanga sumkangdan, qo'lingdagi shirinliklardan berasanmi yoki bermaysanmi?», degan savol bilan murojat qilib, o'qituvchi ayrim o'quvchilardan aniq javob olishi, ayrimlarini uyaltirishi mumkin. Matematika darslarining turli xarakterdagi o'quv materiallari mazmunidan kelib chiqib axloqiy tarbiya vazifalarini bajarish imkoniyatlari mavjud. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi matematika darslari, o'quv materiallari bilan yaqindan tanishgan holda ularning tarbiyaviy xarakterini aniq belgilab olishi va axloqiy tarbiyaning samarali usullarini to'g'ri tanlashi lozim. Biz pedagogik faoliyatimiz davomida har bir boshlang'ich matematika darsining axloqiy tarbiya maqsadi va vazifalari aniq belgilab olib, tarbiya usullaridan unumli foydalandik. Ma'lumki, o'qish, ona tili darslari o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra kuchli axloqiy tarbiya vositalaridan sanaladi. Ushbu fanlar dars mavzulari, Vatanni madh etuvchi, do'stlik, to'g'rilik, halollik, jasurlik, mardlik, ezgulik singari g'oyalarni ilgari suruvchi o'quv materiallariga boydir. Undagi ertak, doston, hikoya, rivoyat, maqol, topshiriq, she'r, badiiy asar materiallari, matnlarda kishining insoniy fazilatlarini yuksaklarga ko'tarilib, salbiy fazilatlar esa qoralanadi. O'qituvchi bolalarning badiiy qahromonlar ijobiy fazilatlaridan namuna olishlari, salbiy fazilatlaridan esa nafratlanishlari, ularni qarashlarini chuqur tushunib yetishlari uchun barcha milliy tarbiya usullaridan foydalanishi kerak. Tabiatshunoslik darslari ham kichik yoshdagi o'quvchilarda axloqiy tushuncha asoslari, go'zal xulq-atvor elementlari, axloqiy-estetik did va boshqa ijobiy fazilatlarini tarkib toptirish imkoniyatlariga ega. Albatta, buning uchun o'qituvchi axloqiy tarbiyaning vosita va usullaridan unumli foydalanishi zarur bo'ladi. Jumladan, ijtimoiy ongini, hulq-atvorni, o'z-o'zini tarbiyalash va rag'batlantirish usullari bunda yuqori samara beradi. Mehnat darslarida axloqiy tarbiyaning nafaqat suhbat, tushintirish, balki namuna, mashq, topshiriq, maqtash, o'rgatish, odatlantirish, musobaqa kabi usullari yuqori natijalar beradi. Natijada o'quvchilarda mehnatsevarlik, mehnatga ongli va axloqiy munosabat, intizomlilik, mehnatdan qoniqish hosil qilish, mehnat kishisi va u yaratgan mahsulotlarga hurmat kabilar shakllanadi. Musiqa va tasviriy san'at darslari o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashda juda kata ahamiyatga ega. Zero, turli mavzulardagi kuy va qo'shiqlar, tasviriy janr asarlari o'quvchilarda tabiatga, vatanga, millatiga, boshqa kishilarga, mehnatga nisbatan ahloqiy-estetik munosabatlar, tushunchalarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Odobnoma darslari o'z



mavqeidan kelib chiqib, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga xizmat qiladi. Bunda o'qituvchining mahorati, axloqiy tarbiya metodlaridan ustakarona foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Uzoq va boy tarixga ega bo'lgan xalqimiz ta'lim-tarbiya bobida ulkan me'ros yaratib, takomillashtirib, yuzlab avlodlarni insonparvarlik, ma'rifatparvarlik, oqibatlilik, odoblilik, mehnatsevarlik, mardlik kabi umuminsoniy qadriyatlar va fazilatlar ruhida tarbiyalab kelgan. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodining turli janrlarida yaratilgan boy pedagogik me'rosni o'rganish va yosh avlodlarimiz ongiga singdirish vaqti yetdi.

Abu

Ali Ibn Sino jamoadan, jamiyatdan ajralib, tarbiya topgan bolaning baxtsiz bo'lib qolishini ta'kidlaydi. Inson oilada dunyoga kelgani bilan jamiyatga aloqadordir. Farobiy fikricha, insonning va jamiyatning g'alabaga erishuvi, yaxshilikni qo'lga kiritishi, axloqiy va aqliy mukammallikka erishuvi inson va jamoaning o'z qo'lidadir. Tarbiyaviy soatlarni yaxshi uyushtirish orqali yuqorida ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish mumkin. Bunday darslarning ta'sirli, sifatli bo'lishi o'qituvchining har taraflama puxta tayyorgarligiga bog'liq. Aksincha, rejasiz o'tkaziladigan mashg'ulotlar o'quvchilarning u yoki bu sohaga bo'lgan qiziqishlarini so'ndiradi va zaiflashishiga olib keladi. Bunday muhim talablardan yana biri mashg'ulotlarning o'quvchilarning yoshiga, individual xususiyatlariga va bilim darajalariga mos bo'lishidir. «Odobnoma» darslaridan namunalar keltiramiz Mavzu: «Salomlashish odobi» Dars O'zbekiston madhiyasi bilan boshlanadi.

O'quvchilar bilan siyosiy savol-javoblarni o'tkaziladi

- O'zbekiston qachon mustaqil bo'ldi?
- Madhiya, gerb, bayroqni ta'riflab bering.
- Vatan haqida she'rlar ayting.
- Konstitutsiya qachon qabul qilingan?
- Konstitutsiya moddalaridan ayting.

Yangi mavzu asosida ma'ruza o'qiladi.

Salomlashib yurish – har insonga qarz ham farz. Salom berish – islom dinida ham sunnat hisoblanadi. «Assalomu alaykum» so'zi arabcha so'zdan olingan bo'lib, «Men sizga tinchlik, sog'lik-salomatlik tilayman» degan ma'noni bildiradi. Bu so'zni to'g'ri ayta olish, to'g'ri talaffuz qilish zarur. Kichik yoshdagi o'quvchilarga, salom berish odobi haqida tushuncha berish uchun ham, ertaklardan, maqollardan namunalar keltirishimiz mumkin. Salom berish ertaklarda ham yaxshiliklar keltirishini bilamiz. Masalan, «Kenja botir» ertagida Kenja botir yalmog'izga duch keladi!

- Assalomu alaykum onajon deydi.
- Gar saloming bo'lmasa, ikki yamlab bir yutar edim - deydi yalmog'iz.

Yalmog'iz qanday inson ekanligini ham bilamiz. Lekin keyinchalik u Kenja botirga yordam berdi. Salom haqida she'rlar, qo'shiqlar, sahna ko'rinishlar ijro etiladi. O'quvchilar she'rlar va qo'shiqlar aytib, sahna ko'rinishlarida har xil obrazlarni ijro etib o'z qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Dars yakunida salom haqida rivoyatlar, hadislar va maqollar aytadilar. Odobnoma darslarining muntazam ravishda o'qitib borilishi o'quvchilarning odob-axloqi, tarbiyasi, aqlli bo'lib tarbiya olishida katta yordam beradi. Pedagog o'qituvchilar uchun o'quvchilarni tarbiyalash, ularning ongini o'stirish, komil inson qilib etishtirish juda ham katta mas'uliyat yuklaydi. Odobnoma darslari o'quvchilarga turli axloqiy tushunchalarni yoritib beradi va ularga odob-axloqdan chuqur bilim beradi. Kichik yoshdagi o'quvchilar uchun odobnoma darsi juda ham katta ahamiyatga ega. O'quvchilar bu darsga katta qiziqish bilan intiladilar, uni chuqur o'rganadilar. Xulosa shuki, yosh avlodni ma'naviy barkamollik, go'zal axloq-odob, mehr-shavqat ruhida tarbiyalash borasida Hadislarning tutgan o'rni beqiyosdir. O'qituvchi yana bir bor mavzuning mazmun-mohiyatini o'quvchilarga tushuntirib o'tadi. Darsni mustahkamlash maqsadida o'rta mavzuga oid turli savollar tashlashi mumkin. Nihoyat, o'quvchilarga hadislarini mustaqil o'qishni tavsiya qiladi.



TARBIYA JARAYONIDA O'QUVCHI SHAXSINI RIVOJLANTIRISH

Samandarova Munajat Qahramon qizi

Urganch tumani 19- maktab o'qituvchisi

Zamonaviy maktab oldiga o'quvchilar shaxsini, ularning tabiiy salohiyati, qiziqishlari, iqtidori asosida, tarixiy-madaniy qadriyatlar, ilm-fan, texnikaning zamonaviy yutuqlaridan foydalangan holda, rivojlantirish vazifasi qo'yilmoqda. Bu vazifani bajarish esa barcha pedagoglarga katta mas'uliyat yuklaydi. Tarbiya jarayonini takomillashtirish, samaradorligini oshirish, uni o'quvchi shaxsiga yo'naltirish orqali amalga oshirilishi lozimligi pedagogik amaliyotda o'z isbotini topmoqda. O'quvchi shaxsini rivojlanti-rishga yo'naltirilgan ta'lim modelining markazida o'quvchi turadi. Har bir qadam, har bir maqsad o'quvchining ehtiyojlaridan kelib chiqib belgilanadi. O'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim modelida pedagog o'quvchilarning ehtiyojlarini o'rganadi va ularning har biri o'zi istagan mashg'uloti bilan shug'ullanishi uchun sharoit yaratadi va shu jarayonda o'rganishni ham tashkil qiladi. Bu ta'lim texnologiyasida har bir o'quvchini tushunish, uning individualligini hurmat qilish, unga ishonish, mustaqil fikrini tinglash katta ahamiyatga ega. O'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchining shaxsiy imkoniyatlariga moslashtirilgan pedagogik muhitda tarbiya jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Bunda o'quvchining tarbiyalanishi, o'z faolligini, salohiyatini namoyon etishi uchun muvofiq muhitni yaratish talab etiladi. O'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limni tarbiyaviy tadbirlarda amalga oshirishda o'quvchining qiziqishi, iqtidori, ehtiyoji rivojlanishiga sharoit yaratish, o'quvchi va sinf rahbar o'rtasida ishonch munosabatlarini shakllantirish, ruhiy emotsional hamda jismoniy zo'riqishni bartaraf etish juda muhimdir. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda o'quvchi shaxsini rivojlan-tirishga asoslangan ta'limdan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Jumladan, tarbiyaviy soatlarda o'quvchining buguni va kelajagi haqida o'ylashga, kelajakni tasavvur qilish va rejalashtirishga chorlovchi “Hayot chizig'i” mashqini milliy g'oya darslarida qo'llash mumkin. Bunda o'quvchiga mashqni bajarish tartibini tushuntirishda flipchartga ayri-ga o'xshash sxemani chizib, o'z Vatanini misol keltirishi, o'tmishdagi hayoti, hozirgi kuni va kelajagi (istakdagi kelajak hamda ehtimoldagi kelajak) haqida rasmlar va so'z orqali gapirib berishi mumkin. Shundan keyin o'quvchilarga topshiriq beriladi. Ushbu metod o'quvchilarda tarixiy xotira, o'zlikni anglash, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirishga yordam beradi:

- tahliliy va tizimli fikrlash;
- muqobillikni baholash;
- o'tkazilgan tahlil natijalarni taqdimot qilish;
- qarorlar qabul qilishi bilan bog'liq keyingi hodisalarni baholash;
- jamoada ishlash va muloqot malakalarini rivojlantirish.

Tarbiyaviy soatlarda o'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasidagi “Oltita shlyapa” metodidan foydalanish tarbiyaviy soatlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Oltita shlyapa metodini juftliklarda va kichik guruhlarda ishlash jarayonini tahlil qilishda, vaqtni tejash uchun qo'llash mumkin. Tarbiyaviy faoliyatda undan har qanday jarayonni tartibga solish, mantiqni emotsiyadan ajratib, yangi betakror g'oyalar yaratish uchun foydalanish mumkin. Bunda sinf rahbar olti xil rangdagi kichik qog'ozchalardan ishtirokchilar soniga mos ravishda shlyapachalar yasaydi. Bu shlyapachalar tarbiyaviy soatlar boshida kichik guruhlariga bo'lish uchun qo'llanishi mumkin. Mashg'ulot yakunida har bir guruhga o'z rangidagi boshga kiyish mumkin bo'lgan qog'oz shlyapalar taqdim etiladi va muhokama olib boriladi. Oq shlyapa: tarbiyaviy soatda olingan ma'lumot va axborotlar, mavjud bo'lgan savollar, mavzuga doir sodir bo'lgan hayotiy voqea-hodisalar o'quvchilar tomonidan xolis bayon etiladi. O'quvchilar quyidagi savollarga javob berishlari lozim: Qanday axborotga egamiz? Yana qanday axborot zarur? Qizil shlyapa: tarbiyaviy soatda vujudga kelgan his-tuyg'ular haqida fikr-mulohozalar taqdim etiladi. Shu bilan bir qatorda ularni asoslash talab etilmaydi. Tarbiya jarayonida o'quvchilar muxokama qilayotgan muammo yuzasidan qanday hissiyotlar vujudga keldi? Qora shlyapa: tarbiya jarayonidagi mavjud bo'ladigan salbiy holatlar, ehtiyotkorlik choralari ko'rib chiqiladi va ushbu savollarga javoblar topiladi. Kamchiliklar nimalardan iborat? Qanday xatolarga yo'l qo'yildi? Sariq shlyapa: tarbiyaviy soatda qanday yutuqlarga erishildi, uning afzalliklari, bu borada chiqarilgan ijobiy xulosalar chiqarilib, ushbu savollarga javob beriladi. Nima uchun bunday qilish ma'qul? Afzalliklari qanday? Nima



uchun bu amalga oshadi? Zangori shlyapa: o'quvchilardagi turli g'oyalar, takliflar, o'rganilayotgan muammo yuzasidan ijodkorligi namoyon etiladi. Muammo echimining turli variantlari? Qanday muqobillari mavjud? Tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish yo'llari muhokama qilinadi. Ko'k shlyapa: o'quvchilar berilgan mulohazalar haqida muloxaza beradilar va qaror qabul qiladilar. Nimaga erishdik? Keyin nima qilish kerak? kabi savollarga javob beradilar.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib, ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan tarbiyaviy soatlar va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning aniq maqsad asosida, o'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasidan foydalangan holda tashkil etish o'quvchilarni komil inson bo'lib shakllanishiga yordam beradi.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 7-ҚИСМ

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000